

6-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

1-mavzu. TIL VA NUTQ

?

Savol va topshiriqlar

1. Til deb nimaga aytiladi?
2. Nutq haqida bilganlaringizni gapirib bering.
3. O‘zbek tili nima uchun bizga ona tili sanaladi? Shu haqda bahs yuriting.

1-mashq. Matnni o‘qing. Dunyodagi tillar va ular orasida o‘zbek tilining tutgan o‘rni haqida bahs yuriting.

Alisherning qalbiga kirmoqchiday, tikilib qarardi tog‘asi.- Fors shoirlari yuksak tuyg‘ular, teran fikrlar ila to‘la ajib she‘rlar yaratmishlar. Bizning turkigo‘y shoirlar ham ularga ergashib, forsiy she‘rlar ijod qilishni odat qilib olmishlar. Turkiston o‘lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog‘lari buyuk, aholisi turk-o‘zbekdur. O‘zimizga xos odatlarimiz, an‘analalarimiz, qo‘shiqlarimiz, kuylarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular - cheksiz boyligimiz. Ayniqsa, tilimiz go‘zal, shirin va rangli. Jiyan, o‘z yo‘lingni topsang bas! (Oybek)

2-mashq. Matnni o‘qing. Til va uning inson hayotida tutgan o‘rni haqida suhbatlashing.

Kishi uchun juda kerakli bo‘lgan ikki a‘zo bor: biri til, boshqasi yurak. Til so‘z uchun, yurak, ko‘ngil esa shu so‘zdan lazzatlanish uchun berilgan. Shu tufayli tilni to‘g‘ri, rost so‘zni so‘zlash uchun tebratmoq, ya‘ni harakatlantirmoq kerak. Egri, yaroqsiz so‘zlarni tashqariga chiqargandan ko‘ra tilning harakatsiz qolgani ma‘qul. (Yusuf Xos Hojib)

 **3-mashq.** Matnni o‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlarga e‘tibor bering. Ularning tilni boyitishdagi o‘rni haqida gapiring. Nutq haqidagi tushunchalaringizni bayon qiling.

Bir kuni otam: «Zov ostiga ikki polvon tushib ketdi»,-deganini ham eshitganman. Polvon degani-ayiq degani. Bitta cho‘pon: «Arg‘amchisi bor ekan, ko‘p chirilladi»,-degandi. Arg‘amchi-ilon degani. Nima uchundir tog‘da ko‘p hayvonlarni, jonivorlarni o‘z nomlari bilan atashmaydi. Masalan, bo‘rini ham jondor deyishadi. Xullas, zov boshiga borishimni taqiqlab qo‘yishgandi uydagilar. (Sh.Xolmirzayev)

Φ **4-mashq.** Chustiyning «Tilingdan» she‘ridan olingan parchani o‘qing. Ona tili haqida yodlagan she‘rlaringizdan yod ayting, ularda ilgari surilgan g‘oyalar haqida fikrlashing.

Yozdi Navoiy maqtab qancha asar tilingdan,
Halvochi qildi halvo balkim shakar tilingdan.
O‘zbek qizi chamanda so‘zla, yoqimli so‘zla,
Bulbul saboqlar olsin, ming-ming sahar tilingdan.
Lutfiy, Atoiy, Mashrab, Munis, Muqimiy, Furqat,
Topdi o‘z e‘tiborin shu mo‘tabar tilingdan.
Shunday shirin tiling bor, ochsa labing daxanin,
Qilg‘ay asal xaridin jumla bashar tilingdan....

5-mashq. Gaplarni ko‘chiring. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning olamshumul ahamiyati haqida bahs uyushtiring.

Tilimiz boy. Har qanday ma’no ifodasiga bir necha so‘z topishadi. Faqat bu so‘zlarni topish va dadil devon tiliga kiritish kerak....

Til haqidagi qonun bizga nima uchun kerak?G‘ururimizni namoyish qilish uchunmi? Izzat-nafsimizni qondirishimiz uchunmi?

Yo‘q! Bizga til haqidagi qonun o‘zligimizni saqlab qolish uchun, tilimizni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun, o‘zbek degan xalqning yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun kerak. (E. Vohidov)

6-mashq. Uyga vazifa. “Qayga bormay boshda do‘ppim, shuhratim, qadrim buyuk...” (E.Vohidov) mavzusida matn tuzing. Unda olg‘a surilgan g‘oya haqida suhbatlashing.

2-mavzu. FONETIKA BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Fonetika nimalar haqida bahs yuritadi?
2. Unli tovushlar deb nimaga aytiladi?
3. Undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
4. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar qanday turlarga bo‘linadi?
5. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar necha xil bo‘ladi?
6. Jarangli undoshlar qaysilar?
7. Jarangsiz undoshlar deb nimaga aytiladi?

7-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Unli tovushlarni ajratib, ularga tavsif bering.

1. Bilim-mehnat bilan, tilak g‘ayrati bilan go‘zal. 2. Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi. 3. Inson ilm-u hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan baland parvoz qiladi. 4. Bilimdonlikning sir-u asrori g‘ayrat hamda matonat bilan o‘qish va o‘rganishdir. 5. Bobolarning ulug‘vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, Sen – baxtiyorsan. (R.Usmonov)

Φ 8-mashq. Matnni o‘qing. Undosh tovushlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Bulbullar bu yerda ko‘p bo‘lar ekan. Goho ularning yoqimli, yangroq tovushlari havoni to‘ldirib yuboradi.

Bulbulni tinglashni sevaman. Kuylari qalbmida allaqanday yoqimli hislarni chayqatib yuboradi....

Bulbulning sayrashini dunyoning eng baland lazzati. Bulbulning maqomlari, kuylari to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz emish.... Bulbul jonivor qushlarning asli....(Oybek)

Lab undoshlari	Til undoshlari				Bo‘g‘iz undoshlari
	Til oldi	Til o‘rta	Til orqa	Chuqur til orqa	

 **9-mashq.** Tez aytishlarni mashq qilib ko'ring. Gaplardagi undosh tovushlarni jarangli va jarangsiz undoshlarga ajrating.

1. Oltin olmay, olqish olgan odam-odam. 2. Oydin oydingda oyisidan oldin bordi. 3. Xumsonlik rassom akam Isomning rasmini oldi. 4. Olma shoxida Olmaxon, Olmaxonni olma, Olimaxon. 5. To'ti tutgan to'rtta to'ti to'lda turibdi.

10-mashq. Tagiga chizilgan so'zlarning nima sababdan buzib aytilayotganini toping. Ularning to'g'ri yozilish qoidalarini tushuntiring.

Yodgor bo'lsa yaqindagina qizamiqdan qutulib olibdi.... Yarim-yorti tishi ham chiqib qolibdi. Chunonchi, «peshona» deb aytolmaydi-da, «peshana» deydi. «R» ni hech ham aytolmaydi. «Boraman», -deb aytgin desam, «boyaman», deydi; «patron», -deb aytgin desam, «patyon», -deydi; «aeroplan»-degin desam, «ayupyan», -deydi. Kulishamiz. (G'afur G'ulom)

11-mashq. Matnni ko'chiring. Undosh tovushlarni topib, ularni portlovchi hamda sirg'aluvchi undoshlarga ajrating.

Shunisi taajjubki, boshqa ish va mashg'ulotlarga qanchalik jon-jahdi bilan yopishib, iloji boricha tez bir yoqlik qilishga oshiqsa, pechak gullarni, ayniqsa, rayhonni, fe'l-atvoriga tamomila zid ravishda, kursiga xotirjam o'tirib olib, erinmay, hafsala va muhabbat bilan parvarishlardir. Sababi aniq: u gullarni yaxshi ko'radi. (Qamchibek Kenja)

12-mashq. Uyga vazifa. «Assalom, maktab!» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatgan tovushlaringizni izohlang.

3-mavzu. IMLO BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Orfografiya nimani o'rgatadi?
2. Unlilar imlosi deganda nimani tushunamiz!
3. Undosh tovushlar imlosi haqida so'zlab bering.
4. Asos va qo'shimchalar imlosi haqida nimalarni bilasiz?
5. Qo'shib va ajratib yoziladigan so'zlarga misollar keltiring.
6. Chiziqli qaysi o'rinlarda ishlatiladi?
7. Bosh harflarning ishlatilish o'rinlari haqida so'zlab bering, so'ngra uni ko'chiring.

13-mashq. Matndagi xato yozilgan so'zlarni topib, ularning aytilishi va yozilishini tushuntiring. So'ngra uni ko'chiring.

Axir, tabiatga qarang-a! Daryo «shovullaydi», jilg'alar «shildirar» oqadi. Shaboda-«g'ir-g'ir». Qushlarning «chug'i-chug'iri» ham jonga rohat. Biz ularni «tilini», «shevasini» tushunmaganimiz boyisidangina buni «Chug'ir-chug'ir» deb ataymiz. Aslida, ularning anashi chug'urida bir dunyo ohangrabo ohang va ma'no bor. (G'. Salomov)

14-mashq. Tagiga chizilgan soʻzlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling, oʻrtadagi farqlarni tushuntiring.

Uquv-idrok kishiga quvonch keltiradi. Bu quvonch uzluksiz boʻlib, oyda ham, -yilda ham tugamaydi. Uquv-idrokning yuz chiroyi goʻzal, yoshi navqiron. U olamdagi barcha ezguliklarga eltuvchi ravon yoʻl. Uquv-idrokning qoʻli yetgan joy boʻstonga aylanadi. Uning istarasi issiq, barchaga manzur boʻladi. Odamzod nasli undan huzur oladi. (Yusuf Xos Hojib)

 **15-mashq.** Quyidagi soʻzlarni daftaringizga koʻchirib yozing. Aytilishi va imlosidagi farqlarni izohlang.

Saxovat, xiyla, mehr-muruvvat, mudofaa, hilpiramoq, xilma-xil, hayotbaxsh, manfaatdorlik, maqtanchoqlik, xususiylashtirish, mutaxassis, mahliyo, moʻtabar, taqsimot, iztirob

16-mashq. “H” va “X” harfi ishtirok etgan soʻzlarga oʻntadan misol toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Φ **17-mashq.** Xato yozilgan soʻzlarni imlo qoidalariga mos ravishda toʻgʻrilang va matnni daftaringizga koʻchiring.

Xar faslni oʻz gashti bor, chunonchi: yozda oʻntadan bittasi tanlap soʻyilgan bosvoldi yoki pirsillaqning mazasi umrbot ogʻzidan ketmaydiganday tuyulsa ham, kuzda qovin paykalini yuz aylanib topilgan anchayin bir xashayni marzaga urib yegan kishi, oʻsha bosvoldiyu, oʻsha pirsillaqni tusamaydi; baxorda jiyda gulini xidlamas boʻlgan oʻtkinchi kuzda uni haqiq marjonday tuzilgan mevasining ogʻirligidan, egilgan, osilip yotkan shohlariga mahliyo boʻladi. (Abdulla Qahhor)

18-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida “Kuz fasli gashti” mavzusida matn tuzing. Uni imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozing.

4-mavzu. QO‘SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Qo‘shimchalar deb nimaga aytiladi?
2. So‘z yasovchi qo‘shimchalarga misollar keltiring.
3. Shaxs yasovchi qo‘shimchalar deb nimaga aytiladi?
4. *Olindi, kelindi, birin-ketin, erkin* so‘zlari tarkibida kelayotgan qo‘shimchalarning nimasi bilan bir-biridan farqlanishini ayting.

19-mashq. Gaplarni o‘qing, qo‘shimchalarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. U ko‘krak kerib maydonga tushishni o‘ta bema‘nilik deb biladi. Kuch mardlikda emas, birlikda. (N.Norqobilov) 2. Chinorga bog‘lab qo‘yilgan Qora Baxmal bezovtalanib, eramiga qarab talpindi. (Said Ahmad) 3. Gullar bog‘iga behisob ziynatlarini sohib, bebaho ne‘matlarini in‘om etib yana go‘zal bahor keldi (Sh.Rashidov) 4. Sodiqlarning fikri ravshanlashib, o‘ylay ketdi. (Shuhrat)

20-mashq. Qavs ichida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring va gaplarni izohlang.

Bu olam (-ga,-da,-ni) men kezma (-kan, -di, -gan) yurt kam qoldi, -deb davom etdi Bobur o‘y (-li, -chan, -siz) ohangda. –Ne-ne go‘zal maskanlarni zabt etmadi (-ng, -m, -si)! Lekin, hech yerda un (-gacha, -dek, -cha) latofat (-siz,-lig‘,-dan) bir viloyatni ko‘rmadim. (H.Sultonov)

21-mashq. Gaplar tarkibidagi xato ishlatilgan qo‘shimchalarni toping, ularni gap mazmuniga mos keladiganiga almashtiring.

Cho‘lu biyobon. Keng, ulug‘li sahrolar ufqqa-ufqdan tutashkan. Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimlik esadi. quyoshni issig‘i kuytirmaydi, erkalaydi. Tiniq, ko‘m-ko‘k osmondan onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi. Yuksak tog‘lar tumanda. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go‘yo sahrolar, tog‘lar kezasiz. Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o‘zgaradi. “Tabiatning siri ma‘nosi chuqur”-deyman ichingda. (Oybek)

Φ 22-mashq. Quyidagi qo‘shimchalarni jadvalga joylashtiring va ularni so‘zlarga qo‘shib gap ichida keltiring.

-ta, -tadan, -tacha, -nchi, -ov, -ovlon, -ala, -ni, -ning, -la, -i, -y, -ar, -im, -ga, -ka, -qa, -dan, -nch, -inch

So‘z yasovchi qo‘shimcha	Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar	Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar

23-mashq. Matnni o'qing, tagiga chizilgan qo'shimchalarga tavsif bering.

Tolibjon o'rnidan turdi-yu, birdan tosh ustidan sakrab Mirvalini quchoqlab oldi. U qadrdonini bag'riga bosarkan, biron og'iz so'z aytishga tili aylanmadi. Shu tobda ham quvonch, ham buyuk bir andisha tilini tanglayiga yopishtirib qo'ygandi. (Said Ahmad)

24-mashq. Uyga vazifa.-oy, -laq, -cha, -choq, -il, -ning, -siz, -gacha, -guncha qo'shimchalarini so'zlarga qo'shib ko'ring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Tursunoy bilan bir sinfda o'qiymiz.

5-mavzu. LEKSIKOLOGIYA BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Meva, daryo, oy so'zlarini turli ma'noda qo'llab gaplar tuzing.
2. Atamalar deb nimaga aytiladi?
3. Shevaga xos so'zlarga misollar keltiring.
4. Eskirgan so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi.
5. O'zbek tiliga nima sababdan boshqa tillardan so'zlar o'zlashgan? Shu haqda o'z fikringizni bildiring.

25-mashq. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni topib, ularni izohlang.

1. Bozor orqali uyga qaytamiz. Bozor qozonday qaynaydi. (Oybek)
2. Soqchi ota-onam borligiga ishonmadi shekilli, gapni aylantiraverdi. (A.Qahhor)
3. Qavm-qarindosh bir dasturxon boshida gurungni quyuq qildik. (N.Normatov)
4. Kemtik oy cho'qqilar orasidan mo'ralaydi. (A.Narziqulov)
5. Osmonda yulduzlar ko'p. Somon yo'li osmonning u tarafidan bu tarafiga kumush soydan oqadi. (K.Qodirov)

26-mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

Akmal aka ikkalamiz qoldik. Chigirtkalarining chirillashini, muallaq turib qanot so'fito'rg'ayning issiqdan vijir-vijir demasa, atrof edi. Akmal aka xurjunga qo'yib birpas cho'zildi. Men o'tiribman. (N.Fozilov)

So'zlar: ko'kda, osmonda, samoda, fazoda; silkitayotgan, qoqayotgan; shikoyat qilib, nolib; sayrashini, chug'urlashini; tinch, jimjit, osuda; boshini, kallasini; qoshida, oldida, yonida.

27-mashq. tuyuqni yodlang. Unda ishlatiladigan shakldosh so'zga izoh bering.

Odob bilan ilm-tirnoq bilan et,
Ilmli bo'lishga joning fido et.
Johillar maqsadga yetmas hech qachon,
Bilimga odobni tugma qilib et.
(A.Abdumalikov)

28-mashq. “Davomini toping!” o‘yinini tashkil qiling. Buning uchun ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh aytgan gapning davomini ikkinchi guruh davom ettiradi va gapda ishlatiladigan zid ma’noli so‘zlarni izohlaydi.

Namuna:

1-guruh: Yaxshining gapi qaymoq

2-guruh: Yomonning gapi to‘qmoq.

29-mashq. Matnni ko‘chiring. Unda ishlatiladigan atamalarning tagiga chizing va izohlang.

Paxtadan sellyuloza ham olinadi. Unga azotil kislota bilan ishlov berilsa, nitrotsellyuloza hosil bo‘ladi. U esa kuchli portlovchi modda piraksimning asosi sanaladi.

Nitrotsellyulozadan foto va kinoplyonkalar, namatsimon matolar, shoyi, linoleum, ebanit ishlab chiqariladi. (Gazetadan)

30-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing. Ular tarkibidagi eskirgan so‘zlarni topib, ma’nosini tushuntiring.

6-mayzu. FE’L SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Fe’llarning grammatik xususiyatlari haqida so‘zlab bering.
2. –ma, emas, yo‘q vositalari yordamida fe’llar yasang.
3. Fe’l nisbatlarini yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?
4. Fe’l mayllari qanday hosil qilinadi.
5. Yugurmoq, ekmoq, qaramoq fe’llarini uch zamon shakllari bilan o‘zgartiring.
6. Harakat nomiga xos belgilar qaysilar?
7. Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarni sanang.
8. Sifatdoshlarga misollar ayting.
9. Sodda, qo‘shma, juft fe’llarga misollar keltiring.

31-mashq. Matnni o‘qing, fe’llarni topib, ularning mayl, nisbat, zamon shakllarini belgilang.

.... Alisher o‘rtog‘ining aytganini eshitmadi shekilli:

-Ov qilmoq, merganlik - ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir.

Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi.

Suhbatning bunday keskin o‘zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog‘i;

-Kim o‘rgatdi senga bu gaplarni?-deb so‘radi Alisherga tik qarab.

-Bilaman-da, otam hamisha: “Olim odam xor bo‘lmaydi”,-deydilar.

(Oybek)

32-mashq. Tagiga chizilgan qo'shimchalarga ta'rif bering. Ularning fe'l shakllarini hosil qilishdagi o'rnini belgilang.

Hayitvoy o'rtog'imnikiga kirmadim. Murodxonlarnikiga qara**b** yur**d**im. Shu o'rtog'im juda yaxshi-da! Lekin siz**l**ab gapir**a**di, men ham siz**l**ayman. Keyin-chi, otalarini "dada" deb chaqir**i**shadi.

Murodxonga.... jon o'rtoq, bedanalar**n**i qo'y**i**b yubor**a**ylik, onalarining oldiga bor**i**shsin, bizni duo qilishadi, deg**a**ndim, darrov rozi bo'lib, uylaridan katta qaychi olib chiq**d**i.

(H.To'xtaboyev)

 **33-mashq.** Matnni ko'chiring. Fe'llarni toping, ularning gapdagi vazifalarini aniqlang.

Aziz rogakani qushchaga to'g'riladi. Yaqinroq bordi. Bir ko'zini qisib, ikkinchi ko'zi bilan nishonni uzoq poyladi. Keyin chap qo'lini o'ziga tortib, toshni qo'yib yubordi. Aziz hozir qush uchib ketadi, deb o'ylagandi, ammo bunday bo'lmadi. Qushcha tap etib yerga tushdi. Aziz avvaliga suyunib ketdi. Lekin, tipirchilab yotgan qushchani ko'rib, bir zum ag'rayib qoldi. Aziz unga juda-juda achindi. U qushchaning pir etib uchib ketishini istardi. Afsuski....

(S.Mardiyev)

34-mashq. Uch guruhga bo'lining. Birinchi guruh otdan, ikkinchi guruh sifat va sondan, uchinchi guruh undov va taqlidiy so'zlardan fe'l yasasin. Misol topolmay qolg'an guruh yutqazadi.

1-guruh: gaplashmoq.

2-guruh: jiddiylashmoq.

3-guruh: jiringlamoq.

❖ **35-mashq.** Fe'llarni tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Sodda fe'llar	Qo'shma fe'llar	Juft fe'llar

Berdi-qo'ydi, sotib olmoq, ekin ekmoq, sotmoq, yuzlanmoq, o'lchamoq, qaltiramoq, irg'ishlamoq, qo'zilamoq, uyqusiramoq, ko'karmoq, burmoq, qo'l urmoq, xatlamoq, kulmoq, javob bermoq, nazar solmoq, olib chiqmoq, aytdi-qo'ydi, sindi-qoldi, berdi-qo'ydi.

36-mashq. Uyga vazifa. Boshqotirman**i** yeching. Undagi fe'llarga izoh bering.



1,2,3,4,5 - rangli, nodir metall nomi

6,7,8,9 - meva nomi

10,11 - hafta boshlanuvchi kunning birinchi bo'g'ini

12 - alifbodagi 14 - harf

13,14 - qizil so'zining ma'nodoshi.

7-mayzu. OT SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Otlarda kelishik qo‘shimchalari qanday ishlatiladi?
2. Otlarda egalik qo‘shimchalari va ularning imlosi haqida so‘zlab bering.
3. Otlar qanday yasaladi?
4. Otlarning ma‘no guruhlariga misollar keltiring.
5. Qo‘shma otlar va ularning imlosi haqida gapiring.
6. Juft otlar va ularning imlosi haqida nima bilasiz?
7. Otlarning birlik va ko‘plikda ishlatilishi to‘g‘risida so‘zlang

37-mashq. Matnni o‘qing. Yasama otlarni aniqlab, ularning yasalishini tushuntiring.

Xalq amaliy san‘atining barcha tarmoqlari: zargarlik, zardo‘zlik, misgarlik, temirchilik, chilangarlik, duradgorlik, toshtaroshlik, kulolchilik, aravasozlik, tegirmonchilik-u juvozlashlik o‘z ravnaqiga ega.

Qishloq xo‘jaligida ham mirishkor-u bog‘bonlar, naslchi chorvadorlaru usta g‘allakorlar mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelganlar.

(X.Sanaqulov)

38-mashq. Matnni o‘qing. U haqda bahs uyushtiring. Otlarning ma‘no guruhlariga diqqat qiling.

Sport-maqсадli harakat, ilmiy asoslangan, sinovlardan o‘tgan harakat. Shu bois u jismni chiniqtiradi, kuch beradi. Ertalabdan kechgacha daladan quti-quti pomidor, bodringni yelkaga ortmoqlab chiqish sport emas, ammo tosh irg‘itish, tosh ko‘tarish-sport, chunki unda qoidali harakat qilinadi.

(Sh.Xo‘janiyozova)

Φ 39-mashq. Matnni ko‘chiring. Otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalarini olish holatlarini izohlang.

Kuchli magnit maydonini hosil qiluvchi televizor, kompyuter, qo‘l telefoni kabi jihozlar bizni har tomondan o‘rab turadi. Vrachlarning aytishicha, bunday buyumlar sog‘ligimizga salbiy ta‘sir etishi mumkin ekan. Himoya ekranlari, kaktuslardan tashqari, har kuni ikki qoshiq asal yeb yurish ham nurlanish ta‘sirini kamaytirarkan.

(Q.Rahimboboyeva)

 **40-mashq.** Matnni o‘qing. Atoqli va turdosh, aniq va mavhum otlarni topib, ularni izohlang.

Behzod Xushboqov asli kuragi yerga tegmagan polvonlari bilan mashhur Surxon elidan. Shu ma‘noda uni Alpomishning avlodi desak, xato bo‘lmaydi.

U O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgan 1991 -yilda tug'ilgan. Taekvondo bo'yicha jahon birinchiligining sovrindori, mamlakatimiz chempioni.

Albatta, sport o'z kelajagini o'ylagan har qanday kishi uchun jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishida muhim omil hisoblanadi, biroq shu bilan birga kelgusida yetuk inson bo'lib voyaga yetish uchun chuqur bilim olish zarurligini Behzod yaxshi biladi.

-Men sportni jon-dilimdan yaxshi ko'raman, lekin o'qishni ham esdan chiqarmayman,- deydi ishonch bilan u.

(D.Hotamova)

41-mashq. «So g'llom tanda sog' aql» mavzusida matn tuzing. Un da q o'llangan otlarning tuzillishiga k o'ra turlarin i aniqlang.

42-mashq. *Uyga vazifa.* Rasm asosida Samarqand, Buxoro, Xivaning shon-shuhrati haqida matn tuzing. Unda ishlatilgan otlarni izohlang.

8-mayzu. SIFAT SO'Z TURKUMI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Asliy va nisbiy sifatlar haqida so'zlab bering
2. Sodda, qo'shma, juft sifatlar misollar keltiring.
3. Rang-tus, maza-ta'm, shakl-ko'rinish, xususiyat bildiruvchi sifatlar misollar ayting.
4. Oddiy, qiyosiy va orrtirma darajalar qanday farqlanadi.

5. Sifatlar otlashganda qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi?
6. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlarga misollar keltiring.

 **43-mashq.** Matnni o‘qing. Asliy va nisbiy sifatlarni aniqlang. Ularning qiyosiy va orttirma darajalarini toping.

Abdulla Qahhorda lo‘nda, juda mazmundor, qisqa jumlar ko‘p. Masalan, «She’r-ma’sum go‘dak, riyoni bilmaydi».... Hech kim bunday lo‘nda, qisqa va chuqur ayta olmagan. Bunday muxtasarlik manbaini, avvalo hayotni chuqur o‘rganish, nozik kuzatuvchanlik, ziyraklikdan qidirish kerak.

(Sh.Shomammedov)

44-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sifatlarning ma’no guruhlarini va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqar. 2. Do‘sti nodondan dushmani ziyrak yaxshi. 3. Qomati baland bo‘lgan har kishining qimmat ham baland emas. 4. Yomon kishilarga hamroh bo‘lsang, qozonga o‘xshab qorasini yuqtiradi. 5. Nodonga pand aytsang, qafasga shamol yuborgan bilan teng bo‘ladi. (Sa’diy hikmatlaridan)

45-mashq. Matnni o‘qing. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini va darajalarini aniqlang.

Onam menga qizil, oq yo‘lli matodan uzungina, kengina yangi ko‘ylak kiydiradi. Biz buvimning (ona tomondan) uyiga ketamiz. Bu juda yaqin.

Sobir baqqolning do‘koniga bir zum ag‘rayaman: eski, pachoq qo‘l tarozisini o‘ynagim keladi. Keyin pastak kursichada mudrab o‘tirgan yum-yumaloq, sep-semiz Ushyoz qassobga ham qarab qo‘yaman.

Tanish eshikka hammadan ilgari yuguraman-da, to‘ppa-to‘g‘ri do‘konxonaga kiraman.... Bobom-yumaloq boshli, keng yuzli, toza, chol-qalin lablarini jo‘rttaga qabartirib: Bo‘b-bo‘b-bo‘b.... Aylanay shirintoydan,-deydi.

(Oybek)

Φ 46-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sifatlarning darajasini va gapdagi vazifasini toping.

1. Shomga yaqin qishloq bo‘ylab bolalarning yangroq ovozi jarangladi. (A.Ko‘chimov).
2. Ota-bobolarimiz, momolarimiz mehnatkash, toza qalbli, odobli, e‘tiqodli, mehr-muruvvatli, saxovatli insonlar bo‘lishgan. Bizning tomirlarimizda ularning pok qoni bor. (D.Mahmudova).
3. Katta tog‘amning ust-boshi ozoda, boshida hamisha yangi do‘ppi, belida qo‘sh shohi belbog‘-oliftanamo yigit. (Oybek). 4. Vatanimiz xalqlarining do‘stligi bizlarning bebaho ne‘matimizdir. (E.Vohidov) 5. Kechagina yog‘ib o‘tgan yomg‘irda namiqqan o‘tloqdan yoqimli hid ko‘tariladi. (H.To‘rayeva).

47-mashq. Uyga vazifa. Matnni davom ettiring. Tagiga chizilgan sifatlarga tavsif bering.

Qish kirdi. Kunlar sovidi. Atrof oppoq qorga burkandi. Uylarning mo‘rilaridan pag‘a-pag‘a tutunlar chiqa boshladi. Daraxtlarning so‘nggi yaproqlari qishning ilk izg‘irinidayoq to‘kildi.

(D.Mahmudov)

9-mayzu. SON SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. –ta,-tadan,-tacha,-lab,-larcha qo‘shimchalari yordamida sonlar hosil qiling va ularni izohlang.
2. –ov,-ovlon,-ala qo‘shimchaarini ikki, olti, yetti sonlariga qo‘shing, o‘zakda sodir bo‘layotgan o‘zgarishni aniqlang.
3. Sonlarga egalik va kelishik qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘ring.
4. Sodda, qo‘shma va juft sonlarga misollar ayting.
5. Sonlarning imlosi haqida so‘zlang.
6. Hisob so‘zlarga ta’rif bering.

48-mashq. Matnni o‘qing, sonlarning ishlatilishi va imlosiga diqqat qiling.

Tverlik rus savdogari Afanasiy Nikitin 1466-1472 -yillarda Eron va Hindistonga sayohat qilgan. U o‘z taassurotlarini yozib borgan. Keyinchalik uning xotiralari «Uch dengiz osha sayohat» nomi bilan nashr etildi.

Portugaliyalik Vasko-de Gama esa XV asrda, aniqrog‘i 1498 -yilda Afrikani aylanib o‘tib, Hindistonga boradigan dengiz yo‘lini ochdi.

(P.Musayev)

Φ 49-mashq. Matnni ko‘chiring. Sonlarning ma’no turlarini aniqlang.

Ispaniyalik Fernando Magellan 1519 -yilning sentabridan 1522 -yilning sentabrigacha yer kurrasini aylanib chiqdi va yerning shar shaklida ekanligini birinchi bo‘lib isbot qildi.

Ekspeditsiya 265 kishidan iborat bo‘lgan beshta kemada yo‘lga chiqqan edi. Safar paytida ikki yuzdan ortiq odam halok bo‘ldi. Magellan ham Filippin orollarida mahalliy qabilalarning janjallariga aralashib, to‘qnashuvlardan birida jon taslim qildi. Ispaniyaga sayyohlarning o‘n sakkiztasigina qaytib keldi.

(R.Qurbonniyozov)

50-mashq. Savollarga javob yozing. Sonlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini va gapdagi vazifalarini aniqlang.

1. Geografiya atamasi birinchi marta qachon va kim tomonidan qo‘llanilgan?
2. Globusni birinchi bo‘lib kim ixtiro qilgan?
3. Amerika qit‘asini birinchi bo‘lib kim va qaysi asrda kashf qilgan?
4. Himolay tog‘laridagi Jomolungma cho‘qqisining balandligi necha metrdan iborat?
5. O‘zbekiston Respublikasi qachon o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan?
6. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i, Gerbi va Madhiyasi qaysi sanalarda qabul qilingan?



51-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarning ma’no turlarini aniqlang.

Al-Xorazmiy 873--yilda Xorazmda tavallud topgan. U algebra va geometriya, geografiya kabi fanlarning rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Al-Xorazmiyning “Al-jabr” kitobi uch bo‘limdan iborat. Unda oltmishdan ortiq murakkab masalalarni tenglama yordamida yechish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Asar 1145--yili R.Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. “Al-jabr” so‘zi “algebra”, al-Xorazmiy esa “algoritm” deb atalgan. Bu atamalarning birinchisi algebra, ikkinchisi hisoblash fanining asosiy atamalariga aylandi.

(S.Ahmedov)

52-mashq. Uyga vazifa. Tarjimai holingizni yozing va unda ishlatilgan sonlarni izohlang.

10-mayzu. RAVISH SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA ‘TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Savol va topshiriqlar

1. Holat ravishlari deb nimaga aytiladi?
2. Payt ravishlariga misollar ayting.
3. O‘rin ravishlari qanday yasaladi?
4. Daraja-miqdor ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.
5. Ravishlarning yasalishi haqida so‘zlang.
6. Sodda, qo‘shma, juft ravishlarga misollar keltiring.

53-mashq. Matnni o‘qing, ravishlarni aniqlab, ma’no turlarini belgilang. Sodda, qo‘shma, juft ravishlarga ajrating.

Qari Saman boshini xam qilganicha unga qarab-qarab qo‘ydi, so‘ng zaifgina kishnadi. U boshini ko‘tarib uzoq-uzoqlarga tikildi. Ko‘z oldini quyuq tuman qopladi. Tobora uzoqlashib borayotgan ot-arava elas-elas ko‘rinib qolar, yo‘q, ot-arava emas, go‘yo o‘zi olislarga yelib ketayotgandek bo‘lar, o‘zining yeldirim kechmishi ko‘z oldidan lip-lip o‘tayotgandek edi. So‘nggi bor quvvatini to‘plab uzuq-yuluq kishnadi.

(Mustafo Nurli)

54-mashq. Ravishlarni aniqlang. Ularning tuzilishiga ko‘ra turlarini va gapdagi vazifalarini toping.

1. Zuhra o‘shandan beri cho‘lda turna bilan uchrashganini, tushida esa yuzma-yuz turna bilan gaplashganini tez-tez eslab qo‘yadi. (O.Husanov). 2. Ahyon-ahyonda polizdan qovunlarning tars-turs yorlgani eshitiyapti. (Murod Xidir) 3. Xalqimizning juda qadrligi bayrami Navro‘zni taomildan chiqarishga asossiz urinishlar bo‘ldi. (E.Vohidov). 4. Kishi ezgulik qilishi kerak. Ezgulik aslo qarimaydi. (Yusuf Xos Xojib) 5. Olim uchinchi chorakni zo‘rg‘a “uch” ga yakunladi. (O.Olimov)



55-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ravishlarning tagiga chizib, ularni izohlang.

Kechga yaqin dadam “Gazik” mashinada keldilar. Issiq kiyimlarni, chordoqdan miltiqni, qarmoqni, o‘qdonni, yana nimalarnidir oldilar-da, onamlar bilan xayrlashib darhol mashinaga chiqdik.

Mashinada ancha yurdik. Nihoyat, bir yerga yetib keldik. U yerda bir amaki bizni kutib turgan ekan. Mashinani o'sha yerda qoldirib yayov qamishzor oralab ketdik. Kech kirib qolgandi. Biz qandaydir sayozgina yerga keldik.

Haligi kishi:

-Qirg'ovul azonda, o'rdak kechqurun ham bo'ladi. Hozircha baliq tutsangiz bo'ladi,- dedi.

(Olmos)

Φ 56-mashq. Quyidagi ravishlarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kutilmaganda, onda-sonda, birin-ketin, zo'rg'a, picha, arang, oldinda, ilgari, bir oz, birpas, bir yo'la, do'stona, qardoshlarcha, salgina, atayin, noiloj, o'zicha.

Sodda ravishlar	Qo'shma ravishlar	Juft ravishlar

57-mashq. Uyga vazifa. –*siz,-ona,-larcha,-siga,-cha,-lab* qo'shimchalari yordamida ravishlar yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Hukumatimiz yosh avlodga to'xtovsiz g'amxo'rlik qilmoqda.

11- darsda yozma ish o'tkaziladi.

MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI HAQIDA MA‘LUMOT

12-mavzu. OLMOSH SO‘Z TURKUMI VA UNING TASNIFI

1-topshiriq. Berilgan gaplar tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi so‘z o‘rnida qo‘llanilganini aniqlang.

1. Qizchaga biror narsa bo‘lganini payqagan Alisher bor kuchi bilan unga qarab yugurdi (L.Bat) 2. Hamid Olimjon o‘z she‘riyatida shunday kamolot darajasiga erishadiki, u so‘zdan tanbur torlaridek turli padrdalarda foydalanar, uni o‘ynata, jaranglata bildi. (N.Karimov) 3. Xolid toshni o‘n marta ko‘tardi. Men ham shuncha ko‘tarishni orzu qilaman. 3. Olim musobaqada g‘olib chiqdi. Bu hammamizni quvontirdi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarda takrorlangan so‘zlar nimaga olib kelyapti? Ularni qaysi so‘zlar bilan almashtirsa to‘g‘ri bo‘ladi?

Lirika shoir qalbining -yilnomasidir. Shoir o‘z qalbida kechgan jarayonlarni aks ettirish orqali o‘z qalbining tarixini yaratadi. Shoir zukko va zakiy inson bo‘lganligi sababli hatto shoirning shaxsiy tuyg‘ulari harakatida ham keng kitobxonlar uchun ahamiyatli allaqanday nurli qirralar bo‘ladi. Shoir lirikasidagi ana shu qirralar hali ham porloqdir. (N.Karimov)

3-topshiriq. Berilgan gaplardan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

1. Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi. 2. Toshkentning qayeriga qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda. 3. Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr o‘sha yerda bo‘ladi. (Maqol) 4. Kim nayzani uzukdan o‘tkazsa, o‘sha g‘olib bo‘ladi. (Ertakdan) 5. Bu yer sherlar makoni. (I.Sulton) 6. Shuncha qalamni nima qilasan?

4-topshiriq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nolarini izohlang.



Bilib oling. O‘zi atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan, boshqa atash ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar o‘rnida, shuningdek so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashinib qo‘llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh hisoblanadi. Masalan, kitobni ko‘p o‘qisangiz, undan ko‘p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo‘lsin.

Birinci gapda *undan olmoshi kitob* so‘zi (ot) o‘rnida, ikkinchi gapda *shuki olmoshi doimo tinchlik bo‘lsin* gapi o‘rnida qo‘llanilgan.

Olmoshlarning aniq atash ma‘nosi bo‘lmaydi. Uning qaysi ma‘noda kelayotganligi matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.



Bilib oling. Olmoshlar kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, otlar o‘rnida, qaysi?, qanday? so‘roqlariga javob bo‘lib miqdor bildiruvchi so‘zlar o‘rnida almashinib kelishi mumkin.

Olmoshlar ma‘nosiga ko‘ra quyidagi yetti guruhga bo‘linadi:

	Turlari	Olmoshlar
	Kishilik olmoshlari	men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular
	O‘zlik olmoshlari	o‘z, o‘zim, o‘zing, o‘zi; o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlari
	Ko‘rsatish olmoshlari	bu, shu, u, o‘sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi,

		anovi
	So‘roq olmoshlari	kim? nima? qayer? qanaqa? qayda? qaysi? qalay? qancha? necha? nechanchi? nega?
	Belgilash olmoshlari	hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi
	Bo‘lishsizlik olmoshlari	hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi
	Gumon olmoshlari	kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi

58-mashq. Daftaringizga olmoshning ma’no turlari bo‘yicha jadval chizing va quyida berilgan olmoshlarni jadvalga joylang

Olmoshlar: kim, nima, qayer, men, sen, o‘z, u, bu, shu, qanaqa, qanday, hamma, barcha, bari, kimdir, nimadir, biz, siz, o‘sha, ana, mana, hech kim, hech nima, har bir, har kim, har qanday, ular, nega, necha, mana bu, anovi

59-mashq. Sinfdagi yettita kichik guruh tuzing. Har bir guruh olmoshning bir turini o‘rgansin va shu turga qaysi olmoshlar kirishini yod olsun.

60-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Har bir guruh olmosh qatnashgan gapni o‘qib, olmoshning qaysi turi ekanligini aniqlasin.

1. U bir oz ishlamoqchi, kitoblarni tartibga solmoqchi edi. (O.Yoqubov) 2. Hammasini chaqirib siquvga olasan. (O‘.Haydarov) 3. Badalimat Ashur hoji to‘g‘risidagi xayollarning ochiqdan-ochiq gunoh ekaniga o‘zi har gal iqrar qiladi. (G‘afur G‘ulom) 4. Mana, bolam, ko‘rpa qovig‘idan pul tegdi. (Cho‘lpon) 5. Hech narsa bo‘lgani yo‘q, shoshilib turibman. (Cho‘lpon) 6. Qayerdadir garmon g‘iyiq etdi, kimningdir chang‘isimi, tayog‘imi qirs etib sindi, allakim, mashina jilganda, chinqirib yubordi. 7. –Otingiz nima?-dedi rais ruchkasini siyohga botirib.

61-mashq. O‘zingiz yoqtirgan vaqtli matbuot sahifalaridagi olmoshlar qatnashgan gaplardan 5-6 tasini yozing.

 **62-mashq.** Pirimqul Qodirovning “Erk” qissasidan olingan parchani o‘qing. Olmoshlarni topib, qaysi so‘roqqa javob bo‘layotganini va nimani ko‘rsatayotganini aytib bering.

–Bundan ikki -yilgina oldin mana shu yerlarda dahshatli zilzila bo‘lib o‘tganini hozir tasavvur qilish qiyin. O‘shanda siz ham chodirda yashaganmidingiz?

–Yo‘q, bizga chodir yetmagan. O‘shanda biz....

Roziya hovlida choyshab tutib yashaganlarini aytib bermoqchi edi, avtobusga xaloyiq yopirilib kirdi-yu, Maksimichni oldinga surib ketdi. Birovning yelkasi, birovning oyoq-qo‘llari, birovning boshi, yana birovning poxol shlyapasi Roziya bilan Maksimichning orasiga tushib, suhbatni davom etkazgani qo‘ymadi. Ular shu ahvolda Mustaqillik xiyoboniga kelib avtobusdan tushishdi”.

Φ 63-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan. lablari pir-pir uchadi. 2. Tog'am-tajribali yurist. ko'p ishlarni adolatli hal qilgan. 3. Hovlimizdagi qip-qizil lolalar yal-yal yonadi. lolalar hammaning havasini keltiradi. 4. Bugun sakson kilo paxta terdim. Ertaga ham paxta terish niyatim bor.

?

Savol va topshiriqlar

1. Olmosh deb nimaga aytiladi?
2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?
3. Olmoshlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. Olmoshlar necha turli bo'ladi?
5. Otlar o'rnida almashib keluvchi olmoshlarga misollar ayting.
6. Miqdor bildiruvchi so'zlar o'rnida qaysi olmoshlarni iishlatish mumkin?

64-mashq. Uyga vazifa. Quyida berilgan gaplarni o'qing. Gaplardagi tagiga chizilgan so'zlar o'rniga mos olmosh qo'llab, gaplar tuzing.

1. Xudoyberdi To'xtaboyev – bolalarning sevimli yozuvchisi
2. Qiziqarli kitoblarni ko'p o'qish kerak.
3. O'tgan -yili tovuqlarim o'nta jo'ja ochgan edi.

13-mavzu. KO'RSATISH OLMOSHLARI

1-topshiriq. Bu, shu, u, o'sha so'zlarining har birini gap ichida keltiring.

2-topshiriq. Bu, shu, u, o'sha olmoshlarining o'zaro ma'no farqini ayting.

3-topshiriq. Gap ichidagi olmoshlarning qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganligini aniqlang.



Bilib oling. Oldingi gapda bayon qilingan biron bir so'z, so'z birikmasi gap o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi.

So'z ma'nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin qo'llanadi. Masalan, Bu daftar meniki.

Bu, shu, u, o'sha, ana, mana so'zlari ko'rsatish olmoshlari sanaladi.

65-mashq. Ko'chiring. Ko'rsatish olmoshlarining tagiga chizing.

1. Bu cholni butun yurt izzat qilardi. (Said Ahmad) 2. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. (X.To'xtaboyev) 3. U Saidiy bilan do'st edi, bu do'stlik otalarini ham munosabatdor qilgan edi. (Abdulla Qahhor.) 4. Bu tushmi yo hayol, bu na turli kuy qayerdan bu qadar qushlar sayrashi? (Zulfiya) 5. Tog'asining shu odati sabab o'g'li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. (O.Yoqubov.)

66-mashq. O'qing. Oybekning "Navoiy" romanidan olingan quyidagi gaplardan ko'rsatish olmoshlarini toping. Ular nimani ko'rsatayotganligiga e'tibor bering.

1. Bu tomonlarda nima qilib yuribsen? (Oybek) 2. Taqsir, zindonda yotgan u baxti qarog'a najot yo'li bormi? (Oybek) 3. «Baxt ko'r bo'lmasa edi, shu eshakning boshiga

qo‘nurmidi», -o‘yladi ichida u. (Oybek) 4. –Ana!-Navoiy kulimsirab chodirning bir burchagini ko‘rsatdi. (Oybek) 5. Bu xizmatning uchun senga yaxshi haq to‘larmen. (Oybek)

Φ **67-mashq.** “Kutubxonada” mavzuida matn yarating. Matnda ko‘rsatish olmoshlaridan ham foydalaning.

68-mashq. O‘qing. Qaysi gaplarda u olmoshi ko‘rsatish, qaysi gaplarda esa kishilik olmoshi ekanini aniqlang.

1. Uning so‘nggi kunlarda qiladigan ishi Saidiydan nuqson, Muxtorxondan fazilat izlashdan iborat bo‘lib qoldi. (Abdulla Qahhor) 2. U yoqda so‘fi miyig‘ida kulib turardi. (Cho‘lpon) 3. U yana bir oz pandu nasihat qilgan bo‘ldi. (O. Yoqubov) U shahar bilan bu shaharning orasi o‘n sakkiz chaqirim kelar edi.

 **69-mashq.** Ko‘chiring. Ko‘rsatish olmoshlarini toping.

1. Shu so‘zlarni ayta turib, yonidan bitta o‘n so‘mlik yangi qog‘oz oldi. (Cho‘lpon) 2. U kishi sizni o‘yladilar. (O.Yoqubov) 3. –Bu ishning har bir varag‘idan shaxsiy g‘araz hidi keladi-ku,-dedi. (Abdulla Qahhor) 4. O‘sha kuni kechasi bilan yaxshi uxlamay, ajoyib bir reja tuzgan edim. (X.To‘xtaboyev)

?

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘rsatish olmoshlari qaysilar?
2. Ko‘rsatish olmoshlari qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Uzoqdagi va yaqindagi narsalarni ko‘rsatish uchun qaysi olmosh-lardan foydalanamiz?

70-mashq. Uyga vazifa. Uyda badiiy asarlardan ko‘rsatish olmoshlari qatnashgan o‘nta gap topib yozing.

14-mavzu. KO‘RSATISH OLMOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Ko‘chiring. Ko‘rsatish olmoshlarini toping va ularning tuzilishiga e‘tibor bering.

1. Niyatimga yetaman, mana bu to‘polonlar o‘tib olsin-chi....-derdi u Onabibiga. (Asqad Muxtor). 2. Ehsonning Moskvaga ketishi mana shu kunlarga to‘g‘ri keldi. (Abdulla Qahhor) 3. Voy, manavi bolaning shirinligini!-Parcha xola do‘rillab xitob qildi. (O‘.Hoshimov) 4. Anavini qara-ya, o‘zimizning to‘pori Zebimi shu? (Said Ahmad).

5. Mana buni aytsa bo‘lar

Eng oliy, zo‘r muammo!

O‘rab oldi uni beshov,

Miq etmasdi u ammo (A.Oripov).

6. Mana bu fikringizga jonlar tasadduq bo‘lsin!-qichqirdi Sultonmurod. (Oybek)

2-topshiriq. Yuqoridagi olmoshlarning qanday yozilganini ayting.

3-topshiriq. *Men, sen, u, bu, shu* olmoshlariga *–day, -aqa, -cha* hamda kelishik qo‘shimchalarini qo‘shing. Asos bilan qo‘shimcha o‘rtasida qanday o‘zgarish bo‘layotganini ayting.

4-topshiriq. *U, bu, shu* ko‘rsatish olmoshlariga egalik qo‘shimchalarini qo‘shing. Asos bilan qo‘shimcha o‘rtasida qanday o‘zgarish bo‘layotganini ayting.



Bilib oling. Yozuvda *mana bu, mana shu, ana bu, ana shu* olmoshlari ajratib yoziladi. Ba‘zan bu olmoshlar og‘zaki nutqda *manavi, anavi* tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin.



Bilib oling: Egalik, kelishik hamda *–day, -dek, -aqa, -cha* qo‘shimchalari qo‘shilganda, asos bilan qo‘shimcha o‘rtasiga bir *n* tovushi orttirib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: *shunday, o‘shanaqa, buncha*

71-mashq. Quyidagi olmoshlarga *–day, -aqa, -cha, -ga, -da, -dan; -im, -ing, -si* qo‘shimchalarini qo‘shing.

O‘zakning tovush tarkibida qanday o‘zgarish ro‘y berganini ayting.

Bu, shu, o‘sha, mana bu, mana shu, ana u, ana shu.

Φ 72-mashq. *Mana, ana* so‘zkari bilan kelgan ko‘rsatish olmoshlariga 4 ta gap tuzing. Olmoshlarning yozilishiniga e‘tibor bering.



73-mashq. O‘qing. Ko‘rsatish olmoshlarini toping. Ularning talaffuzi va yozilishini tushuntiring.

1. Ana u o‘tov soyasida ivirsib yuribdi. (Asqad Muhtor) 2. Bundan rosa o‘n -yil burun mana shu boloxonadagi qaznoqda tuxum bosib yotgan farangi tovuq birdaniga qaqolab tom orqasiga-Sobirjon qorining bog‘iga uchib tushdi. (Abdulla Qahhor) 3. Anovi ikkov o‘lsa o‘libdi-da, o‘zlari aybdor, mijozlari nozik bo‘lsa, yo‘lga chiqib nima qilishadi (Asqad Muhtor) 4. Qozonga o‘t qalay desam, manavi qo‘limdan tushmaydi. (Said Ahmad). 5. Mana bu farmonni shamolday tez eltib, qal’a begiga topshirursen. (Oybek) 6. Saida mana shu xolasi To‘tinisoning qo‘lida o‘sgan. (Abdulla Qahhor)

74-mashq. Nuqtalar o‘rniga *mana shu, mana bu* olmoshlaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. gaplarni aytib berasiz. (Abdulla Qahhor) 2. shikoyatni o‘qib chiqing-da, tezda chora ko‘rishga kirishing. (X.To‘xtaboyev) 3. boshqa gap!-Oqsoqol xijolat chekibroq turib qolgan tabibni ko‘rsatdi. (O‘.Hoshimov) 4. Gapning po‘skallasi

?

Savol va topshiriqlar

1. Tarkibida *–dek, -day* qo‘shimchalari bo‘lgan olmoshlar qanday aytiladi?
2. *–cha* qo‘shimchasini *u, bu, shu* olmoshlariga qo‘shing va sodir bo‘layotgan tovush o‘zgarishi haqida so‘zlab bering.
3. Ana shu, mana shu olmoshlari qanday talaffuz qilinadi?
4. Ana shu, mana shu olmoshlarining imlosi haqida so‘zlab bering.
5. Ana shu, mana shu olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

75-mashq. Uyga vazifa. O‘qing. Ko‘rsatish olmoshlarini topib, ma’nosini aytib bering. Oxirgi gap asosida bahs-munozara o‘tkazing.

1. Siz bolalik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang. (A.Q.) 2. Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermoqqa majbur bo‘ldim. (O.) 3. Bulardan biri bo‘g‘ilib: “Shuncha gap-so‘z, shuncha harakatdan keyin kolxoz buziladigan bo‘lsa, qishloqdan ko‘chib ketaman”, - dedi. (A.Q.) 4. – Bunaqa narsa menga ta’sir qilmaydi,-dedi Mastura (A.Q.) 5. Shunaqa gaplardan qachon qutulamiz? (A.Q.) 6. Bilasenmi, Navoiyning yaxshi bir bayti bor, ma’nosi shunday: “Yomonlardan yaxshiik kutmoq hayvon shoxida gul unmagini orzu qilmoq bilan barobardir!”.

15-mavzu. KISHILIK OLMOSHLARI

1-topshiriq. Men, sen, u, biz, siz, ular olmoshlarining har biri ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Gap ichida keltirgan olmoshlarning qaysi ma’nosi bilan bir xil, qaysi ma’nolari bilan farqlanishini izohlang.

3-topshiriq. Keltirgan misollaringizda olmoshlarning qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.



Bilib oling: Uch shaxsdan biriga (so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zga) ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi.

So‘zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqyea. hodisalar o‘zga, ya’ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.

Men, biz birinchi shaxs, sen, siz ikkinchi shaxs, u, ular uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bulardan men, sen, u birlik, biz, siz (lar), ular ko‘plik ma’nosini bildiradi.

Ba’zan biz, siz, ular birlik ma’nosida ham qo‘llaniladi. Biz birlik ma’nosida qo‘llanganda kamtarlik, bajargan ishida o‘zini ta’kidlamaslik ma’nosini bildiradi. Masalan, Mening uyim o‘rniga Bizning uyimiz. Men g‘olib chiqdim o‘rniga Biz g‘olib chiqdik.

Shuningdek, siz, ular bitta shaxsga ishora qilib, hurmat ma’nosini bildiradi. Masalan, Sen kelding o‘rniga Siz keldingiz, U keldi o‘rniga Ular keldilar (kelishdi). Siz hurmat ma’nosini birdirganda, ko‘pincha ko‘plik ma’nosini ifodalash uchun unga-lar qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan, Sizlarga doimo baxt yor bo‘lsin.

76-mashq. Berilgan jadvalni kataklarga mos olmoshlar bilan to‘ldiring.

son	birlik	ko‘plik
shaxs		
1 shaxs		
2 shaxs		
3 shaxs		

Φ **77-mashq.** Men, sen olmoshlariga –ni,-ning,-ga,-da,-dan,-niki qo‘shimchalarini qo‘shing. –ni,-ning,-niki qo‘shimchalari qo‘shilganda asosning tovush tarkibida qanday o‘zgarish bo‘layotganini ayting.



Bilib oling: Men, sen olmoshlariga –ni,-ning,-niki qo‘shimchalari qo‘shilganda, talaffuzda asos bilan qo‘shimcha o‘rtasida bir *n* tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi.

78-mashq. O‘qing. Kishilik olmoshlarini topib, qaysi kelishikda ekanini ayting.

1. Uning ko‘zlari Zebida bo‘lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi. (Cho‘lpon) 2. Siz-hammasining onasi, u kishi-ota. (Abdulla Qahhor) 3. Ular uzoq jim qoldilar. (Asqad Muxtor). 4. Oramizda seni mo‘ysafid, Ko‘rganlarning bilmam nomini. Kuylab ishqni, tongni muttasil Menga qo‘yding umr shomini. (Zulfiya) 5. –Biz yorug‘ dunyoni ko‘rish uchun tug‘ilganmiz, Turg‘unoy!-dedi Maston. (Abdulla Qahhor) 6. Men ham unga sigir boqish to‘g‘risida ba‘zi maslahatlarni berdim. (G‘afur G‘ulom)

79-mashq. Ko‘chiring. Kishilik olmoshlarini topib, ularning yozilishiga e‘tibor bering. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan sodir bo‘lgan tovush o‘zgarishlarini bilib oling.

1. Mening og‘am ichinda Soqollari tashinda. (makkajo‘xori) 2. Iloji bo‘lsa, unga bildirmaylik. (Cho‘lpon). 3. Yangi tug‘ilgan soy labida yayrab, Tabiatga uyg‘un o‘ltiramiz xush. Bizdan ming tosh yuksak tog‘lari o‘rab, Meni quchgan borliq go‘yo faromush. (Zulfiya) 4. To‘ybekaning, shuningdek, hangamalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirdi ham hozir unga yotishib kelmadi. (A.Qodiriy). 5. Anovi kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchig‘landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o‘shanga berdilar. (A.Qodiriy). 6. –Sening qancha puling bor edi?-deb so‘radi mirshab sho‘rlik kosib yigitdan. (G‘afur G‘ulom)



80-mashq. Ko‘chiring, kishilik olmoshlarining tagiga chizing.

1. Men sizni olib ketgani keldim, aylanay!-dedi. (Cho‘lpon) 2. Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta piyolagina choyiga olamanmi, yo‘qmi? (Said Ahmad) 3. Sizning bir yomon odatingiz bor: odamga qo‘shilmaysiz. (A.Qodiriy). 4. Sen o‘qiysan, men ishda, Dilda umidlar qat-qat. Dil olg‘a intilishda Ishonchga to‘lib faqat. (Zulfiya) 5. Besh so‘mni men olaman, ikki yarim so‘mdan senlarga. (G‘afur G‘ulom) 6. Ularni pastak ayvondan o‘tkazib, muzlab yotgan uzun bir mehmonxonaga olib kirdi. (Sh.Xolmirzayev)

81-mashq. She‘rni o‘qing. She‘rdagi qaysi olmoshlarning o‘rniga boshqasini qo‘llash mumkin.

O‘zimni moziyning bag‘riga urdim
Va shu on shukrona aytib qaytdim men.
Kimdir ko‘rmay ketgan baxtni men ko‘rdim,
Kimdir aytmay ketgan so‘zni aytdim men

Meni kutayotir ajib kelajak,
U mening iqbolim, mening baxtimdir
Men ko‘rmagan baxtni kimdir ko‘rajak,
Men aytmagan so‘zni aytajak kimdir.

(A.Oripov)

82-mashq... Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan kishilik olmoshlaridan mosini qo‘yib o‘qing.

1. Amaki, taniadingizmi?-dedi juvon va xurjundan ikkita olma olib birini menga berdi. (A.Qodiriy) 2. yashaydigan zamon endi keldi. (A.Qodiriy). 3. Nikoh to‘ylarida kelin bilan kuyovni oldiga olib kelib salom berdirishardi. (Said Ahmad) 4. Mukarrama orqasidan tor ko‘chadan to katta ko‘chagacha kuzatib qoldi. (G‘afur G‘ulom)

Olmoshlar: meni, ularning, uning, sizlar.

?

Savol va topshiriqlar

1. Kishilish olmoshlari deb nimaga aytiladi?
2. Kishilik olmoshlari qaysilar?
3. Kishilik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

83-mashq. Uyga vazifa. Kishilik olmoshlarini qatnashtirib «Maktabimizda gullar bayrami» mavzusida matn tuzing.

16-mavzu. O‘ZLIK OLMOSHI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi *o‘z* so‘zining tarkibi va ma‘nosini aniqlang.

1. O‘zga yurtida shoh bo‘lgandan, o‘z yurtida gado bo‘lgan afzal. (Maqol) 2. Biz o‘z tuprog‘imizni ko‘z qorachig‘idek asraymiz. 3. O‘zimga o‘zim gapira boshladim. 4. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil. (Maqol) 5. Yutuqlar o‘zimizniki.

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplarda *o‘z* so‘zi qanday gap bo‘laklari vazifasida kelayotganini ayting.

3-topshiriq. *O‘zim, o‘zing, o‘zi* olmoshlarini *men, sen, u* olmoshlariga bog‘lab, birikma hosil qiling. Namuna: Mening o‘zim.



Bilib oling: Shaxs ma‘nosini ta’kidlash uchun qo‘llaniladigan olmosh o‘zlik olmoshi sanaladi. Unga *o‘z* olmoshi mansubdir.

! Eslab qoling: *O‘zim, o‘zing, o‘zi* so‘zlari ba‘zan egalik qo‘shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan *mening o‘zim, sening o‘zing, sen o‘zing, uning o‘zi, u o‘zi* tarzida qo‘llaniladi va bu vaqtda ko‘pincha kishilik olmoshlariga ta’kid ma’nosi yuklanadi.

84-mashq. Ko‘chiring. O‘zlik olmoshi kimning yoki nimaning ma‘nosini ta’kidlayotganiga e’tibor bering.

1. Ikromjon xotinini qoldirib, o‘zi idora tarafga qarab ketdi. (Said Ahmad) 2. O‘zi bukir, Tishi o‘tkir, Dehqonga o‘rtoq. Nomi-chi (O‘roq) 3. O‘zi po‘latdan, Dumi yog‘ochdan (Ketmon) 4. Maksimichning qo‘lidagi pidjagi g‘ijimlangan, o‘zi terlab, bug‘riqib ketgan edi. (P.Qodirov). 5. Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. (X.To‘xtaboyev) 6. O‘zi dumaloq Qor kabi oq. (Tuxum)

Φ 85-mashq. O‘zlik olmoshini qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdagi o‘zlik olmoshlari o‘rniga kishilik olmoshlarini qo‘yib ko‘ring.



86-mashq. O‘zlik olmoshlarini toping va ularning ma’nolarini izohlang.

1. O'zining ota-onasini hurmat qilmagan farzandning bolalaridan izzat talab qilishi nojoizdir. 2. O'zi tushunmagan so'zga aralashgan kishi behuda o'q uzgan ovchiga o'xshaydi. 3. O'ziga sharaf izlagan inson boshqalarga yomonikni ravo ko'rmaydi. 4. O'zini olimman, fozilman, deb maqtanish jaholatning bir ko'rinishidir. 5. O'zingdan oldin kelgan odamlardan ibrat ol, keyingilariga ibrat bo'l. («Hikmatnoma»dan)

87-mashq. O'zlik olmoshlarini toping va qaysi gap bo'laklari vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. O'z kuchiga ishonmagan er kurash maydoniga kirolmas, kirsa ham yiqilur. (Fitrat)
2. Xalqimizda o'z qadrini bilgan o'zganing ham qadriga yetadi, degan naql bor. (N.Jo'rayev)
3. Avvalo, o'zimning kimligimni aytay. Men qo'shni mamlakatning podshohiman. (H.Ziyoiev)
4. O'zi zo'rning himmati ham zo'r bo'ladi. (Abay)
5. O'ziga baxt tilagan odam boshqalarga yomon nazar bilan qaramaydi. (R.Usmonov)

88-mashq. Tarkibida o'zlik olmoshi qo'llanadigan topishmoqlardan misollar keltiring.

Namuna: O'zi pishiq
Burni qiyshiq. (no'xot)

?

Savol va topshiriqlar

1. O'zlik olmoshi deb nimaga aytiladi?
2. O'zlik olmoshi ishtirokida gaplar tuzing.
3. O'zlik olmoshini qaysi olmoshlar o'rnida ishlatish mumkin.

89-mashq. Uyga vazifa. O'qing. Gaplarda qo'llangan o'zlik olmoshi qaysi gap bo'laklari vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. O'zining ovozi o'ziga uzoqdan eshitilganday tuyuldi. (Abdulla Qahhor). 2. O'zim ham hayronman. (Cho'lpon) 3. O'zingiz shahardan bo'lsangiz ham gapga tushunadigan tuzuk yigit ekansiz. (O.Yoqubov) 4. Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin bir oz o'ziga kelgan edi. 5. Bu ishlarni qilgan o'zi.

17-mavzu. SO'ROQ OLMOSHLARI

1-topshiriq. So'roqni bildiruvchi so'zlar o'rniga qavsda berilgan so'zlardan birini qo'ying. 1. Kim shaxmat to'garagiga qatnashadi? (Vali, men, o'rtog'im, sinfimiz) 2. Dunyoda nima kuchli? (shamol, aql, uyqu) 3. Sinfingizda nechta o'quvchi bor? (yigirmata, o'ttizta) 4. Siz nechanchi sinfda o'qiyasiz? (yettinchi)

2-topshiriq. So'roqni bildiruvchi so'zlar ishtirok etgan gaplar qanday gap, so'roq o'rniga uning javobi ishtirok etgan gaplar qanday gap ekanligini ayting.

3-topshiriq. Quyidagi so'roqlarning nimalarni aniqlash uchun berilishini aniqlang.

Kim?, nima?, qachon?, qayer?, nima uchun?, nima maqsadda?, nimaga? qancha?, nima qildi?.



Bilib oling: Shaxs, narsa-hodisa, harakat-holat, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar so'roq olmoshlari sanaladi.

90-mashq. Quyidagi jadvalni tegishli so‘roq olmoshlari bilan to‘ldiring.

so‘roq turlari	olmoshlar
shaxs so‘roqlari	
narsa-hodisa so‘roqlari	
Belgi-xususiyat so‘roqlari	
Miqdor so‘roqlari	
Sabab so‘roqlari	
Maqsad so‘roqlari	
O‘rin-joy so‘roqlari	
Harakat-holat so‘roqlari	



Bilib oling: Shaxsni so‘rog‘i uchun *kim?*, hayvonlarga, narsa-hodisalarga nisbatan *nima?* so‘rog‘i beriladi. So‘roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar so‘roq gap hisoblanadi. Bunday gaplar so‘roq ohangi bilan talaffuz qilinadi va yozuvda gap oxiriga so‘roq belgisi qo‘-yiladi.

91-mashq. Ko‘chiring. So‘roq olmoshlarining tagiga chizib, tepasiga so‘roq turini yozib qo‘ying.

1. Nega uni otdami, aravadami eltib qo‘ymadi? (Abdulla Qahhor) 2. Mukarrama, ular kim ekan? 3. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi? (Asqad Muxtor) 4. Nima ishlari bor ekan?-so‘radi Zulayho xola. (G‘afur G‘ulom) 5. Xudoyo, tavba qildim, bu qanday kun? Yo qudratingdan, bu qanday odam? (Abdulla Qahhor) 6. Nega muncha g‘amgin nayning navosi, nega qalbim to‘la o‘kinch va malol? (A. Oripov)

92-mashq. So‘roq olmoshlari yordamida hosil bo‘lgan so‘roq gaplarga javob berishga harakat qiling.

1. Qaysi iblis yo‘ldan ozdirdi seni? (O. Yoqubov) 2. Onang, umid bilan beshigingni tebratgan shu bechora onang sendan nima ko‘rdi?(Abdulla Qahhor) 3. –Sizga nima kerak shu gap? U odam nima yomonlik qildi sizga?-deb so‘ramoqchi bo‘ldi. (O. Yoqubov)4. Qayoqda bo‘lishi mumkin, Roziya? (P.Qodirov) 5. – Ishlaringiz qanday? - dedi kulimsirab Og‘acha oyim. (A. Qodiriy)

Φ **93-mashq.** Qalay, qancha, nima uchun, qanday so‘roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.



94-mashq. O‘qing. So‘roq olmoshlarini toping.

1. Yana nimam bor?-dedi Siddiqjon. (Abdulla Qahhor) 2. Qanday majlis?-qiziqib so‘radi Zumrad. (Oybek) 3. U nimadir, orqasida og‘zi bor? U nimadir, o‘rtasida mag‘zi bor. (tegirmon, bug‘doy) 4. Xo‘sh, sen nima uchun baxtlisan? (X.To‘xtaboyev)

5. – Idorada kim bor?

- Hech kim,-zo‘rg‘a javob berdi Fazilat
- Rais qani?
- Siz kim bo‘lasiz?

- Men.... hisobchiga yordamchi (O.Yoqubov)

?

Savol va topshiriqlar

1. So‘roq olmoshlari deb nimaga aytiladi?
2. So‘roq olmoshlariga qanday qo‘shimchalarni qo‘shish mumkin?
3. So‘roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

95-mashq. Sinfda ikki guruh hosil qiling. Birinchi guruh so‘roq olmoshlari ishtirokida so‘roq gaplar tuzsin. Ikkinchi guruh bu so‘roq gaplarga javob bersin. So‘roq yoki javob berolmay qolgan guruh yutqizgan hisoblanadi.

Namuna: Birinchi guruh; bir -yilda necha kun bor?
Ikkinchi guruh; bir -yilda 365-366 kun bor.

96-mashq. Uyga vazifa. So‘roq olmoshlari ishtirokida «Saxovatli kuz» mavzusida matn tuzing.

18-mavzu. BELGILASH OLMOSHLARI

1-topshiriq. Berilgan gaplarda har so‘zining qaysi so‘zlar bilan bog‘langanini aniqlang. Ma’nosini izohang. 1. *Har kim ekanini o‘radi.* (Maqol) 2. *Har narsaga jahl qilavermaslik kerak.* 3. *Ovozi har qachongidan ham ta’sirliroq edi.* 4. *Yutuqlaridan har qancha maqtonsa arziydi.* 5. *Har bir inson o‘z baxti uchun kurashadi.*

2-topshiriq. Berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlashga harakat qiling. 1. *Butun xalq yopirilib, Kattakon Farg‘ona kanalini qazdik.* (Hamid Olimjon) 2. *Hamma hasharga qatnashdi.* 3. *Sinfimizdagi barcha o‘quvchilar sport to‘garaklariga qatnashadilar.*



Bilib oling: Har so‘zi so‘roq olmoshlariga va bir so‘ziga qo‘shilib to‘pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash olmoshlarini hosil qiladi.

Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydi.

Demak, to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-ho‘latlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.

97-mashq. Ko‘chiring. Belgilash olmoshlarini toping. Mashqda yana qaysi olmoshlar qo‘llangan.

1. Agar u guzardan hassasini do‘qillatib o‘tib qolsa, hamma barobar qalqib, to o‘tib ketguncha ta’zimda turardi. (Said Ahmad) 2. Har bir bekning navkarlari o‘zlariga qarashli yuklarni tuya qo‘shilgan og‘ir aravalarga ortib kelmoqda edilar. (P.Qodirov) 3. Biznikiga mehmon keldi, Hammasining qoshi qora. (Topishmoq) (loviya) 4. Hamma nopok, hamma egri, yolg‘iz siz to‘g‘ri. (O.Yoqubov) 5. Aybdor o‘zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. (Cho‘lpon) 6. Bu gapning butun dahshati shu topda bilindi. (Said Ahmad)

98-mashq. O‘qing. Belgilash olmoshlarini toping.

1. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg'a-salomlar olib keladi. (X.To'xtaboyev) 2. – Xudo har narsadan ham bergan yigit ekan,-dedi qutidor. (A.Qodiriy) 3. Bunday halol yigitlarga har kim ham non beraveradi. (G'afur G'ulom) 4. Yusufbek hoji xotini bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin uzoq so'zlashib o'tirmaydi. (A.Qodiriy)

Φ 99-mashq. Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidan olingan quyidagi parchani ko'chiring. Matndagi olmoshlarning turlarini aniqlang.

“Qiz Saidiydan o'z ishiga doir ko'p ma'lumotlar umidvor, ammo so'ramasdi. Saidiy esa undan nima umidvor ekanini o'zi bilmas, ammo uning umid qilgan narsasinigina emas, butun olamni berib, hech narsa talab qilmaydigan bir holatda edi. Saidiy qizning holatini darhol anglab, qabul komissiyasi to'g'risida gap ochdi. Qiz uning so'ziga o'zi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq berar edi. Bu eshikka kirgani ikkilanib turgan qiz Saidiyning so'zini eshitib, butunlay kirmaydigan bo'ldi”.

 **100-mashq.** O'qing. Belgilash olmoshlarini toping.

- Ahmad qildi gilosi olchaga payvand,
Ali o'z nayiga o'ymoqda g'arov;
Hamangiz Vatan deb o'qish, ishga band,
Qilig'ingiz o'zi bariga garov
Shular o'zi sizsiz, bari sizniki! (G'afur G'ulom)
- O'g'limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir. (A. Qodiriy) 3. Hamma perronda. Hamma o'z jigarini qidiradi. (Said Ahmad) 4. Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik menga. Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga. (E.Vohidov) 5. Har kim o'z quvonch ham orzularini bildirib turarkan, Majdiddin, Nizomulmuluk, Amil Mo'g'ul va bir ko'p beklar, a'yonlar kirishdi. (Oybek) 6. Dildorning bari gaplari haqiqat edi. (Said Ahmad)

?

Savol va topshiriqlar

- Belgilash olmoshlari deb nimaga aytiladi ?
- Belgilash olmoshlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ulardagi o'zgarish haqida so'zlang.
- Belgilash olmoshlarini qaysi so'z turkumlari o'rnida ishlatish mumkin?

101-mashq. Ikki guruhga bo'lining. Har bir guruh a'zosi belgilash olmoshlari ishtirokida bittadan gap tuzsin. Qaysi guruh tuzolmay qolsa, yutqizgan hisoblanadi.

102-mashq. Uyga vazifa. Tarix yoki adabiyot darsligidan belgilash olmoshlari ishtirok etgan to'rtta gap tuzing.

19-mavzu. GUMON OLMOSHLARI

1-topshiriq. Quyida berilgan so‘roq olmoshlari va nima so‘ziga alla-, yoki –dir qo‘shimchalarini qo‘shing. *Kim?, nima?, qachon?, qaysi?, qancha?, nechuk?, qanday?*

2-topshiriq. *alla-*yoki *–dir* qo‘shimchalarini olgan yuqoridagi so‘zlarning ma‘nolarini tushuntiring. Bu so‘zlardan qaysisiga–dir qo‘shimchasini qo‘shib bo‘lmasigini aniqlang.



Bilib oling: So‘roq olmoshlariga va narsa so‘ziga *alla-*yoki-*dir* qo‘shimchalarini qo‘shishi yo‘li bilan gumon olmoshlari hosil qilinadi.

*Alla-*qo‘shimchasi so‘roq olmoshlari oldidan, *–dir* qo‘shimchasi esa so‘roq olmoshlari so‘ngidan qo‘shiladi.

Har ikki qo‘shimcha asos qism bilan qo‘shib yoziladi.

Narsa so‘zi faqat *alla* qo‘shimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi.

Kimdir olmoshi o‘rnida *birov* so‘zini qo‘llash mumkin.



Bilib oling: *Bir* so‘zi *kishi*, *narsa*, nima kabi so‘zlarga qo‘shilib bu so‘zlarga gumon ma‘nosini yuklaydi. Ularni *kimdir*, *nimadir*, *qachondir* singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mumkin. Bunday vaqtda *bir* so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llangan bo‘ladi. Shu bilan birga *birov* so‘zi ham *kimdir* so‘zi bilan erkin almashina olganligi uchun gumon olmoshi hisoblanadi.



103-mashq. Ko‘chiring. Gumon olmoshlarining tagiga chizing.

1. Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o‘tarmanmi, allakim baloga turtinib ketdim. (Abdulla Qahhor) 2. Shorahim ko‘z yoshidan hech narsani ko‘rmay, allanimalar deb g‘udrandi. (O.Yoqubov) 3. Allaqayerdan oyim paydo bo‘ldi. (O‘.Xoshimov)

4. Aniq -yili esimda yo‘q,

Allaqaysi zamonda

Bir qishloqda ota-o‘g‘il

Yashar ekan omonda. (A.Oripov)

5. Ikromjonni bir narsa ko‘proq qiynardi. (Said Ahmad) 6. O‘zbek oyim nimadir demoqchi edi, Oybodoq dasturxon ko‘tarib kirib qoldi. (A.Qodiriy)

104-mashq. O‘qing. Gumon olmoshlari qanday hosil qilinganini aytib bering.

1. Kimdir qarshi so‘z aytgan edi, muallim jerkib berdi. (Abdulla Qahhor) 2. Normurod Shomurodov allaqanday shubhadan yuragi zirqirab o‘z kabinetiga kirdi. (O.Yoqubov)

3. Kimdir ot yetaklab o‘tar azonda,

Uzilar ko‘chaning sahargi tushi.

To‘satdan ot kishnab yuborgan onda,

Shoshilib eshikni ochdi bir kishi. (Shavkat Rahmon)

4. Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko‘rinar edilar. (Abdulla Qodiriy) 5. Ayol qalbi tosh bo‘lsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin bo‘ladi. (Said Ahmad) 6. Hazil-huzul bilan birpasda allaqancha piyozni qanorlarga joyladik. (O‘.Hoshimov)

Φ 105-mashq. Gumon olmoshlari ishtirokida to‘rtta gap tuzing. Gumon olmoshining qanday qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘lganligini ayting.

106-mashq. Ko‘chiring. Gumon olmoshlarining yozilishiga e‘tibor bering.

1. Xabar keldi Fan shahriga

Olis Jungli tomondan
O'tgan kecha allanarsa
Yonib tushmish osmondan. (A.Oripov)

2. Shu vaqtda sen ham bir narsani bahona qilib Marg'ilonga borasan. (Abdulla Qodiriy)
3. U egarda qiyshiq o'tirib olgan pochchasiga nimalardir deb gapirardi. (Said Ahmad)
4. Bulturdan beri Latofatga bir nima bo'di. Nima bo'lganini Haydar o'ziyam tushunolmaydi, biroq ko'ngli sezadi: bir nima bo'ldi unga! (O. Yoqubov)
5. Obidjon novdalar orasidan o'qdek otilib chiqib, uning bo'yniga osildi va "akajon"! deb shunday qichqirdiki, allaqayerda yotgan xo'roz qaqolab yubordi. (Abdulla Qahhor)
6. Shukurov o'zini qandaydir noqulay sezib, xotiniga yaqinlashdi. (O.Yoqubov)

107-mashq. Uch guruhga bo'lining. Birinchi guruh *alla*-elementi yordamida, ikkinchi guruh-*dir* qo'shimchasi bilan, uchinchi guruh *bir* so'zi vositasida gumon olmoshlari hosil qilib, gap ichida qo'llasin. Qaysi guruh to'xtab qolsa, yutqizgan hisoblanadi.

?

Savol va topshiriqlar

1. Gumon olmoshlari deb qanday olmoshlarga aytiladi?
2. Gumon olmoshlari qanday hosil qilinadi?
3. Gumon olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

108-mashq. Uyga vazifa. O'qing. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan quyidagi matnda olmoshning qanday turlari mavjudligini aniqlang.

"Hamma jim qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib shunga ko'z tikkan va u narsada Zebi o'z otasini, Qur'onbibi o'z erini, Salti qovog'idan qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

-Otasi bomdoddan kirsin,-dedi u. Saltiga qarab,-men o'zim yotig'i bilan aytib ko'ray, yo'q demas,-so'ngra Zebiga yuzlandi: - Sen, qizim, uyga joy qil, o'rtog'ingni o'tqiz, dasturxon sola.... Biz otang bilan choyni so'rida ichib, haligi gapni gaplashamiz".

20-mavzu. BO'LISHSIZLIK OLMOSHLARI

1-topshiriq. Berilgan gaplar tarkibidagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlashga harakat qiling. 1. Oltin ko'milgan joyni **hech** topolmadim. (A.Avloniy) 2. Hunarli odam **hech qachon** kam bo'lmaydi. 3. Majlisda bu masala haqida **hech kim** churq etmadi. (Z.Egamberdiyeva)

2-topshiriq. Yuqoridagi *hech* so'zi ishtirok etayotgan gap kesimining tasdiq yoki inkor shaklda kelishini aniqlang.

3-topshiriq. Ikkinchi va uchinchi gaplarda *hech* so'zi qaysi so'zlar bilan birikib kelayotganini ayting va yana qanday so'zlarga bog'lanishini aniqlang.



Bilib oling: So'roq olmoshlari va *bir*, *narsa*, *nima* so'zlari oldidan *hech* so'zining qo'llanishi natijasida bo'lishsizlik olmoshlari hosil bo'ladi. *Hech kim*, *hech nima*, *hech qachon*, *hech qanday*, *hech qancha*, *hech narsa* so'zlari bo'lishsizlik olmoshlari sanaladi va ular yozuvda ajratib yoziladi.

Bu olmoshlar ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo‘ladi.

 **109-mashq. Ko‘chiring. Bo‘lishsizlik olmoshlarining tagiga chizing.**

1. Moziylar sasiga quloq tutgim jim, -ustun bo‘lgan emas dunyoga hech kim. (I.To‘xtamishev) 2. Haqing berma hech kimga, urho-yo, urho (I.To‘xtamishev) 3. Hammasi joyida, do‘stlar, men hech kimdan, hech narsadan hafa emasman. (P.Qodirov) 4. Hali-hozir hech bir rais uning ko‘ngliga yo‘l topolgani yo‘q. (O.Yoqubov) Hech bandaning boshiga farzand dog‘ini solmasin ekan. (O‘.Hoshimov) 5. Yo‘q, xo‘jayin, qorin to‘q. Hech nima yegim kelmay turibdi. (G‘afur G‘ulom) 6. Hozir ham hech kim o‘z ismimni aytmaydi, «Ulfat» deyishadi. (Ulfat) 7. Hech nima qilmaydi, bolam. (O‘.Hoshimov) 8. Hech kimni shafe keltirmay tura turing, hali. (Cho‘lpon)

110-mashq. Bo‘lishsizlik olmoshlaridan *hech kim, hech narsa* olmoshlarini egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llang. Har biriga bittadan gap tuzing.

111-mashq. *hech nima* bo‘lishsizlik olmoshlarini kelishik qo‘shimchalari bilan turlang. Ularni gap ichida keltiring.

Φ 112-mashq. Ko‘chiring. Bo‘lishsizlik olmoshlarining qanday hosil bo‘lganini aniqlang.

1. Hech kimdan sado chiqmadi. (P.Qodirov) 2. Hech vaqo yo‘q, hamma yoq tinch, boy nega muncha vahima qilmasa! (Oybek) 3. Men hech qachon hech kimga surat bergan emasman. (O.Yoqubov) 4. Hech narsa bo‘lgani yo‘q, shoshilib turibman. 5. Hech qanday qiz, menimcha, buningday bejirim emasdir. (Abdulla Qahhor) 6. Hech narsa deyolmayman, lekin, oyijon, uchovini qo‘shsa besh bo‘ladi. (X.To‘xtaboyev)

?

Savol va topshiriqlar

1. Bo‘lishsizlik olmoshlari deb nimaga aytiladi?
2. Bo‘lishsizlik olmoshlariga kelishik qo‘shimchalari qay tartibda qo‘shiladi?
3. Bo‘lishsizlik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

113-mashq. Uyga vazifa. Said Ahmadning “Ufq” romanidan olingan quyidagi matnni o‘qing. Matnda qo‘llangan olmoshlarni topib, ularning turini aniqlang.

- O‘zing kelyapsanmi? O‘g‘lingga aytsang bo‘lmasmidi? Necha marta aytaman: yuk ko‘tarma, deb.

Jannat, hechqisi yo‘q, degandek iljaydi.

-Tursunboygingiz uxlayapti. Kechasi kech qaytgan edi. Uyg‘otgim kelmadi. Rasul buva olamdan o‘tibdilar.

-Eshitdim,-dedi Ikrom.-Shunga kelyapman. Sen uyga qayta qol.

-Och-nahor borasizmi, qatlama qilgan edim, bir tishlam bo‘lsa ham, tamaddi qilib oling.

-Keyin, keyin. O‘zim eshikka boraman. Yo‘ldosh ota kelibdilar. Meni yo‘qlatgan ekanlar, boray. Gap ko‘p. Zo‘r ishlar bo‘ladiganga o‘xshaydi. Boray-chi, otaning o‘zlari aytib qolarlar. O‘z og‘zilaridan eshitay”.

21-mavzu. OLMOSH O‘RNIDA QO‘LLANILADIGAN SO‘ZLAR

1-topshiriq. Gaplardagi ajratilgan soʻzlarning qaysi olmosh maʼnosida qoʻllanganini aniqlang. 1. *Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya tarkibida kamina ham bor edi.* (Q.Kenja) 2. *Faqir Sizning xizmatlaringizga bel bogʻlagan.* (M.Osim) 3. *Sizni hamisha duo qilib qoluvchi bandai ojizingiz.* (P.Qodirov)



Bilib oling: Eski oʻzbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida *men oʻrnida koʻpincha kamina, kaminai-kamtaringiz, faqir, qulingiz, bandai ojizingiz* singari soʻz va birikmalar qoʻllanilgan.

Hozirgi oʻzbek tilida ham xuddi shu maʼnoda baʼzan *men oʻrnida kamina* soʻzi ishlatiladi. Tarixiy asarlarda oʻsha davr tilini ifodalamoq uchun *qulingiz, faqir, bandai ojizingiz* kabilar ham qoʻllaniladi.

Men olmoshi oʻrnida yuqoridagi soʻzlar qoʻllanilganda, kesim mazmunan birinchi shaxsni bildirsa ham, lekin III shaxs shaklida boʻladi.

114-mashq. Koʻchiring. gaplarda kishilik olmoshlari oʻrnida qoʻllanilgan soʻzlarni toping. Bu soʻzlar qaysi kishilik olmoshlari oʻrnida kelayotganini aniqlang.

1. Bu faqir qulingiz xoqon hazratlarining behisht oso poytaxtlarining sharafiga munosib bir donishmandni taklif etmoq istaydi. (Oybek) 2. U kishi faqirni nechundir xushlamaydilar. (O.Yoqubov) 3. Janob Ahmadbek, kamina bogʻlarning suratini chizganda bir chetiga bogʻbonni ham tasvirlashim mumkin. (P.Qodirov) 4. Qulingizning gustahligini afv eting, begim, men amirzodamning ijozatlari bilan dilimda borini soʻzladim. (P.Qodirov) 5. Janoblari kaminani yolgʻonchi deb eshitganmidilar? (Oybek) 6. «Bu bilan faqirning jarohatiga yana tuz sepursiz», - ranjib dedi Shayx Bahlul. (Oybek)



115-mashq. Oʻqing. Kishilik olmoshlari oʻrnida qoʻllangan soʻzlarni aniqlang. Ular qanday maʼno ifoda etayotganiga eʼtibor bering.

1. Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda koʻchki bosqan buloq balki shu yerga kelib qayta koʻz ochgandir? (P.Qodirov) 2. Kechirasiz, rais, kamina bugun emas, oʻgʻlingizni shogirdlikka olgandayoq aytganman. (O.Yoqubov) 3. U yogʻini kaminaga qoʻyib berasiz, domla!-deb eʼtiroz bildirardi. Ilmiy kengash aʼzolaringiz boshqalarning ziyofatiga borishmasa borishmas, ammo kaminaning ziyofatiga kelishadi. (O.Yoqubov) 4. Boʻlmasa, kamina birrov borib kelaman. (O.Yoqubov) 5. Janoblarini qoshimga chaqirishdan maqsad,- dedi Husayn Boyqaro sovuq va rasmiy tur bilan,-xotirimga kelgan bir mulohazani bildirmoq edi. Janoblarini yangi bir vazifaga tayinlamoq fikriga keldim. (Oybek) 6. Sizga ne boʻldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qoʻydingiz. (Oybek)

116-mashq. Gaplarning oʻqing. Ostiga chizilgan soʻzlar oʻrning *kamina, janoblari, sodiq qulingiz, faqir* soʻzlaridan mosini qoʻyib gaplarni koʻchiring. Gaplarning maʼnolari orasidagi farqlarga hamda ega va kesim moslashuviga eʼtibor bering.

1. Siz foydali soʻz boshlagan edingiz,-dedi u Majdiddinga. 2. Menga aloqador soʻz boʻlsa, eshitmoqni orzu qilar edim, dedi Navoiy. 3. Men ham shu fikrning telba bandasidurmen,-dedi cholga Navoiy qoʻlini koʻksiga qoʻyib. 4. Siz bizni qistagan edingiz-ku....-shoirlarga murojaat etdi sodda dil bir mirob. 5. Menga nisbatan koʻnglingizda andak gina bor. 6. Ijozat bersalar, men zoti oliylarini bir muhim ishdan ogohlantirsam. (Oybek)

?

Savol va topshiriqlar

1. *Kamina* soʻzi ishtirokida gap tuzing.
2. *Kamtarin qulingiz* soʻzi ishtirokida gap tuzing va uning qanday maʼno anglatayotganini izohlang.
3. *Bandai ojiz* soʻzi qanday olmosh oʻrnida ishlatiladi?

117-mashq. Uyga vazifa. *Kamina, faqir, bandai ojiz* soʻzlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning qaysi olmosh oʻrnida qoʻllaganingizni ayting.

22-mavzu. OLMOSHLARNING TUZILISHIGA KOʻRA TURLARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardan olmoshlarni toping.

1. Men undan soʻradim: Mehringni qoʻyib, bunchalar saralab gul terding kimga? (K.Muhammadiy)
2. Bir vaqtlar qarshimdan oʻtsang, seni derdim oddiy yoʻlovchi. (Shukrullo)
3. Har bir inson oʻz tuprogʻini koʻz qorachigʻiday asraydi.
4. Shu-shu biz bordi-keldi qilamiz. (A.Rahmat)

2-topshiriq. Ajratilgan olmoshlarning tuzilishiga koʻra turlarini aniqlang.



Bilib oling: Olmoshlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft va takroriy olmoshlarga boʻlinadi.

118-mashq. Koʻchiring. Olmoshlarni topib, tagiga chizing, tepasiga uning tuzilishiga koʻra turini yozib qoʻying.

1. Shu-shu Otaqoʻzi ochilib ketib oʻrinli-oʻrinsiz gaplarni koʻp gapirib yubordi. (O.Yoqubov)
2. Siz oʻzingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi boʻlgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim. (A.Qodiriy)
3. Hech qanaqa shartim yoʻq. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yoʻq. (Said Ahmad)
4. Shu-shu boʻldi-yu, Tursunboyning qulogʻidan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi. (Said Ahmad)
5. Hamma unga oʻgirilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni koʻrmas edi. (P.Qodirov)
6. Mana bu manzarani qaranglar, qizlar,-dedi Manzura. (Oybek)



119-mashq. Oʻqing. Olmoshlarni topib tuzilishiga koʻra turini aytib bering.

1. Eshitgandirsiz, otam boyaqish sindi. Shu-shu uyga choʻkdi, vahima boʻlib qolgan,-dedi Zebi. (Oybek)
2. Avval rahbar, keyin butun zal oʻrnidan turdi. (O.Yoqubov)
3. Mana shu keyingi natijaga kelganidan keyingina mingboshi esini boshiga toʻpladi va Miryoqubning yuziga gazetani irgʻitgani uchun oʻz-oʻzidan koyidi. (Choʻlpon)
4. Uning bunday soʻzlariga negadir hech kim indamas edi. (Abdulla Qahhor)
5. Ular yana juft tol tarafga qarab keta boshlashdi. (Said Ahmad)
6. Mana bu pullarni qara, bir ot koʻtarim chervon, hamma orzung qonadigan boʻldi.

Φ 120-mashq. Jadvalni daftaringizga chizing. Quyida berilgan olmoshlarni tuzilishiga koʻra jadvalga joylashtiring.

Sodda olmoshlar	Qo'shma olmoshlar	Juft olmoshlar	Takroriy olmosh

Olmoshlar: men, mana shu, u, o'sha-o'sha, u-bu, siz-biz, hech kim, har bir, hech nima, kim, qanday, allakim, sen-men, kimdir, shu-shu, ana shu, allaqaysi, nima uchun, nega, qandaydir.

121-mashq. Quyida berilgan olmoshlarni qatnashtirib gaplar tuzing. Olmoshlarning yozilishiga e'tibor bering.

Olmoshlar: hamma, bir narsa, shu.

122-mashq. To'rt guruhga bo'lining. 1-guruhdagilar sodda olmoshlarga, 2-guruhdagilar qo'shma olmoshlarga, 3-guruhdagilar juft olmoshlarga, 4-guruhdagilar esa takroriy olmoshlarga gap tuzsinlar. Qaysi guruh tuzolmay qolsa, yutqizgan sanaladi.

?

Savol va topshiriqlar

1. Olmoshlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. *Men, u, hamma* olmoshlari tuzilishiga ko'ra qanday olmoshlar sanaladi?
3. *Har bir, hech nima, allakim* olmoshlariga tuzilishiga ko'ra qanday olmoshlar deb qaraladi?

123-mashq. Uyga vazifa. Quyida berilgan olmoshlarni ikki ustunga-sodda tub olmoshlar va sodda yasama olmoshlarga ajratib yozing.

Olmoshlar: biz, siz, men, kimdir, qandaydir, qanaqa, qayer?, qaysidir, birov, necha, sen, qachon, qachonlardir, shu, o'sha, ana, mana, hamma, bari, barcha.

23-mavzu. SODDA VA QO'SHMA OLMOSHLAR VA ULARNING IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan gaplardan olmoshlarni toping. 1. *Ulug' odam hech vaqt yolg'iz qolmaydi. Taqdir uni qanchalar do'stlaridan ayirmasin, oxir-oqibatda u yana o'ziga do'st topib ola beradi.* (R.Rollan) 2. *Gulnor hamma narsani bir zumda tayyorlab dadasiga ko'rsatdi.* (Oybek) 3. *Ba'zan har kuni, ba'zan kun oralab, kechqurun Unsinni ko'rgali Shokir otanikiga keladi.* (Oybek)

2-topshiriq. Yuqoridagi gaaplarda qo'llanilgan olmoshlarni sodda va qo'shma olmoshlarga ajrating.



Bilib oling: Faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar sodda, ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo'shma olmoshlar hisoblanadi.

Kim?, nima?, hamma, barcha singari tub olmoshlar, *kimdir, qaysidir, allakim, allaqanday* singari yasama olmoshlar sodda olmoshlardir.

Tarkibida hech, *bir* (*bir kishi* “kimdir”, *bir narsa*, “nimadir” ma’nolarida) qismlari mavjud bo’lgan olmoshlar qo’shma olmoshlardir.

Yasama sodda olmosh qismlari qo’shib, qo’shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.

124-mashq. Gaplarni o’qing. Sodda olmoshli gaplarni alohida, qo’shma olmoshli gaplarni alohida ko’chirib yozing.

1. Meni Sodir Badalovich yubordilar,-dedi so’rashish uchun ikkala qo’lini baravar uzatib. (H.To’xtaboyev) 2. Yigitning dong’i o’zi tug’ilib o’sgan shaharga ham yetib boribdi. (Ertakdan) 3. So’fi hech narsa demay o’rnidan turdi. (Cho’lpon) 5. O’zingga o’zingni maqtagandan qo’rq. (Maqol) 5. Ana o’sha yerda o’zimizni ko’rsatamiz. (Said Ahmad) 6. Tesha Saidiy bilan bahslashish qo’lidan kelmaganini har bir so’zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi. (Abdulla Qahhor)

Φ 125-mashq. *Hech, har, mana, ana* so’zlari yordamida qo’shma olmoshlar hosil qiling va ularning har biriga bittadan gap tuzing.

126-mashq. O’qing. Olmoshlarning tuzilishiga ko’ra turini aytib bering.

1. Ahmoq o’zini maqtar, Nodon qizini. (Maqol) 2. Qorasoch pari hech qaysisini qabul qilmabdi. (Ertakdan) 3. Ularning otlari ham kishnab yubordi. (Sh.Xolmirzayev) 4. Lekin men kulaman. Nima uchun bunday, taqsir. (A.Qodiriy) 5. Ana undan keyin qayerni xohlasang, o’sha yerga borib maza qilib yashaysan. (Said Ahmad) 6. Bu pullarga sen ham, men ham tegmaymiz. (Said Ahmad) 7. U nega matbuotda hech narsasi ko’rinmasligini so’rab, Saidiyini koyidi. (Abdulla Qahhor)

 **127-mashq.** Bir so’zi yordamida qo’shma olmoshlar hosil qiling. U gumon ma’nosini bersin.

Masalan, uzoqdan bir kishi ko’rindi.

?

Savol va topshiriqlar

1. Sodda olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning imlosini tushuntiring.
2. Qo’shma olmoshlar deb nimaga aytiladi?
3. Qo’shma olmoshlarning imlosi haqida so’zlang.

128-mashq. *Uyga vazifa.–dir* qo’shimchasi yordamida so’roq olmoshlaridan gumon olmoshlari hosil qiling. Ularning yozilishiga e’tibor bering.

Namuna: Tashqarida nimadir taraqladi.

24-mavzu. JUFT VA TAKRORIY OLMOSHLAR HAMDA ULARNING IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan gaplardan olmoshlarni aniqlang.

1. Shu-shu biz qadrdon bo'lib qoldik. (Asqad Muhtor) 2. O'sha voqyealarni eslasam, o'zimdanda o'zim xursand bo'lib ketaman. (Mirmuhsin) 3. Qanchadan-qancha ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar siz-u bizga nasib etdi. (I.To'lakov)

2-topshiriq. Yuqoridagi olmoshlarning tarkibini aniqlang va imlosini tushuntiring.

3-topshiriq. Berilgan so'z va birikmalarning tarkibini aniqlang. O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman, sensira (senla), sizla, o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq.

4-topshiriq. Yuqoridagi so'zlarning ma'nolarini izohlang va har biri ishtirokida gaplar tuzing.



Bilib oling: Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan tashkil topgan olmoshlar juft olmoshlar sanaladi.

Bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarish bilan (masalan, uncha-muncha) takrorlanishidan tashkil topgan olmoshlar takroriy olmoshlar hisoblanadi.

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi.



Bilib oling: Olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin. O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman kabilar sifat, o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq fe'l iboralar sanaladi.

O'zidan ketmoq- "hovliqmoq" ma'nosini, o'ziga kelmoq- "tiklanmoq, o'nglanmoq" ma'nolarini bildiradi.

129-mashq. Ko'chiring. Juft va takroriy olmoshlarning tagiga chizing.

1. Shu-shu Nabijon ham dilni erkalovchi, ham allaqanday iztirobga soluvchi g'alati hislar girdobiga tushib, qoldi. (S.Zunnunova) 2. Sen-bizning ming -yil ibodatimiz-u, ularning bir kunlik xizmatlari-bab-baravar! (Cho'lpon) 3. Toshkent kelgach, Kumushni unutgandek bo'lib, uch-to'rt kun u-bu bilan ovunib yurar. (A.Qodiriy) 4. Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarmabdi: hamon o'sha-o'sha. 5. Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi undan-bundan so'zlashib bordi. (Oybek) 6. Mashina yuborsam, u-bularni berib yuborarsiz (Abdulla Qahhor)

130-mashq. O'qing. Juft va takroriy olmoshlarning yozilishiga e'tibor bering.

1. Shu-shu mana necha -yildirki, o'quvchi bolalar supurib-sidirib qarab turishadi. (S.Zunnunova) 2. U qo'shnisi bilan sen-menga borib qolgan. 3. O'z-o'zinga: "Bu g'urbat fikrlarni bir chekkaga qo'yib tur, eng oldin soy bo'yiga bor, o'zingga jindek oro ber",-dedim (G'afur G'ulom) 4. Ana-mana deguncha oradan o'n -yil o'tibdi-ya. 5. Soyga tushib, kirim ketguncha o'z-o'zimni ishqalab yuvindim. (G'afur G'ulom) 6. Qancha-qancha bedor tunlarning hosilasi bo'lib yangi she'riy to'plam yuzaga keldi.

131-mashq. Ikki guruhga bo'lining. Birinchi guruh juft olmoshlarga, ikkinchi guruh esa takroriy olmoshlarga gap tuzsin. Kim tuzolmay qolsa, yutqizgan sanaladi.



132-mashq. Avval juft olmoshli gaplarni, so'ng takroriy olmoshli gaplarni ko'chirib yozing.

1. Shu-shu bo'ldi-yu Siddiqjon Kanizakdan o'zini mumkin qadar olib qochishga harakat qildi. (Abdulla Qahhor) 2. Buvingdan bir xabar olib kel, yo'ldan u-bu olarsan,-dedi oyim qo'limga pul tutqazib. 3. Siz-biz tushmasin deganimiz bilan tushmay qoladimi? (Cho'lpon) 4.

To'yga kim-kimni aytding? 5. Ana-mana deb hech shu ishga qo'l urolmayapman. 6. – Bozordan nima-nima olay?-dedi yigit onasiga

Φ 133-mashq. O'zboshimcha, o'zbilarmon, o'ziga kelmoq, o'zidan ketmoq, manman olmoshli birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

?

Savol va topshiriqlar

1. Juft olmoshlar deb nimaga aytiladi?
2. Takroriy olmoshlarga misollar keltiring.
3. Juft va takroriy olmoshlar qanday yoziladi?

134-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida juft va takroriy olmoshlar ishtirokida "Obod mahallam" mavzusida matn tuzing.

25-mavzu. MUSTAHKAMLASH DARSI

?

Mustahkamlash uchun savollar

1. Olmosh deb nimaga aytiladi?
2. Kishilik olmoshlariga misollar keltiring.
3. O'zlik olmoshlariga misollar ayting.
4. S o'roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.
5. Belgilash olmoshlari qanday so'roqqa javob b o'ladi?
6. B o'lishsizlik olmoshlari qanday hosil qilinadi?
7. Sodda olmoshlar qaysilar?
8. Q o'shma, juft va takroriy olmoshlarga misollar keltiring.

1-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Ular ichidan olmoshlarni topib, ma'no guruhlariga ajrating.

1. U har -yili ta'tilni o'z qishlog'ida, ota-onasi bag'rida o'tkazadi. (A.Qosimov) 2. Akajon, akajon! U bizning laylak emas. Siz aqllisiz-ku! O'sha cho'loq bilan teng bo'lasizmi? (S.Sirojiddinov) 3. Qiziq, unda nimaga asoslanib shunday qarorga keldingiz? (A.Karimov) 4. Har kim bilganicha maslahat bera boshladi. (N.Norqobilov) 5. Qishloqda Aykadan chiroyli kuchuk yo'q. Hammaning havasi keladi. (S.Mardiyev)

2-topshiriq. "Ov" hikoyasidan olingan parcha haqida bahslashing. Undagi olmoshlarni izohlang.

O'zimga kelsam, dadam daryoning suvidan olib peshonam, yuzim, bo'ynimni ho'llayaptilar.

-E, o'g'lim bola ham shunaqa bo'ladimi? Ovning ham beliga tepding-ku! Nimadan qo'rqding! Yo bir joying og'riyaptimi?-deb so'roqqa tutdilar.

-Dada, jon dada, men sog'lom, qo'rqmadim, faqat ketaylik bu yerdan. Boshqa miltiq otmang, o'rdaklarni, o'ldirmang, tirik jon-ku ular, axir! Bo'lmasa.... bo'lmasa men sizni yomon ko'rib qolaman. (Olmos)

3-topshiriq. Kim, bu, o'sha, barcha, har nima, nimadir olmoshlariga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shing, ular ishtirokida gaplar tuzib ko'chiring, olmoshlarning imlosiga diqqat qiling.

4-topshiriq. "Halqa" o'yinini o'tkazing. Navbatma-navbat olmoshlarga misol ayting. Kim ayta olmasa, o'yindan chiqariladi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi.

5-topshiriq. Quyidagi olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing. Ularning qaysi so'z turkumlari o'rnida almashinib kelayotganini toping.

Kimingiz, qandayligini, o'shanga, har birimizdan, qanaqasiga, hech kimning, mendan, sizga, ularnikiga.

6-topshiriq. Uyga vazifa. "Sen ham, siz ham bir og'izdan chiqadi" mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan olmoshlarni izohlang.

26-27 darslarda diktant va uning tahlili o'tkaziladi

SO'ZLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

28-mavzu. ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

ISMLAR HAQIDA

So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so'zlarni otlar, fe'llar, yordamchilarga (yordamchilarni predloglar va yuklamalarga) ajratgan edilar.

Hindlarning tilshunoslik g'oyalari bilan oziqlangan arablar so'zlarni uchga; ismlar (ismun), fe'llar (fe'lun), yordamchilar (harfun)ga bo'ladilar.

Hind tilshunoslari fikrlari aosisda yunon olimlari, xususan Arastu ham so'zlarni ana shunday uchga ajratadilar. Faqat keyinchalik yunonlar otlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni ajratadilar.

G'arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an'anaga amal qilib, mustaqil so'zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar. Aslida dastlabki to'rtta so'z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o'rnida almashinib keluvchi so'zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so'zlar (imena) nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o'rganib kelganlar.

Bu so'z turkumlarining, deyarli, hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki son, olmoshlarga, shuningdek harakat nomi, sifatdash va taqlil so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni *ismlar* atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Φ 135-mashq. Matnni o'qing. Matndagi so'zlardan narsaning nomini, belgining nomini, miqdorning nomini va nomlar o'rnida almashib keluvchi so'zlarni to'rt ustunga ajratib, jadvalga joylang.

Narsaning nomi	Belgining nomi	Miqdorning nomi	Nomlar o'rnida almashinib keluvchi so'zlar

“Yorug‘, keng xonadagi karavotlarning birida qirq yoshlar chamasidagi ayol yotardi. Rangi bir oz oqarinqiragani uchun qoshlari yana ham qora, quyuq ko‘rinar, peshonasiga tushib turgan qo‘ng‘ir sochlarining jingalagi ham bir oz ko‘kargan, lekin g‘unchadek lablari o‘ziga yarashgan, bejirim edi. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko‘ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi. Eri poyezdda ishlar ekan. Shuning uchun haftada bir keladi. O‘g‘ilchasini yetaklab olma, apelsin to‘ldirilgan sumkani ko‘targanicha javdirab kirib keladi-da, xotining oyoq tomonida o‘tirib unga termiladi”. (S.Zunnunova)

136-mashq. Matnni o‘qing. Matndagi ismga oid bir-biriga va boshqa so‘zlarga bog‘lanishida ko‘mak berayotgan qo‘shimchalarni aniqlang.

“Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti Og‘ayni yulduzlari o‘sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o‘tib, g‘arbga botib ketardi. O‘sha yerda ham Yetti Og‘ayni ufqqa bosh qo‘ygan sari Hulkar yulduzlarni osmonning baland joylariga chiqib borardi. Bobur o‘smirligida Hulkar yulduzlarini olmosdan yasalgan varrakka o‘xshatardi. Dumini quvnoq silkitib uchadigan olmos varrak uning hayolini yana musaffo bolalik -yillariga olib ketdi. Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko‘rgan yulduzlari umrining oxirida Agrada ham chaq nab turgani unga so‘nggi bir tasallidek tuyuldi. Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog‘lom yigitga aylanib, Andijon chorbog‘ining supasida yotganday bo‘ldi. Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladi....

Tun yarmidan oshganda Tohirning o‘kirib yig‘lagani qorong‘i bog‘ni zir titratdi....” (P.Qodirov)

137-mashq. Berilgan so‘zlar qatoridan ismlarni ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Non, to‘ymadi, daraxtdan, qo‘rqdi, ikki, kichik, uyg‘onmoq, qizil, qirqma, ozod, epchil, yaxshilik, yuqorida, eshitdi, barchasi

 **138-mashq.** Matnni o‘qing. Ismlarni toping va ular qaysi so‘z turkumiga mansubligini ayting.

Podshoh noiloj bir qancha mol-u amvol berib, kenja o‘g‘lini ham jo‘natibdi. U tez-tez yurib, bir hafta deganda akalariga yetib olibdi. Yurib-yurib bir manzilga yetibdilar.

Uch yo‘l kelibdi. Biri borsa kelar, ikkinchisi borsa xatar, uchinchisi borsa kelmas ekan.

Katta akasining joni bo‘shroq ekan. U borsa kelarga ketibdi, o‘rtanchasi borsa xatarga, kichkinasi borsa kelmasga xayrlashib jo‘nabdi. («Ertaklar olamiga sayoxat» kitobidan)

?

Savol va topshiriqlar

1. Qadimda soʻzlar qanday guruhlariga boʻlingan?
2. Ismlar deganda qaysi soʻz turkumlari tushuniladi?
3. Ismlarning oʻziga xos xususiyati nima?

139-mashq. Uyga vazifa. Berilgan «Hadis»ni yozing. «Hadis»dan qanday xulosa chiqardingiz? Tagiga chizilgan soʻzlarning qanday soʻz ekanligini aniqlang.

Bir kishi Rasulullohdan «Men yaxshiligimni kimga qilsam boʻladi?» - deb soʻrabdi. - «Onangga», - debdilar Rasululloh. U kishi savolini uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh «Onangga», deyaveribdilar. Toʻrtinchi marotaba yana soʻrabdi. Shunda «otangga va yaqin boʻlgan qarindoshlaringga»- debdilar.

29-mavzu. ISMLARNING LUGʻAVIY VA MUNOSABAT SHAKLLARI

1-topshiriq. Soʻzlarning lugʻaviy va munosabat shakllari haqida 6-sinfda oʻtilgan materiallarni eslang.

2-topshiriq. Berilgan birikma va gaplardagi nuqtalar oʻrniga qavs ichida berilgan qoʻshimchalardan mosini qoʻyib koʻchiring.

1. *Daftar(-ga,-lar,-dan,ning) varaq....(-ga,-im,-i).* 2. *Maktab....(-lar,-dan,-ga) keldim.*

3-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga qoʻyilgan qoʻshimchalarning qanday vazifa bajarishini aniqlang.



Bilib oling: Ismlarning soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarsiz qismi ularning lugʻaviy shakli sanaladi.

Egalik, kelishik, -man,-san,-dir qoʻshimchalariga ega boʻlgan shakli esa munosabat shakllari hisoblanadi.

Egalik, kelishik, -man,-san, dir qoʻshimchalarining munosabat shakllari deyilishiga sabab shuki, bu qoʻshimchalar ism asoslariga qoʻshilib, ularni boshqa soʻzlarga bogʻlab kelish va gap boʻlaklarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, ismlarning munosabat shakllariga quyidagi shakllar kiradi:

1) egalik shakllari; 2) kelishik shakllari; 3) ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi *-man,-san,-dir* qoʻshimchalari, *boʻlmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* soʻzlari. Uchinchi turdagi qoʻshimchalar bogʻlamalar deb ham yuritiladi.

140-mashq. Oʻqing. Gaplardagi ismlarning lugʻaviy shakllarini ajratib, ularning qanday shakl ekanligini izohlang.

1. Sizni zeriktirib qoʻymaslik uchun gapimni choʻzmay qoʻya qolay. (X.Toʻxtaboyev) Ona hamon uni bagʻridan qoʻyib yubormas, peshonalaridan silar, yuz-koʻzlaridan tinmay oʻpardir. (Said Ahmad) 3. Komila darvozani ochganda, yerda yotgan konvertga koʻzi tushdi. (S.Zunnunova) 4. Katta bir maydonda osmonga otilib turgan favvoraning suvi siyohday qoramtir koʻrinadi. (P.Qodirov) 5. Navoiy ularning qatoriga oʻtirdi. (Oybek) 6. Boʻgʻzimga bir hiqichoq tiqildi, vujudimni bir titroq qopladi. (GʻofurGʻulom)

141-mashq. Ko‘chiring. Munosabat shakllarining tagiga chizing. Ularni izohlang.

1. Jon do‘sting jonidan kechsa ham, Mol do‘sting molidan kechmas. (Maqol) 2. Qurbon cholning gapini eshitib hayron qoldi. (Sh.Xolmirzayev) 3. Ra‘noning yerga qaragan ko‘zi sekingina Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. (A.Qodiriy) 4. Hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi. (Cho‘lpon) 5. Humoyun hamma dardini aytib ko‘nglini bo‘shatsin uchun Xonzoda begim uning so‘zini bo‘lmay toqat bilan jim tingladi. (P.Qodirov) 6. Chol podshoning oldiga borib, savoliga javob beribdi. (Ertakdan)

 142-mashq. Quyidagi ismlarni bir-biriga bog‘lash uchun nuqtalar o‘rniga mos keladigan munosabat shakllarini qo‘yib o‘qing.

Halima....	kitob....	Men o‘quvchi....
paxta....	chigit....	Ko‘ylak qizil
dala....	bordi.	Uch karra uch to‘qqiz....
ish....	qaytdi.	Sen men.... yosh....

Φ 143-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos munosabat shakllarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Ra‘no.... koptok.... 2. Kitob.... varaq.... yamaldi. 3. Qoramug‘.... don.... bo‘lguncha bug‘doy.... somon.... bo‘l. Yomon.... yaxshi.... bo‘lguncha yaxshi.... yomon.... bo‘l. (Maqol) 4. Men o‘quvchi...., sen sportchi.... 5. Jahl-dushman...., aql-do‘st.... (Maqol) 6. Yolg‘on aytgan kishi...., xatar.... bor ishi....(Maqol)

144-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ismlarga qo‘shilgan munosabat shakllarining tagiga chizing va ularni izohlang.

1. U Saidiyning sharbatini so‘rib bo‘ldi, endi po‘chog‘ini puflab tashlashi kerak. (A.Qodiriy) 2. Ikkinchi akasi ham o‘zini nodonlikka solib tek turdi. (Ertakdan) 3. U kallasini omburdek siqib olgan sovuq vahimani miyasidan arang daf qilib, otiga arang mindi-da, kasalxona hovlisini tark etdi. (O.Yoqubov) 4. Hamidaxon ishdan qaytishda bog‘chadan qizchasini oldi. (S.Zunnunova) 5. Oyparcha hayolida Po‘latxo‘jayevning «aybli» ekanini qayd etib tursa-da, bu mudhish ishdan larzaga tushgan edi. (Sh.Xolmirzayev)

6. Borma aytmaganning dasturxoniga,
Qo‘l uzatsang, qadring tushar noniga,
Qo‘shma o‘zgalarning barra kabobin,
Qotgan nonu sovuq suving soniga

(Pahlavon Mahmud)

?


Savol va topshiriqlar

1. Ismlarning lug‘aviy shakllari qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
2. Ismlarning munosabat shakllari qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. –man, -san, -dir qo‘shimchalari qanday qo‘shimchalar sanaladi?

145-mashq. «Bog‘da» sarlavhasi ostida kichik hikoya tuzing. Unda qanday munosabat shakllaridan foydalanganingizni ayting,

30-mavzu. EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan birikmadagi nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalar qo‘shing.



2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga nima sababdan yuqoridagidek qo‘shimchalar qo‘shganingizni ayting.



Bilib oling: Ismlarga qo‘shilib, asos qismdan ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-hoлатlarni uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan qo‘shimchalar egalik qo‘shimchalari hisoblanadi.

Shaxsni bildiruvchi so‘zlar esa qaratqich kelishigi shaklida bo‘ladi. Demak, tobe qism ham, hokim qism ham ismlardan iborat bo‘ladi. Egalik qo‘shimchasi hokim qismda bo‘ladi.

146-mashq. *Ona* va *kitob* so‘zlarini egalik qo‘shimchalari bilan shaxs va sonda o‘zgartiring. Unli bilan tugagan ismlar va undosh bilan tugagan ismlarga qanday egalik shakllarini qo‘shganingizni ayting.

Esda saqlang: Quyidagi shakllar egalik qo‘shimchalari sanaladi:

shaxs son	birlik	ko‘plik
I shaxs	-m (-im)	-miz (-imiz)
II shaxs	-ng (-ing)	-ng (-ingiz)
III shaxs	-i (-si)	-lari



Bilib oling: Undosh bilan tugagan ismlarga *-im, -imiz, -ing, -ingiz, -i, -lari*; undli bilan tugagan ismlarga *-m, -miz; -ng, -niz, -ngiz; -si, -lari* qo‘shimchalari qo‘shiladi.



147-mashq. Quyidagi birikmalarda III shaxs egalik qo‘shimchalarining vazifasi haqida fikr yuriting.

«Navoiy bog‘i, o‘qish kitobi, Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumani, Jizzah viloyati, mustaqillik bayrami

! **Esda saqlang:** Viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida qo‘llanilgan III shaxs egalik qo‘shimchasi shaxsga qarashlilik ma‘nosini emas, balki xoslik, umundan ajratilganlik ma‘nosini ifodalaydi. Shuning uchun bunday birikmalarda III shaxs egalik qo‘shimchasini olgan qism (qaralmish)dan oldingi qism qaratqich kelishigida qo‘llanilmaydi. Masalan, Boburning bog‘i emas «Bobur»bog‘i; Balxashning ko‘li emas, Balxash ko‘li.

148-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tartibidagi egalik qo'shimchalarining vazifalarini qiyoslab tushuntiring.

1. **Kechasi** ishlaydi, **kunduzi** uxlaydi. (topishmoq) 2. Kunduz **kunlari** aniq bilinadi. 3. Kecha **dam olishimiz** juda maroqli o'tdi. 4. **Tuni** bilan mijja qoqmadi. 5. Bu yerlarning **yozi** juda so'lim.

Bilib oling: -i,-si egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'qotgan.

149-mashq. Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarining tagiga chizing. 5-gapga alohida e'tibor bering.

1. Ena buvining hayoli allaqayoqlarga borib keldi. (G'afur G'ulom) 2. Kimyogar ba'zi ilmlar haqida suhbatlashgandan keyin uning zehniga, ma'lumotining kengligiga taajjublanganini yashirmadi. (Oybek) 3. Oradan ikki kun o'tgandan keyin kechqurun Tesha Saidiyning hujrasiga keldi. (Abdulla Qahhor) 4. To'ra qizidan tilla oynagini olib, stol ustiga qo'ydi va o'z tizzasi bilan stol o'rtasida yo-yilib yotgan gazetaga qaradi. (Cho'lpon) 5. Kechasi bilan uxlamagan. (S.Zunnunova) 6. Oyijonim, mehribonim, meni izlab zor-zor yig'lab yurgandirsiz.

150-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchalarini topib, nechanchi shaxs ekanligini aniqlang.

1. Tashqaridan otning gupuri eshitildi. (Sh.Xolmirzayev) 2. O'y-hayollarim xuddi shu yerga kelganda meni yana uyqu elita boshladi. (X.To'xtaboyev) 3. Nima bo'ldi? Tobingiz qochdimi? (S.Zunnunova) 4. Hoy, Nigora, qo'g'irchog'ingni o'ynasang-chi! 5. Axir bu xonadonimizga isnod-ku! (S.Zunnunova) 6. Baland-past daraxtlarning uchlarida hamda keng dalaning bir qismida ertalabki quyoshning shu'lasini ko'rindi. (Cho'lpon)

151-mashq. Gaplarni ko'chiring. Qaysi so'zlarda egalik qo'shimchasi o'z vazifasini yo'qotganligini aniqlang. O'zingiz ham shunga o'xshash ikkita gap tuzing.

1. Ertasiga tabel haqida bir og'iz so'z bo'lmadi. (X.To'xtaboyev) 2. Shu nomerning xo'jayini kechasi soat ikkilarda buning eshigini chertib ochirdi. (Cho'lpon)

152-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchalarini toping. Nega aynan shu qo'shimcha qo'shilishining sababini ayting?

1. Oltin quticha Hamida bonuning kissasidan qayta joy oldi. (P.Qodirov) 2. Yig'layverib Santalatning ko'zida yosh qolmadi. (S.Zunnunova) 3. Baxting ochilsa, qo'shni bo'lamiz, orasi yaqin. (Oybek) 4. Darvoqe, Anvarga ko'p mehnatim singgan,-dedi maxdum maqtangansimon. (A.Qodiriy) 5. Bizning butun fojeamiz shundaki,-dedi u,-do'stimiz bilan dushmanimizni ajrata olmaymiz. (Cho'lpon) 6. Akademiyamiz o'zbek ilmining porlagan chirog'i, quyma haykali. (G'ofurG'ulom)

Φ **153-mashq.** *Toshkent shahri, «Bolalar» jamgʻarmasi, Fargʻona viloyati kabi birikmalar qatorini davom ettiring. Bu birikmalarning tarkibidagi egalik qoʻshimchalarining vazifalarini tushuntiring.*

?

Savol va topshiriqlar

1. Egalik qoʻshimchalari deb qanday qoʻshimchalarga aytiladi?
2. Unli bilan tugagan ismlarga qaysi egalik qoʻshimchalari qoʻshiladi?
3. Undosh bilan tugagan ismlarga qaysi egalik qoʻshimchalari qoʻshiladi?

154-mashq. *Uyga vazifa. Berilgan gaplardagi nuqtalar oʻrniga zarur egalik qoʻshimchalarini qoʻshib gaplarni koʻchiring.*

1. Olmaning ikki palla... .dek yarashgansizlar. (Asqad Muxtor) 2. Sochi... . oʻsib, yelka...ga tushib ketgani uchun oldirmoqchi edim. (Gʻafur Gʻulom) 3. Birdan Boʻtaboyning jahl... chiqib ketdi. (Abdulla Qahhor) 4. U mening ustoz... boʻladi. (H.Toʻxtaboyev) 5. Piyozi oʻtoq qilish-xotinlarning ish... . 6. Latofatning savoli... qoʻqqisdan berilgan boʻlsa ham, Fazilat qizining gap... ni ilgʻab oldi. (O.Yoqubov)

31-mavzu. SIFATDOSH VA HARAKAT NOMLARIDAGI EGALIK QOʻSHIMCHALARINING VAZIFASI

1-topshiriq. Gaplardagi sifatlanmishlarni tushirib, ulardagi egalik qoʻshimchalarini sifatdoshlarga qoʻshing. 1. *Koʻr tutgan narsasini qoʻymas, kar eshitgan gapini qoʻymas. (Maqol)* 2. *Bilgan narsang naf keltirar. (Maqol)* 3. *Oʻqigan narsam xotiramda muhrlanadi.*

2-topshiriq. Hosil boʻlgan gap bilan avvalgisini qiyoslab, qanday oʻzgarish boʻlganini izohlang.

3-topshiriq. Gaplardagi ajratib koʻrsatilgan sifatdosh va harakat nomlari tarkibida kelgan egalik qoʻshimchalarining vazifasini tushuntirishga harakat qiling. 1. *Yoʻqlab kelganingiz koʻnglimni koʻtardi. (Oybek)* 2. *Oʻqishingizdan xursandman.* 3. *Buni sir tutganingiz maʼqul. (O.Holdor)*



Bilib oling: Sifatdosh va harakat nomlari tarkibidagi egalik qoʻshimchalari harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradi. Shuning uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi soʻzning qoʻllanilishiga ehtiyoj boʻlmaydi.



155-mashq. Maqollarni oʻqing. Maʼnosini bilib oling. Egalik qoʻshimchalarini topib, vazifasini tushuntiring.

1. Boʻzchi bilganin toʻqir, Baxshi bilganin oʻqir. 2. Boqqaning ikki echki, Oʻshqirganing yer tebratar. 3. Mulla bilganin oʻqir, Tovuq koʻrganin choʻqir. 4. Mehnat qilib topganing-Qandu asal totganing. 5. Bilganing-bir toʻqqiz, Bilmaganing-toʻqson toʻqqiz. 6. Bilganingni eldan ayama. 7. Urishganing oʻz ogʻayning boʻlsin.

156-mashq. Oʻqing. Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qoʻshimchalarning vazifasini tushuntiring.

1. Olmoqning bermog'i bor. (Maqol) 2. Oy to'lganini bilmas, (Maqol) 3. Yakka qolganing yomon bo'libdi. (Said Ahmad) 4. Jannat nima deyishini bilmadi. (Said Ahmad) 5. Chekishlarini qarang, bir oz uxlab olsalar bo'lardi. (S.Zunnunova) 6. Yoqutxon bilan Saidjon akamning tillasidan xomtalashda uch-to'rt tanga olib qolay deb chopib yurganingizni ham bilamiz. (X.To'xtaboyev)

157-mashq. Egalik qo'shimchasini olgan so'zni topib, tushib qolgan qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan shaxs bildiruvchi so'zga bog'lab ko'ring. Qaysi holat o'ng'ay ekanligini aniqlang?

1.-Ko'raman kirmaganingni,-dedi Bo'taboy otlanayotib. (Abdulla Qahhor) 2. Menga g'ayir ko'zi ila qarashingiz tabiiy, deb hisoblayman. (Sh.Xolmirzayev) 3. Xuddi aytganimday bo'ldi-ya. (O.Yoqubov) 4. O'qishlaringiz yaxshimi? (S.Zunnunova) 5. Albatta, o'zing birga borasan, qudalaring bilan tanishmog'ing ham zarur. (A.Qodiriy) 6. Aytganingiz kelsin, mavlono! (P.Qodirov)

Φ 158-mashq. Tushib qolgan qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan so'zni qo'shib o'qib ko'ring. Sizningcha qaysi holat ma'qul?

1. Ziyodaxon opa, un elashingizdan bugun kechqurun chuchvara qilib beradiganga o'xshab qoldingiz. (Abdulla Qahhor) 2. Bu kecha qilmoqchi bo'lgan tintuvingiz menga yoqmayroq turibdi. 3. Eshitishimcha, sening institutingda o'qiyotgan daholar bizda paxta terayotgan emish. (O.Yoqubov) 4. Nizomning avzoyiga qarab kulishini ham, so'rashishini ham bilmay o'rnidan turdi. (S.Zunnunova) 5. Ahvolimizga achinayotgani shundoqqina ko'zlaridan bilinib turardi. (X.To'xtaboyev) 6. Mirzolarni kutganidan ham oson yenggan Shayboniyxon Kahdiston degan xushhavo o'tloqqa tushib shohona choldirlarini tikirdi. (P.Qodirov)

159-mashq. Ko'chiring. Egalik qo'shimchasini olgan so'zning tepasiga shaxsini yozib qo'ying.

1. Usmonali yugurib kirdi. Nima deyishini bilmay turib qoldi. (S.Zunnunova) 2. Otabek, bu gal Toshkentdan chiqishingizdagi asl maqsadingiz nimaga edi. (A.Qodiriy) 3. –Xo'sh, dadang nima dedi o'zi? –Shu, hozir aytganim. (X.To'xtaboyev) 4. Bola darsdan chiqquncha, maktabning ostonasida o'tirganlari, Tursunboyga povestka kelganda, yig'laganlari bir-bir ko'z oldidan o'taverdi. (Said Ahmad) 5. Mana shundan xulosa chiqarib olishingiz mumkin. (Abdulla Qodiriy) 6. Oxiri baxayr bo'lsin, Roziya. Boshlanishi yaxshi. (P.Qodirov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Sifatdoshlarga egalik qo'shimchalari qay tartibda qo'shiladi ?
2. Harakat nomlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ularni izohlang.
3. *Turishim, yurganing, aytganimiz* so'zlari tarkibidagi egalik qo'shimchalariga izoh bering.

160-mashq. Uyga vazifa. Egalik qo'shimchalarini olgan sifatdosh va harakat nomlarini qatnashtirib to'rtta gap tuzing.

32-mavzu. EGALIK QO‘SHIMCHALI SO‘ZLARNING IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shing. *Idrok, ishtirok, qishloq, yurak, bilak*

2-topshiriq. Egalik qo‘shimchalari qo‘shilgandan so‘ng asos qismda qanday o‘zgarish ro‘y berganini ayting.



Bilib oling: *Terak, qishloq, bolalik* singari ikki va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, asos qismning oxirgi *k, q* tovushi *g* va *g‘* ga aylanadi va shunday yoziladi.

Qorin, o‘g‘il, singil kabi ikkinchi bo‘g‘inida *i* unlisi ishtirok etgan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda ikkinchi bo‘g‘indagi *i* unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi.

Nok, chok singari bir bo‘g‘inli, *idrok, ishtirok* singari ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, asos qismda hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi.



161-mashq. Berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shing. Qaysilarida asos qismda tovush o‘zgarishi ro‘y berayotganini va imlosini tushuntiring.

Ko‘zoynak, bilak, tilak, oynak, ko‘rshapalak, chelak, parrak, ko‘prik, tuk, oppoq, yuk, so‘roq, buyruq, sog‘lik, ittifoq, huquq, ahloq. Bilak, yurak, terak, o‘rmak, kurmak, elak, kurtak, tilak, pipirak, etak, varaq, taroq, tirnoq, chirmovuq, qiliq.

162-mashq. Quyidagi so‘zlarga 3-shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini qo‘yib ko‘chiring. Asosdagi tovush o‘zgarishlariga e‘tibor bering.

O‘rnak, kurtak, kurmak, ertak, chelak, oppoq, so‘roq, buyruq, ittifoq, sog‘lik, axloq

163-mashq. Quyidagi so‘zlarga 1 shaxs ko‘plikdagi egalik qo‘shimchasini qo‘shib ko‘chiring. Tovush o‘zgarishi ro‘y berish-bermasligini aniqlang.

1. Kek, tuk, tok, ishtirok.
2. Ahloq, huquq, xalq, haq, xulq, ittifoq, sharq

Φ **164-mashq.** Quyidagi so‘zlarga II shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘chiring. Tovush o‘zgarishiga e‘tibor bering.

So‘zlar: ko‘ngil, og‘iz, bo‘yin, qo‘yin, bo‘g‘iz, o‘g‘il, o‘rin, burun, qorin.

165-mashq. O‘qing. Egalik qo‘shimchasini toping. Asos qismda tovush o‘zgarishi ro‘y berish-bermasligini aniqlang.

1.-O‘rmonjon mening tutingan o‘g‘lim-ku! (Abdulla Qahhor) 2.-Charchabsan, og‘ayni, dedi ko‘zidan ko‘kintir ko‘zoynagini olib. (O.Yoqubov) 3. Ikki yigit uni bilagidan olib ot minishiga qarashib yuborishdi. (Said Ahmad) 4. Asosiy javobgarlik direktorning bo‘ynida. (X.To‘xtaboyev) 5. Xo‘jayinning ko‘nglidan bir qancha gaplar o‘tdi. (Ertakdan) 6. Marg‘ubaning qulog‘iga tanish ovoz chalindi-yu, yuragi urib ketdi. (S.Zunnunova)

166-mashq. Quyidagi soʻzlarga egalik qoʻshimchasini qoʻshing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Soʻzlar: boʻgʻiz, burun, qurum, qorin, haq.

?

Savol va topshiriqlar

1. *Koʻngil, singil* soʻziga egalik qoʻshimchalari qoʻshing va asos qismda boʻlayotgan oʻzgarishni tushuntiring.

2. Asos qism *-k, -q* undoshlariga tugagan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qay taxlitda qoʻshiladi?

3. *Haq* va *pishloq* soʻzlariga egalik qoʻshimchalarini qoʻshing va ularni izohlang.

167-mashq. Uyga vazifa. *Pirpirak, gʻildirak, butoq, xalq, boʻyin, qoʻyin* soʻzlariga egalik qoʻshimchalarini qoʻshing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

33-mavzu. MUSTAHKAMLASH DARS

?

Mustahkamalash uchun savollar

1. Egalik qoʻshimchalari deb nimaga aytiladi?
2. Nima uchun ular birlik va koʻplikda ishlatiladi?
3. Egalik qoʻshimchalari otlarga qay taxlitda qoʻshiladi?
4. *Qoʻsh, uka, singlim* soʻzlariga egalik qoʻshimchalarini qoʻshing.

1-topshiriq. Matnni oʻqing. Nuqtalar oʻrniga egalik qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib koʻchiring.

Ertalab choy ichamiz. Ona..., opa..., bobo..., buvi... va men- hamma... ayvonda, dasturxon atrofida davra qurganmiz. Bobo... toʻrda, men uning pinjida oʻtiranman. Pastda, samovarning yon...da ona... choy quyib ulgurmaydi.

Birpasda bobo... ning yelka... ga osilib olaman, quloqlar...ni ushlayman, burushiq yuzlar...ni silayman.

-Hoy, qoʻy, bola..., tek oʻtir! Choyini toʻkding-ku!-deydi bobo... koyinib. (Oybek)

2-topshiriq. Matnni oʻqing. Soʻzlarga qavs ichida berilgan egalik shakllaridan mosini qoʻying va ularni izohlang.

Qishloqda duv-duv gap tarqaldi: Aʻlochi bola Qrimga borarmish!

Opa (-m,-si,-ng) ishda ekan, bu gapni koʻchada eshitib, bir mahal hovliqqanicha...

Ona (-miz,-lari,-ng) aylansin!-deya ostonadan koʻz (-lar,-ingiz,-i)da yosh bilan kirib keldi.-Onagina (-ng,-si,-lari) aylansin.

Soʻng oʻgʻlini bagʻriga bosib, peshona (-ng,-si,-ngiz)dan, yuz-koʻzlar (-si,-i,-ingiz)dan oʻpdi, boʻyi bilan teng qomatini koʻrib, battar diyda (-miz,-si,-ingiz) boʻshashdi:

-Ota (-imiz,-ng,-miz) shoʻrlik koʻrmadi bu kunlaringni...

Yigʻlamang, oyi,-dedi Aʻlochi bola oʻpka (-miz,-si,-ng) toʻlib. (H.Sultonov)

3-topshiriq. Egalik qoʻshimchasining qoʻshilishi natijasida asosda boʻlayotgan oʻzgarishlarga diqqat qiling va ularni izohlang.

1. Og‘ziga kelganni gapirmoq nodonlar ishi. 2. Do‘stingning yutug‘i-sening yutug‘ing. 3. Tiling bilan ko‘nglingni bir tut. 4. Aqlli odam har doim o‘z o‘rnini bilib o‘tiradi. 5. Ilon zahridan tilning zahri o‘tkirroqdir.

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Egalik qo‘shimchalarining allalarga va harakat nomlariga qo‘shilishiga diqqat qiling.

Alla! Bu tungi shabadalarning inson tomirlariga oqib kirishimi? Yulduzli shu‘larning murg‘ak yuraklarga qu-yilishimikin? Alla ona O‘zbekistonimning yurak sadolari... U bog‘lar qo‘shig‘i, tog‘lar g‘ururi, maysalar tabassumi, suvlar jilmayishi. U beshikning sarxush tebranishi, yomg‘ir tomchilari, qayg‘u va quvonch, Vatanning ona tilidagi suratlari. (M.Tillaboyeva)

5-topshiriq. "Kuch-birlikdadir" mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so‘zlar tarkibidagi egalik qo‘shimchalarini izohlang.

6-topshiriq. Uyga vazifa. Matnni ko‘chiring. Egalik qo‘shimchalarining tagiga chizib, ularni izohlang.

Dadam ko‘nmadi. Shosha-pisha ketib qoldi. Ammam ikkalamiz ayvondan o‘tib, uyga kirdik. Ammamning uyi biznikiga o‘xshagan emas. Hammayoq top-toza. Hatto derazalarda ham parda bor. Tokchalardagi lagan-barkashlar yaltiraydi... Devorda ikkita surat bor. Ikkalasiyam sarg‘ayib ketgan. Bittasi Husan bevamniki. Boshiga kichkinagina salla o‘ragan, cho‘qqisoqol chol. Negadir doim qovog‘ini solib turadi. Bittasi yosh yigit. Boshida do‘ppi, egnida to‘n. Hiyol jilmayib turibdi. (O‘.Hoshimov)

37-38 darslarda yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

34-mavzu. KELISHIK SHAKLLARI

1-topshiriq. Gapdagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Fabrika.... (-dan,-ga,-ning) yo ‘li.... (-ning,-da,-ga) ro ‘molcha topib oldim. (Qo‘shiq)

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga qo‘-yilgan qo‘shimchalarning qanday vazifa bajarishini izohlang.

3-topshiriq. Kelishik qo‘shimchasini olgan so‘zning qaysi so‘zga bog‘langanini va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.



Bilib oling. Ismlarni boshqa so‘zlarga tobelashtirib bog‘lash uchun xizmat qiluvchi shakllar kelishik shakllari sanaladi.

Kelishik shakllari doimo tobe so‘z oxiriga qo‘shiladi. Demak, kelishik shaklini olgan so‘z tobe, bu so‘z bog‘langan qism esa hokim so‘z hisoblanadi.

O‘zbek tilida oltita kelishik mavjud bo‘lib, ularning har qaysisining o‘z nomi va shakli bor.

168-mashq. Berilgan jadvaldagi kelishiklar nomi va shakliga e‘tibor bering.

	Kelishik nomlari	Qo‘shimchalari	Misollar
--	-------------------------	-----------------------	-----------------

1.	Bosh kelishik	-	It, hurar, korvon o'tar (Maqol)
2.	Qaratqich kelishigi	-ning	kitobning varag'i
3.	Tushum kelishigi	-ni	Vatanningni sev, tuprog'ini o'p.
4.	Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka,-qa)	Betga aytganning zahri yo'q. (Maqol)
5.	O'rin-payt kelishi	-da	Andijonda o't yoqsam, O'shda tutun. (Qo'shiq)
6.	Chiqish kelishigi	-dan	Kitobdan o'rgandim.



Bilib oling. Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish turlanish de-yiladi.

169-mashq. Berilgan so'zlarni turlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
Bet, sandiq, gap, men, dunyo, bola, dengiz, savdo.



170-mashq. Matnni o'qing. Kelishik qo'shimchalari bilan o'zgargan so'zlarni topib, jadvalga joylashtiring.

-Ha, ishqilib, bola-chaqasining eshligini ko'rsin. Endi bu yoqqa qara, o'g'ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana yorug' yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg'alib pastga tush, o'tinimiz yo'q. Oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg'on qo'yaman. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yanman. Birgalashib choy ichamiz. (G'ofurG'ulom)

	Kelishiklar	So'zlar
	Bosh kelishik	
	Qaratqich kelishik	
	Tushum kelishigi	
	Jo'nalish kelishigi	
	O'rin-payt kelishigi	
	Chiqish kelishigi	

171-mashq. Matnni o'qing. Tagiga chizilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Ularning qaysi biri hokim, qaysisi tobe so'z ekanligini aniqlang. Tobe so'zning qaysi kelishikda ekanini ayting?

Shoir yengil bir so'lish olib, tanburni tokchaga tirab qo'ydi. **Barmog'idan noxunni** chiqardi. Daricha yoniga o'tirdi. **Hovlida shabada** bilan o'ynashgan **daraxtlarning** yengil **kuyidan** boshqa **sado** yo'q. **Shoir o'yga** toldi. Mana u yana **Hirotda**, o'z uyida.... Balki endi butun umr bu suyuqli **shaharda** muqim bo'lib qolar.... **Kim** biladi, **taqdirning xohishi**, **jilvasi** yana qanday kutilmagan **o'yinlar** ko'rsatar ekan! (Oybek)

Φ 172-mashq. Faqat kelishik qo'shimchalari orqali borsangiz xonadan chiqib ketasiz.

гач	чи	га	-гич	-иш
нинг		лар	-ни	-ла
	-ми			
-дир	-ди	-да	-ма	-дан

173-mashq. Yozing. Turlangan soʻzlarni tagiga chizib, qaysi kelishikda ekanini ayting.

Aytayinmi bir savolimni,
Darsdan qochgan aldaydi kimni?
Toʻrtta bola kecha dars payti
Gʻoyib boʻldi misoli daydi.
“Koʻrmadimi hech kim basharti”
deb pastqamda alanglashardi,
Oʻqituvchi yangi dars oʻtar,
Keb qolar, deb ularni kutar
Ota-ona esa uyida
Darsda, deya oʻylar oʻyida....
Bolalar-chi sanqishar boʻm-boʻsh,
Ular kimni aldashadi, xoʻsh?
Ayta qolay gapning uchini,
Aldashadi oʻqituvchini
Topishar-da vaj-bahonasin,
Aldashardi ota-onasin....
Bular juda qattiq adashar.
Ularimas, oʻzni aldashar! (Poʻlat Moʻmin)

?

Savol va topshiriqlar

1. Turlanish nima?
2. Kelishik shakllari qanday vazifa bajaradi?
3. Oʻzbek tilida nechta kelishik bor. Ularni ayting.
4. Uchta soʻz topib, ularni kelishik qoʻshimchalari bilan turlang.

174-mashq. Uyga vazifa. Matnni koʻchiring. Unda turlangan sozʻlarning tagiga chizing va qaysi kelishikda ekanini ayting. Matn mazmuniga eʼtibor bering.

Bobosi soʻzini eshitgan nabira oldidagi kitoblarni taxlay boshladi, soʻng tokchadan xurjunni olib, unga kitoblarni solishga shaylandi. Bolaning bu qiligʻini koʻrib Temurning rangi oʻzgardi.

-Bolalik qilmang, mirzo, bunaqada kitoblarni xor qilasiz-ku! Kitob muqaddas narsa, uni avaylash kerak. Tuz-namakni, ota-onani, ustozni qanday qadr etish lozim boʻlsa, kitobni ham shunday eʼzozlash joiz.... Siz kitoblarni hurjundan oling-da, tokchaga taxlang. (Xurshid Davron)

35-mavzu. BOSH KELISHIK SHAKLI

1-topshiriq. Matndan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligi va qaysi kelishik shaklida ekanligini aniqlang.

Anvar, qorni och bo'lsa kerak, dasturxonni Muhayyoning qo'lidan olib, uni buzuq avtobusga boshladi. Dasturxonni darrov ochdi. Ovqat ko'pligini ko'rib, Muhayyoning ijozati bilan ustasi, oqsoq cholni chaqirdi. (A.Qahhor)

2-topshiriq. Bosh kelishik shaklidagi so'z gapda qanday vazifada kelayotganini ayting.



Bilib oling. Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl kim? nima?, qayer? so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega, ot, kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan, 1. *O'zbekistonning poytaxti - Toshkent.* 2. *Men 7-sinf o'quvchisiman.* 3. *Toshkent, munchalar go'zalsan.*

175-mashq. Matnni o'qing. Bosh klshik shaklidagi so'zlarni toping. Ular gapda qanday vazifa bajarayotganini ayting.

Ulug'bek mirzo bobosidan so'radi:

-Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima?

Amir Temur javob beribdi:

-Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa ham botir, sa'y-g'ayratli, ham go'zal ahloqli bo'lib nom chiqarish. O'limdan ham battar, yomon narsa axloqsizlik va xoinlik bilan nom chiqarishdir. (Xurshid Davron)



176-mashq. Berilgan so'zlar ichidan bosh kelishik shaklidagi so'zlarni ajratib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing va gapda qanday vazifa bajarayotganini ayting.

Maqto'v, qo'lga, aqling, va'da, esimdan, bobojon, donishmand, shogirdiga, bolalikdan, Mirzo Ulug'bek, sohibqironning, usta, mezb-on, tovushida, hammasini, stolning, eshikdan.

177-mashq. She'rni o'qing. Kelishik qo'shimchalarini qo'llashda qayerda xatoga yo'l qo'yilgan? Ular qaysi kelishik shaklida bo'lishi lozim? Xatolarni to'g'rilab she'rni yozing.

Sinfingizda, bolalar,
Naq bitta qo'rs bola bor,
Sizga ham yaxshi bilasiz
So'zidan cho'rs-cho'rs bola bor.
Doim yurar gerdayib,
Hech yaxshilikda yoqmaydi
Bachkanalikni bo'lar deb
Sira kulib boqmaydi.
O'ng savolga sizdan darhol
Ters javobni olasiz.
Holi-ahvol so'rashib
Goh baloga qolasiz.
....Unga hech kimdan yoqmaydi,
Yoqmas hech kimga o'zini.
Qorlarga yog'ib turadi.
Qovog'idan yoz kezi.... (Po'lat Mo'min)

Φ 178-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bilmagan.... so‘rab o‘rgangan olim.... Orlanib so‘ramagan o‘zi.... zolim.... (Navoiy) 2. Bog‘.... bog‘sang bog‘ bo‘ladi, daromadi tog bo‘ladi. (Maqol) 3. Aybsiz do‘st.... izlagan.... do‘stsiz qolar. (Maqol) 4. Ayol.... sarishtasi.... –ro‘zg‘or.... farishtasi. (Maqol) 5. Gumon do‘st.... do‘st.... ajratar. (Maqol) 6. Oltin.... o‘t.... bilinar, odam-mehnat.... (Maqol)

?

Savol va topshiriqlar

1. Bosh kelishik shakli qanday qo‘shimchaga ega?
2. Bu shakl qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Ular gapda qanday vazifa bajaradi?
4. Bosh kelishikdagi so‘zlar qatnashgan gaplar tuzing va ularning vazifasini tushuntiring.

179-mashq. Uyga vazifa. “Ilm-aql chirog‘i” mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing va vazifasini tushuntiring.

36- mavzu . QARATQICH KELISHIGI SHAKLI

1-topshiriq. Berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga mansubligini, qaysi kelishikda ekanligini ayting

1. Kechasi Saidaning hujrasiga Kozimbek bilan muhbir A‘zamjon keldi. Said Kozimbekdan otasining sog‘ligini so‘radi. (Abdulla Qahhor) 2. Uning hovlisini.... ko‘rib, Saidaning og‘zi ochilib qoldi. (Abdulla Qahhor)



Bilib oling. Qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z qaratqich, qaratqich bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deyiladi.

Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelashtirib bog‘lab keladi va qaralmishdan ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shakldagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi.

180-mashq. Quyidagi birikmalarda qaratqich va qaralmishlarning qanday shakllanganini izohlang.

Sinf burchagi, maktabimiz bog‘i, bizning maktab, Ahmadning akasi, shuning o‘zi.

181-mashq. Yuqoridagi birikmalardan birinchi va ikkinchisi o‘rtasiga chiroyli so‘zini qo‘shing. U holda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlang.

182-mashq. Bizning shahar, Sharifaning kitobi, buning ahamiyati birikmalarida qaratqich kelishigini tushirib qoldirish mumkinmi? Mumkin bo‘lmasa, buning sababini izohlashga harakat qiling.

Esda saqlang: Qaratqich va qaralmish yonma-yon turgan vaqtda ko‘p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llanilsa, qaratqich qo‘shimchasi tiklanadi. Masalan, *Maktabimizning chiroyli bog‘i*.

Shuningdek qaratqich kelishigi atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga qo‘shilganda, tushib qolmaydi.

Qaratqich kelishigi *men, sen* olmoshlariga qo‘shilganda, olmosh oxiridagi *n* u‘ndoshi tushib qoladi. Badiiy uslubda *mening* o‘rniga *manim* qo‘llanilishi mumkin.

183-mashq. O‘qing. Qaratqichlarni qaralmishi bilan birgalikda ko‘chiring.

Navoiy o‘rnidan turdi. Yuragida shodlik dengizi chayqalardi: ona tilining g‘alabasi-uning g‘alabasi, uning suygan xalqining, tarixining g‘alabasi edi. Shoir shamni o‘chirdi. Hassasini qo‘lga olib, yotoq uyga kirmoq uchun uyushgan oyoqlari bilan asta-sekin yurib, tashqari chiqdi. Salqin toza havo yuzlariga yoqimli urdi. Cheksizlikda muazzam ohang bilan oqqan yulduzlarning nafasi, bog‘chadagi daraxtlarning shitirlashi, yarim kechada ip yigirman jafokash kampir charxining “gug‘uvi”, uzoqda karvon tevalari qo‘ng‘irog‘ining vazmin ohangi-barchasi shoirning ko‘ngliga bir xilda yaqin, tanish, ma‘nodor tuyular, barchasini u chuqur sevar edi. (Oybek)

 **184-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Qaysi o‘rinlarda qaratqich shakli tushib qolishi mumkin, qaysi o‘rinlarda esa mumkin emas? Buning sababini tushuntiring.**

1. Turnalarning qop-qora ipi,
Jilpoqlanib ko‘kda so‘nar jim.
Ot kishnashi husn dalaga,
Guvillaydi soyda suv lim-lim. (Oybek)
2. Akamlar sadaning ostiga-samovarining
palosiga otdan qo‘ndilar. (Abdulla Qodiriy)
3. Kishanning kaliti qamoqxona boshlig‘ida ekan, topib kelgunlaricha oradan bir choy damlam fursat o‘tib ketdi. (X.To‘xtaboyev)
4. Toshkentning musaffo, erkin havosi, Yovuz niyatlarni chilparchin etdi. (S.Zunnunova)
5. Xastaning ko‘zlari bir zumgina majolsiz ochildi. (Oybek)
6. Marhabo, ey samovotning olti yo‘lchisi!
Nega beling shuncha bukik, charchab qoldingmi?.... (Maqsud Shayxzoda)

Φ 185-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur o‘rinlarda kelishik qo‘shimchasini qo‘ying.

Bu avlod.... bir a‘zosi bo‘lgan men ham yigirma beshga yaqin she’riy to‘plamlar nashr ettirdim. O‘zbek.... tuprog‘ini qaytadan ekan ilk traktorlar.... madhiyasidan boshlab, fazo yo‘llarini aylanuvchi oltin kemalardagi sayyohlarni tarannum etishgacha, barcha muhim hodisalar, xalqimiz.... mehnat qahramonligi, xalqimiz.... ulug‘vor shiorlari, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurt.... go‘zal manzaralari va inson.... ma‘naviy jamoli men.... qalamimga oshno, dilimga mazmun bo‘lib keldi. (Maqsud Shayxzoda)

?

Savol va topshiriqlar

1. Qaratqich va qaralmish deb nimaga aytiladi?

2. Qanday holatlarda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushib qolmaydi? Misollar bilan izohlang.

3. Qaratqich kelishigidagi so'z qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

186-mashq. Uyga vazifa. "Mening orzum" mavzusida kichik hikoya tuzing. Qaratqich kelishigidagi so'zlarning tagiga chizing. Uning belgisi yoki belgisiz qo'llanganini va sababini tushuntiring.

37- mavzu . TUSHUM KELISHIGI SHAKLI

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

Kitob.... o'qimoq, olma... yemoq, qalam... bermoq, xat... chiroyli yozmoq, suv.... simirib ichmoq.

2-topshiriq. Tushum kelishigi olgan so'z bog'langan fe'lining o'timli yoki o'timsizligini aniqlang.



Bilib oling. Tushum kelishigi shakli-ni bo'lib, bu shaklni olgan so'z doimo o'timli fe'lga bog'lanadi.

Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l yonma-yon turganda, ko'pincha tushum kelishigi tushib qoladi. Masalan, *Kitobni o'qidim-Kitob o'qidim.*

Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l o'rtasida boshqa bir so'z ishlatilsa yoki tushum kelishigidagi so'z atoqli ot, olmosh yoki sifatdosh bo'lsa, tushum kelishigi tushib qolmaydi.

Tushum kelishigidagi so'z gapda doimo to'ldiruvchi vazifasida keladi.

187-mashq. Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishiklaridan birini qo'ying. Qaysi vaqtda qaratqich, qaysi vaqtda tushum kelishigi ishlatilishini tushuntirib bering.

Derazam... oldi, gul... hidladi, ruchka... siyohi, qalam... berdi.

! Esda saqlang: Egalik qo'shimchasini olgan ismlarga bog'lanuvchi so'z qaratqich shaklida, o'timli fe'llarga bog'lanuvchi so'z tushum kelishigida keladi.



188-mashq. Quyidagi matnni o'qing. Tushum kelishigi bilan kelgan so'zni toping. Uning qaysi so'zga bog'lanayotganini aniqlang.

Qomusiy bilim sohibi

Qomusiy bilim sohibi Abu Rayhon Beruniy 937 -yili Xorazmning Kot shahrida dunyoga keldi. U dastlabki ta'limni ona shahrida oladi. Yoshligidan aniq fanlarga, til o'rganishga qiziqadi.... O'n sakkiz yasharligida ilk astronomik kuzatishlarini Xorazm observatoriyasida o'tkaza boshlaydi. Bushkotir degan joyda yulduzlarni kuzatganda Beruniy yetuk olim darajasiga yetgandi. (H.Homidiy)

189-mashq. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'yib, matnni ko'chiring. Kelishik qo'shimchasini olgan so'zning qaysi so'zga bog'lanayotganini ayting.

Yaxshi tarbiya ko'rgan odam...., xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklari... yordam qo'li... uzatadi, safi... kengaytirib, yangi g'alaba... ko'zlaydi. (Abdulla Qahhor)

190-mashq. Berilgan birikmalardagi birinchi va ikkinchi so'zlarning tartibini o'zgartiring. Tartibi o'zgarganda so'zning kelishik shaklida qanday o'zgarish bo'lganini va uning sababini ayting.

Qiziqib kitob o'qimoq, **miriqib** suv ichmoq, **to'yib** ovqat yemoq, **laganga** osh suzmoq, **o'roqda** o't o'rmoq, **tozalab** ko'cha supurmoq, **mehr bilan** xat yozmoq

Φ 191-mashq. “Bo'sh vaqtlarimda” mavzusida hikoyacha yozing. Hikoyachada qo'llagan tushum kelishigi shaklidagi so'zning qaysi so'zga bog'lanib kelayotganini ayting.

?

Savol va topshiriqlar

1. Tushum kelishigi qaysi qo'shimcha yordamida ifodalanadi?
2. Tushum kelishigining qo'shimchasi tushirib qoldirilishi ham mumkinmi? Misollar keltiring.
3. Tushum kelishigidagi so'z, asosan, qanday so'zlarga bog'lanadi?

192-mashq. Uyga vazifa. Nuqtalar o'rniga mos tushum yoki qaratqich kelishik shakllarini qo'yib matnni ko'chiring. Qaysi kelishik shaklini qo'yganingiz sababini ayting.

Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbati... hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.

Muhammad... she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yoziladiganga o'xshab tuyuladi. U.... oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislari.... yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga oladi.

Odamlar u.... she'rlari.... hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblari... do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar. (O.Sharofiddinov)

38-mavzu. JO'NALISH KELISHIGI SHAKLI

1-topshiriq. Gaplardagi nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

1. Adolat sekin atrof.... razm soldi. 2. Ertaga keladigan bo'ldi 3. U mevachilik... havas bilan qarardi. 4. Betobligga hamma uni ayardi.

2-topshiriq. Jo'nalish kelishigidagi so'zning qanday so'roqqa javob bo'lishi va qanday gap bo'lagi vazifasini bajarishini aniqlang.



Bilib oling: Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ga (-ka,-qa) dir.

Bu qo'shimcha o'rin-joy ismlariga qo'shilib, qayerga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi vazifasida keladi.

Payt otlariga qo'shilib, *qachon?* so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi.

Narsa ismlariga qo'shilib, *nimaga* so'rog'iga javob bo'lib, gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniladi.

-gan,-ki,-ga-i qo'shimalaridan so'ng kelib, nima sababli? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda sabab holi vazifasini bajaradi.

193-mashq. Berilgan so'zlardagi jo'nalish kelishigi qo'shimchasining talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

Terakka, chopiqqa, chirchiqqa, bog'ga, tog'ga, yurakka.

! Esda saqlang: jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *k,q* tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, *-ka,-qa* holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

G' tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda *-qa* holida talaffuz qilinsa ham, lekin *-ga* tarzida yoziladi.

Φ 194-mashq. O'qing. Jo'nalish kelishigi shaklidagi so'zlarni topib, ularni o'zi bog'lanib kelayotgan so'z bilan ko'chiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.

Non sehri

Samarqandda bir Ali degan kambag'al me'mor bo'lgan ekan. U bir-biridan go'zal imoratlar qurar ekan-u, usti kiyimga, qorni nonga to'ymas ekan. Kunlardan bir kuni Ali qattiq kasalga chalinib, yotib qolibdi. Tabiblarga ko'rsatibdi, shifo topmabdi. Folbinlarga fol ochiribdi, bo'lmabdi.

Tabiblardan biri Alini o'zi qurgan tomga olib chiqishini maslahat beribdi. Alining do'stlari uni o'zi qurgan tomga olib chiqib qo'yishibdi. Ali u yerda kunduzi Osmon bilan kunga, kechasi oy bilan yulduzga qarab yotaveribdi.

Kunlardan bir kun shaharga qaroqchilar bostirib kelishibdi. Shu shaharlik bir kosib Ma'rifat degan husn-jamolda tengi yo'q qizini ulardan qochirib, tomga olib chiqib qo'yibdi. Tomda kasal yotgan Alining dimog'iga yoqimli hid kirib, ancha-muncha yengil torta boshlabdi. Buning sababi: Ma'rifat olib chiqqan qopga onasi Samarqand nonidan solib qo'ygan ekan. (T.Qurbonov)

195-mashq. Matnni ko'chiring. Jo'nalish kelishigi shaklidagi so'zlarni aniqlab, ularning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Katta mutafakkir san'atkorning har bir asari chuqur o'yga to'ldiriladi... Kelajakka e'tiboringni qaratadi. Abdullo Qahhor davr, xalq talabi va istagini chuqur his qilgan. hozirjavob yozuvchi edi. Respublikamiz hayotida muhim bir voqeya yuz bersa, biz sabrsizlik bilan Abdulla Qahhor nima der ekan, deb kutardik, ustoz yozuvchi, albatta, hammani hayratga soladigan, ko'pchilikka ma'qul bo'ladigan bir gapni aytardi. (O'.Umarbekov)

196-mashq. Matnni o'qing. Jo'nalish kelishigidagi so'zlarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini aniqlang.

Ali Qushchi keyingi vaqtlarda ahyon-ahyonda rasadxonaga borib turdi. Bir gal ichkariga ham kirdi... Lekin, baribir qo'li ishga bormadi. Bundan o'n-o'n besh -yil ilgari

voqyealar hayoliga kelaverdi. O'sha paytlar birga ishlashgan do'stlarini eslab, ayniqsa, ustoz Ulug'bekning siymosi ko'z oldiga kelib, ko'ngli buzildi. Kutubxonaga kirdi-yu, bir qator kitoblarni ro'molga tugib, uyiga olib ketdi. (B.Ahmedov)

 **197-mashq.** Quyida berilgan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'shing. Qanday talaffuz qilinishi va imlosini tushuntiring.

O'roq, qishloq, bog', tog', kurak, so'roq, ilik, yog'.

?

Savol va topshiriqlar

1. Jo'nalish kelishigining qo'shimchalari qaysilar?
2. Jo'nalish kelishigidagi so'z qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

198-mashq. Uyga vazifa. "Suvning hayotimizdagi ahamiyati" mavzusida hikoyacha yozing. Qanday kelishik qo'shimchalaridan foydalanganingizni ayting.

39- mavzu. O'RIN-PAYT KELISHIGI SHAKLI

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

1. *Novdalarni bezab g'unchalar Tong... aytdi hayot otini. (H.Olimjon)* 2. *Qadim zamon.... Chin mamlakati... bir ulug' podshoh o'tgan ekan. (Ertak)*

2-topshiriq. Nima sababdan-da qo'shimchasini qo'yganingizni ayting.



Bilib oling. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi **-da** sanaladi. U o'rin bildiruvchi otlarga qo'shib, **qayerda?** so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning o'rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o'rin holi vazifasida keladi.

Payt otlariga qo'shib, **qachon?** so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so'zlar gapda payt holi vazifasida keladi.

Shaxs va narsa otlariga qo'shib, **kimda? nimada?** so'roqlariga javob bo'ladi. Bunday otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi.

 **199-mashq.** Ko'chiring. O'rin-payt kelishigidagi so'zlarni topib, qaysi so'zga bog'lanayotganini va qanday so'roqqa javob bo'layotganini aniqlang.

Texnikumda darslar maroqli o'tilardi. Muallimlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash malakasini hosil qilish uchun turli tadbirlarni o'tkazar edi. Yodimda, bir kuni sinfda «kimyoning hayotimizda tutgan o'ni» mavzusida bahs-munozarada ishtirok etdim. (Z.Saidnosirova)

Φ 200-mashq. O'qing. O'rin-payt kelishigidagi so'zni aniqlang va uni hokim so'z bilan birga ko'chiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.

Do'stlik haqida

Inson dunyoda umr davomida o'ziga sodiq do'stlar orttiradi. O'g'il ham, qiz ham, kim bo'lishidan qat'i nazar, o'z faoliyatida, o'qishida, mehnatda, uzoq safarda, odamlar orasida o'ziga fe'li, muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do'stlashadi.

Do'stlik nihoyatda nozik bo'lib, uni asrab-avaylash lozim. Do'stlik insonning bolalik davrida boshlanadi. Bolalikdan boshlangan do'stlik odamzotning keyingi ulg'aygan va kamolotga erishgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida o'rin tutadi. (T.Qurbonov)

201-mashq. Quyida berilgan so'zlarni ma'nolariga ko'ra jadvaldagi guruhlariga bo'ling. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting. O'rin-payt kelishigining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

O'rin	Payt	Shaxs-narsa

Tongda, o'rtada, pastda, orqada, kuzda, sahada, tushda, ishda, maktabda, uyquda, peshinda, mashinada, o'roqda, dastgohda.

202-mashq. Matnni o'qing. Kelishik qo'shimchasi noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni aniqlang. Ularni to'g'rilab matnni ko'chiring. To'g'rilangan qo'shimchalar qaysi kelishikka mansubligini ayting.

Toshkent o'tmishga oddiy mehnatkashlar shahri bo'lgan. Shahar ko'chalari egri-bugri, past-baland va qorong'i edi. Ko'chalarni yozda chang, to'zondan qishga loydan yurib bo'lmasdi.

Xonadonlardan elektr yo'q edi. Katalakday tor va zax uylarni odamlar qora chiroq yoki sham yoqib o'tirardilar.

Sanoat korxonalari deyarli yo'q edi. Kiyim-kechak tayyorlash uchun charx ip yigirib, oddiy dastgoh bo'z to'qilardi. (E.Malikov)

?

Savol va topshiriqlar

1. O'rin-payt kelishi deb nimaga aytiladi?
2. O'rin-payt kelishidagi so'zning so'roqlari haqida so'zlang.
3. *da* qo'shimchasi qachon paytni ifodalaydi? Misol keltiring.

203-mashq. Uyga vazifa. "Bo'sh vaqtlarimda" mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan o'rin-payt kelishigi shaklidagi so'zlarning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

40- mavzu. CHIQISH KELISHIGI SHAKLI

1-topshiriq. Berilgan birikmalarda nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'shing. *Toshkent... ketmoq, uzoq... kelmoq, temir... qattiq, shamol... tez, sahar... ishni boshlamoq, harakatchanligi... muvaffaqiyat qozonmoq.*

2-topshiriq. Chiqish kelishigi shaklidagi so'zning so'rog'i va vazifasini aniqlang.



Bilib oling. Chiqish kelishigi shakli-dan qo'shimchasidir.

Bu qo'shimcha o'rin otlariga qo'shilib, *qayerdan?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'rin holi vazifasini bajaradi. Payt otlariga qo'shilib, *qachon?* so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi.

Narsa otlariga qo'shilib, *nimadan?* so'rog'iga javob bo'ladi va to'ldiruvchi bo'lib keladi.

-ligi (-lik+i) qo'shimchali ismlardan so'ng kelib, nima sababli? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda sabab holi vazifasini bajaradi.

204-mashq. Berilgan birikmalarni bir-biriga qiyoslab, ma'noda qanday farq borligini aniqlashga harakat qiling.

Uzum yemoq	non olmoq	suv ichmoq
uzumni yemoq	nonni olmoq	suvni ichmoq
uzumdan yemoq	nondan olmoq	suvdan ichmoq

! Esda tuting. Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. Tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z qismni bildiradi.

205-mashq. Berilgan birikmalarni bir-biriga qiyoslab, ulardagi chiqish va jo'nalish kelishiklarining nima sababdan erkin almashinayotgani haqida fikr yuriting.

Kamtarligiga yaxshi ko'rmoq
 Kamtarligidan yaxshi ko'rmoq
 Uning hozirjavobligidan xursand bo'lmoq
 Uning hozirjavobligiga xursand bo'lmoq.



Bilib oling. Sabab ma'nosini ifodalab, sabab holi vazifasida kelgan chiqish kelishigidagi so'zlar ko'pincha jo'nalish kelishigi va uchun ko'makchisi bilan erkin almashinadi.



206-mashq. Ko'chiring. Chiqish kelishigidagi so'zning ostiga chizing va qanday so'roqqa javob bo'layotgani va qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan:-kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?-deb so'radi. ("Alpomish"dan) 2. Bugun rostni qo'yib yolg'on gapirgan odam ertaga nima deganini unutganidan rostini aytib qo'ya qoladi va shu bilan o'zini-o'zi beburd qiladi. (Abdulla Qahhor) 3. Tipratikonni turtsangiz, tikanini hurpaytirib olganidan unga qo'l tekkizib bo'lmaydi. (Abdulla Qahhor)

207-mashq. O'qing. Chiqish kelishigidagi so'zni qaysi so'zga bog'lanayotganini aniqlang va u bilan birga ko'chiring. Chiqish kelishigidagi so'zning so'rog'i va qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

Ibn Sino haqida rivoyat

Abu Ali ibn Sinoning onasi uni chaqaloqligida cho‘mltirayotganida qimmatbaho uzugini yo‘qotib qo‘ygan ekan. U uzugini qidiribdi. Lekin hech qayerdan topolmabdi. Keyin uni kanizak olgan, deb gumon qilganidan, bechora kanizakni rosa kaltaklashibdi. Kanizakni urishayotganida Abu Ali yig‘lay boshlabdi, kaltaklashdan to‘xtashsa, chaqaloq ham yig‘idan to‘xtabdi. Hamma bundan ajablanganidan uzukni yo‘qoldiga chiqarishibdi.

Ibn Sino tilga kirganida, birinchi aytgan gapi shu bo‘libdi:

- Sizlar o‘sha vaqtda kanizakni nohaq urgan edingizlar. Onam meni cho‘mltirayotganida, uzugi tog‘oraga tushib ketgan edi. U tog‘orani ag‘darganida uzuk ham suv bilan birga o‘raga tushib ketgan. Mening tilim chiqmaganidan sizlarga aytolmagan edim. (H.Homidiy)

208-mashq. Sinf oltita kelishik nomi bilan olti guruhga bo‘linsin. Har guruhdan bittadan vakil quyida berilgan va o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlarga o‘z guruhiga oid kelishik qo‘shimchasini qo‘shib, hokim so‘zga bog‘lasin. Qaysi guruh vakili kelishik bilan kelgan so‘zni hokim so‘zga bog‘lolmay qolsa, yutqizgan bo‘ladi.

So‘zlar: kitob, ruchka, qalam, mashina, gazeta, jurnal,

Namuna:

O‘qi tuvchi	1-guruh bo kel.	2-guruh qarat.kel	3-guruh tush.kel.	4-guruh jo‘n.kel.	5-guruh o‘rin–payt	6-guruh chiqish. kel.
kitob	kitob yozildi	kitobning muqovasi	kitobni o‘qidim	ketobga bordim	kitobda ko‘rdim	kitobdan o‘qidim

?

Savol va topshiriqlar

1. Chiqish kelishigining qo‘shimchasi qaysi?
2. Chiqish kelishigidagi so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Chiqish kelishigidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

Φ **209-mashq.** Uyga vazifa. Berilgan birikmalardagi nuqtalar o‘rniga tushum va chiqish kelishiklarini almashtirib qo‘llang. Ular o‘rtasidagi ma’no farqini ayting.

Qo‘li... ushlamoq, ovqat... yemoq, qovun... olmoq, she‘r... o‘qimoq, qulog‘i... cho‘zmoq, ot... go‘zal, asal... shirin, qilich... o‘tkir, paxta... yumshoq, Toshkent... uzoq, bo‘ron... kuchli, qalampir... achchiq, ko‘l... katta.

41- mavzu. ISMLARNI KESIM SIFATIDA SHAKLLANTIRUVCHI VA EGA BILAN MUNOSABATINI BILDIRUVCHI SHAKLLAR

1-topshiriq. Matndan kesimlarni toping, ularni qanday so‘zlardan ifodalanganini ayting. *Men do‘stlik targ‘ibotchisiman... Do‘stlikni e‘zozlashning zarur shartlaridan biri do‘stlar bilan uchrashib turishdir. Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug‘ilgan kunlar, to‘ylar bilan bir qatorda, do‘stona yig‘inlar ham bu munosabatlarni tobora mustahkamlab turuvchi vositalardir. (A.Hojiahmedov)*

2-topshiriq. Kesimlarni ega bilan munosabatini ifodalovchi qo‘shimchalarni aniqlang.



Bilib oling: Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ismlardan ifodalangan kesimlar maxsus shaxs-sonni bildiruvchi *–man,-san,-dir* qo‘shimchalari va shaxs-son qo‘shimchalari *bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq; ekan, emish, emas* so‘zlari orqali ega bilan moslashadi. Ot-kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi bunday vositalar bog‘lamalar hisoblanadi.

210-mashq. Kesimlarni toping, ularni ega bilan munosabatini bildiruvchi vositalarni izohlang.

1. Asal shifobaxshligidan tibbiyotda keng qo‘llaniladi. (A.Egamberdiyev) 2. Bilimdonligi sababli olimpiada g‘olibi bo‘ldi. (“Ma’rifat”) 3. Piyolani kamtarligi ushuni odamlar peshonasidan o‘padi. (E.Vohidov) 4. Do‘stlikni shunday qadrlangki, do‘stingiz dunyoda sizdek do‘sti borligidan quvonib ketsin. Do‘stimning pulga muhtoj bo‘lib qolganini bilmabman. U kelib so‘ramasdan oldin o‘zim borib, «do‘stim, biror narsaga muhtojmisan, tortinma, ayt», deb so‘rashim kerak edi. G‘aflatda qolganimdan achinib yig‘layapman. (“Odobnoma”)



211-mashq. Berilgan gaplardagi o‘qish kerak (lozim, darkor, shart) kesimini ega bilan shaxs-sonda moslashtiring.

1. Men o‘qish kerak (lozim, darkor, shart)
2. Sen o‘qish kerak. (lozim, darkor, shart)
3. U o‘qish kerak. (lozim, darkor, shart)

! Esda tuting: Harakat nomining-*ish* shaklidan ifodalangan kesim tarkibida darkor, shart so‘zlari bo‘lganda, kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo‘shimchalari kerak, lozim, darkor, shart so‘zlaridan oldingi qismga qo‘shiladi.

Φ 212-mashq. Ko‘chiring. Kesimlarning ostiga chizib, uni ega bilan munosabatini bildiruvchi vositalarni aniqlang.

Qorabotir yurtning erkasi, jo‘ralarining serkasi edi. Boy edi, yegani go‘shu moy edi. Alp edi, lekin nozik qalb edi...

Oqbotir uning jo‘rasi edi. Jo‘ralari ichida eng g‘o‘rasi edi.

Oqbotir: To‘rt tarafda g‘anim lashkari,

Ming yaradan qon oqur tanda

Do‘st, sen eding ko‘nglim rahbari,

Meni bog‘la, topshir dushmanga.

(U.Azimov)

213-mashq. Quyidagi gaplarda ishtirok etgan bo‘lmoq so‘zining vazifasini tushuntiring. Bog‘lama vazifasida kelgan *bo‘lmoqni* tushirib qoldirganingizda uning tarkibidagi shaxs-son qo‘shimchalarining qayerga qo‘shilishini ayting.

1. Men vrach bo‘laman. (kelajakda)
2. Men vrach bo‘laman. (hozir)-Men vrachman
3. Siz ulug‘ odam bo‘lasiz. (kelajakda)

4. Siz ulug‘ odam bo‘lasiz. (hozir)-Siz ulug‘ odamsiz

?

Savol va topshiriqlar

1. Kesim ega bilan qanday moslashadi?
2. -man, -san, -dir qo‘shimchalari kesimga qay taxlitda qo‘shiladi?
3. sanamoq, hisoblamoq, bo‘lmoq fe’llari ishtirokida gaplar tuzing va gapning kesimini izohlang.

214-mashq. Uyga vazifa. Kesim bo‘lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq bog‘lamalari yordamida ega bilan bog‘langan uchta gap yozing. Bog‘lamalarning vazifasini tushuntiring.

42-mavzu. MUSTAHKAMLASH MAVZUI

?

Mustahkamlash uchun savollar

1. Kelishiklar deb nimaga aytiladi?
2. Kelishiklarning qo‘shimchalarini ayting.
3. Kesimlik qo‘shimchalari qaysilar?
4. Kelishik qo‘shimchalarining imlosini tushuntiring.

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Odob saqlab sukut... o‘ltirgan. Alisher uyalibgina muloyim ohang... dedi:
-Ehtimol, ustoz... ishlari ko‘pdir, lekin nayga havasim tushib qoldi.
-Yo‘q, yo‘q, bemalol, jonim bilan o‘rgataman. Nay o‘zimiz... qadim... qolgan cholg‘u mungli, ma’yus qalblar... firoq-u alamlarini kuylaydur, to‘y-bazmlar... uning go‘zal sadosi ko‘ngullar... zavq to‘ldiradur. Alisherbek ishq tushibdimi-o‘rgaturmiz. (Oybek).

2-topshiriq. Xato berilgan kelishik qo‘shimchalarini o‘rni-o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘rilang. Kelishik qo‘shimchalarining vazifasini tushuntiring. Rivoyatning mazmuni haqida bahs yuritng.

Bir donishmandni so‘radilar:

-Yer yuziga tiriklar ko‘pmi, o‘liklarmi? U o‘ylab o‘tirmay darhol javob berdi:

-O‘liklar ko‘p....

Uning yana so‘radilar:-Nega?

Donishmand yana tezda javob qaytardi:

-Ko‘ngil ko‘zi yumuq odamlardan ham men o‘liklarni qatoridan qo‘shaman. (Rivoyat)

3-topshiriq. Erkin Vohidovning quyidagi fikrlarini o‘qing va undagi mazmunga munosabat bildiring. Kelishik qo‘shimchalarining ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.

Robindranat Thokurning bir she’ri bor. Ona Hindiston! Farzandlaringni bunchalar ivib bag‘ringga bosmasang. Sen ularni qo‘yib yubor. Chiqsin. Dunyo bo‘ylab parvoz qilsin. El-

yurtlarni ko'rsin ularga hech narsa bo'lmaydi. Boshi omon bo'lsin. Bir kuni qaytib kelib, sening kuningga yaraydi ular. Men ham bugun ona O'zbekistonimizga shunday murojaat qilgim keladi...

4-topshiriq. Xato berilgan so'z birikmalarini to'g'rilang. Ulapr ishtirokida gaplar tuzing.

Meni ona diyorim, uyning chiqmoq, ilmdan mehr qo'ymoq, fanni ravnaqi, kitobga o'qimoq, bilimdonlikni siri, olimlarga so'ramoq, ilmning o'rganmoq, ilmga bahra olmoq.

5-topshiriq. So'zlarga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying, ularning yozilishiga diqqat qiling.

Yaxshi xulq yaxshimi (-ni,-ga,-ning) alomatidir. (Beruniy) 2. Aqlli (-dan,-ning,-ni) suhbat (-ga,-din,-ka) jon olur so'z. (Xorazmiy) 3. Har ishda shitob qilmag'aysen, bu demak murod (-g'a, -ka,-qa) yetmagaysen. (Bobur) 4. Hamma (-din,-ning,-ga) balanddir oning mansabi. (Jomiy) 5. Hunari va odobi bo'lmagan kishi (-ning,-din,-ga) baxt va davlat ketadi. (Mahmud Qoshg'ariy)

6-topshiriq. Bog'ga, beshikka, mening sening, unda shundan, bayroqqa, tog'ga, quloqqa, buloqqa so'zlariga jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'shilishi va imlosi haqida so'zlab bering.

7-topshiriq. Uyga vazifa. Quyidagi bayt mazmuni haqida o'ylang. Tushum kelishigining qisqargan shaklda ishlatilish sababini tushuntiring. Bayt asosida tuzing.

Ayo, do'st, bilishlik yo'lin izlagin,
Agar so'zlasang, bilib so'zlagil.

43-44 darslarda diktant va uning tahlili o'tkaziladi.

45-darsda testlar ustida ishlanadi.

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

46-mavzu. YORDAMCHI SO‘ZLAR

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini gapirib bering.

So‘z turkumlari

So‘zlar ma’lum so‘roqqa javob bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, atash ma’nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga, gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kelish-kelmasligiga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘zlarga bo‘linadi.

Fe‘l, ot, sifat, son, ravish, olmoshlar ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi. Olmoshlardan tashqari yuqoridagi so‘zlarning barchasi atash ma’nosiga ega. Ot borliqdagi shaxs-narsalarning, voqyea-hodisalarning nomini, sifat va ravish belgilarni, son narsalarning miqdorini ifodalaydi.

Olmosh esa yuqoridagi so‘zlardan qaysisining o‘rnida kelsa, o‘shaning ma’nosini bildiradi.



Bilib oling: Atash ma’nosiga ega bo‘lgan (yoki atash ma’noli so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi) ma’lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi.

Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar hisoblanadi.

Yordamchi so‘zlarning tilimizda ahamiyati juda katta. Ular mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi.

Bu so‘zlarning mustaqil va yordamchi atamallari bilan nomlanishining sababi shuki, mustaqil so‘zlar o‘zicha yordamchi so‘zlarsiz qo‘llana oladi. Yordamchi so‘zlar esa faqat mustaqil so‘zlar bilan qo‘llaniladi. Uning boshqa so‘zlarga bog‘lanishi uchun yordam beradi. Unga yordamchilik qiladi.

Juda muhim: Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar kiradi.

Φ 215-mashq. O‘qing. Matn tarkibidagi so‘zlarni mustaqil va yordamchi so‘zlar guruhiga ajratib yozing.

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilmu hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l. Hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi. Mehnatdan, ilmu hunar o‘rganishdan uzoqlashma. (“Qobusnoma”)

Mustaqil so‘zlar	Yordamchi so‘zlar

--	--

 **216-mashq.** *uchun, bilan, va, chunki* yordamchi soʻzlaridan foydalanib gaplar tuzing. Ularning gapdagi vazifalarini izohlang.

217-mashq. *Qaramasdan, tomon, koʻra* yordamchilari ishtirokida gaplar tuzing. Bu yordamchilar bogʻlanib kelgan mustaqil soʻzlarni va bu mustaqil soʻzlarning qaysi kelishik shaklida kelayotganini aniqlang.

218-mashq. Matnni yozing. Undagi yordamchi soʻzlarning tagiga chizing. Nima uchun ular yordamchi soʻzlar deyiladi?

... Yigit hayron boʻlib, maslahat qilish uchun ota-onasining oldiga keladi. Ota-onasi bu voqyeadan tashvishga tushadi va noiloj unga ruxsat beradi. Yigit ilon bilan birga kuchuk va mushugini ergashtirib yoʻlga chiqadi. Ular yoʻl yursalar ham moʻl yurib, yetti togʻ-u, yetti qirdan oshib, uch oy deganda ilonlar shahriga yetib keladilar. («Ertaklar olamiga sayohat» kitobidan)

Φ 219-mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi yordamchi soʻzlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchiring.

Gʻiyosiddin domulloga qulluq qildi. U tugunni domulla yoniga surdi...(ham, va, chunki) kissasidan bir tillo chiqarib taʼzim...(uchun, hamda, ila) domullaga tutdi.

-Tashakkur, taqdir, eti sizniki, suyagi bizniki. Endi kaminaga javob bersinlar, - deya qoʻllarini koʻksiga qoʻydi.

-Alisher mullo boʻlgʻay! – deya jiddiy ...(va, lekin, yo) ulugʻvor ohangda domulla duo qilib qoʻllarini yuziga surdi.

Gʻiyosiddin ...(va, ham, chunki) unga ergashib ixlos ...(va, lekin, ila) duo qildi...(-ku, -da, -a), xayrlashdi. (Oybek)

?

Savol va topshiriqlar

1. Soʻz turkumlari deb nimaga aytiladi?
2. Mustaqil soʻz turkumlariga taʼrif bering.
3. Yordamchi soʻzlarga misollar keltiring?

220-mashq. Uyga vazifa. “Berilgan soʻz turkumlari” matnini oʻqib. Quyidagi savollarga yozma javob qaytaring.

1. Soʻzlar qaysi belgilariga koʻra mustaqil va yordamchi soʻzlarga boʻlinadi?
2. Mustaqil va yordamchi soʻzlar de-yilishining sababi nimada?
3. Qaysi soʻzlar yordamchi soʻzlar hisoblanadi?

47-mavzu. KOʻMAKCHILAR

1-topshiriq. Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z bilan birga qo'llanganini aniqlang. 1. *Ish bilan ovora bo'lib, kunning o'tganini ham bilmay qolasan kishi.* (3.Fatxullin) 2. *Qish qo'ynidan baxt singari yoz uchib kelur.* (Mirtemir)

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday vazifa bajarayotganini izohlashga harakat qiling.



Bilib oling: ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi. Ko'makchi so'zni olgan so'z yetakchi so'z sanaladi.

Yetakchi va ko'makchi so'z bir butunlikni tashkil qilib, bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi.

221-mashq. Berilgan gaplarda ajratib ko'ratilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

1. *Avval o'yla, keyin so'yla.* (Maqol) 2. Bu kitob qo'lga tushgandan *keyin*, bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. (H.Hasanov) 2. Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan *avval* boshqacha hayolda edim. (O.Yoqubov) 3. Devor *usti* yomg'irdan uviy boshladi. (H.Kenja) 4. Kitob *ustida* uzoq ishladi.



Bilib oling: Ko'makchilar sof ko'makchilar va ko'makchi vazifasida qo'llaniluvchi (vazifadosh) ko'makchilarga bo'linadi.

222-mashq. Berilgan gaplardagi ko'makchilarni toping. Ularni ikki guruhga-sof va vazifadosh ko'makchilarga ajratib yozing. Ularning bir-biridan farqini aytishga harakat qiling.

Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimchanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi.... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinmas, fikr-tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi. (O'tkir Rashid)

Φ **223-mashq.** *Avval, keyin, ost, ust, orqa, old* so'zlarini mustaqil so'z va ko'makchi vazifalarida ishlating va ularning har biri ishtirokida gap tuzing. *Singari, kabi, ko'ra, binoan* ko'makchilari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning ma'no va vazifalarini tushuntirishga harakat qiling.



224-mashq. Gaplarni o'qing. Ko'makchili gaplarni ko'chiring.

1. Ko'chadan halloslab yugurib kelgan Sohiba ayvondagi osma soatga qaradi-yu, qo'lidagi koptokni chetga uloqtirdi. (M.Murodov) 2. Erkin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan tugunchani oldi. (F.Musajonov) 3. Sohiba o'rnidan turdi-yu, lekin o'ynamay, uydan chiqib ketdi. (M.Murodov) 4. Hirot aholisini og'ir soliqlardan qutqarish uchun o'zlarining shaxsiy mablag'lari bilan yordam berganlar. (Po'lat Mo'min) 5. Uydan bir nima ayasam, ishlatganimdan keyin yana darrov joyiga keltirib qo'yaman. (M. Ismoilov) 6. O'zlari ham buloqdan suv ichdilar. (Sh.Xolmirzayev)

?

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘makchilar deb nimaga aytiladi?
2. Ko‘makchilarning qanday turlari mavjud?
3. Ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

225-mashq. Uyga vazifa: “Qish faslida” mavzusida ko‘makchilardan foydalanib hikoyacha yozing. Foydalanilgan ko‘makchilarning ma’no va vazifalarini ayting.

48-mavzu. SOF KO‘MAKCHILAR

1-topshiriq. Gaplardan ajratilgan so‘zlarning qaysi so‘z bilan birgalikda kelayotganini va bu so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini aniqlang. 1. *Kampir hassasini do‘qillatib, Farhod tog‘a tomon yo‘l oldi. (Oydin)* 2. *Yo‘lchida Gulnor haqida ikki og‘iz so‘z eshitish orzusi kuchli edi. (Oybek)*

2-topshiriq. Ajratilgan so‘zlarning qanday vazifa bajarayotganini izohlashga harakat qiling.



Bilib oling: Atash ma’nosini tamoman yo‘qotib, faqat o‘zi birikkan so‘zni boshqa bir so‘zga tobelashtirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan ko‘makchilar sof ko‘makchilar sanaladi. *Bilan, sari, sayin, uchun, sababli, kabi, qadar, singari, uzra, tufayli, haqida kabi ko‘makchilar sof ko‘makchilardir.*

226-mashq. Ko‘chiring. Ko‘makchilarni topib, ostiga chizing. Ularning imlosi haqida fikrlang.

1. Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la bezamoq chog‘idir umr daftarin. (G‘afur G‘ulom)
2. Juda soz! Albatta kiyib birini safarga do‘stlar-la men ham chiqaman. (Zulfiya)
3. Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher. (A.Oripov)

! Esda tuting: Sof ko‘makchilar urg‘u olmaydi. Urg‘u ko‘makchi bilan birga kelgan mustaqil so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Shuning uchun ko‘makchi ohang tomonidan o‘zidan oldingi so‘z bilan bir butunlikni tashkil qiladi. Lekin yozuvda doimo ko‘makchi yetakchi so‘zdan ajratib yoziladi.

Ba‘zan bilan, uchun ko‘makchilari badiiy uslubda *–la, -chun* holida qo‘llanadi va yetakchi qismdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

227-mashq. Ko‘chiring. Ko‘makchilarning ostiga chizib, uning talaffuzi va imlosini izohlang.

1. Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar. (R.Isoqov)
2. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo‘lib qolmay, buyuklikning ayni o‘zidir. (“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”) 3. Qalam-la men to‘qiyman qo‘shiq, U-insonga, elga xizmatim. (Zulfiya)
4. Abdulla Qahhor butun ijodi davomida xalqimizning oddiy hayoti, quvonchlari, tashvishlari haqida hikoya qiladi. (“Vatan adabiyoti”) 5. Abdulla Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989 -yili “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. (“Vatan adabiyoti”)

228-mashq. O'qing. Ko'makchilarni topib uning qanday vazifa bajarayotganini ayting.

Sharifaning musiqiy qobiliyati menga qaraganda ancha zo'r edi. U dutor bo'yicha ham, pianino bo'yicha ham musiqa texnikumini a'lo baholar bilan tugatdi. Dutorni esa katta san'atkorlar singari juda go'zal chaladigan bo'ldi.... Sharifa kichkina bo'lgani uchun e'tiborga olmasdik, shekilli, faqat Zulfiya bilan tanburni o'rganardik.

Texnikumda Ibrohim afandi, Eson afandidan tashqari bir rus muallimi ham tabiat fani bo'yicha dars berar edi. (Z.Saidnosirova)

Φ 229-mashq. Tufayli, haqida, sari kabi ko'makchilarining har biri ishtirokida to'rtta gap tuzing. Ularning vazifasi va ma'nosi haqida fikr yuriting.

230-mashq. Uchun, qadar, sababli, singari ko'makchilarini qatnashtirib gaplar tuzing. Ularning talaffuzi va ma'nosini izohlang.

?

Savol va topshiriqlar

1. Sof ko'makchilar deb nimaga aytiladi?
2. *Bilan* va *uchun* ko'makchilarining ishlatilish o'rinlari haqida so'zlang.
3. Sof ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

231-mashq. Uyga vazifa: Ko'makchilardan foydalanib "Mening orzularim" mavzusida hikoyacha yozing. Foydalanilgan ko'makchilarning talaffuzi va imlosi haqida so'zlang:

49-mavzu. KO'MAKCHILARNING MA'NO TURLARI

1-topshiriq. Matndagi nuqtalar o'rniga qavs ichida keltirilgan ko'makchilardan mosini qo'yib ko'chiring. 1. *Akam dala...* (*tomon, uchun, qarab, bo'ylab*) ketdi. 2. *Yurt farovonligi...* (*sababli, to'g'risida, uchun*) qayg'uradi.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qo'ygan ko'makchilarning ma'nosini izohlang.



Bilib oling: Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib, unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi. Jumladan, *sababli, tufayli, uchun* (yetakchi qism, harakat nomi bo'lsa) maqsad ma'nosini; *uchun* ot bilan kelganda, atash ma'nosini (akam uchun); *tomon, qarab, sari, bo'ylab* yo'nalish ma'nosini; *haqida, to'g'risida* ko'makchilari fikr mavzusi ma'nosini; *kabi, singari* ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash; *qadar* ko'makchisi jo'nalish kelishigidagi yetakchi qismga qo'shilib chegara ma'nosini ifodalaydi.



232-mashq. Ko'makchilarni o'zi bog'langan yetakchi so'zlar bilan birgalikda ko'chiring. Ko'makchilar qanday ma'no anglatayotganini aniqlang.

Taqdir daryo, soylar, o'tloqlar bilan siylagan o'ziga to'q bir o'lka bor ekan. Vaqti-soati yetib, bu o'lkaning sultoni dunyodan o'tib, yosh hukmdor yurtga boshchilik qila boshlabdi. Ilgari sulton saroyida turli lavozimdagi a'yonlar bilan birga vaqti-vaqti bilan o'lka boshchisiga maslahat berib turadigan donishmandlar kengashi bo'lur ekan. Yosh sulton:

“Keksalarni otam shunchaki urf-odat uchun ushlab turgan. Endi ularga javob bersak ham bo‘ladi”,-debdi. Hukmdorning farmoyishiga, tabiiyki, hech kim e’tiroz bildirsa olmasdi. Donishmandlar ko‘ngillari og‘rib, taqdirga tan berib, o‘z hayotlari bilan yashay boshlabdilar. (Q.Rahimboyeva)

233-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli ko‘makchilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ko‘makchilarning ma’no turini ayting.


1. –Shunaqa,-dedi Xolida opa hikoyasini davom ettirib,-uni bizning maktabimizga tajriba... olib kelishgandi. (E.Usmonov) 2. Yana ular futbol... nazariy bilimlarga ega bo‘lishimizni talab qiladilar. (“Gulxan” dan) 3. Nigora yaxshi xulqi, chiroyli muomalasi... ham obro‘ga erishishi mumkin edi-ku! (“Gulxan”dan) 4. Biz aytmoqchi bo‘lgan podshoh ham barcha hukmdorlar ... maqto‘v va olqishlarni juda yaxshi ko‘rarkan. (A.Aminov)

5. Otasidan bir kun olib pul Kitob do‘kon soldi yo‘l. Ketayotsa yo‘lida o‘g‘lon Uchrab qoldi muzqaymoq do‘kon. (Po‘lat Mo‘min) 6. U qirlarda erkin shabboda Ot yolineing torlarin chertar. So‘ngra o‘ynab birpas sahroda Sayxun yugurar, yo‘rtar. (Maqsud Shayxzoda)

234-mashq. Ayting-chi, ko‘makchilar to‘g‘ri qo‘llanganmi? Ular o‘rnida qanday ko‘makchilar ishlatilishi kerak?

1. Yakshanba uning tomon Faqat bekorchilik kun....Yakshanbani butunlay Tushunmabdi bolakay. (Po‘lat Mo‘min) 2. U yaqinroq kelib qaradi, yo‘q sinibdi-yu, uzilmabdi. Quyoshga singari bo‘y cho‘zib, qaddin rostlab boryapti. (O‘.Umarbekov) 3. “Biznikiga o‘g‘ri keldi”.G‘urur sababli aytilsa bo‘ladi. (G‘afur G‘ulom) 4. Vaqt o‘tgan tomon maktab hayotida o‘zgarishlar sezila boshladi. (Erkin Usmonov) 5. Shunday qilib, 7-“A” sinfning ikkita o‘quvchisi Toshkentga, respublika o‘quvchi-yoshlar chempionatida ishtirok etishga va “Sport kolleji”ga yo‘llanma olish bilan jo‘nab ketadigan bo‘lishdi. (E.Usmonov) 6. Ana shu umidli ko‘zlari qadar dunyoga boqib tushkunlik kayfiyatidan yiroq bo‘lyapti. (“Gulxan”dan)

Φ **235-mashq.** Boshqotirmanini to‘g‘ri yechsangiz, kalit so‘zni topasiz.



1. O‘xshatish, qiyoslash ma’nosini bildiruvchi ko‘makchi.
2. Fikr mavzusi ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi
3. Yo‘nalish ma’nosini bildiruvchi ko‘makchi
4. Vosita ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi

5. Vazifadosh ko‘makchi
6. Sabab, maqsad ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi
7. Yo‘nalish ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi

?

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘makchilar yetakchi so‘zlarga bog‘lanib unga qanday ma’nolarni yuklaydi?
2. Ko‘makchilar qatnashgan gaplar tuzing. Ko‘makchilarni ajrating va ularning ma’no turini ayting.

236-mashq. Uyga vazifa. “Gulxan” jurnalida “Sinf rahbari” rukni ostida berilayotgan o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning sinf rahbarlari haqidagi fikrlari asosida “Sinf rahbari” mavzusida matn tuzing. Matnda ishtirok etgan ko‘makchilarning tagiga chizib, uning ma’no turini aniqlang.

50-mavzu. VAZIFADOSH KO‘MAKCHILAR

1-topshiriq. Gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning mustaqil so‘z va ko‘makchi vazifasida kelgan o‘rinlarini aniqlang.

1. Gap futbol o‘yini *ustida* ketardi. 2. Qoziq *ustida* qor turmas. (maqol) 3. *Orqadan* chuqur soy oqardi. (Shuhrat) 4. Muxbirimiz telefon *orqali* xabar berdi. (“Turkiston”dan)

2-topshiriq. Bu so‘zlarni qaysi o‘rinlarda **haqida, to‘g‘risida, bilan** ko‘makchilari bilan almashtirish mumkinligini ayting.



Bilib oling: Ayrim mustaqil so‘zlarning ko‘makchi vazifasida qo‘llanilishi vazifadosh ko‘makchilarni hosil qiladi.

Vazifadosh ko‘makchilarga *ost, tepa, uch, yon, ich, ust, old, orqa, qarshi, ro‘para, oldin, burun, avval, keyin, so‘ng, tomon, oxir, o‘rta, bosh, qosh, lab, og‘iz, oyoq* singari payt, o‘rin, narsa bildiruvchi otlar; *bo‘ylab, qarab, ko‘ra, deya, deb, atab* singari ravishdoshlar kiradi. Bunday so‘zlar ko‘makchi vazifasida kelganda, atash ma’nosini yo‘qotadi. Shuning uchun ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydi. O‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

237-mashq. Avval ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar mustaqil so‘z vazifasida kelgan gaplarni keyin ko‘makchi vazifasida kelgan gaplarni ko‘chiring.

1. Mayli oq shohidan ko‘ylaging bo‘lsin,
Mayli, ko‘kragingda yashnasin gullar,
Mayli, **boshlaringda** uchsini bulbullar
Mardlik nishoniga ko‘kraging to‘lsin. (Amin Umariy)
2. Dengiz oq qushining parlari kabi
Bulduriqlar tushdi terak shohidan.
Qorlar erimoqda, ariqlar **labi**
Zangori tus oldi bahor chog‘ida. (Amin Umariy)
3.Bog‘da qushlar paydo bo‘ladi, anhor suvi loyqalanib, ko‘paya boshlaydi-yu dastlab daraxtlar soyasi tushmagan yalangliklarda maysalar **uchi** yer teshib, yashillanadi.

4. Biznesmen **labida** sigara,
qo'lida titraydi chek qog'oz. (E.Vohidov)
5. So'z **boshi**-assalom,
Ish **boshi**-intizom
6. Bundan tashqari, Astroboddami, Balxdami, Marvdami, Mashhaddami biron joyda isyonkor o'g'illarining yoki hali xonjarini yeng **uchida** yashirib turgan boshqa bir o'g'ilning isyonini kutar edi. (Oybek)

238-mashq. She'rni o'qing. Unda ishtirok etgan ko'makchilarni ajrating. Sof yoki vazifadoshligini aniqlang.

Men bilan tonggacha suhbat quradi
Derazam oldidan oqayotgan suv.
O'zni qirg'oqlarga kelib uradi,
Kumush ko'pik sochib, tegajoq va quv
Men ijod qilaman tun bo'yi tolmay,
Osmonda oy suzar, chamanzor yorug'.
Shabboda kuyiga hech quloq solmay,
Hikoya so'zlardi to'xtamay ariq.
Qancha go'zallik bor bu hikoyada:
Chamanlar jilvasi, nurlar jilosi....
Gullar mudramoqda tungi soyada
Suvga qonmoqdadir bog'ning gilosi.
Meni tinch qo'ymadi o'ziga tortib,
Kumush tomchilarning o'lmas qissasi.
Tun bo'yi kuyladim, havasim ortib,
O'sha kuylarimning bu bir qissasi. (Uyg'un)

 **239-mashq.** Ich, o'rta, qarab, ust so'zlarini qatnashtirib gaplar tuzing. Bunda berilgan so'zlar avval ko'makchi vazifasida keyin mustaqil so'z vazifasida qo'llansin. Ularning farqini tushuntiring.

Φ **240-mashq.** Berilgan ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligini aniqlab jadvalga joylashtiring. Bilan, sari, kabi, tomon, uchun, ko'ra, bo'ylab, keyin, haqida, sababi, ichida, oldida, to'g'risida, qadar, qarab, tepada, qarshi, tufayli, sayin.

Sof ko'makchilar	Vazifadosh ko'makchilar

241-mashq. Faqat vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan qatorni aniqlang.

- a) bilan, orqa, tepada, o'rtada;
 - b) sari, boshida, qadar, maqsadida;
 - v) ustida, ichida, qoshida, tomon;
 - g) sababli, oldida, uchun, qarab
- Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday ko‘makchilar vazifadosh ko‘makchilar de-yiladi?
2. Ular mustaqil so‘zlardan qanday farqlanadi?
3. Ularni farqlagan holda gaplar tuzing.

242-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Undagi ko‘makchilarni toping va turini ayting.

Bugun hamma barobar shudgorga chiqqan. Har yer-har yerdan bo‘g‘ib, pol olishyapti. Uch kun ichida pol tortib bo‘lishsa, kanaldan ariq ochib kelishadi. Hammaning dalada bo‘lishi Jannat xolaning ayni muddaosi edi. U kechadan berib o‘rnidan turolmay yotgan bo‘lishiga qaramay, vaqtni g‘animat topib, chodir orqasiga o‘tib erining kelib qolishidan qo‘rqib dam yedirmay suzib oldi. Qumg‘onda qaynab turgan suvni grelkaga quyib, bir kaft ko‘k choy soldi-da, munkillab orqa yo‘l bilan to‘qayga ketdi. Beliga boylab olgan grelka paxtali nimchadan o‘tib biqinini kuydirardi. Ammo, u munkayganicha alamdand tishini-tishiga qo‘yib chidab borardi. (Said Ahmad)

51-mavzu. KO‘MAKCHILAR VA QO‘SHIMCHALAR MA’NODOSHLIGI

1-topshiriq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi nuqtalar o‘rniga qavsda ko‘rsatilgan so‘zlarni qo‘ying. 1. Dala... (-ga, tomon, bo‘ylab) ketmoq. 2. Oy... (-dek, -day, kabi, singari, yanglig‘) ravshan; 3. Tongga... (-cha, qadar, dovur) suhbatlashdik.

2-topshiriq. Biri o‘rnida ikkinchisi kelishi mumkin bo‘lgan so‘z va qo‘shimchalarning umumiy ma‘nolarini ayting.



Bilib oling: -dek qo‘shimchasi asos qismga qo‘shilib, asos qismdan ifodalangan narsa-hodisa belgi-xususiyatga o‘xshatishini ifodalaydi va shu ma‘nosi bilan kabi, singari, yanglig‘ ko‘makchilari bilan umumiylikni hosil qiladi.

-cha qo‘shimchasi payt, masofa bildiruvchi asoslarga qo‘shilib, asosdan ifodalangan ma‘noning chegarasini bildiradi va shu ma‘nosi bilan qadar, dovur ko‘makchilari bilan ma‘nodoshlikni hosil qiladi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi yo‘nalish ma‘nosi bilan tomon, bo‘ylab ko‘makchilari bilan ma‘nodoshdir.



Bilib oling. Qanday, shunday, unday, bunday, allaqanday olmoshlari, jiddiy, qittay, jo‘jabirday, aytganday, o‘lguday kabi ravishlar tarkibida kelgan -day qo‘shimchasi asos qism bilan yaxlitlanib, undan ajratilmaydigan bo‘lib qolgan.



243-mashq. Otamga – onam uchun, mashinada – mashina bilan, kitobdan – kitob orqali birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalari o‘rtasidagi ma‘nodoshlikni izohlang.

244-mashq. Matnni o‘qing. Qaysi o‘rinlarda ko‘makchilardan foydalanish mumkinligini aniqlang va qo‘shimcha o‘rniga ko‘makchilarni qo‘llagan holda gaplarni ko‘chiring.

-Shartlashganimizdek, mana kelganingga qirq kun bo'ldi. Men seni shuncha vaqt boqdim, endi mening bir kunlik xizmatimni bajaradigan vaqting keldi, bolam,-debdi.

Boy bilan xizmatkor ikkisi bir ho'kizni oldilariga solib haydab, toqqa yo'l olibdilar. Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri qimmatbaho toshlar, dur-javohirlar paydo bo'ladigan baland tog' etagiga yetib kelibdilar. ("Najmiddin Kubro va uning qo'shnisi" afsona).

245-mashq. Berilgan juftliklarni qiyoslang. Qaysi jihatlari bilan umumiylikni hosil qilishini ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Maktabga-maktab tomon
qo'ng'iroqdek-qo'ng'iroq kabi
marjonday-marjon singari
daryoga-daryo bo'ylab
kuzgacha-kuzga qadar
kechgacha-kechgadovur

246-mashq. Tagiga chizilgan qaysi so'zlardagi qo'shimchalarni ko'makchilar bilan almashtirish mumkin? Ularni daftaringizga yozing.

1. Ark suv quygandek jimjit. (Mirkarim Osim) 2. Shunday yashar - Sokin, bezavol Pastakkina tandiri bilan Katta uyda kichkina bir chol, Kichkina bir kampiri bilan. (E.Vohidov) 3. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalarida suv yaltiraydi. (O'.Hoshimov). 4. -Ko'rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O'zim itday charchaganman. (O'.Hoshimov) 5. Ertasiga ikki oshna Yangibozor qishlog'iga yo'l olishdi. (O'.Umarbekov) 6. Yangibozorga kechga yaqin borishdi. (O'.Umarbekov)

Φ **247-mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimcha yoki ko'makchilardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Shu kechasi bir mahalga...(-cha, -qadar,-dovur) o'yin kulgi qilib o'tirdilar. (Sh.Xolmirzayev) 2. Shu... (-day, kabi, singari) voqyealar bo'ladi,-dedim.-Lekin, bu kimning qo'zisi? 3. Mehmondorchilik anchaga...(-cha, qadar, dovur) cho'zildi. (O'.Umarbekov) 4. Madrasa binosi bitadigan kechasi esa tong otgunga...(-cha, qadar, dovur) qamishlarni bir-biriga yelim bilan ulab qanot yasabdi. (Xurshid Davron) 5. Amir Temur "xo'sh" degan...(-dek, kabi, singari) unga tikilibdi. (Xurshid Davron) 6. Holdan toyib to'shakka o'zini tashladi-yu, qimirlamay shift...(-ga, tomon, bo'ylab) tikilib yotaverdi. (Said Ahmad)

?

Savol va topshiriqlar

1. -dek qo'shimchasi qanday ma'noni anglatadi va u qaysi ko'makchilar bilan ma'nodosh? Misollar keltiring.

2. -cha qo'shimchasining ma'nosini tushuntiring va unga ma'nodosh ko'makchilarni ayting.

3. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasiga ma'nodosh ko'makchilar qaysilar? Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

248-mashq. Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan badiiy asardan ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligiga misollar topib, daftaringizga yozing.

52- mavzu. VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR BILAN BIRGA KELGAN SO'ZLARNING SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan ko'makchilarning qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo'llanilishini aniqlang. *Sen bilan, oy kabi, gul singari, o'qish uchun, borgan sari, o'qigan sayin, o'n chog'li, daryo bo'ylab, aytishiga ko'ra, shunga qaramay, mehnatiga yarasha, qarorga asosan, hayotga doir, o'qishdan so'ng, tushdan keyin, va'daga muvofiq, bundan bo'lak.*



Bilib oling: *bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, chog'li, bo'ylab* kabi ko'makchilar o'zlari birikib kelgan so'zlarga hech qanday qo'shimchasiz qo'shiladi.

Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq kabi ko'makchilar jo'nalish kelishigidagi ismlarga qo'shiladi.

Tomon ko'makchisi bosh va jo'nalish kelishigidagi ismlarga qo'shilishi bilan birga, o'zi ham jo'nalish kelishigini olishi mumkin: siz tomon, sizga tomon, siz tomonga.

Keyin, bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari, buyon, keyin, oldin, boshlab, avval kabi ko'makchilar chiqish kelishigidagi ismlarga qo'shiladi.

Ust, ost, orqa, tomon, tepa, ich, uch singari ko'makchilarning o'zi egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgaradi: *Jahl ustida, gap tepasida.*



249-mashq. O'qing. Ko'makchilarni o'zi birikkan so'zlar bilan birgalikda ko'chiring. So'zlar qaysi kelishikda ekanini aniqlang.

Oqshomdagina ko'chalarda bog' va maydonlarda odam to'liqini siyraklandi. Sultonmurod va Arslonqul boshlarini quyi solib, xiyobon bo'ylab asta ketardi. Quyosh olovlangan bulutlarga botib, ufqqa sho'ng'ir edi. Xiyobon oxirida Sultonmurod xushlashmoq uchun to'xtadi. Qizarib shishgan ko'zlari bilan Arslonqulga qaradi. (Oybek)

250-mashq. Nuqtalar o'rniga ko'makchilar talabiga muvofiq kelishik qo'shimchasini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. U yigitga maqola yanglish ketganini va bu... haqda idora chora ko'rganini aytib chiqarib yubordi. (Abdulla Qahhor) 2. Qish o'tib, bahor kelishi bilan Qorabog'da o'tkazilgan qurultoyda Boyazid... ustiga yurishga qaror qilindi. (Xurshid Davron) 3. Yomonlikdan chiqqan aks-sado har qadam... sayin zaiflasha boradi, bora-bora o'chib yo'q bo'ladi. (Sh. Rashidov) 4. Kecha Jannat-xola o'g'li... oldiga borganda, soqoli o'sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko'rgan edi. (Said Ahmad) 5. Markaziy xirurgiya klinikasining bosh vrachi Mirsidiq Jalilov bir hafta... beri Namanganda dam olardi. (O'Umarbekov) 6. Bu ishga qadam qo'yish... ilgari bir karra siz... oldingizdan o'tib, ra'yingizni bilishga to'g'ri keldi. (Oybek)

251-mashq. *Bilan, uchun, tomon, qarab, ko'ra* kabi ko'makchilarini qatnashtirib gaplar tuzing. Ko'makchilarni o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ajrating va bu so'z qaysi kelishikda ekanini aniqlang.

Φ 252-mashq. Berilgan birikmalarni diqqat bilan o‘qing. Xatolarini to‘g‘rilab, daftaringizga yozing.

Dala bilan ketdi, soy uchun yurdi, akam bo‘ylab oldim, qalam tomon yozmoq, oftob chiqmasdan haqida, asar burun fikrlar, xabarni eshitgandan qadar, yetti yoshdan yetmish yoshga boshlab.

?

Savol va topshiriqlar

1. Qaysi ko‘makchilar so‘zlarga hech qanday qo‘shimchalarsiz bog‘lanadi?
2. Jo‘nalish va chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan birikadigan ko‘makchilar qaysilar?
3. Qaysi ko‘makchilar egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgaradi? Misollar keltiring.

253-mashq. Uyga vazifa. Singari, sayin, qaramay, asosan, tomon, tashqari, boshlab, tomon, ich ko‘makchilarini qatnashtirib bog‘li matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying. Ko‘makchilarning qaysi kelishikdagi so‘zlar bilan bog‘langanini tushuntiring.

53-mavzu. MUSTAHKASHLASH MAVZUI

?

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ko‘makchi deb nimaga aytiladi?
2. Sof ko‘makchilar qaysilar?
3. Vazifadosh ko‘makchilarga misollar ayting.

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ko‘makchilarni topib, ularning ishlatilish o‘rinlariga va mosligiga diqqat qiling.

1. To‘g‘ri so‘z o‘z egasini najot sari yetaklaydi. (Yusuf Xos Xojib) 2. Ba‘zilar ovqatlanish uchun yashaydilar. Men esa yashash uchun ovqatlanaman. (Abu ali ibn Sino) 3. Ertasiga ikki oshna Yangibozor qishlog‘iga qarab yo‘l olishdi. (O‘.Umarbekov) 4. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g‘am va qayg‘u ostida bo‘ladi. ("Hikmat noma" dan) 5. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun, sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo! (A.Oripov)

2-topshiriq. Ko‘makchilarni sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qadar, yonida, pastida, qoshidan, kabi, singari, buyon, qaraganda, uchun, bilan, ostida.

3-topshiriq. Quyidagi ruboiyni daftaringizga ko‘chiring, ko‘makchilarni topib izohlang. Undagi g‘oya haqida bahs yuriting.

Boshni fido qilg‘il ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a,
Tun-kuninga aylagali nur posh,

Birsin oy angla, birsin quyosh. (Navoiy)

4-topshiriq. Ko'makchilarni kelishik qo'shimchalari bilan almashtirib ko'ring. Gap mazmuniga ularning ta'siri bor yoki yo'qligini aniqlang.

1. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman. (X.To'xtaboyev) 2. Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgan, Tanbal bo'lmay xizmat etgil xalq uchun (Berdaq) 3. O'zi-ku mayli-ya, bolasi ertalabdan beri hech narsa yegani yo'q... (N.Fozilov) 4. Bobur... bekig' dili ko'rg'ondan ko'ra uzoqdagi daraxtzorlarni, keng, ochiq joylarni afzal ko'rardi. (P.Qodirov) 5. O'sha kunlari dlamizda ish haddan tashqari qizib ketgan edi. (X.To'xtaboyev) 6. Sherdan qo'rqqandan ko'ra nafsdan qo'rqqan foydaliroq ("Hikmatnoma"dan)

5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyidagi berilgan ko'makchilardan mosini qo'yib ko'chiring, ularning ishlatilish o'rinlarini izohlang.

Aql inson eng oliy ne'matlardan biridir. Aql... narsalarning sir-asrorlari o'rganiladli, ilm va ma'rifat egallanadi, kasb hosil qilinadi.

Bir donishmand aytadi: "Aql-yurak ichidagi nur, bu nurhaq yoki nohaq bilib olinadi". Boshqasi bu shunday deydi: "Aql o'z egasini dunyo malomatlaridan qutqaradi". ("Hikmatnoma"dan)

So'zlar: ila, haqda, uchun, bilan

6-topshiriq. Ichida, tashqari, boshqa, keyin, qaraganda, ko'ra so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Birinchi gapda ular mustaqil so'z ma'nosida, ikkinchi gapda esa ko'makchi vazifasida kelsin.

Namuna: "Ertaga tog'asinikiga borishni ichida o'yladi. 2. Bir hafta ichida "Oygul bilan Baxtiyor" dostonini yodlab oldi.

54-55 darslarda yozma ish va uning tahlili o'tkaziladi.

56-mavzu. BOG'LOVCHILAR HAQIDA MA'LUMOT

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan yordamchi so'zlarni qo'yib, gaplar qatorini hosil qiling. *Men Pirimqul Qodirov, . . . Said Ahmad asarlariga qiziqaman. (goh-goh, yo-yo, ba'zan-ba'zan, na. . . na. . . , bilan, va, ham-ham, bir-bir)*

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qo'yilgan yordamchi so'zlarning vazifasi va gap ma'nosiga qanday ta'sir etayotganini ayting.



Bilib oling. Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchi deyiladi.

va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo-yo, dam-dam, goh-goh singari so'zlar bog'lovchilardir.



Bilib oling. Bilan yordamchisi ko'makchi vazifasida ham, bog'lovchi vazifasida ham qo'llaniladi. Uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda, bog'lovchi vazifasini bajaradi: Adol bilan o'yinchi Sora. . .

O'zaro tobe bog'lanuvchi so'zlarni bog'lab kelganda, ko'makchi vazifasini bajaradi: Adol bilan keldim.

254-mashq. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. O‘rtoqlarim . . . men uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. (Abdulla Qodiriy)
2. Farzandlari galma-galdan hivichlarni bir yo‘la sindirishga urinibdi, . . . hech biri buning uddasidan chiqqa olmabdi. («Birlashgan o‘zar» ertak)
3. O‘zi balo tog‘ining . . . ofat bulog‘ining Boshida o‘ltirarmish, Kunu tun ,yoz ham qish. (Hamid Olimjon)
4. O‘ktam u yoq-bu yoqqa asta yurar, «Komila bu yerda biron ishga . . . majlisga o‘ralashib qolmasaydi», deb xavotirlanardi. (Oybek)
5. To‘rtko‘z bo‘lsa bizdan o‘n qadam ilgariroqda chopib borar, bizga yaqin kelib, atrofimizda o‘ynoqlar edi. (G‘ayraty)
6. – Sizga bir narsani ko‘rsataman, . . . kinoga olmaysiz ! – dedi Islom. (Sh.Xolmirzayev)

Bog‘lovchilar: va, yo, ammo, goh, bilan, lekin.

Φ 255-mashq. Bog‘lovchilar noto‘g‘ri qo‘llanilgan o‘rinlarni toping va ularni to‘g‘rilab, gaplarni ko‘chiring.

1. Bu yer – Xuroson, lekin Movarounnahr chegarasi. (Mirmuhsin)
2. Qozilar sudida adolat yo‘q va to‘ralar sudida har qalay haqiqat bor deb yurar edi; bunga qattiq ishonar edi. (X.To‘xtaboyev)
3. Rustam dovon ustida ammo paydo bo‘lib, lekin tarqalib ketayotgan kul rang bulutlarga bezovtalanib qaraydi. (O.Yoqubov)
4. Biz aytmoqchi bo‘lgan podshoh ham barcha hukmdorlar singari maqto‘v dam olqishlarni juda yaxshi ko‘rarkan.
5. Onam biroq dadamga chala-chulpa yordamlashib, hadeganda oshiq ammo yong‘oq o‘ynaydigan o‘rtoqlari oldiga yugurardim. (N.Safarov)
6. – Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko‘p, ularni jangga chorlab, yengish mahol va ularni qirib tashlash uchun bir yo‘l bor. (Mirkarim Osim)

256-mashq. Bog‘lovchilar qatnashgan gaplarni toping va bog‘lovchining vazifasini ayting.

Hotamjon belida bir oz og‘riq sezibdi, ammo e‘tibor bermay kasalni ko‘ribdi, dori-darmon qilib uyiga qaytibdi. Otdan yiqilganini hech kimga aytmabdi ham. Lekin ertalab og‘riq zarbidan turolmay qolibdi. Og‘riq shu-shu qolmas ekan.

Mirsidiq palatadan chiqib, professor Vlasov bilan maslahatlashdi. Bemorning umurtqa suyagini rentgenga soldi, operatsiyaga tayyorgarlik ko‘ra boshlashdi. Biroq bu operatsiyaning foyda berishiga Mirsidiqning o‘zi ham ishonmas edi. Bemor juda kech murojaat qilgan ekan. (O‘.Umarbekov)

📁 257-mashq. «Bilan» bog‘lovchi vazifasida kelgan o‘rinlarni aniqlab, gaplarni ko‘chiring.

1. Avval bu ham ta’sir qilmadi, biroq, borib-borib u bemorning qo‘shiqlarini diqqat bilan eshitadigan bo‘lib qolganini ko‘rdi. (O‘.Umarbekov)
2. Sen na zardo‘st, sen na buddiy Senga na otash, sanam, Odamiylik dini birla Toza imon, o‘zbe‘gim. (E.Vohidov)
3. Eshaklar ikki yonidan suyalganda ham bu muzdan yuk bilan o‘tolmaydi. (O.Yoqubov)
4. Bir oz borgach, bizning otimizning oyog‘i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. (Abdulla Qodiriy)
5. Buvim hali olovi chiqib yotgan, oyim bilan doktor bo‘lsa meni kutib o‘tirgan ekan. (N.Fozilov)

258-mashq. Ikkita tovush yordamida bo'sh kataklarni to'ldirib, so'zlar hosil qiling. O'rtadagi so'zning qaysi turkumga mansubligini ayting.

?

	l	
	e	
	k	
	i	
	n	

Savol va topshiriqlar

1. Bog'lovchilar qanday vazifa bajaradi? (nima uchun xizmat qiladi?)
2. Ham ko'makchi, ham bog'lovchi vazifasida qo'llaniluvchi so'zni ayting.

259-mashq. Uyga vazifa. Nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Somon topib kelib, loy qilib, uyning ba'zi tushib ketgan joylarini suvadilar, yorug' tushsin deb ikkita teshik ochib, romsiz oyna qo'ydilar, supurib tozaladilar, eshikni tuzatdilar, uy o'rtasiga taxta qoqib, uzun stol . . . o'tirg'ichlar yasadilar, uyma-uy qidirib, ikki-uchta ortiqcha kerosin lampa topib keldilar. Dadam bosmaxonadanmi, magazindanmi juda ko'p har xil afishalar, «Mushtum» keltirib berdilar. Ularni devorlarga qoqib, yopishtirib chiqdilar. So'ng dadam o'z kutubxonalaridan . . . , yana allaqayerdan ancha kitob keltirib berdilar . . . Bolalar ichida yoshi kattasi, jiddiy . . . savodlisi bo'lgan Nuriddin akani kutubxonaga boshliq qilib tayinladilar. (Habibulla Qodiriy)

57-mavzu. BOG'LOVCHILARNING VAZIFASIGA KO'RA TURLARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan bog'lovchilarning nimalarni va qanday yo'l bilan bog'lab kelishini izohlang. 1.Boshlanadi ijob va turmush. (Hamid Olimjon)
2.Men gulni yaxshi ko'raman, chunki u ruhimni ko'taradi. (S.Zunnunova)

2-topshiriq. Yuqoridagi bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra guruhlariga bo'ling.



Bilib oling. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

Φ 260-mashq. Gap tarkibidagi bog'lovchilarning vazifasiga qarab, gaplarni jadvaldagi tegishli ustunga joylashtiring.

Teng bog'lovchili gaplar	Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar

--	--

1. O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydirg'on darajada katta va sayhon bir yer ekan. (Abdulla Qodiriy) 2. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir, chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yor-do'stiga, din va millatiga foyda yetkazmoq, bir yoqda tursin, o'ziga loyiq bo'lgan toat-ibodatni ham loyig'icha qila olmaydi. (Abdulla Avloniy) 3. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'urchuqday yopirilishib, o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. (Abdulla Qodiriy) 4. Tepaga chiqamen, soyga tushamen, Yo garang toshlarga jim suyanamen. Yo buloq boshida bir cho'pon kabi Yaslanib bir lahza o'yga tolamen. (Oybek) 5. Tongning tasviriga rang bisotidan Eng yorqin, eng go'zal mato sayladim. Chunki tong saodat va nur keltirar, Unga ilhomimni hadya ayladim. (Uyg'un) 6. Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim, Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard. (Mirtemir)


261-mashq. Bog'lovchilarning tagiga chizing. Ularning vazifasini tushuntiring.

Tinib-tinchimas bu chol umr bo'yi o'z loyihalarini, chizmalarini Ma'suma bekaga gapirib keldi, aslida u uning loyihay-u chizmalariga aslo tushunmasdi. Ammo qadrdonining tushunib bo'lmas har bir chizig'-u xatlari ham qadrdon va allaqanday bo'lib tuyulardi unga. U me'morning gaplarini e'tiroz bildirmay, sabr-toqat bilan eshitar, bosh qimirlatib tasdiqlardi. . ., Inson shunaqa ekan-da, - dedi ichida Ma'suma beka, - bu samarqandliklar, buxoroliklar va shoshliklar ertaga o'layotgan bo'lsa ham bugun imorat solishadi . . .» (Mirmuhsin)

262-mashq. Qavs ichidagi bog'lovchilardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Temuriyzodalar o'zlariga yon bosgan zotlarning boshidan tillo sochardi-yu, (chunki, va bilan, ammo) ularning hukmdorligiga qittakkina munkir kelgan kimsani aslo kechirmasdi - qattiq o'ch olardilar. (Mirmuhsin) 2. Shunday derdi-yu, (va, ammo, yo-yo) shu tobda Mening ko'zlarimga boqardi o'ychan. (Shukrullo) 3. Havoda zildek og'ir, qoramtir bulutlar aylanar, (na. . . na, yo, . . .yo, bilan, lekin) etakdagi paxtazor yaqqol ko'zga tashlanar edi. (Sh.Xolmirzayev) 4. Terak (bilan, ammo, chunki) yong'oq yonma-yon o'sibdi. (L.Mahmudov) 5. Podshoning sadoqatli iti xushomad (lekin, va, chunki) «dushman»larni jazolashning g'alati usullarini o'ylab topaveribdi. (N.Aminov) 6. Bir payt eshikda dasturxon (va, ammo, yoki, chunki) lagan ko'targan chol ko'rinibdi. (N.Aminov)

Φ 263-mashq. No'xatpolvonni to'g'ri yo'ldan olib borsangiz ertaklar olamiga kirasiz.



📁 264-mashq. Bog'lovchilarni topib, tagiga chizing, qanday vazifa bajarayotganini ayting. Pashshaning gapi to'g'rimi? Siz qanday munosabat bildirasiz?

Bir pashsha qir tarafdin uchib kelayotgan bolarini ko'rib : . . . – «Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilasan! Sen ham men kabi rohatda yashasang bo'lmaydimi, chunki mening hayotimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tomonidan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib, umr o'tkazaman. Ba'zi vaqtlarda sen yiqqan bolingdan ham to'ygunimcha yeyman. Yashamoq mana! Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi turmush bo'ladimi? Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor», - dedi. («Gulxan»dan)

?

Savol va topshiriqlar

1. Berilgan so'zlar ichidan bog'lovchilarni ajrating. Ularning turini aniqlab gaplar tuzing. *Uchun, tomon, bilan, hamda, va, biroq, ichida, hamisha, ammo, ketmoq, yo. . .yo, chunki.*
2. Bog'lovchilar qaysi belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

265-mashq. Uyga vazifa «Mehnat qilsang, rohat ko'rasan» mavzusida bog'lovchilarni qatnashtirib bog'li matn tuzing. Bog'lovchilarning tagiga chizib, turini aniqlang.

58-mavzu. TENG BOG'LOVCHILAR

1-topshiriq. Berilgan gaplar tarkibidagi bog'lovchilarning vazifasini aniqlang. 1.*Ona bilan bola, gul bilan lola. (Maqol) Hammasini tinglardim, ammo o'xshashni topmasdim aslo. (H.Olimjon)* 2. *O'ktam tolga suyanib, dam cholg'a, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi. (Oybek)*

2-topshiriq. Bog'lovchilar yordamida bog'lanib kelayotgan bo'lak va gaplar o'rtasida qanday ma'no munosabati borligini aniqlang.



Bilib oling. Uyushiq bo'laklar va uyushiq gaplarni o'zaro bog'lab keluvchi bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi.

Teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak va gaplarni bog'lash bilan birga, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqaradi. Shunga ko'ra teng bog'lovchilar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) **biriktiruv bog'lovchilari** (*va, hamda, bilan, ham*)
- 2) **zidlov bog'lovchilari:** *ammo, lekin, biroq, balki.*
- 3) **ayiruv bog'lovchisi:** *yo-yo, goh-goh, dam-dam, bir-bir, ba'zan-ba'zan, xox-xox*
- 4) **inkor bog'lovchisi:** *na-na.*



266-mashq. Bog'lovchilarni toping. Qanday mazmuniy, munosabatni ro'yobga chiqarayotganini ayting.

1. Uning o'g'illari Bektosh va Hoshim maktabda o'qiydi. (N.Fozilov) 2. Qimmat ham sehrigar kampirning uyiga kelib qolibdi. Ammo u kampirga biror og'iz ham shirin so'z so'zlamabdi, aytgan ishlarini qilmabdi. (Ertakdan) 3. Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. (G'afur G'ulom) 4. Bu qizcha shu topda undan jon so'rasa, balki ayamasdi. Lekin non qani? (Oybek) 5. U rostini gapirib bergani uchun, onasi urushmadi, balki yolg'on gapirish odobli bolaning ishi emasligini aytdi. (Shuhrat)

6. Ko'ksimdagi sevinch shuncha zo'r,
Dumalayman maysada tanho.
Goh tentirab ketaman uzoq,
Yerni quchib o'paman goho . . . (Oybek)

267-mashq. Gaplarni jadvalga joylashtiring.

Biriktiruv bog'lovchili gaplar	Ayiruv bog'lovchi gaplar	Zidlov bog'lovchi gaplar	Inkor bog'lovchi gaplar

1. Musofir bo'l, ammo vatan ichra bo'l. (Alisher Navoiy) 2. Anjuman so'ngida g'oliblar, tadbir tashkilotchilari «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakatining Toshkent viloyat bo'limi hamda viloyat Fan xodimlari kasaba uyushmasi tomonidan taqdirlandilar. («Gulhan»dan) 3. Tabiat saharda misli bir g'uncha, Tong esa g'unchaning ochilgan chog'i. Yoki taxmin qiling: tabiat bir qiz, Tong esa u qizning marmar yonog'i. (Uyg'un) 4. Xullas, shundoq edi olam va ishlar Seni tanimagan paytlar . . . (Asqad Muxtor) 5. Shundan – na zaharli o'q qo'rg'oshini Va na Astrobod, Sibir konlari, Va na Shohimardonning tosh bo'ronlari. (Asqad Muxtor) 6. Lekin Ibrohim Sulton o'z amrini bajarmagan va buning ustiga «nosazo»gap aytgan Me'morni yomon ko'rib qolgan edi. (Mirmuhsin)

268-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli bog'lovchilarni qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Avvaliga cholga bir nima bo'ldi, deb hayol qilgan Zulfiqor . . . Zavrak yugurib kelib ustodga qarashdi. . . 2. Qarashmoqchi bo'lar . . . singlisiga, . . . turib qoladi hayolchan, sokin, . . . kelgan kabi hushi esiga, Entikib, atrofqa qaraydi sekin. (S.Zunnunova) 3. To'lg'anaman, . . . yeta olmayman, Ko'z yoshingni, erkam, arta olmayman, Tabiatdan sira-sira nolima, Uning o'zi kutar insondan ehson. (S.Zunnunova) 4. Mashrabga shunday tuyuladiki, go'yo bular archa emas, . . . oq ro'moldan chiroyiga chiroy qo'shilgan suluv kelinchaklar. 5. Sip-silliqlik qoya toshlardan iborat tor darada . . . qum bor, . . . shag'al, sharqirab oqqan suv hammasini yuvib ketgan. (O.Yoqubov). 6. Ilm deb, o'qish . . . yozishni yaxshi bilish, har bir kerakli narsalarni o'rganmoqqa aytiladi. (Abdulla Avloniy)

Bog'lovchilar: *goh-goh, ammo, bilan, na-na, balki, va.*

Φ 269-mashq. Yo'lni to'g'ri topib olsangiz, bog'lovchilardan iborat yo'lak hosil bo'ladi. Bog'lovchilarning turini ayting.

dam...dam	bay-b ay	xuddi	ajab	ba'zan
ammo	goh...goh	duv	shuning uchun	keling
lekin	oh-voh	yo...yo	xullas	yoki

270-mashq. Bog'lovchilar noto'g'ri qo'llangan holatlarni toping. Ularni to'g'rilab, gaplarni ko'chiring.

1. Ko'p -yillik o'simlik poyachalarida mayda barglari ammo yerda yo-yilib o'sishi uchun xizmat qiladigan bachki poyachalari ham bo'ladi. (Sabzavot, rezavorlar mevalar, ziravorlar hosiyati» kitobidan). 2. Ajabo: yovshan lekin shuvoqlar guvillab yonayotgan bo'lsa-da, yo oyoq-qo'llar kuyardi, yo paytavalar. (O.Yoqubov) 3. – Dam sen bo'lasan pachoq, dam men! – deb qichqirdi-da, toshni kuch bilan muzga shunday urdiki, muz qarsillab ketdi-yu, o'tovday joyi o'pirilib tushdi. (O.Yoqubov)

4. Menga Pushkin bir jahonu,
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim. (E.Vohidov)

5. Plastinkada bir oz xiraroq va eshitib anglasa bo'ladigan so'zlar taraldi. (S.Ergasheva) 6. Qor siyrak yog'ayotgani uchun uzoq-uzoqlar ko'rinadi, bilan bora-borguncha bironta tirik jon ko'zga tashlanmaydi. (P.Qodirov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Teng bog'lovchilar mazmuniy munosabatlariga ko'ra yana qanday turlarga bo'linadi?
2. Bog'lovchilarning har bir turiga misol keltirib daftaringizga yozing.

271-mashq. Uyga vazifa. «Birinchii o'qituvchim» mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyada teng bog'lovchilardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, turini ayting.

59-mavzu. SOF VA VAZIFADOSH BOG'LOVCHILAR

1-topshiriq. Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Ularning ma'nolarini izohlashga harakat qiling. 1.Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshlaydi. (P.Tursun) 2. Halim bilan Salim juda inoq. Na o'qiydi, na ishlaydi. Na ko'kning fonari o'chmasdan, Na yulduz sayr etib ko'chmasdan . . . (Uyg'un) 3. Akam ham mukofot oldi. («Gulxan») 4. Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a? («Gulhan») 5. Yorning o'zi emas, balki guli keldi («Qo'shiq») Balki, kelib qolar.



Bilib oling. Bog'lovchilar ham huddi ko'makchilar singari sof bog'lovchilar va vazifadosh bog'lovchilarga bo'linadi.

Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar sanaladi: va, lekin, ammo, biroq, kabi.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi.

Masalan, bilan ham ko'makchi, ham bog'lovchi; ham, na-na ham bog'lovchi, ham yuklama, -u (-yu), -da yordamchilari ham yuklama, ham bog'lovchi; balki ham bog'lovchi, ham modal so'z vazifasini bajaradi. Shuning uchun ularni ko'makchi-

bog'lovchi, bog'lovchi-yuklama, bog'lovchi-modal so'z atamaları bilan ham nomlash mumkin.

272-mashq. Tarkibida bog'lovchisi bor gaplarni ko'chiring. Ularning sof yoki vazifadosh bog'lovchi ekanligini ayting.

1. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq koptokni u yoqdan – bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi. (L.Mahmudov) 2. Najosatlik va suv to'plangan yerlarga qadam qo'ymaydi. («Nasihatnoma»dan) 3. Goh jahlgā minsam-da, sal, Ichim to'la mehr, qizim. Goh sal qo'pol, goh sal dag'al Dadajoning kechir, qizim. (Yahyo Tog'a) 4. Hatto, bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. (Abdulla Avloniy) 5. U chiroqni o'chirib sandal chetiga yotdi-yu, ko'nglidagi g'ul-g'ula kuchayib ketaverdi. (O'.Hoshimov) 6. Boyvachcha yer o'pib, tavba qilibdi va kekxa ota-onasini rozi qilish uchun o'sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi. (N.Aminov)

Φ **273-mashq.** She'rni ko'chiring. Bog'lovchilarning tagiga chizing.

Tuzdiyu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk –
Qo'ydi narvon, o'zbekim.

Mirzo Bobur – sen fig'oning
Soldi olam uzra o't,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.

Mir Alisher na'rasiga
Aks sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shohu sulton, o'zbekim.

She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun, Nodira,
Siymtanni yuvdi ko'z yosh
Ko'mdi armon, o'zbekim !

Ilmu she'rda shohu sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat
Zor-u nolon, o'zbekim.

Yig'ladi g'urbatda Furqat,
Ham muqimlikda Muqim.
Nolishingda Hindu, Afg'on
Qildi afg'on, o'zbekim.

274-mashq. Gaplarni o'qing. Bilan, -u, -yu, balki bog'lovchilarning vazifasini tushuntiring.

1. Bolakayning ishtaha bilan qovun yeyishiga havasi kelib tayog'ini sekin tushirdi. (M.Xoliyorov) 2. Zulfiqorov Shoshiy bilan Zavrak Nishopuriy shu lahza yugurgancha otni qutqarish uchun narida qiyshayib yotgan uchinchi arava yoniga kelishdi. (Mirmuhsin) 3. O'liklar quchoqlab yotsa-yu mahkam, Nahotki, tiriklar turadi loqayd? (S.Zunnunova) 4. Hayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin, asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko'rindi. (O.Yoqubov) 5. Al Beruniy, al Xorazmiy, al Farob avlodidan Asli nasli balki O'zluq, Balki Tarxon, o'zbekim. (E.Vohidov) 6. Aftidan, ma'murlar uni sud qilmoqchi emas, balki mazlumlar o'rtasida palonchi sudlandi, degan ovoza tarqatishmoqchi edilar, xolos. (X.To'xtaboyev)

 **275-mashq.** Fikrlang-chi, quyidagi so'zlarni nima orqali bog'lash mumkin?

Sabr, yog'och, sog'lom, qoldi, saodat, suvchi, zichlik, ahil.

276-mashq. Avval sof bog'lovchili, keyin vazifadosh bog'lovchili gaplarni ko'chiring.

1. – Tan olaman, tergovchi janoblari, berishadi-yu lekin nima sababdan bu ishni qilganimni daftaringizga qayd qilib qo'ysangiz. (X.To'xtaboyev). 2. Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi? (X.To'xtaboyev) 3. Ayniqsa, uning odob va axloq haqidagi «Turkiy Guliston» asari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. («Gulxan»dan) 4. Kuyuk saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o'zini shu panohgohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi. (S.Ravshanov) 5. Bir kuni kechasi bir hiyla o'ylab chiqdim-da, erta turgach, eski maktab sari jo'nadim. (Abdulla Qodiriy) 6. Ona bilan bola - gul bilan lola. (Maqol)

?

Savol va topshiriqlar

1. Sof bog'lovchilarni ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Qanday bog'lovchilar vazifadosh bog'lovchilar de-yiladi?
3. Vazifadosh bog'lovchilarni ham bog'lovchi, ham o'z vazifasida keltirib gaplar tuzing.

277-mashq. Uyga vazifa. Sof va vazifadosh bog'lovchilar ishtirokida bog'li matn tuzing. Matnga sarlafha qo'ying. Bog'lovchilarning tagiga chizib, turini ayting.

60-mavzu. BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILARI

1-topshiriq. Berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga *va, bilan, hamda, -u (-yu), -da* yordamchilarini almashtirib qo'yib ko'ring. *Otni soy bo'yiga bog'ladi. . . o'zi yuqoriga chiqib ketdi.* (A.Qahhor)

2-topshiriq. Yuqoridagi bog'lovchili vositalarning qanday umumiy ma'no ifodalashini topishga harakat qiling.



Bilib oling. Uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni o'zaro biriktirib bog'lovchi yordamchilar biriktiruv bog'lovchilari hisoblanadi.

Biriktiruv bog'lovchilariga *va, hamda* sof bog'lovchilari, *bilan* ko'makchi-bog'lovchisi, *-u (-yu), -da*, ham yuklama-bog'lovchilar mansubdir. Bulardan *ham* bog'lovchi vazifasida takror holda qo'llaniladi. Takror qo'llanuvchi *ham* bog'lovchisi bog'lanayotgan so'z yoki gapdan oldin qo'llaniladi va bunday so'z va gaplar orasiga vergul qo'yiladi.

-u (-yu), -da o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi, lekin uyushiq bo'laklar o'rtasiga vergul qo'yilmaydi.

278-mashq. Matnni o'qing. Biriktiruv bog'lovchisi qatnashgan gaplarni ko'chiring.

Ilmning foydasi shu qadar ko'pki, ta'riflagan bilan ado qilish mumkin emas. Bizlarni jaholat qorong'uligidan qutqaradi. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarib, yomon

fe'llardan, bema'ni ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va adab sohibi qilib, Alloh taolaga muhabbat va e'tiqodimizni orttiradi.

Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qiluvchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo'lmangiz», - deganlar:

Ilm bir daryo – ichi to'lmish duru gavhar bilan

Qiymat-u qadrini qachon bilgan oni johil -yilon.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo'lsang, shuni bilmoq bizga farzdir. Shuning uchun o'qimoq, bilmoq zamonlarini qo'ldan boy bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmoqqa jonimiz boricha harakat qilmog'imiz lozim. (Abdulla Avloniy)

279-mashq. Gaplarni yozing, biriktiruv bog'lovchilarining tagiga chizing. Ularning sof yoki vazifadoshligini tushuntiring.

1. U oldimga bir varaq qog'oz va qalam qo'ydi. (O'.Hoshimov) 2. Yangi maktabda ham fanlar, ham mualliflar ko'p. (O'.Hoshimov) 3. Eron askarlari yo'l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-hashak olib yo'lga chiqdilar. (Mirkarim Osim) 4. Qizcha birdan qichqirib yig'lab yubordi-da, oyoqlarini tipirlatib, yerga tushishga intildi. (Oybek) 5. Bir o'rmonda bir zo'r Sher bilan Durroj yashar edi. (Navoiy) 6. To'satdan jala quydi-yu, yer-ko'kni shalabbo qilib yubordi. (O'.Hoshimov)

280-mashq. Gaplarni o'qing. Bog'lovchilar noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni toping.

1. Ikki childirma qizitildi bilan dutor, tanbur, g'ijjak, chang kabi cholg'uvlar sozlandi. (Abdulla Qodiriy) 2. Shamsro'y shoira haqiqiy portretini yaratish uchun ko'p bilim va mahorat kerakligini tushundi. («Gulxan»dan) 3. Ona – aziz bilan mo'tabar siymo. (M.Usmonov) 4. Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nonini bilan bilan sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. («Ahloq, odob saboqlari») 5. Qobil bilan Hobil o'rtasida paydo bo'lgan ixtilof yaxshilik biroq yomonlik o'rtasidagi kurashdir. («Hadis»dan) 6. Hozirgi kunda bu yerda madaniyat bilan istirohat barpo qilingan. («Gulxan»)



281-mashq. Faqat biriktiruv bog'lovchili birikmalar berilgan qatorni toping.

1. Qalam bilan chizdim, o'qidi-yu yozmadi, quyosh va oy.
2. Hakim bilan Hoshim, kun va tun, ninachi hamda chumoli.
3. Ayiq hamda bolalari, bolari bilan pashsha, men uchun.
4. Ota va ona, gul-u lola, otlandi-yu bormadi.
5. Oy-u kun, mehnat bilan erishmoq, toshbaqa hamda chayon.

Φ 282-mashq. Qavs ichidagi bog'lovchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. O'g'li (va, hamda, uchun) kelinining bu kabi muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib-o'ksib yig'lardi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») 2. Bir tovuqqa (va, bilan, ham) don kerak, (ham, hamda, va) suv kerak. (Xalq maqoli) 3. Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, (va,bilan,ham) mungli, (-u,-da,ham) shirin jildirashlari, Buralib, ko'katlar ichidan chopar, Uzilgan marvarid yarqirashlari. (Oybek) 4. Badia (bilan, ham, lekin) Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi. (Mirmuhsin) 5. Na uyquga to'ygan (bilan, va, ham) na kulguga Ko'rsa ko'z kuygundek kelinchak edim. (S.Zunnunova) 6. O'qidi (-yu, va, hamda) tanidan Chiqib ketdi muzdek ter. (E.Vohidov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Biriktiruv bog'lovchilarini sanang.
2. Qanday bog'lovchilar biriktiruv bog'lovchilari de-yiladi?
3. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida so'zlarni boglang.

283-mashq. Uyga vazifa. Biriktiruv bog'lovchilarini qatnashtirib «Mening orzum» mavzusida bog'li matn tuzing. Bog'lovchilarning tagiga chizing. Ularning sof yoki vazifadoshligini ayting.

61-mavzu. AYIRUV BOG'LOVCHILARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga yo-yo, goh-goh, dam-dam bog'lovchilarini almashtirib qo'llang. *Quyosh yalt etib ko'rinib qoladi, Bulutlar ichiga bekinib oladi. (Oybek)*

2-topshiriq. yo-yo bog'lovchisini goh-goh, dam-dam bog'lovchilari bilan almashtirilganda, gap mazmunida qanday o'zgarishlar ro'y berayotganini ayting.



Bilib oling. O'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatuvchi hamda bu bo'lak va gaplardan anglashilgan ma'noning navbatma-navbat yuzaga chiqish- chiqmasligini bildiruvchi teng bog'lovchilar ayiruv bog'lovchilari hisoblanadi.

Yo-yo, yo, yoki bog'lovchilari uyushiq bo'laklar yoki gaplarni o'zaro bog'lash bilan birga, ulardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatadi.

Goh-goh, dam-dam, ba'zan-ba'zan, bir-bir kabi bog'lovchilar esa uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biri bilan bog'lash bilan birga, ulardan ifodalangan ma'nolarning navbatma-navbat bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi.

Takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchisi oldidan yozuvda vergul qo'yiladi. Yakka qo'llaniluvchi yo, yoki bog'lovchilari oldidan esa hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

Ba'zan biriktiruv bog'lovchisi va ayiruv bog'lovchisi yo bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, nimani ko'z ko'rib va yo qo'l tutmas. (M.Toirov)

Φ **284-mashq.** Jadvaldagi teng bog'lovchilar tasnifi va vazifasiga e'tibor bering.

№	Teng bog'lovchilar turlari	Vazifasi	Bog'lovchilar
1	Biriktiruv bog'lovchilari	Uyushiq bo'lak va bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'laydi	Va, hamda, bog'lovchi, vazifasida kelgan, bilan ham yordamchilari
2	Zidlov bog'lovchilari	O'zaro zid ma'noli uyushiq bo'laklarni bog'laydi	Ammo, lekin, biroq
3	Ayiruv bog'lovchilari	Uyushiq bo'lak va qo'shma gap qismlarini bog'lab, ulardan birini ayirib ko'rsatish yoki galma-gallik munosabatini bildiradi	yo, yo-yo, goh-goh, dam-dam, ba'zan-ba'zan

285-mashq. Avval ayiruv bog'lovchili, so'ng biriktiruv bog'lovchili gaplarni ko'chiring.

1. Yo seni tanigach, hayotga qaytdim Yo olam boshqacha bo'lib qoldimi? (Asqad Muxtor) 2. Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin jildirashlari, Buralib ko'katlar ichidan chopar, Uzilgan marvarid yarqirashlari. (Oybek) 3. Tevarakdagi ishilar bir menga, bir toychamga qaraydilar. (Abdulla Qodiriy) 4. Xullas, shundoq edi olam va ishlar Seni tanimagan paytlar . . . (Asqad Muxtor) 5. Ammo eng yaqin yo'l shu bo'lganligi tufayli hamma yo Mukri, yo Xalachga bormaslikka, Jayxundan o'tmaslikka ilojlari yo'q. (Mirmuhsin) 6. – Namoz bilan Hamdamboyning nigohlari duch kelib qoldi. (X.To'xtaboyev)

 **286-mashq.** Matnni o'qing. Ayiruv bog'lovchilarning tagiga chizing. Qanday ma'no anglatayotganini ayting.

Bu qanaqasi bo'ldi, ko'nglidan o'tdi Namozning, bu o'sha Mirza Hamidmi yoki boshqa birovmi? Axir, Namozning ashaddiy dushmani edi-ku, u? Namoz bosh ko'tarib chiqqandan buyon qo'lini musht qilib, uning ortidan quvib yurgan edi-ku! Namoz ochiqda qolgan yigitlari o'chidan qo'rquptimikan yoki mudrab yotgan vijdoni uyg'onib ketdimikan? Axir, nima bo'lganda ham u Namozni ot o'g'irlading, deb nohaq qamagan, qamchilagan, yigitning qalbida qasos alangasini yoqqanlardan biri ham shu Mirza Hamid edi-ku, yoki shuning o'zini aybdor hisoblay boshladimikan.... Tavba, nega bunday qildi u yoki rahmi keldimikan? Namoz uning sadaqasiga muhtoj emas edi-ku. (X.To'xtaboyev)

287-mashq. Ayiruv bog'lovchilarini qatnashtirib, o'zingiz oltita gap tuzing. Bog'lovchilarning qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

288-mashq. Chap tomondagi undoshlar orasiga o'ng tomondagi unlilarni to'g'ri qo'shsangiz, til haqidagi maqolni hosil qilasiz. Undagi bog'lovchining tagiga chizib, turini va ma'nosini tushuntiring.

M n t l j n g r r : y o o i y o o a u a
M n g : y o i o a

289-mashq. Nuqtalar o'rniga ayiruv bog'lovchilaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Mazmunini tushuntiring.

1. U . . . yig'lagisi, . . . kulgisi, . . . butun kechani ostin-ustin qilib qo'shiq aytgisi kelardi. (Said Ahmad) 2. Yolg'on . . . farzandga urar – . . . - davlatga (Maqol) 3. . . kattaning gapiga . . . – kichikning (Maqol) 4. Aslida, dunyoda tanho nima bor, Paxta o'smaydimi o'zga elda . . . ? 5. . . . quyoshimi sevgimga sabab? Axir quyoshli-ku butun Osiyo (A.Oripov) 6. Bahor oftobiga chirmashib doim, . . . gul o'tqazdim, . . . ida baland. (S.Zunnunova) – Sheriklaringiz ham bormidi? . . . bir o'zingiz bajardingizmi? (X.To'xtaboyev) 7. Bog'lovchilar: bir-bir, yo-yo, goh-goh, yoki, goh-goh, yo-yoki.

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday bog'lovchilar ayiruv bog'lovchilari hisoblanadi?
2. yo, yoki, yo-yo bog'lovchilari nima maqsadda qo'llaniladi?

3. goh-goh, bir-bir, dam-dam bog‘lovchilari qanday ma‘noni yuzaga chiqaradi? Misollar bilan izohlab bering.

290-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida «Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asraymiz» mavzusida matn tuzing. Unda ayiruv bog‘lovchilaridan foydalaning. Vazifasini tushuntiring.

62-mavzu. ZIDLOV BOG‘LOVCHILARI

1-topshiriq. Berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilarini o‘zaro almashtirib qo‘llab ko‘ring. *O‘ktam mevalarni saralaydi. . . yegisi kelmaydi. (Oybek)*

2-topshiriq. Bu bog‘lovchilarning o‘zaro qanday ma‘noli so‘z va gaplarni bog‘lab kelishini aniqlang.



Bilib oling. O‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar zidlov bog‘lovchilari sanaladi

Ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari zidlov bog‘lovchilardir. Balki so‘zi ko‘pincha zidlov bog‘lovchisi vazifasida qo‘llaniladi. Masalan,

Bu jarang-jurung ovozlari uning g‘ashini keltirmas, balki hayolini chalg‘itib, unga orom bag‘ishlardi. (M.Karim)

Yozuvda zidlov bog‘lovchilaridan oldin vergul qo‘yiladi. Ba‘zan nuqta qo‘yilib, zidlov bog‘lovlari bosh harf bilan boshlanadi.

Ayrim hollarda *ammo, lekin* birgalikda bitta zidlov bog‘lovchisi vazifasida qo‘llaniladi. Masalan, *ammo lekin, do‘stim, kabobni boplapsan. (Uyg‘un)*

Φ **291-mashq.** Gaplarni jadvaldagi tegishli ustunga joylashtiring.

1. Daryodan ota aravalarni o‘tkazadigan sol va ulkan qayiqalar Xalach shahrida bo‘lganligi tufayli erta tongda uch arava yana daryo yoqalab ketdi. (Mirmuhsin) 2. – Tan olaman, tergovchi janoblari, lekin nima sababdan bu ishni qilganimni daftaringizga qayd qilib qo‘ysangiz. (X.To‘xtaboyev) 3. Qiziq, Hamdamboyning oshkor tuhmati uning g‘azabini qo‘zg‘agan edi-yu, ammo qalbini bunchalik o‘rtamagan edi. (X.To‘xtaboyev)

4. Yomon til yo jonga urar,

Yo imonga. (Maqol)

5. Sarimsoq yoki piyozga tuz qo‘shib tayyorlangan aralashma ham tish og‘rig‘ini qoldirishi mumkin. («Dardingizni olay» kitobidan) 6. Yo‘q, uning oldida bunday besh-olti -yil ilgari yarimta tana emas, balki katta qalb, katta hayot egasi go‘zal hayot qo‘shig‘ini kuylardi. (O‘.Umarbekov)

Biriktiruv bog‘lovchili gaplar	Ayiruv bog‘lovchili gaplar	Zidlov bog‘lovchili gaplar

292-mashq. Nuqtalar o‘rniga zaruriy bog‘lovchilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Zidlov bog‘lovchilarining tagiga chizing.

1. Rahimberdi . . . Qudratilla amakilarim yashaydigan hovlining ko‘chadan kiraverishida, ariq bo‘yida kattagina bo‘sh bir o‘tinxona bo‘lar edi. (Habibulla Qodiriy) 2. – Shu choqqacha ko‘p uloqchi ko‘rdim, Mahkamdek uloqqa serzavqini ko‘rmadim! – dedi bittasi. (Abdulla Qodiriy) 3. – Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, - to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki tong yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. (G‘afur G‘ulom)

4. Yolg‘onlarning cheksizligi,

.... samumi, hovuri,

Onajonlar allasidan,

Ko‘z yoshidan, oq sutidan, (Mirtemir)

5. G‘ujanak bo‘lib, bir-birlariga yopishib olgan yo‘lovchilar «girdibod» degan gapni eshitishdiyu, nima bo‘layotganini bosh ko‘tarib ko‘rishga olmadi. (Mirmuhsin)

Bog‘lovchilar: *ammo, lekin, yo-yo, ammo, biroq, va.*

293-mashq. Ertakni o‘qing. Bog‘lovchilarning tagiga chizib, ularning turini ayting. Nima uchun birlashgan o‘zadi? Shu mavzuda bahs-munozara o‘tkazing.

Birlashgan o‘zar

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir dono chol o‘tgan ekan. Cholning to‘qqiz o‘g‘li bo‘lgan ekan. Ammo ular inoq emas: otasining so‘zini tinglamas, har qaysisi o‘z bilganini qilar ekan. Kattalari kichiklarini urar, kichiklari esa akalarini ko‘rarga ko‘zi yo‘q ekan.

Kishilar bu og‘a-inilardan kulishar, dono cholning farzandlari inoq emasligini bilib, ularni tutib olib kaltaklashar ekan.

Kunlardan birida dono chol o‘rmonga borib, to‘qqizta xivich kesib kelibdi va o‘g‘illarini chaqirib, ularga shunday debdi:

- Ey bolalarim, men senlarning kuchlaringni sinamoqchiman. Sizlar mana shu to‘qqizta xivichni birga qo‘shib sindirib ko‘ringlar-chi.

Farzandlari galma-galdan xivichlarni bir yo‘la sindirishga urinibdi, ammo hech biri buning uddasidan chiqqan olmabdi. Oxiri, ota o‘g‘illarining har biriga bittadan xivich beribdi: shunda ular har bir xivichni osonlik bilan sindirishibdi.

Shundan keyin dono chol o‘g‘illariga aytibdi: - Bolalarim, agar sizlar ham birlashib, ahil bo‘lib yashasanglar, sizlarni hech kim yenga olmaydi, lekin janjallashib, tarqoq holda yursangiz yengilasiz, - debdi.

Shundan keyin cholning o‘g‘illari bir-birlari bilan inoq bo‘lib yashay boshlabdilar.

294-mashq. Qorib, nikel, omma kabi tovush tizmalaridan qanday qilib zidlov bog‘lovchilari hosil qilish mumkin. Shu so‘zlar va bog‘lovchilarni qatnashtirib 6 ta gap tuzing.

 **295-mashq.** Balki so‘zining bog‘lovchi vazifasida kelgan gaplarni daftaringizga yozing.

1. Bo‘rondan so‘ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko‘paydi. (Sh.Rashidov) 2. Al Beruniy, al Xorazmiy, Al Farob avlodidan, Asli nasli balki o‘zlik, Balki tarxon, o‘zbeqim. (E.Vohidov) 3. Bu qizcha shu topda undan jon so‘rasa, balki ayammasdi,

lekin non qani? (Oybek) 4. Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi. (M.Qosimova) 5. Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.... (O'.Hoshimov) 6. Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi. (M.Qosimova)

?

Savol va topshiriqlar

1. Zidlov bog'lovchilari o'zaro qanday munosabatda bo'lgan bo'laklarni bog'laydi?
2. Zidlov bog'lovchilarini sanang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

296-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni yozing. Bog'lovchilarning tagiga chizing va turini ayting.

1. Nabiralar quritsa koshki tinkasin,
Quvnoq shovqinlari hovlisini tutsa.
Bag'riga bosib, goh tutib yelkasin,
Qolgan umri koshki shunaqa o'tsa. (S.Zunnunova)
2. Qo'y ko'zlari hayrat va taajjub bilan por-por yonadi. (O.Yoqubov) 3. Uning o'zi bola ekanu biroq gaplari, mushohadasi, chollarnikiga o'xshab ketarkan. (N.Aminov) 4. Onam bilan otam kasallanib qolishdi.... (N.Aminov) 5. – Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo, lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, - dedi bizning kampir. (G'afur G'ulom)
6. Oyi, deb ilk marta chaqirar uni,
Choyga taklif qilar e'zozlab balki,
Lekin ona qalbin, shu bedor tunni,
Shu kungi suhbatni u bilarmikan? (S.Zunnunova)

63-mavzu. INKOR BOG'LOVCHI -YUKLAMASI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi *na-na* ni tushurib qoldiring. *Na-na* yordamchisi ishtirok etgan gapning ma'nosi bilan qanday farq borligini ayting. *Na ishini o'ylaydi, na oilani.*

2-topshiriq. Berilgan gapdagi *na-na* yordamchisining vazifasini aniqlang.
Bir qarasang, na kulbasi, uyi yo'q, Na tovushi, na qo'shig'i, kuyi yo'q. (M.Yusuf)



Bilib oling. *Na-na* yordamchisi uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni bir-biriga bog'laydi.

Na-na yordamchisi ishtirok etgan gaplarning kesimi tasdiq shaklda bo'lganda, gap mazmunini inkor gapga aylantirish bilan birga, uning uyushuvchi a'zolarini bir-biriga bog'lab keladi.

Kesim inkor shaklda bo'lgan gaplarda uyushuvchi a'zolarining har birini ta'kidlagan holda bir-biriga bog'lab keladi. Demak, *na-na* yordamchisida ham bog'lovchilik, ham yuklamalilik xususiyati mavjuddir.

 297-mashq. Matnni o'qing. Inkor bog'lovchi-yuklamasining tagiga chizing.

Negadir Me'morning ko'z oldiga g'azabini va shodligini ham bilib bo'lmaydigan, qahri qattiqligi bilan bobosiga o'xshaydigan Ibrohim Sulton kela boshladi. Xalach yo'lida cheksiz qumliklar ichida, ittifoqo, bu shahar hukmdorini eslashiga o'zi ham taajjublandi, kulcha yuz yonoqlari turtib chiqqan, yapasqiburun bu amirzoda og'aynilari – na Muhammad Tarag'ay va na Boysunqurga o'xshardi. Uning basharasi ko'proq mo'g'ullarni eslatardi. O'z shaxsiyu shuhrati yo'lida hech qanday mulohazaga bormay, yomon ko'rgan kimsasini tezlikda yo'qotib yuborishi bilan Munkaxonning huddi o'zi edi. (Mirmuhsin)

298-mashq. Gaplarni ko'chiring. Na-na yordamchisi bo'laklarni bir-biriga bog'lash bilan birga yana qanday vazifa bajaryapti?

1. Uning ustida na xashak va na yuklar bor. 2. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitaladi. (Ibrohim Rahim). 3. Na kampirning, na Qoratoyni yupatishlari kor qildi. (Oybek). 4. Ajabo, yovshan va shuvoqlar gurillab yonayotgan bo'lsa-da, na oyoq-qo'llar kuyardi, na paytavalar. (O.Yoqubov)

5. Na eshikni, na derazalarni ochib bo'lmasdi.

6. Ko'ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na darding bor,

Nechun sen muncha sustlashding? (Cho'lpon)

299-mashq. Inkor bog'lovchi-yuklamasi ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. U kishi hamma bilan qo'l berib xayrlashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi. (Sh.Xolmirzayev) 2. Bu qo'shiqda na nolish bor, na azob, unda yashash ishtiyoqi, pok muhabbat, bitmas tuganmas orzu va qudrat bor edi? (O'.Umarbekov) 3. U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. (O'.Hoshimov) 4. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqaridan shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. (O'.Hoshimov)

5. Na sen nazar qilding holimga bir bor,

Na men ayta bildim senga biror so'z. (A.Oripov)

6. Ko'kda na yulduz bor, na bir tabassum,

Tabiat ingrardi, yig'lardi yum-yum. (Ramz Bobojon)

Φ 300-mashq. Bog'lovchilar noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni topib, to'g'rilab ko'chiring.

1. Sevgi bo'lmagan yerda qadrin topolmas jamol,

Na sharob, na musiqiy, na yurakda intizom.

G'azalsiz umrlarda iqbol-u kamol yo'qdir,

Qo'shiqsiz yuraklarda na ehtiros, na ilhom. (G'afur G'ulom)

2. Sen Movarounnahrda, men ham Movarounnahrda

Nushiravon qasridek tarixdan o'char edik,

Bizda na sharaf, unvon va xonadon-u va shahar,

Shilliq qurtday yuk boylab sargardon ko'char edik.

(G'afur G'ulom)

3. Daniya ustida kezar bir sharpa . . .

Birov ishonadi, birov ishonmas
Lekin bo‘ron, lekin to‘fon cho‘chitmas tavba!
Yonar tog‘dan oshib o‘tsa ham yonmas. (Ramz Bobojon)

4. Bu yerda ham g‘urbat,
Ham ofat, ham gam.
Bunda bor harorat,
Muhabbat, shafqat. (Gafur Gulom)

301-mashq. Yashirin yozuv asosida quyida berilgan yozuvni o‘qisangiz Ramz Bobojonning paxta haqidagi she‘ridan parcha hosil bo‘ladi. Uni o‘qish uchun yuqoridagi jadvaldan foydalaning. Bunday yozuvda unlilar va y undoshi o‘z o‘rnida qoladi. Undoshlarning o‘rnini o‘zaro almashtirish (pastdagi harflar o‘rniga uning to‘g‘risidagi yuqoridagi harfni, aksincha, yuqoridagi harf o‘rniga uning to‘g‘risida joylashgan pastdagi harfni qo‘yish asosida o‘qiladi. Masalan, b o‘rniga h o‘qiladi).

?

Savol va topshiriqlar

1. Na-na bog‘lovchisining vazifasini tushuntirib bering.
2. Na-na qanday xususiyatlarga egaligini misollar bilan izohlang.

302-mashq. Uyga vazifa. Do‘stlik haqida ertak tuzing. Ertagingizda inkor bog‘lovchilaridan foydalaning. Ularning tagiga chizib, vazifasini tushuntiring.

64-mavzu. YAKKA VA TAKROR HOLDA QO‘LLANILUVCHI BOG‘LOVCHILAR

1-topshiriq. Berilgan uyushiq bo‘lakli gapdagi ajratib ko‘rsatilgan uyushiq bo‘laklarni va, yo-yo, dam-dam bog‘lovchilari yordamida bog‘lang. *Voleybol, futbol to‘garaklariga qatnashaman.*

2-topshiriq. Qaysi bog‘lovchilar yakka holda, qaysilari takror holda qo‘llanilishini ayting.



Bilib oling. Bog‘lovchilar qo‘llanilishiga ko‘ra yakka va takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi.

Va, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun kabi bog‘lovchilar yakka holda qo‘llaniluvchi, yo-yo, dam-dam, goh-goh bog‘lovchilari esa takror holda qo‘llaniluvchi bog‘lovchilar sanaladi.

Takror holda qo‘llaniluvchi bog‘lovchilarning ayrimlari ba‘zan yakka holda qo‘llaniladi. Masalan, *yo, yoki.* Bunday vaqtda ular yakka bog‘lovchi hisoblanadi.

303-mashq. Avval yakka, so‘ngra takror qo‘llangan bog‘lovchili gaplarni ko‘chiring.

1. Bulutlar haydar shamol,
Goh yog'ib o'tar yomg'ir
Barglar pokiza, zilol
Goh quyosh to'kadi nur,
Goh yog'ib o'tar yomg'ir. (Ramz Bobojon)
2. Ko'rinardi na bir daraxt,
Na biror kulba.
Bo'sh kelmadi bo'ronlarga,
Qilmadi tavba. (Ramz Bobojon)
3. Gulnor chiroyli va erka tabassum bilan "xo'p" deganday boshini qimirlatdi.
(Oybek)
4. Yo'lchi kechgacha dam u ekinda, dam bu ekinda ishlaydi. (Oybek)
5. Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam,
Sodiq o'g'lon, o'zbekim. (E.Vohidov)
6. Odamlar goh koyib, goh tutdi yoqa,
O'g'lim yo'q deb yana o'kinma, ona. (S.Zunnunova)

304-mashq. Gaplarni quyidagi jadvalga joylashtirib yozing.

- 1 Ovqatning mazasini qoshiq emas, balki til biladi. («Hayot ustoz» kitobidan)
2. Bir kattani bil.g', bir kichikni. (Maqol)
3. Amu va Sirdaryo boshlanar tog'dan,
Demak, azim tog'lar janub tomonda. (M.Qosimova)
4. Bilki bir g'alat o'q, yo xavfu xatar
Xazina umrimdan yo'qotdi olmos . . . (G'afur G'ulom)
5. U yerda bir necha rus o'zbek va tatar muallimlar o'tirishibdi. (O'.Hoshimov)
6. Bobur o'zga yurtlarda sitamkor podshoh emas, balki Javoharlal Neru so'zi bilan aytganda,
«eng fasohatli va orif kishi» sifatida nufuzga ega bo'ldi. («G'uncha»dan)

Biriktiruv bog'lovchili gaplar	Zidlov bog'lovchili gaplar	Ayiruv bog'lovchili gaplar

305-mashq. Qavs ichidagi bog'lovchilarning mosini qo'llab gaplarni ko'chiring. Ularning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. Mening ham bor do'st-u qarog'im,
Sha'nlarga she'rlar kuyladim.
(Goh, va, lekin) tanho quvongan chog'im,
Sirdoshim deb seni o'yladim.
2. Yig'lamoq odatim yo'q erdi. (dam. . . dam, hamda, ammo)
Yig'lamay bo'larmi bu motam aro (G'afur G'ulom).
3. Hayotda go'zallik, quvvat (bilan, yo. . . yo, va) saodatning manbai soddalikdir.
4. Shundan – na zaharli o'q qo'rg'oshini.
Va (yo, goh, na) Astrobod, Sibir konlari,

- Va (bilan, chunki, na) Shohimardonning tosh bo‘ronlari
Ega oldi sening mag‘rur boshingni ! (Mirtemir).
5. So‘zlar bosh qo‘ygan bu ulug‘ tuproqni
Xo‘rlasak va (goh, yoki, chunki) bersak birovga
Bo‘lganimiz yaxshi o‘zimiz ham xok. (S.Zunnunova)
6. Yig‘ladi g‘urbatda Furqat,
(hamda, ham, biroq) muqimlikda Muqim.
Qildi afg‘on, o‘zbekim. (E.Vohidov)

 **306-mashq.** Bog‘lovchilarni toping. Ularning ma‘noga ko‘ra turini va yakka yoki takror qo‘llanuvchi bog‘lovchiligini tushuntiring.

1. Bemaza so‘z bilan betamizlik qarindosh. («Hayot – ustoz, xalq muallim» kitobidan)
2. Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo‘l va shirin hosil yetkaza bilish san’atidir. («Hayot – ustoz, xalq muallim» kitobidan)
3. Bilim – boylik, ammo uning boshqa boyliklardan farqi bor. (B.To‘xliyev)
4. Na kunduz, na kecha beradi tinchlik,
- Yoz, - deydi, - azizim, ma, qalam, daftar ! (Ramz Bobojon)
5. Ishchilar paxtakor deb ijod etgan minutlar
Odimlab va o‘rimalab dalaga ketayotir. (G‘afur G‘ulom)
6. Kampir ba‘zan mudrar, ba‘zan o‘g‘li bilan nimalarnidir gaplashar edi. (S.Zunnunova)

Φ **307-mashq.** Adabiyot kitobingizdan yakka va takror bog‘lovchili 6 ta gap yozing. Ularning ma‘no turini ayting.

?

Savol va topshiriqlar

1. Yakka holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilarni ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Qanday bog‘lovchilar takror holda qo‘llanadi. Ular nimani anglatadi?
3. Takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar yakka qo‘llanilishi ham mumkinmi? Misol keltiring.

308-mashq. Uyga vazifa. Bog‘lovchilar qatnashgan gaplarni yozing. Bog‘lovchilarning ma‘sinoga va qo‘llanilishiga ko‘ra turini ayting.

1. Ko‘z qorang g‘oliblik qildimi, malak.
Qoraga muhtojmi yo tong yulduzi? (Ramz Bobojon)
2. Ishqilib, yo ilmi, yo hunarli bo‘lish payida bo‘linglar. (X.To‘xtaboyev)
3. Kim nima desa deyaversin. Lekin sartaroshlikdan yaxshi kasb yo‘q. (X.To‘xtaboyev)
4. Uning gimnastyorkasida “Qizil Yulduz” ordeni va bir necha medal yaltirab turardi. (Adham Rahmat)
5. Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi yakdillik va do‘stlik o‘zbek hamda tojik xalqlarining birodarligi va do‘stligining yorqin timsolidir. (A.Qayumov)
6. Qo‘chqor akam bilan amakim ancha orqada qolib ketibdi. (N.Fozilov)

65-mavzu. ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILAR

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning vazifasi va ma'nosini tushuntiring. 1. *Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. (S.Ahmad).* 2. *Agarda uning yonida usta Olim bo'lmaganda edi, ehtimol u qay vaqtlargacha serryib qolar edi. (A.Qodiriy).*



Bilib oling. O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchi sanaladi.

Chunki, shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, ya'ni, yoki singari so'zlar ergashtiruvchi bog'lovchilardir.

309- mashq. Jadval asosida ergashtiruvchi bog'lovchilarning tasnifini aytib bering.

№	Ergashtiruvchi bog'lovchilar	Vazifasi	Bog'lovchilar
1.	Aniqllov bog'lovchilari	Gap bo'laklarini va ergash gaplarni tobelashtirib bog'laydi	Ya'ni, -ki, (-kim)
2	Sabab bog'lovchilari	Sabab ergash gapni bosh gapga bog'laydi	Chunki, shuning uchun, shu sababli, shu sababdan, shu tufayli
3	Shart bog'lovchilari	Gap bo'laklari va ergash gaplarni tobelashtirib bog'laydi shart ma'nosini ifodalaydi	Agar, basharti, mabodo, garchi.

310-mashq. Bog'lovchilarni ajrating. Ularning turini ayting va gaplar tuzing.

Faqat, ammo, uchun, juda, asta, chunki, hozir, sal, ya'ni, so'ng, shu sababli, hamda.

311-mashq. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning tagiga chizing.

1. Miya asl bahosiz ko'zgu,
U ko'zguda aks etar hayot,
Hayot go'zal, hayot maroqli,
Shuning uchun erka ko'ngil shod. (Uyg'un)
2. Davr o'g'li, ya'ni men
Shahid, g'oz, ozi,
Yo millatchi fashist
Xunrez emasman. (G'afur G'ulom)
3. . . . Zavrak «uch» so'ziga urg'u berib, Zulfiqorga qaradi, - ya'ni bekam, mening bir ko'zim, Zulfiqorning ikki ko'zi, jami uch ko'z bo'lamiz. (Mirmuhsin)
4. – O'ylaymanki, bu gaplar menga qaratilmagandir? . . . (X.To'xtaboyev)
5. Namoz bu yerda yuz berayotgan va yana yuz karra takrorlanishi aniq bo'lgan nohaqlikka garchi o'zini ruhan tayyor turmushga qayta-qayta undagan bo'lsa ham, baribir uning jismi nohaqlik va adolatsizlikni o'ziga singdira olmasdi. (X.To'xtaboyev)
6. U shunchalik sovuqqotgan ediki, tishlari tishlariga shaq-shaq tegib, lablari gapga kelmas, o'ziyam chayon chaqqanday ko'karib, burni so'rrayib qolgandi. (O.Yoqubov)

312-mashq. Matnni o'qing. Undagi bog'lovchilarni ajrating va turini ayting.

Tergovning cho‘zilishini hech iloji bo‘lmadi. To‘g‘rirog‘i, Vladimirov janoblari, garchi o‘zini tergovchining eng adolatlisi deb hisoblab, ayblanuvchini ham, ayblovchini ham obdan so‘roq qilib, bir-biri bilan yuzlashtirib, aybdorning aybiga o‘zi ishonch hosil qilmaguncha, xulosa yozmaydigan qaysar bir kishi bo‘lsa-da, u ham baribir, tergovni oxiriga yetkaza olmaydi.

Ishni sudga oshirib yubordilar. Sud majlislari ham shunday shoshilinch o‘ta boshladiki, dastlabki kunlar Namoz dovdirab qoldi. Aftidan, ma‘murlar uni sud qilmoqchi emas, mazlumlarni o‘rtasida palonchi sudlandi, degan ovoza tarqatishmoqchi edilar, xolos. Uning haqidagi hukm u qo‘lga tushmasdan oldinroq yozib qo‘yilgan. Buni Namoz yaxshi biladi. Lekin, qiziq, bila turib, ko‘nglining qayeridadir umid uchqunlari kul bosgan cho‘g‘dek mitillab turardi. (O.Yoqubov)

 **313-mashq.** Nuqtalar o‘rniga zaruriy bog‘lovchilarni qo‘yib, gaplarni yozing. Bog‘lovchilarning tagiga chizib, turini ayting.

1. Tarixing bitmakka xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
... bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbekim. (E.Vohidov)
2. ... Shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak. (E.Vohidov)
3. Ming-minglab kishilar singari Abdullaning ham turmushi og‘ir edi. ... madrasani tugata olmadi. («Gulxan»dan)
4. ... o‘z aytganingda qattiq turib, meni so‘yib yeganingda, ichimda kaptar tuxumiday bir marvarid chiqardi, - debdi chumchuq cholga. (Abu Rayhon Beruniy)

314-mashq. Matnni o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring. Undagi bog‘lovchilarni ajratib, turini ayting.

... Ey o‘g‘il-qizlarim, tilga ehtiyot bo‘linglar ! Kishi dilini og‘ritadigan, ko‘nglini qoldiradigan, izzat-nafsigaga tegadigan or-nomusi, sha‘nini oyoqosti qiladigan so‘zni hech so‘zlamanglar. Hamma vaqt shirin so‘z bo‘linglar. Og‘izlaringizdan doimo yaxshi, ma‘nili so‘z chiqsin. Chunki tildan yetgan ozor nayza ozoridan yomon ... Shu sababli ... xalq aytadi:

Odamni bor qiladigan ham til,
Yo‘q qiladigan ham til.
Til borki bol keltirar,
Til borki – balo.

Xalq topishmoqlaridan birida til haqida: Aqlga do‘st tutsang, a‘lo so‘zlar, yo‘qsa, suyaksiz – balo so‘zlar, de-yiladiki, unda juda katta ma‘no bor.

?

Savol va topshiriqlar

1. Bog‘lovchi deb nimaga aytiladi? Uning qanday turlari bor?
2. Qanday bog‘lovchilar ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi? Misollar keltiring.
3. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning qanday turlari mavjud? Misollar bilan tushuntiring.

315-mashq. Uyga vazifa. «Tilga e'tibor – elga e'tibor» mavzusida matn tuzing. Unda ergashtiruvchi bog'lovchilardan foydalaning. Bog'lovchilarning tagiga chizing.

66-mavzu. SABAB BOG'LOVCHILARI

1-topshiriq. Gaplardagi nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan bog'lovchilardan qo'ying.

1. *Xalq bunday yolborishlarga quloq solmadi, . . . (ammo, chunki, shuning uchun, va) g'isht qolipdan ko'chgan edi. (A.Qodiriy).* 2. *Qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rgandi, (chunki, ammo, va, shuning uchun) zavodda maqtovg'a sazovor bo'ldi. (Sh.Rashidov).*

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tanlangan bog'lovchilarning qo'-yilish sababini ayting.



Bilib oling. Chunki, shuning uchun, shu sababli, shu tufayli_kabi bog'lovchilar sabab bog'lovchilari hisoblanadi.

Yozuvda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'-yiladi. Ba'zan nuqta qo'-yilib, bog'lovchilar bosh harf bilan boshlanadi.

316-mashq. Gaplarni yozing. Bog'lovchilarni ajratib, turini ayting.

Men bu kuyni har safar tinglaganimda, uning sho'x ohangiga mos raqslarni ko'rganimda, hayolimdan «bu kuy Andijonga atab yozilgan musiqiy qasida» degan fikr o'tadi. Chunki kuyda andijonliklarning sho'xligi, otashin qalbi yorqin ifodalangan. «Andijon polkasi» davraga chiqqan yoshga ham, qariga ham zavq bag'ishlaydi, ruhini tetiklashtiradi. Shuning uchun ham, bu kuy mana sal kam yetmish -yildirki, musiqiy jamoalar repertuaridan mustahkam o'rin olib kelayotir. («Andijonnoma»dan)

Φ **317-mashq.** Bog'lovchilar noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni toping. Ularning o'rnida qanday bog'lovchi bo'lishi lozim?

1. Bugun xalqimiz juda ham xursand edi, garchi bahor bayrami hammaning diliga quvonch va sevinch bag'ishladi. (Mirtemir) 2. Haydar ota kampirning iroda kuchiga ishonmas, chunki hozir Asrorqulning unga ro'para bo'lishini istamas edi. (Abdulla Qahhor) 3. Qorailonning qumga kirib, g'oyib bo'lganini eshitgan Muhammad Arg'un uni Movarounnahr orqali boshqa mamlakatga qochib ketdi, hayol qildi. Agar u qadami yetgan yerda qon to'kib, ishni tez ajrim qilardi. 4. Kishining talanti barcha sohada bir xil bo'lavermaydi, chunki yoshlar o'zi sevgan, qobiliyatiga mos bo'lgan ishni tanlay bilishi kerak. (Yo.Shukurov) 5. Hunar o'rgan, shuning uchun hunarda ko'p sir. (Nizomiy)

6. Vafodorim, shuning-chun kamnamoman,
Olur vaqtimni bu ishlar tamoman. (Uyg'un)

318-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi bog'lovchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biroq Zavqiy Mo'minboy bilan uzoq muddat ishlay olmadi, (shuning uchun, agar, chunki) boy va uning ukalarini hajv qilganligi sababli u vazifasidan ozod etiladi. («O'zbek adabiyoti») 2. Lekin kun isishini kutish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas, (garchi, ya'ni,

chunki) havoga ishonish qiyin, eng muhimi, qor ustiga qor yog'ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoldan xoli emas. (O.Yoqubov) 3. «Madrasai oliy»ning kichik bir hujrasida kosibchilik bilan shug'ullanuvchi Ubaydulla esa Zavqiy taxallusi bilan ancha tanilib qolgan edi, (chunki, shuning uchun, garchi) Qo'qondagi poyafzal rastasining ho'jayini Mo'minboy uni mirzolik vazifasiga oldi. («O'zbek adabiyoti») 4. Biroq vaqt ketsa ham, otaning maslahati bilan ish tutganlari yaxshi bo'ldi, (shu sababli, chunki, -ki) Yomontosh darasi ular kutganda mudhish edi ! (O.Yoqubov) 5. Bu safar, hatto daradan chiqqan joyda yoqilgan katta gulxan ham foyda bermadi (shuning uchun, chunki, ya'ni) Komil gulxanning yonida ko'p to'xtamasdan, yo'lga tushishga buyruq berdi. (O.Yoqubov) 6. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. (Chunki, agar, shuning uchun) qoldirishgan ekan. (O'.Xoshimov)

 **319-mashq.** Faqat sabab bog'lovchilari ishtirok etgan qatorni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Agar, shuning uchun, ya'ni, -ki
2. Shu sababli, chunki, ammo, va
3. Lekin, va, shu bois, biroq, agar
4. Shu bois, chunki, shu sababli
5. Ba'zan, dam, chunki, shuning uchun.

320-mashq. Sabab bog'lovchilari qatnashgan gaplarni yozing.

1. Bitta yaxshi joyi shuki, ko'plarning oyoq kiyimlari katta: topilgan latta-puttanig hammasi paytava qilingan. (O.Yoqubov). 2. O'zlari dam olish nimaligini bilmaganlar, shuning uchun «charchadim» degan so'zni eshitishga toqatlari yo'q edi. (X.To'xtaboyev). 3. Ertasi kechqurungina Hotamjon mehmonlarga ruhsat berdi. (O'.Umarbekov). 4. Biz, o'quvchilar so'nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy vazifalari ko'paydi, ishlashga vaqt yo'q. Shuning uchun quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo'lsa ham olib tashlashingizni so'raymiz. (X.To'xtaboyev). 5. Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitilmas edi. (O'.Hoshimov). 6. Ammo mening bu jo'nggina, oddiygina hikoyam – ko'nglimdan o'tgan narsa edi, azizim. Shuning uchun buning menga ta'siri mutlaqo bo'lakcha. (Sh.Xolmirzayev).

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchilar deb ataladi?
2. Sabab bog'lovchilarini ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
3. Nima uchun bu bog'lovchilar sabab bog'lovchilari de-yiladi?

321-mashq. Uyga vazifa. «Gulxan» jurnalidan sabab bog'lovchilari ishtirok etgan 6 ta gap yozing.

67-mavzu. ANIQLOV BOG'LOVCHILARI

1-topshiriq. Gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning vazifasi va ma'nosini aniqlang. 1. *Jo'lqunboy, ya'ni Abdullo Qodiriy, o'zbek romanchiligining asoschisidir.* 2. *Xalq shunday bir o'tki, uning uchquni tutashsa, na xashakni qo'yar, na falakni.* (Oybek)

2-topshiriq. *Ya'ni, -ki* bog'lovchilarining qaysi o'rinda qo'llanilishi va tinish belgilarini tushuntiring.



Bilib oling. *Ya'ni, -ki, (-kim)* bog'lovchilari aniqlov bog'lovchilari sanaladi. Bulardan *ya'ni* ajratilgan bo'laklardan oldin qo'llaniladi. Yozuvda *-ki* bog'lovchisidan so'ng va *ya'ni* bog'lovchisidan oldin doimo vergul qo'-yiladi.

Eski o'zbek tilida *-ki* bog'lovchisi *-kim* holida qo'llangan. Ba'zi she'riy asarlarda hozir ham bu shakl qo'llaniladi.



322-mashq. Aniqlov bog'lovchilari qatnashgan gaplarni toping.

1. Biram ayollarki, qoshlari qunduz,
Mehnatdan o'zgani bilishmas, sodda. (S.Zunnunova)
2. Yonoqlarni tutib oltin bo'sa, -chun,
Quyoshga tutadi bir savat oq gul ! (Oybek)
3. Bu shunday bir madrasa bo'ladiki, ro'yi zaminda uning tengi topilmaydi.
(Mirmuhsin)
4. Yo'g'-e, buvi, - dedi o'g'ri, - to'nkani yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. (G'afur G'ulom)
5. A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. (G'afur G'ulom)
6. Janob tergovchi, tortib olmoq bilan bosib olmoq o'rtasida farq borkim, buni siz yaxshi bilursiz. (X.To'xtabev)

Φ 323-mashq. Avval sabab bog'lovchili, so'ng aniqlov bog'lovchili gaplarni ko'chiring.

1...O'ylaymanki, so'nggi suhbatlarimiz ham ana shunday samimiy o'tadi. (X.To'xtaboyev) 2. Ketma-ket izg'irin turib, kun shunchalik sovidiki, tuyoqlari to'ng'ib qolishidan qo'rqib, eshaklarni qo'raga qamashga majbur bo'ldik. (O.Yoqubov) 3. Buni ko'rish, ko'zlarida milt-milt yosh, muz ustida sirg'anib, dir-dir titrab kechikdan o'tayotgan bolalarning yuziga qarash dahshat! Shuning uchun ham Komil hech kimga qaramaslikka harakat qilar edi. (O.Yoqubov) 4. Mashrabga shunday tuyuladiki, go'yo bular archa emas, balki oq ro'moldan chiroyiga chiroy qo'shilgan suluv kelinchaklar. (O.Yoqubov) 5. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dovrug' taratish edi. Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizga maslahatim bor, deganda, sevinganidan o'yinga tushgudek bo'lib ketdi. (Zohir A'lam) 6. Baland cho'qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan qor bu yerda shunday yumshoq va iliq ko'rindiki, go'yo toqqa qor tushgan emas, mayin oq kigiz yopilgan. (O.Yoqubov)

324-mashq. Aniqlov bog'lovchilarini qatnashtirib to'rtta gap yozing. Bog'lovchilarning tagiga chizing.

325-mashq. Aniqlov bog'lovchilarining tagiga chizing.

1. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir. (Bobur)
2. Bu shunday manzilki, do'stni yovlaydi.
Ota o'z farzandin avrab tovlaydi. (A.Oripov)

3. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tanqis taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish. («Turfa rang tabiat» kitobidan)

4. Ishq axir shunday olovki,
O'chmagay u suv bilan (E.Vohidov)

5. Degaylarki, charosu
Ol gilos olmish labingdan rang.
Labing tegsa hasad qilgum
Gilos birlan uzumdan ham. (E.Vohidov)

326-mashq. Zarur bog'lovchilar vositasida gaplarni bir-biriga bog'lang. Tinish belgilarini qo'ying.

1. Lekin eng yomoni shu.... peshingacha qor qattiq erib, soyning suvi ancha ko'payib qolibdi ! (O.Yoqubov) 2. Bu ham yetmaganday, yurganda ham silkinib, yarador qo'li shunday zirqiradi. . . nazarida ko'zidan o't chiqib ketdi. (O.Yoqubov) 3. U shunchalik sovuqqotgan edi. . . tishlari tishlariga shaq-shaq tegib lablari gapga kelmas, o'ziyam chayon chaqqanday ko'karib, burni so'rrayib qolgandi. (O.Yoqubov) 4. Eng ashaddiy gunohkorlarni itning o'zi jazolar. . . uning istagan joyidan qopib olar, itning tishi zaharli bo'lgani uchun o'sha sho'rlik tez orada quturib, til tortmay o'larkan. (N.Aminov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Aniqlov bog'lovchilari qaysilar? Ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Nima uchun *–ki, ya'ni* bog'lovchilari aniqlov bog'lovchilari hisoblanadi? Misollar bilan tushuntiring.

327-mashq. Uyga vazifa. «Non qadri» mavzusida hikoyacha yozing. Unda bog'lovchilardan foydalaning. Aniqlov bog'lovchilarining tagiga chizing.

68-mavzu. SHART BOG'LOVCHILARI

1-topshiriq. Quyidagi gaplarda nuqtalar o'rniga qavs ichidagi bog'lovchilardan mosini qo'yib ko'chiring. 1. *ko'klam qo'ldan berilsa (chunki, shuning uchun, agar), oqibati nima bo'lishini aytdi. (A.Qahhor)* 2. *shuncha mag'rur tursa ham (garchi, shu tufayli) Pyolaga egilar choynak. (E.Vohidov)*

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tanlangan bog'lovchilaringizning qo'yilish sababini ayting.



Bilib oling. *Agar, agarda, basharti, mabodo, garchi* singari bog'lovchilar shart bog'lovchilaridir.

Shart bog'lovchilari shart va to'siqsiz ergash gaplarni bosh gapga bog'lab keladi. Bu bog'lovchilar ergash gapning boshida keladi. Yozuvda shart va to'siqsiz ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

328-mashq. Gaplarni o'qing. Bog'lovchilarni topib, jadvalga joylashtiring.

1. Piyolani inson shuning-chun
O‘par doim peshonasidan. (E.Vohidov).
2. Zahmati ishq dard erursa,
Zahmati she‘rdur davo.
Chunki og‘uning shifosi
Deydilar, og‘u bilan. (E.Vohidov).
3. Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,
Ne xaht, Ra‘no, xaridoring talab ahlining Mirzosi.
(Abdulla Qodiriy)
4. Sud majlislari ham shunday shoshilinch o‘ta boshladiki, dastlabki kunlari Namoz
dovdirab qoldi. (X.To‘xtaboyev).
5. Agar yo‘ldan ozib, bir xato qilsam,
Kibr paydo qilsam topilur davo. (Shukrullo).
6. Shunday og‘riyaptiki, nazarida o‘sha la‘nati o‘q hozir qayta tekkan-u, suyaklarini
qayta majaqlab tashlagan. (O.Yoqubov).

Sabab bog‘lovchilari	Aniqlov bog‘lovchilari	Shart bog‘lovchilari

329-mashq. Nuqtalar o‘rniga o‘zingiz mos bog‘lovchilardan qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. ularning oldida sukut saqlab o‘tirsang, go‘yo bu gullar uyqudan uyg‘onib
allanimalar haqida shivirlayotgandek tuyuladi. (Ch.Aytmatov)
2. Men bu ishga
ko‘nganimda ham, qizingizdan yashirmayman. (Abdulla Qodiriy)
3. birovga kulib qarasa,
o‘sha zahoti marhamat ko‘rgan kishining oldiga borib, dum urib qiypanglarkan. (N.Aminov)
4. Lek hozircha borman, omonman,
Men yashayman, yomonman. (E.Vohidov)
5. halolsen
Tilingni tiyma!
Bitsin, yo‘qolsin
«Sen menga tegma!» (E.Vohidov)
6. Oltin qafas ichra qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.
(Navoiy)

330-mashq. Bog‘lovchilarni turlarga ajrating. Shart bog‘lovchilari qatnashgan gaplar tuzing.

Hamda, biroq, va, yo-yo, garchi, shuning uchun, chunki, ammo, ham, dam-dam, lekin, basharti, shu sababli, biroq, yoki, agar, mabodo, goh-goh, ya‘ni.

 **331-mashq.** She‘rni o‘qing. Shart bog‘lovchilarini ajrating.

Uni hamma birdek

Derdi «oqsoqol»,
 Garchi soch-soqoli oq emas edi,
 Ilmu donishda ham toq emas edi,
 Biroq hamma birdek derdi «oqsoqol».
 Chogʻroq boʻylik edi
 «Oqsoqol» oʻzi,
 Qaddida salobat bor edi, lekin.
 Yonib turar edi koʻkimtir koʻzi,
 Sekin gapirardi,
 Yurardi sekin.
 Uni hurmat qilar edi odamlar,
 (Agar hurmat boʻlsa qoʻrquvning oti),
 Undan najot tilar edi odamlar,
 Elga kerak edi uning «najoti». (E.Vohidov)

Φ **332-mashq.** Xatolarni toping va toʻgʻrilang.

Teng bogʻlovchilar				Ergashtiruvchi bogʻlovchilar		
Biriktiruv	Ayiruv	Zidlov	Inkor	Sabab	Aniqlov	Shart
lekin, ham hamda, bilan	hamda, yo-yo, chunki, dam-dam, yoki	gʻgoh, ammo, biroq, agar, balki	-u, -yu, na-na	garchi, shu sabab- li, shuning uchun	-ki, -kim	basharti, bilan, mabodo, yaʼni

?

Savol va topshiriqlar

1. Shart bogʻlovchilarini ayting va ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.
2. Shart bogʻlovchilari qanday vazifa bajaradi?
3. Bogʻlovchilar ishtirok etgan gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi haqida gapiring.

333-mashq. Uyga vazifa. «Agar men sehrigar boʻlsam» mavzusida hikoya yozing. Bogʻlovchilardan foydalaning. Shart bogʻlovchilarining tagiga chizing.

69-mavzu. MUSTAHKAMLASH DARS

?

Mustahkamlash uchun savollar

1. Bogʻlovchilar deb nimaga aytiladi?
2. Sof va vazifadosh koʻmakchilarga misollar ayting.
3. Briktiruv bogʻlovchilari qaysilar?
4. Zidlov bogʻlovchilari ishtirokida gaplar tuzing.
5. Sabab bogʻlovchilarini qatnashtirib gaplar hosil qiling.
6. Aniqlov bogʻlovchisi deb nimaga aytiladi?
7. Shart bogʻlovchilari qaysilar?

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyidagi berilgan bog‘lovchilardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Bog‘lovchilarga izoh bering.

1. Toqqa chiqishda Boburning o‘smirligi juda ish berdi. U hammadan oldin toshdan toshga yengil ko‘tarilib borar, ... onasiga, ... opasiga yuqoridan qo‘l cho‘zib yordamlashib qo‘yardi. (P.Qodirov) 2. Kecha... kunduz aqliy mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan alloma vaqtning qanday tez o‘tayotganini sezmas edi. (Mirkarim Osim) 3. Sobirjonning yoshi oltida, ... yoshiga nisbatan bo‘yi past. (S.Mirdiyev) 4. Ular qushchalarni, rang-barang baliqchalarni, oq... kulrang quyonchalarni tomosha qilishadi. (A.Azimova)

Bog‘lovchilar: va, ammo. –u. –yu. goh.

2-topshiriq. Bog‘lovchilarni quyidagi jalvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Biriktiruv bog‘lovchilar	Zidlov bog‘lovchilar	Sabab bog‘lovchilar	Shart bog‘lovchilar

Agar, ba‘zan-ba‘zan, yoki, hamda, biroq, deb, shuning uchun, chunki,lekin, basharti, moboda, ammo, -ki, va, yoxud

3-topshiriq. Sababa bog‘lovchilari vositasida kataklardan kataklarga o‘tib "Zo‘r"! maqtovini oling.

4-topshiriq. Ko‘makchilarni bog‘lovchilar bilan almashtiring, o‘rtadagi farqlarni tushuntiring.

1. Olibmoy urishqoq bola. Hamma bolalar undan qo‘rqishadi, Menga qaraganda uning bo‘yi uzun, o‘ziyam katta. (S.Mardiyev) 2. Chavandozlarning boshida unisi, boshida bunisi uloqni tortib olmoqchi bo‘lar, ikkisi ham buning uddasidin chiqolmasdi. (B.Murodaliyev) 3. Nigoraning ham sochlari jingalak, qop-qora ko‘zlari esa doimo chaqnab turadi. (A.Azimova) 4. Ma‘naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan singadi. (Mukstaqillik o‘gitlaridan)

Namuna: Olimboy urishqoq bola. Hamma bolalar undan qo‘rqishadi, chunki uning bo‘yi uzun, o‘ziyam katta.

5-topshiriq. Matnlarni ko‘chiring. Bog‘lovchilarni topib, ularni izohlang.

Shavkat qushdagi o‘zgarishdan tashvishga tushdi. Otasidan buning sababini so‘radi.

-Yorug‘ dunyodagi har bir maxluqot, avvalo, ozod va erkin yashash uchun yaratilgan,- dedi Abduqodir aka.

-Unda odamlar nega hayvonlarni hamda qushlarni qo‘lga o‘rgatishadi, qafasga solishadi?

-Bir vaqtlar odamzod ona tabiat bilan bir tanu bir jon bo‘lgan, endi esa tabiat ustidan zo‘ravonlikka o‘tdik, buning oqibati yaxshi bo‘lmaydi.

Shavkat uchun bu gap yangilik edi. (Sh.Otaboyev)

6-topshiriq. Uyga vazifa. Gaplarni ko‘chiring. Bog‘lovchilarga izoh bering.

Mol va boylikning umri qisqa, tezda zavol topdai, ammo yaxshi nom uzoq asrlar davomida o'lmaydi. 2. Kimki ilm urug'ini sepsa, ulug'lik mevasini teradi. 3. Hayosi yo'q kishi tugagan chiroqqa o'xshaydi. 4. Ilm kishini izzat va sharafiga yetaklaydi, shuning uchun uni egallash yo'lida mahkam turishdan ko'ra yaxshiroq ish yo'q. O'z nafsini deb hammani yo'ldan urgan inson hech qachon kamol topmaydi.

70-mavzu. YUKLAMA HAQIDA MA'LUMOT

1-topshiriq. Berilgan gaplarning nimasi bilan farq qilayotganini izohlang. *Dalalarda boshlanadi ish. (H.Olimjon) - Dalalarda ish boshlandimi? – Dalalarda Ish boshlandi-ku. – Axir dalalarda Ish boshlandi. – Dalalarda ish boshlandi-da – Dalalarda ish boshlangandir.*

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'z va qo'shimchalarning gap mazmuniga qanday ma'no yuklayotgani haqida fikr yuriting.



Bilib oling. So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish – chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki* so'zlari;

2) *–mi, –chi, –ki, –gina (–kina, –qina), –dir, –u, –yu, –da, –a, na-na* singari qo'shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruh so'z-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo'shimcha-yuklamalar sanaladi.

334-mashq. Jadval asosida yuklamalarning ma'no guruhlarini ayting.

	Yuklamalarning ma'no guruhlarini	yuklamalar
	So'roq-taajub yuklamalari	-mi, -chi, -a (-ya)
	Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari	hatto, -ku, ham, nahotki, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), -ki
	Ayiruv-chegaralov yuklamalari	-gina(-kina, -qina)
	O'xshatish-qiyoslash yuklamasi	go'yo, go'yoki, huddi, naq
	Gumon yuklamasi	-dir
	Inkor yuklamalari	hech, sir, na-na

! Esda saqlang. *–u (-yu), –da, na-na* yordamchilari ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasida keladi. Shuning uchun ular bog'lovchi-yuklamalardir.

335-mashq. Berilgan gaplarda *–u, (-yu), –da, na-na* yordamchilarining qaysi o'rnida bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelganini aniqlang.

1. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurillab ketdi. (O.Yoqubov) 2. Biladilar-da, bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a ! (O.Yoqubov) 3. Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko'tarilib, ko'z oldini g'alati tuman qoplab oldi –yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. (O.Yoqubov)

4. O'liklar quchoqlab yotsa-yu, mahkam,

Nahotki, tiriklar turadi loqayd? (S.Zunnunova)


5. Men-ku yolg'iz edim,

- Na otam,
Na onam, na oilam bor.... (E.Vohidov)
6. Na so'nggiga yetoldi ishning,
Na dunyoni anglab ulgurdi. (E.Vohidov)

336-mashq. Yuklamalarning tagiga chizing va ma'no guruhlariga ajrating.

1. Guldor palos
Yog'och karavot.
Hatto po'choq tashlashga paqir....
Hamma narsa joyida,
Faqat....
Faqat bunda yo'q ekan tandir.... (E.Vohidov).
2. Yonboshida dorilfunun,
Muz maydoni – ulkan saroy.
Shahrimizning naq o'zida
Bir orol bor – egasiz joy
Shaharda ham, qishloqda ham
Hech bir son-u sanoqda yo'q.
Hujjatlarni titkilaymiz.
Hayron bo'lmang, hech yoqda yo'q
Ajab makon hech kim boqmas,
Na shahar, na qishloqmas. (E.Vohidov).

Φ 337-mashq. Kataklarni to'g'ri to'ldirsangiz yordamchi so'z turkumining nomi kelib chiqadi.



1. Insonning eng zaruriy a'zosi
2. Turkiy qabila.
3. Tog' guli.
4. Mo'`tabar zot.
5. Bahor oylaridan biri
6. Gap bo'lagi.

📁 338-mashq. Yuklamalarni ajratib ma'nosiga ko'ra guruhlang.

1. Hatto Akmalning ham maymoq oyog'i qaqshib, oqsoqlanib qolgan . . . edi. (O.Yoqubov).
2. Voy, voy, voy! Samovarday qaynab ketibdi-ya, suvi tushmagur! (O.Yoqubov).
3. Ota fig'on chekdi Ka'ba qoshida
Go'yo unut bo'lgay alamlar bori
Najot charx ura ham garchand boshida
Sira ketolmadi bir gapdan nari (A.Oripov).
4. Faqat ojiz qalamim manim
O'zbekiston – Vatanim manim. (A.Oripov).

5. Ona zaminda o'sadigan mevali, manzarali dov-daraxtlar o'simliklar hayoti uchun, inson salomatligi uchun naqadar zarur. Ularning shifobaxshligi-chi? (I.To'xtasinov).

6. – Sarupo kiymading qaynota bo'lib,
Hech yo'qsa gullardan bo'lgin bahramand....

(S.Zunnunova)

? Savol va topshiriqlar

1. Qanday so'zlar turkumi yuklama de-yiladi?
2. Yuklamalar qanday ma'no guruhlariga bo'linadi?
3. Ularni qatnashtirib gaplar yozing.

339-mashq. Uyga vazifa. Said Zunnunovanning «Ruh bilan suhbat» dostonini o'qing. Undagi yuklamalarni ajratib, ma'no guruhlarini aniqlang.

71-mavzu. SOF VA VAZIFADOSH YUKLAMALAR

1-topshiriq. Berilgan gaplarda –u (-yu), -da yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelayotganini aniqlang. 1. Qiz erta-yu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi. (H.G'ulom). 2. Majlis ertaga qoldirilmaydi-yu? 3. Nosir oxun eski bo'lsa-da, ozoda libosda edi. (S.Abdullo). 4. Choy qaynatib ichishni-da unutdi. (Oybek). 5. Bir rov kirdi-da, chiqib ketdi. (Oybek).

2-topshiriq. Gaplardagi na-na yordamchisining bog'lovchilik va yuklamalilik xususiyatlarini aniqlashga harakat qiling. 1. Bu yerda na ofat, na kulfat, na g'am (G'.G'ulom). 2. Na uyda topolmayman, na ishda. (S.Ahmad).



Bilib oling. –u (-yu), -da yordamchisi o'rniga va bog'lovchisini qo'yish mumkin bo'lsa, bog'lovchi vazifasida, boshqa holatlarda yuklama vazifasida keladi.

–da yordamchisi yuklama vazifasida kelganda, ko'pincha uning o'rniga ham yuklamasini qo'yish mumkin bo'ladi.

Na-na yordamchisi kesimi tasdiq shakldagi gaplar tarkibida qo'llanganda ham yuklama (gapga inkor ma'nosini yuklaydi), ham bog'lovchi (ikki qismni bir-biriga bog'laydi) vazifasini bajaradi. Kesimi inkor shakldagi gaplar tarkibida kelganda, o'zi bog'lab kelayotgan o'yushiq bo'laklar va gaplarning ma'nosini ta'kidlagan holda bir-biriga bog'laydi. Agar na-na yordamchisi bunday hollarda tushirib qoldirilsa, ta'kid ma'nosi yo'qoladi.

340-mashq. Gaplardagi yordamchilarni ajrating va ularning farqini tushuntiring.

1. Patnisda qand-qurs, issiq non va ikki choynak choy ko'tarib chiqqan yigit onasining qilgan ishini ko'rdi-yu, indamay qo'ya qoldi. (To'lqin) 2. G'avvos Muhammad ertalabdan hamma bilan yana salom-alik qilishib ketdi-yu, ammo Badia bilan Zulfiqor Shomiy yuziga qarolmadi. (Mirmuhsin) 3. Qiyshayib yotgan uchinchi aravada faqat degcha-yu, belkurag-u ketmonlar qolibdi. (Mirmuhsin) 4. Bu paytda ona kostyum ustidan turdi, uni avaylab qo'lga oldi, changlarini qoqdi-da, qovjiroq o't ustiga dastro'molchasini yozib o'tirdi. (To'lqin)

5. Men – to‘qaylar shohi,
Tutqun bo‘lsam-da agar,
Sen-chi – no‘noq masxaraboz,
Pastkash bozigar ! (E.Vohidov).
6. Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. (O‘.Hoshimov).

341-mashq. Matnni o‘qing. Yuklamalarni ajrating va ular ishtirok etgan gaplarni daftaringizga yozing.

Shoikrom uxladimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari qochdi» degan fikr lip etib xayolidan o‘tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog‘i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to‘xtadi-yu, birdan cho‘kkalab qoldi. Bir lahza ko‘zlari olayib tikilib turdi-da, ko‘ksidan shamol g‘uvurini ham, o‘z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi: - Oyi-i-i! (O‘.Hoshimov)

 **342-mashq.** Yuklamali gaplarni yozing.

1. U anchadan keyin o‘ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig‘layotganini payqadi. (O‘.Hoshimov)
2. Huddi juda boy edi-yu, birdan kambag‘al bo‘lib qiladiganday: shuning uchun o‘kinch bilan buni shishirishga intilayotganday tuyuldi menga
3. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon ! (Sh.Xolmirzayev)
4. Yoshgina bir qiz keng atlas ko‘ylagini hilpiratib, sahnaning o‘rtasiga keldi-da, nimanidir e‘lon qildi. (O‘.Umarbekov)
5. Na martaba, na boyligi bor edi uning. (E.Vohidov)
6. Na qo‘shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitilmadi. (Ibrohim Rahim)

Φ **343-mashq.** Ham yuklama va ham bog‘lovchi vazifasida kelgan 6 ta gap yozing.

344-mashq. Yuklamalarni toping va ma‘no guruhlariga ajrating.

-mi, faqat, bilan, va, -ku, hatto, ya‘ni, -a(-ya), hamda, ham, nahot, -chi, -da, uchun, tomon, -yu, barcha, ammo, goh, lekin, yoki, biroq.

?

Savol va topshiriqlar

1. Na-na yordamchisi qanday vazifa bajaradi? Misollar bilan tushuntiring.
2. –u (-yu), -da yuklamalari qachon bog‘lovchi vazifasini bajaradi? Misollar keltiring.
3. –da ning o‘rnida qanday yuklamani qo‘llash mumkin.

345-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida “Yosh bog‘bonlar” mavzusida matn tuzing. Unda –u (-yu), -da, na-na yordamchilari ham yuklama, ham bog‘lovchi vazifasida kelsin.

72-mavzu. SO‘ROQ VA TAAJJUB YUKLAMALARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichida keltirilgan yuklamalarni qo‘yib, so‘roq gaplar hosil qiling. *Shu maktabda o‘qiysiz.... (-mi, -chi, -a (-ya) Ha. Siz.... (-mi, -chi, -a (-ya)*

2-topshiriq. *–mi, -chi, -a (-ya)* yuklamalarining qaysilari qo‘shib, qaysilari chiziqcha bilan yozilishiga diqqat qiling.



Bilib oling. Gapning mazmuniga so‘roq-taajjub ma’nosini yuklovchi yordamchi so‘zlarga so‘roq yuklamalari de-yiladi.

Yozuvda *–mi* yuklamasi o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga qo‘shib, qolgan yuklamalar esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi.



346-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘roq yuklamalarining tagiga chizing.

1. – Bodirafrafmi, badisarsar? – deb so‘radi undan amakim. (Abdulla Qodiriy) 2. – O‘lma, o‘lma ! Men ham shuni ko‘pdan beri ko‘rmayman, girdig‘umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a? (Abdulla Qodiriy) 3. Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. (G‘afur G‘ulom) 4. Eh-a, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi. (G‘afur G‘ulom) 5. – Daryo olisda. Topa olarmikansiz? – so‘radi Xorunbek. (Mirmuhsin) 6. - Qani, menga ayting-chi, qanday qilib, bu yaramasni tutib ulgurdingiz? (Mirmuhsin)

347-mashq. Dialogni o‘qing. So‘roq olmoshlari ishtirok etgan gaplarni yozing.

- Bu nima? – deb so‘radi oyim.
- Ikki.
- Bunisi-chi?
- Uch.
- Nega yolg‘on gapirding?
- Kim yolg‘on gapiribdi, - dedim bo‘sh kelmay, - ikkovini qo‘shsa besh bo‘ladi, oyijon !
- Shunaqami?
- Oyim qoshlarini chimirib, qo‘llari qaltirab, kundalikni varaqlashda davom etdi.
- Bu nima?
- Ikki, oyijon.
- Bunisi-chi?
- Bunisi fizikadan olingan baho.
- Xo‘p, mana bunisiga nima deysan?
- Hech narsa demayman, lekin oyijon, uchovini qo‘shsa, besh bo‘ladi.
- Shundaymi?
- Shunaqa. . .
(X.To‘xtaboyev)

348-mashq. So‘roq yuklamalarini qatnashtirib bog‘li matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying.

Φ 349-mashq. Testlarni yeching.

1. So‘roq yuklamalarining ta‘rifi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

- a) Gap mazmuniga so‘roq ma‘nosini yuklaydi.
- b) Gap mazmuniga taajjub ma‘nosini yuklaydi.
- v) Gap mazmuniga so‘roq-taajjub ma‘nosini yuklaydi.
- g) Gap mazmuniga ta‘kid ma‘nosini yuklaydi.

2. Faqat so‘roq yuklamalari berilgan qatorni toping.

- a) –ku, -da, -a, -mi, -chi
- b) faqat, -gina, -mi, -a
- v) –mi, -chi, -a (-ya)
- g) –chi, -a (-ya), -da, -ku

3. So‘roq yuklamasi qatnashgan gap berilgan qatorni toping.

- a) Yoki bu savqi tabiiymikan? Yana shu qumliklar orasida paydo bo‘lsa-ya!
(Mirmuhsin)
- b) Qani ta‘rifini ayt-chi? – dedi muallim kulgini bosib. (X.To‘xtaboyev)
- v) Bechora, qayerlarda qolib ketdi ekan? (X.To‘xtaboyev).
- g) a va b javoblar

4. –chi yuklamasi qaysi qatorda noto‘g‘ri qo‘llangan?

- a) kel-chi?
- b) debsan-chi?
- v) bunisi-chi?
- g) oyim-chi?

350-mashq. Yozing. Yuklamalarning tagiga chizing. So‘roq yuklamalarini ajrating.

Sal nari borgan edim, atrofi yog‘och taxta bilan o‘ralgan katta qo‘rg‘onga ko‘zim tushib qoldi. Darvoza tepasiga «Maktab –internat fermasi» deb yozib qo‘yishibdi. Ha-ha bu maktabning hali fermasi ham bor ekan-da, deb o‘yladim-u, sekin ichkari kirib bordim. Rostini aytsam, ferma uncha katta ham, kichik ham emas ekan: sakkizta sigir, uchta qo‘tir echki – bor yo‘g‘i shu.

- Qo‘ylaring ham bormi? – so‘radim mollarning tagini tozalab yurgan past bo‘yli, peshonasi do‘ng bir boladan.
- Qo‘ylar cho‘lda.... – dedi bola menga angrayib.
- Quyonlar-chi?
- Quyon fermamiz latta bog‘ining ichida turadi.
- Echki bor-yo‘g‘i uchdami?
- Muncha ezma ekansan, aytdim-ku, echki ham qo‘ylarning yonida deb.
- Shunaqa demaysanmi, - dedim past kelib – Men boshqalari kasal tegib o‘lib ketdimi, deb o‘ylabman. Buzoqlaring ko‘rinmaydimi?.... (X.To‘xtaboyev).

?

Savol va topshiriqlar

1. So‘roq yuklamalarini haqida gapiring.
2. Nima uchun ular so‘roq yuklamalari de-yiladi?
3. Ular gap mazmuniga so‘roq ma’nosi bilan birga yana qanday ma’no yuklaydi?

351-mashq. Uyga vazifa. Dialogni o‘qing. So‘roq yuklamalari qatnashgan gaplarni yozing.

- Mening otim Hoshimboy, deb qo‘limni cho‘zdim, - oltinchi sinfning a’lochi o‘quvchilaridan bo‘laman. Sizlar o‘zi kimsizlar, o‘quvchimi, kolxozchimi, hech tushunolmay qoldim-ku?

- Bizmi, biz hu anavi ikki qavatli bino bor-ku, o‘sha yerda o‘qiymiz, darsdan bo‘sh vaqtimizda ko‘rib turganingdek ishlaymiz, kasb o‘rganamiz. Bizchi, Hoshimboy, o‘zimizni o‘zimiz boqamiz, o‘zimizni o‘zimiz kiyintiramiz.

- Rostdan-a?! – dedim hech ishongim kelmay.

- Rost, - Hayitvoy ishonchsizlik bildirganim uchun bir oz hafa bo‘lib, - hali sen ko‘rganing yo‘q, o‘ttiz gektar yerimizda mevazor bog‘imiz bor, shingil hosilga kirgan. Yarmini yeymiz, yarmini bozorga chiqarib sotamiz. Go‘sht ham, sut ham o‘zimizda yetarli.

- Sigirlarni kim sog‘ib beradi?

- Kim sog‘ardi, o‘ninchi sinfning qizlari-da.

- Meva-chevalarni ham o‘shalar sotib beradimi?

- Bo‘lmasam-chi? – dedi Hayitvoy maqtanib, - direktorimiz Xursanali Sharafiddinovich bu qizlardan ajoyib sotuvchilar yetishib chiqadi, deydi.... O‘tgan -yili maktabimizni ellik kishi bitiruvdi, bitirish kechasi Xursanali Sharafiddinovich har biriga ming so‘mdan pul ulashdi, biz rosa qarsak chaldik.... Sizlarning maktablaringiz ham shundaymi?

(X.To‘xtaboyev)

73-mavzu. AYIRUV - CHEGARALOV YUKLAMALARI

1-topshiriq. Berilgan gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z va qo‘shimchaning vazifasini ayting. *Faqat daraxtlar, ariqlar, ko‘priklargina tanish. (A.Muxtor).*

2-topshiriq. *Faqat va –gina (-kina, -qina)* yuklamalarining ma’nolarini tushuntiring.

3-topshiriq. *Faqat yoki –gina* yuklamalarini qatnashtirib gaplar tuzing.



Bilib oling. Turli so‘z turkumlari bilan birga kelib, ularning ma’nosini ayirib-chegaralab keluvchi yuklamalar ayiruv-chegaralov yuklamalari hisoblanadi.

Faqat va –gina (-kina, -qina) ayiruv-chegaralov yuklamalaridir. Bulardan *faqat* sof yuklama, *-gina (-kina, -qina)* vazifadosh yuklamadir.

Sifatlarga qo‘shilgan *–gina (-kina, -qina)* ayiruv-chegaralov ma’nosini emas, balki kichraytirish-erkalash ma’nosini bildiradi. Masalan, shiringina, shinamgina, kichikkina, achchiqqina.

K undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda *–kina, q* undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda *-qina* holida tallaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Faqat o‘zi qo‘shilayotgan so‘zlardan ajratib, *-gina (-kina, -qina)* esa o‘zi qo‘shilayotgan so‘zlarga qo‘shib yoziladi.

352-mashq. O‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlar tarkibidagi yordamchilarning vazifasini tushuntiring.

1. Faqat o‘z shuhratim, obro‘yim uchun
Olmagan edim-ku qo‘limga qalam. (Shukrullo).
2. Undan keyin maktabimizning orqasida kattagina mevazor bog‘ ham bor....
(X.To‘xtaboyev).
3. Faqat uyqu kelmas ona ko‘ziga,
Shodligu xotira qalbini qamrab,
Behush ergashtirib uni izidan
O‘tqizmay, yotqizmay yurardi sudrab. (S.Zunnunova).
4. Bir otim bor ajabgina
Dumlari gajjakkina
Hali kelsa, ko‘rasiz
Kula, kula o‘lasiz. (Topishmoq)

353-mashq. Matnni o‘qing. Ayiruv-chegaralov yuklamalari qatnashgan gaplarni yozing. Yuklamalarning tagiga chizing.

Uning etigini kiyadigan, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to‘ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib, «amaki non bering» deydi. Non-a, o‘zimmikiga topolmaymanu. Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo‘zchilar ham, ko‘nchilar ham, boringki maktab domlari ham, mullavachchalarning ham rangi pana. Bir qoshiq obi yovg‘onga zor. Sanqib yuribdi.

- Xuv, hudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat-qoyim degani shudir-a, o‘g‘rigina bolam. (G‘afur G‘ulom).

 **354-mashq.** Gaplarni o‘qing. Yuklamalarni toping. Aytingchi, ular o‘rnida qaysi yuklamalar bo‘lishi kerak edi?

1. Atrof jim,
Nahot daryo
Urildirdi qirg‘oqqa. (E.Vohidov)
2. U chaqqon harakat qilarkan, a‘zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o‘zi payqamas, hatto bir so‘zni takrorlardi: «Menga desa otib yubormaydimi?» (O‘.Hoshimov)
3. Shone‘mat bolaligida ham zaifgina edi. (O‘.Hoshimov)
4. – Haqiqatni, nahot haqiqatni aytaman deb ont iching ! (X.To‘xtaboyev)
5. Ulardan hatto birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos. (Said Ahmad)
6. Bu haqda Shahnozagina biladi.

Φ **355-mashq.** Faqat, *-gina*, *-kina*, xolos yuklamalarini qatnashtirib gaplar tuzing. Ularning yozilishiga diqqat qiling.

356-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos yuklamani qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. jimlik tilaydi yurak,

- Sizdan bugun birgina o'tinch:
 Yolg'iz qo'ying meni, do'stlarim,
 Charchaganman, orom olayin. (E.Vohidov).
2. U . . . shoir . . . emas, balki adabiy tanqidchi ham edi.
 3. – Yo'q, bekam, men . . . biz uch ko'z bilan hamma yoqni qidirypmiz, dedim.
 (Mirmuhsin).
 4. Yuguraman – ortga ketar qadamlar.
 Yig'layman – ko'zimga kelmaydi namlar.
 Murg'ak vujudimda . . . zo'r titroq.

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday yuklamalar ayiruv-chegaralov yuklamalari de-yiladi?
2. –gina, -kina, -qina yordamchilari yana qanday xususiyatga ega? Misollar bilan tushuntiring.

357-mashq. Uyga vazifa. –gina yuklamasi va –gina erkalash qo'shimchasini bir-biridan farqlovchi so'zlar qatnashgan gaplardan yozib, ularning farqini tushuntiring.

74-mavzu. KUCHAYTIRUV - TA'KID YUKLAMALARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ko'rsatilgan yuklamalarni tushirib qoldiring. 1. O'shanda dadam ham frontda edilar. (O'.Umarbekov). 2. Necha marta uchrashay dedim-ku. (Oybek). 3. Yurtimiz yaqin kunlarda bundan-da go'zalroq, bundan-da farovonroq bo'lishiga ishonaman. (I.To'lakov). 4. Libosi jiqqa ho'l. (Sh.Xolmirzayev)



Bilib oling. Gapning ma'lum bir bo'lagi yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yuklamalar kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari hisoblanadi.

Xatto, nahotki, jiqqa, ham, g'irt, g'arq singari so'zlari; -ku, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), -ki qo'shimchalari kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridir.

Yozuvda so'z yuklamalarning barchasi ajratib, -ku, -u (-yu), -da qo'shimcha yuklamalar o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratilib, -oq (-yoq), -ki yuklamalari esa qo'shib yoziladi.

358-mashq. Gaplarni yozing. Yuklamalarni ajrating. Ularning turini ayting.

1. Kuylamoqning shavqi ham – yashash,
 O'ylamoqning zavqi ham – yashash,
 Qay biri chin hayot – bilmasman. (E.Vohidov)
2. Nahotki rahmlari kelmasa, qoldirib ketishga ko'ngillari dosh bersa? (S.Ravshanov)
3. Bu yerda ham bo'ron bo'pti-da, ancha yerga itqitib yuboribdi nokini. (M.Normatov)
4. «Ota-onam izidan borish shartmi menga? Men ham boshqa yo'ldan qochsam nima qipti?» (S.Rahimov)
5. Dadajon, siz buvamga yog'och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim o'sha kosada buvamga ovqat berdilar.... («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») 6. Yeri jiqqa ajiriqzor (Sh.Xolmirzayev)

359-mashq. Yuklamalarni turlarga ajratib, gaplarni ko'chiring.

1. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da ! (Sh.Xolmirzayev) 2. Shundoq deydi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. (O'.Hoshimov) 3. – Bu nima gap, taqsir, - deb so'rashibdi, - mehmonga izzat-hurmat shumi? (N.Aminov) 4. – Eski maktab dinni, shariatni o'rgatadi, xolos, - dedi kulib Akbar aka. – Ikkinchiga o't, hisobni bilmaysan. – U pakana kishiga qaradi: Shunday qilsin-a? (O'.Hoshimov) 5. Faqat og'zidagi o'ljasi suv yuzida qoldi. (N.Rahmatov) 6. Ne qilaylik, biz ham nochor – (E.Vohidov)



360-mashq. Matnni o'qing. Yuklama qatnashgan gaplarni ko'chiring. Yuklamalarning turini ayting.

Shu ish bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolarmidi? Yo'q ! Men o'shanda faqat nafratlanar, nochorlikdan fig'on chekar edim.

To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin chamasi, kursdoshlar yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitishdan ham qo'rqdim, shekilli.

Bundan tashqari, anglab olmagan esam-da, bu yigitlar to'qlikka sho'xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni olqishlashga tirnoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi – shularning biri edi.

Xullas, men o'sha qo'zining go'shtidan bir bo'lak yemagan esam-da, baribir o'g'irlikka sherik edim. (Sh.Xolmirzayev)

361-mashq. She'rni o'qing. Yuklamalarni ajratib, turini ayting va yozilishiga e'tibor bering. She'r mazmunini so'zlab bering.

Hatto, it urishsa zirqirar qalbim
Odam odam payin qirqmoq bo'lsa-chi?
So'zsiz qichqiramen nega tug'ildim,
Quloqlari batang bo'lib qolsa-chi!
O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat
Ayriliq va o'lim yaralganmi yo?
Shunda ham tantilik qilib tabiat
Buyuk bir aqlni bergan-ku, ammo
Shu aql tantana qilar, azizim,
Tantana qiladi shafqat va vijdon.
Kuni kechagina Toshkentimizda
Tilu dil topishdi Hindu Pokiston.

(S.Zunnunova)

Φ 362-mashq. Nuqtalar o'rniga mos yuklamalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Yuklamalarning yozilishiga e'tibor bering.

1. Mana, dimog'imda hamon nafasi,
... kuyov bo'lib qolsa ham bolam. (S.Zunnunova)
2. Muhammadni o'ksitadigan gaplarni ayt manglar,
u ... birovning nuridiydasi. (Mirmuhsin)
3. – Haligi gapni eshitgan ekansiz-da. Qanday qilib eshitdingiz? Ancha narilab ketgan edingiz ... ?! (Mirmuhsin) 4. Oyijon, otajon! ... menga qaramay, ketib qolsalaring! Picha sabr qiling, yetib olay! (S.Ravshanov) 5. U bu xabarni eshitib.... , yarim kechasi otda yo'lga

tushibdi. (O‘.Umarbekov) 6. E, azizim, menga, bir faqir studentga, shunday tuyulgan....! (Sh.Xolmirzayev)

Yuklamalar: -da, nahotki, -oq, -ku, hatto, ham.

?

Savol va topshiriqlar

1. Ta’kid-kuchaytiruv yuklamalari gap mazmuniga qanday ma’no yuklaydi? Misollar bilan tushuntiring.
2. Bu yuklamalarning yozuvdagi ifodasini tushuntiring.

363-mashq. Uyga vazifa. Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning imlosiga e’tibor bering.

75-mavzu. O‘XSHATISH - QIYOSLASH YUKLAMASI

1-topshiriq. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘zni gapdan tushirib qoldiring. Ma’noda qanday o‘zgarish bo‘lganini aniqlashga harakat qiling. 1. *Otasining huddi o‘zi.* (Oybek). 2. *Itlarning ulishi naq miyasida shang‘illab turadi.* (A.Muxtor). 3. *Go‘yo sharpa o‘tganday bo‘ldi.* (H.G‘ulom).

2-topshiriq. Ikki guruhga bo‘lining. *Huddi, naq, go‘yoki* so‘zlari ishtirokida kim ko‘p gap tuzish musobaqasini o‘tkazing.



Bilib oling. O‘zi qo‘shilayotgan so‘zga o‘xshatish-qiyoslash ma’nosini yuklovchi yordamchi so‘zlar o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari hisoblanadi.

Bunday yuklamalarga *huddi, naq, go‘yo, go‘yoki* so‘zlari mansubdir.



364-mashq. Gaplarni yozing, yuklamalarning tagiga chizib vazifasini tushintiring va turini ayting.

1. U so‘zlar,
Tirilib kellarlar go‘yo
Birga qonli jangga kirgan o‘rtoqlar. (E.Vohidov)
2. Yigit eding o‘shanda xuddi suqsurday. (S.Zunnunova)
3. Ochilishga ochilgan-u, ammo lekin ayoz. Bamisoli xanjar. (O.Yoqubov)
4. Baland cho‘qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan qor bu yerda shunday iliq va mayin ko‘rinadiki, go‘yo toqqa qor tushgan emas, mayin oq kigiz yopilgan. (O.Yoqubov)
5. Tog‘laring tegrangda go‘yo
Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu,
Ikki daryo – ikki chashming
Chashmi giryon, o‘zbejim. (E.Vohidov)

365-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos yuklamalarni qo‘yib gaplarni yozing. Yuklamalarning turini ayting va vazifasini tushuntiring.

1. Ota fig‘on chekdi Ka’ba qoshida,

- ... unut bo'lgay alamlar bari. (A.Oripov)
2. Terak ... mungli qo'shiqni kuyga solgan sozandadek
bir maromda tebranib shivirlar ekan. («El desa Navoiyni» kitobidan)
3. Bu ham qismat ishi ... ,
Bo'lari bo'ldi. (E.Vohidov)
4. ... o'zimizga
Ayon sirimiz. (E.Vohidov)
5. ... , o'sha, bundan olti-yetti -yil ilgari o'zi operatsiya qilgan yigit shu bo'lsa?!
(O'.Umarbekov)
6. Bolasi beso'roq bir nima olmooqchi bo'lganini sezgan targ'il darhol
oyoqqa turdi, ... quloqsiz bolasining ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'lgan onalarga o'xshab, bir
oyog'i bilan mushukchaning qoshiga tushirdi. («Gulxan»dan)

Yuklamalar: Nahotki, xuddi, faqat, go'yo, -da, go'yo.

366-mashq. Xuddi, go'yo, go'yoki, naq yuklamalarini qatnashtirib gaplar yozing.
Ularning ma'nosini va yozilishini tushuntiring.

367-mashq. Yuklamalarni ajratib jadvalga joylashtiring.

Bilan, -ku, va, ham, lekin, faqat, nahotki, ammo, hamda, xuddi, biroq, naq, -a, -mi,
go'yo, -da, hatto, jiqqa, g'irt, yoki, dam, sira, hech.

So'roq-taajjub yuklamasi	Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi	Ayiruv-chegaralov yuklamasi	O'xshatish-qiyoslash yuklamasi	Inkor yuklamasi

Φ **368-mashq.** Nuqtalar o'rniga qavsda berilgan yuklamalardan mosini qo'yib
gaplarni yozing.

1. Sharqiy qirg'oq yotar tinch va beozor,
Hech qachon hech narsa ko'rmagan ... (hatto, faqat, go'yo)
... (esa, nahot, go'yoki) bo'lmagan u qonli bahor,
Ohista chayqalib oqadi daryo. (E.Vohidov)
2. Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib ... (nahotki, go'yo) yoqut piyola.
Buloqlardan uzatadi suv
El ko'zidan qochadi uyqu. (Hamid Olimjon)
3. Keyin sal hushimni yig'ishtirib qarasam, oyoqlarim
(-da, -chi, go'yo) o'zidan-o'zi yurib ketyapti. P.Qodirov)
4. ... (nahotki, faqat, xuddi)
qanoti barga o'xshaydi. (Abdulla Qodiriy)
5. Balli, balli! Otangga rahmat ... (go'yo, go'yoki,
xuddi) o'sha yigit, qancha so'rog'lasam ham hech kimdan daragini bilolmadim. (Abdulla
Qodiriy)
5. Ming xil jilva bilan ko'tarildi tong
... (Nahot, go'yo, go'yoki) qanot yoydi Eram tovusi. (Uyg'un)

?

Savol va topshiriqlar

1. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari deb ni mag'a aytiladi?
2. *huddi, naq* so'zlari so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.
3. *, go 'yo, go 'yoki* so'zlari so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.

369-mashq. Uyga vazifa. «Gulxan» jurnalidan xuddi, go'yo, go'yoki, naq yuklamalari qatnashgan gaplarni topib yozing. Yuklamalarning qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

76-mavzu. GUMON YUKLAMASI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi *–dir* qo'shimchasining vazifasi va ma'nosi jihatidan farqli jihatlarni aniqlang. 1. *Uyga kimdir keldi.* (S.Ahmad). 2. *U sinfimiz a'lohisidir.* 3. *Sizni yo 'qlab kelgandir?* (S.Zunnunova).

2-topshiriq. *–dir* qo'shimchasini qatnashtirib gaplar tuzing. Gaplaringizdagi *–dir* qo'shimchasining ma'nolarini tushuntiring.



Bilib oling. O'zi qo'shilan so'zga gumon ma'nosini yuklovchi *–dir* qo'shimchasi gumon yuklamasi hisoblanadi.

Bu yuklama ismlarni ega bilan shaxs-sonda moslashtirib, bog'lab keluvchi va *-man, -san* qo'shimchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo'shimchasi *–dir* bilan shakldoshdir.

Lekin *–dir* yuklamasi urg'u olmasligi va o'zi bog'lanayotgan so'zga gumon ma'nosini yuklashi bilan III shaxs qo'shimchasi *–dir* dan farq qiladi.

Har ikki turdagi *–dir* qo'shimcha o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoziladi.

370-mashq. Gumon yuklamasi *–dir* va uchinchi shaxs kesimlik qo'shimchasi *–dirni* ajrating. Yuklamali gaplarni yozing.

1. Suv hayot manbaidir.
2. «O'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!» - deb qo'ydi, tag'in biron. (Abdulla Qodiriy)
3. Urug'ingdir, aymog'ingdir,
Biror og'zi maymog'ingdir,
Ulardan ham tonasanmi?
Bu osonmi? Bu osonmi? («Masal»)
4. Furqatning «Sayding qo'yaber, sayyod» musaddasi asl mazmuni bilan erk va ozodlikka chorlovchi madhiyadir. («O'zbek adabiyoti» darslik majmua. 6-sinf)
5. Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'qiganlar bori yaktoyi zamondur. (Avaz O'tar)
6. U oldimga bir varaq qog'oz bilan qalam qo'ydi. Nimalarnidir aytib turdi, men yozdim. (O'.Hoshimov)



371-mashq. Gaplarni yozing. Gumon yuklamalarini topib, tagiga chizing.

1. Shundan bir necha kun o'tgach, koridordan o'tib ketayotib, kimningdir xirgoyi qilayotganini eshitib qoldi. (O'.Umarbekov)
2. Bolalar qandaydir kitob, jurnal, gazetalar

o‘qib, jiddiy shug‘ullanishar, o‘qishni bilmaganlari esa, biladiganlardan so‘rab o‘rganishga harakat qilar . . . edi. (Abdulla Qodiriy) 3. Bahor bugun nima uchundir qo‘liga olgan kitobini o‘qiyolmay yoniga qo‘ydi-yu, gulxanday yonib turgan qalin lolazorga tikilib qoldi. (Sh.Rashidov) 4. Abdulla Qodiriy asarlari janr jihatidan boshqa-boshqa bo‘lishiga qaramay, ularning g‘oyaviy yo‘nalishi mushtarakdir. («O‘zbek adabiyoti») 5. Qishloqdan chiqqanida ot nimadandir hurkib, olib qochibdi. (O‘.Umarbekov) 6. Birovidan nimanidir so‘rab yelkasini qisib bir oz jim turdi. (X.To‘xtaboyev)

372-mashq. Matnni o‘qing. Yuklamalarning tagiga chizib turini ayting.

- Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat-qoyim degani shudirda, a, o‘g‘rigina bolam. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir. Xo‘sh, endi o‘zingdan so‘ray. Axir noilojlikdan-ku shu harom yo‘lga qadam bosibsang, o‘ziga to‘qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi? Mana, shu mahallada Karim qori degan chiptafurush bor. Odilxo‘ja boy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan hoji bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo‘lmaydimi? (G‘afur G‘ulom).

Φ 373-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur yuklamalarni qo‘yib gaplarni yozing.

1. Ba‘zida u yonidan tosh qalam-u daftarini olib, aravaning chayqalib, qalqib ketayotganiga qaramay, nimalarni.... (-da,-ku, -dir) chizib, yozib qo‘yar edi.

1. Yig‘lasang hali ham qilmayman toqat,
O‘tmas pichoq bilan kim.... (-a, -dir, -u) so‘yadi.

(S.Zunnunova)

3. – Nima uchun.... (ham, -dir, -chi) ilonlar ko‘rinmayapti? – dedi atrofga alanglab Badia. (Mirmuhsin) 4. Yuzida qanday.... (-dir, -mi, -ku) qat‘iyat, shiddat bor, uzoqlarga tikilgan ko‘zlari esa, aksincha, muloyim chaqnaydi. (O.Yoqubov) 5. Nega.... (-ku, -a, -dir) Me‘morning ko‘z oldiga g‘azabini ham, shodligini ham bilib bo‘lmaydigan, qahri qattiqligi bilan bobosiga o‘xshaydigan Ibrohim Sulton kela boshladi. (Mirmuhsin)

374-mashq. –dir yuklamasi va –dir kesimlik qo‘shimchasi qatnashgan gaplar toping. Ularning vazifasini tushuntiring

?

Savol va topshiriqlar

1. Gumon yuklamasining vazifasini so‘zlab bering.
2. Bu yuklama qaysi qo‘shimchaga o‘xshaydi va qanday farqlanadi? Misollar yordamida tushuntiring.
3. Ularning yozilishini aytib bering.

375-mashq. Uyga vazifa. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni aniqlang.

Tabiatni asrang, odamlar !

Tabiat . . . Bizni o‘rab turgan cheksiz kengliklar. Beminnat noz-ne‘matlaru musaffo osmon. Tabiat.... Allohning insonga ato etgan buyuk mo‘‘jizasi. Usiz odamzod, hatto biror bir tirik mavjudot yo‘qki, hayot kechira olsa. Tabiatni asrash haqida qalam tebratarkanman, hayolimdan goh achinarli, goh quvonarli voqyea-hodisalar o‘taveradi. Tabiatni asrash har bir

insonning burchidir. Chunki inson shu beminnat go'shada yashab uning zilol suvlari-yu, bepoyon dalalaridan bahramand bo'lib, bu yerni asrashni esa ich-ichidan his qilib o'zi uchun ham qarz ham farz bilishi kerak. Ammo ba'zida o'zimiz bu fikrga zid holda ish olib boramiz. Tabiatni asrash deganda uni biror yov yoki dushmandan qo'riqlash emas, balki uning bir qarich yeri uchun jonni ham ayamaslik tushuniladi. Tabiatni asrash haqidagi fikrlarni qog'ozda ko'p ko'ramiz-u, amalda esa xo'jako'rsinga ish olib boramiz. Buning o'zi tabiatga nisbatan befarqlik emasmi? Tabiatni asrashni har kim o'zicha baholaydi. Masalan, kimdir bir tup daraxt ko'kartiradi, kimdir yaroqsiz yerlarni obod qiladi. Ammo kimlardir bu fikrlarni hayoliga ham keltirmaydi.

Aslida bunday odamlar manmanlig-u kibr-u havoga berilib ketishgan bo'ladi. Bundaylarni esa inson zoti hatto tabiatning hech bir bo'lagi kechira olmaydi. Tabiatni asrashni shoirlardek ta'riflay olmasam-da, qalbmida uni asrab-avaylash haqida o'ylarim cheksiz.

77-78 darslarda diktant va uning tahlili o'tkaziladi.

79-darsda testlar ustida ishlanadi.

80-mavzu. UNDOV SO'ZLAR

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

1. *O'h-ho', muncha muzdek?* (O'.Umarbekov) 2. *Iya, bularni nima qilasan?* (S.Ahmad)
2. *Qo'y, yig'lama, ey baxshi.* (Mahmud Toirov) 3. – *Shoshma, Qorako'z, shoshma. . . Drr!* Ana bo'ldi, ketdik. – *Chu birodar.* (O'.Hoshimov)

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'nosiga qarab quyidagi jadvalga joylashtiring. Shunday so'zlar qatorini davom ettiring.

	Buyruq-hitob undovlari	Nutqiy odat undovlari
O'h-ho' Iya	Ey, drr, chu	Labbay, ha, assalomu alaykum, xormang, bor bo'ling



Bilib oling. Kishilarning his-hayajoni, qo'rquv-rohatlanish kabi buyruq-xitobini ifodalovchi so'zlar undov so'zlar sanaladi.

Undovlar ma'nosiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) his-hayajon undovlari; 2) buyruq-xitob undovlari; nutqiy odat undovlari.

376-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Uyga kelib daftarga
Yozib qo'ydi to'rt yo'l she'r:
«Ey odamlar, bilishdan
O'zingizni tiyinglar,
Qiziquvchan bo'lsangiz,
Yangi ko'ylak kiymanglar»! (E.Vohidov)
2. Dastlab ular Umidjonni ko'rganda pisandsiz: «E, bu mishiqi bola-ku» - deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, «Yo'q, bu bola emas, dunyo ko'rgan chol ekan», - deya tan berib ketisharkan. (N.Aminov) 3. –*Ha, Ho'kiz, ayron amal qildimi?* – deb so'radi. (N.Aminov) 4. – *Voy, nobakor, - debdi o'shqirib, - sen: «Onang qarisa – cho'ringni yo'qot,*

otang qarisa - qulingni» degan maqolni yaxshi tushunmasdan, unga teskari amal qilibsan-da. (N.Aminov) 5. Abduqodir «*tss*» deb barmog'ini labiga qo'ydi. (O'.Umarbekov) 6. – *Xo'sh*, ishlar yaxshimi, Hotamjon? – so'radi Mirsidiq aravacha yonida bitta-bitta odim bosib borishar ekan. (O'.Umarbekov)

377-mashq. Chu, o'h-ho', labbay, ey undovlarini qatnashtirib gaplar yozing. Undov so'zlarning turini ayting.

378-mashq. Undovlar noto'g'ri ishlatilgan o'rinlarni toping.

1. – Chu, bo'yidan o'rgilay! – kampir shunday deb, gapini tugatgani ham yo'q ediki, o'g'li bilan quchoqlashib ko'rishayotgan Abduqodirni ko'rdi. (O'.Umarbekov) 2. – E, kechirasiz, doktor. – Hotamjon Mirsidiqni ko'rib qolib, dokadek yuziga qon yugurdi. (O'.Umarbekov) 3. – Shoshmang, drr, xo'jayin! (Sh. Xolmirzayev) 4. «Kisht, «Qiltiriq», choyni qaytar» degan edi, u alamdan qizarib ketdi. (N.Aminov) 5 Kechik oldida yig'ilib turgan bolalar, bab-baravariga: «O» deb yuborishdi.

6. Bu sen bo'lmasang ham taqdiring bir, o,
Balki bu yoshgina yigitdir, essiz! (S.Zunnunova)

❖ **379-mashq.** Bo'g'irsoq oldida turgan ko'priklarning faqat bittasi mustahkam bo'lib u undov so'zlardan iborat. Agar u boshqa ko'priklardan yursa, suvga g'arq bo'ladi. Ko'priknı to'g'ri tanlab olishga yordam bering.

Voy, afsus, faqat, sira, ammo.
Cho', ia, ha, va, ham, aslo.

Hormang, -iya, assalomu alaykum, o'h-ho'
Labbay, barakalla, kisht, voy.

Hech, hoy, iya, drr, biroq, hatto
Chunki, bor bo'ling, labbay.

 **380-mashq.** Matnnı o'qing. Undagi undov so'zlarnı ajratib, ma'nosini tushuntiring.

Tal'at hammasini aytib berdi. Xolasining hovlisi qayerdaligini tushuntirib berganida, usta jumboqning uchi topilganday, uning yelkasiga qo'llarini qo'ydi.

- O'sha mahallaning eskicha nomi «Tunukasozlik» edi. Undan g'o'zabozorga, supurgi bozorga o'tilardi, Chorsuga tushilardi. O'sha yerdagi Ko'kaldosh madrasasini bilasan-a?

- Ha, usta.

- Barakalla! Hozir o'sha madrasa qaytadan tiklanayotibdi, ya'ni ta'mir qilinayotibdi, tushundingmi?

- Eshituvdim, usta, aytib bergandingiz.

- Ha, balli. Bu sen topganing xuddi o'sha madrasaning parchinlaridan biri. (N.Fozilov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Ayting-chi qanday soʻzlar undov soʻzlar de-yiladi?
2. Undovlar maʼnosiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi? Misollar bilan tushuntiring.

381-mashq. Uyga vazifa. «Oʻzbek xalq ertaklari» kitobidan undov soʻzlar qatnashgan gaplardan yozing. Undovlarning maʼno turlarini ajrating.

81-mavzu. HIS-HAYAJON UNDOVLARI

1-topshiriq. Ajratib koʻrsatilgan undovlarning qanday hayajonni (qoʻrquv, rohatlanish, hayron qolish kabi) ifodalashini aniqlang. 1. *Oh, qanday goʻzal bu olam!* 2. *Oh zolim falak, yiqil boshimga!* (Uygʻun, I.Sulton) 3. *Uf!.... – dedi Xotira xola jilmayib* (Abbos Muhiddin) 4. *Is.... butun boshliq bir odam tirilib keladi-yu, ovoragarchiligi bormi?* (Uygʻun) 5. *Nahotki, daryolar oqar teskari.* (H.Olimjon) 6. *Voyey, bolam boyaqish-ey.* (P.Tursun)



Bilib oling. His-hayajon undovlari kishilarning quvonchi, erkalash-erkalanish, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, gʻazab-nafrat, ogʻriq singari hissiyatlarini ifodalaydi.

His-hayajon undovlarining oʻzi undov gap boʻlib kelishi, yoki gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin. Bunday gaplar oxiriga doimo undov belgisi qoʻyiladi.

382-mashq. Gaplar tarkibidagi undov soʻzlarni ajrating. Ular insonlardagi qanday hissiyotlarni ifoda etayotganini aniqlang.

1. Es lasam yuragim eziladi, uh,
Hammasi esimda, ha. kechagidek.
2. Joningdan aylanay, oh, bolajonlar,
Unutib boʻlarmi u kunlarni? Yoʻq!
3. –E-e, yeb boʻpti, Koʻkyol deydilar uni! – dedi Isoy bobo kuyib-pishib. (N.Fozilov)
4. – Voy-boʻ, - deb yubordi u. – Yerimiz muncha chiroyli! Globusning oʻzginasi-ya! (A.Boʻriboyev)
5. – O, muazzam Enasoy daryosi! (Ch.Aytmatov)
6. Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar (S.Zunnunova)

383-mashq. Undovlar ishtirok etgan gaplarni yozib, undov soʻzlarning maʼnosini tushuntiring.

1. Boshqoq tortmasdan bugʻdoy
Yeb qoʻyibdi qoʻy, - Ey voy
Bu ham doʻst boʻlmadi, deb
Ketibdi bugʻdoy qochib
Qoʻy qolmish ogʻzin ochib. (O.Toʻxtaliyev)
2. Kutubxona kechqurun, ayniqsa, bolalar kechliklarini yeyishgandan soʻng ochilar edi. (H. Qodiriy) 3. – Nega indamaysan, oh, surat, surat! (S.Zunnunova) 4. «Voy toʻymagur, berib yubording-a, oʻz koʻnglingda sen ham uloqchisan-da!» deb har xil tovushda baqirishadilar.

(Abdulla Qodiriy) 5. Bu kishini biz erkalab «qori buvi» deb ataymiz. (Gʻafur Gʻulom) 6. – Oʻ, maʼlumotli ekansiz-ku! (X.Toʻxtaboyev)

384-mashq. Matnni oʻqing. Undovlar qatnashgan gaplarni aniqlang va undovlarning turini ayting.

- Nima deding? – dedim maqtanishga shaylanib.
- Sizlarda ham shunaqalar bormi, deya bormi?
- Sizlarnikidan yuz marta yaxshisi bor.
- Quyong fermangiz ham bormi?
- Bor. Hatto bizda sher, arslonlarga bor....
- Oʻh-hoʻ, - dedi Hayitvoy qoʻrqqanidan koʻzlari ola-kula boʻlib, - yeb qoʻymaydimi?
- Biz ularni temir qafaslarga solib, ustidan kattaligi sening kallangdek qulflar solib qoʻyganmiz.
- Sizlarda haligi eshik, rom yasaydigan ustaxonalar ham bormi?
- Oh-ho, bizning ustaxonani bir koʻrsang, - deb qoʻydim. Shunday dedim-u, lekin maktabimizning ustaxonasi qayerda ekanligini oʻzim ham bilmayman. (X.Toʻxtaboyev)

Φ 385-mashq. Oʻylab koʻring-chi, gapning qaysi oʻrinlariga qanday his-hayajon undovlarini qoʻshish mumkin. Ularni qoʻyib gaplarni yozing.

1. Qoʻysang-chi! – dedi Maʼsuma beka eʼtiroz bildirib. – ilonni ham oʻynaydimi odam ! (Mirmuhsin)
2. Uka, loyqaroq boʻlsa ham suv-ku! Omon boʻl! (Mirmuhsin)
3. Men yetim oʻsganman
O, u yetimlik.
Bechora jonim desam arziydi.... (Gʻafur Gʻulom)
4. Oʻlay, qutlugʻ uydin quruq ketasanmi, bolam. (Gʻafur Gʻulom)
5. Bular qachon katta qozonni qaynatib edi-yu.... (Gʻafur Gʻulom)
6. – Kechirasiz, doktor, - Hotamjon Mirsidiqni koʻrib qolib, dokadek yuziga qon yugurdi. (Oʻ.Umarbekov)

 **386-mashq.** Matndan undovlarni ajratib ularning turini ayting. Undovlar qatnashgan gaplarni yozing.

Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab koʻrdi-da:

- Osh, - dedi bizga qarab.
- Hu, - dedi Oʻrmon aka, - qozoni kichik ekan-da.
- Yuring, yuring.
- Shoshmang, ho hoʻjayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora choponining tirsaklari yirtilib paxtasi oqqan, soqoli oʻsik, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi oʻngirini bosib oladigandek surilib-shoshilib kelib, biz bilan bir-bir koʻrishdi. (Sh.Xolmirzayev)

?

Savol va topshiriqlar

1. His-hayajon undovlarini ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Nima uchun bu undovlar his-hayajon undovlari deb ataladi?

387-mashq. Uyga vazifa. *Uf, oh, voy, iye, o‘h-ho‘, bay-bay* undovlarini qatnashtirib gaplar yozing. Bular qanday undovlar ekanini ayting.

82-mavzu. BUYRUQ - XITOB UNDOVLARI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi undovlarni aniqlang. 1. *Hey, menga qara, Gulchehra, - dedi u. (O.Yoqubov)* 2. *Tiss, - dedi Sayyora barmog‘ini labiga qo‘yib. (O‘.Umarbekov)* 3. *Chu, jonivor! (H.G‘ulom)* 4. *Hammasi o‘tkinchi, ho‘sh, nima o‘tmas? (M.Toirov)*

2-topshiriq. Undovlarning kishilarga yoki jonivorlarga qaratilganini aniqlang.

3-topshiriq. Hayvon va parrandalarni haydash-chaqirish uchun ishlatiladigan undovlar qatorini davom ettiring.



Bilib oling. Kishilarning diqqatini tortish, ulardan biror narsa so‘rash, jonivorlarni haydash, chaqirish va harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llaniladigan undovlar buyruq-xitob undovlari hisoblanadi.

Undovlar yozuvda boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi.

Tinglovchining diqqatini tortish uchun qo‘llaniladigan *hoy, hey, ey* undovlari undalma vazifasini bajaruvchi so‘zlardan oldin kelganda, ular vergul bilan ajratilmaydi.

388-mashq. Undovlarning tagiga chizing. Ularning ma’nosini tushuntiring.

1. Ey qotil, nega shunday katta azim terakni nobud qilding? («El desa Navoiyni» kitobidan) 2. – Hoy, aylanay o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi. (G‘afur G‘ulom)

3. «Ey Luqmoni Hakim, sening
Dong‘ing tutdi olamni,
Bag‘ri keng-ku ilmning,
Shogirdga ol bolamni». (Mirmuhsin)

4. - Ho‘y! – dedi Nasriddin uchoviga qarata. Men insof nimaligini tushunmayman. (Zohir A‘lam) 5. – Hoy, - dedi Nasriddin qumg‘onga o‘t yoqa boshlagan xotiniga, - eski bir charm qopchiq bo‘lg‘uchiydi, o‘shani ober-chi! (Zohir A‘lam) 6. Ey javonmard Hoji Sattor! Bas, sen zo‘r kelding! Men ketaman ! – deb baqirdi u. (Zohir A‘lam)

389-mashq. Avval his-hayajon undovli gaplarni, keyin buyruq-xitob undovli gaplarni ko‘chiring.

1. Ey Qosim! – dedi javoban qalandar, yerga kirgizvoradigan vazminlik bilan. – Men senga joningni hadya qilaman! (Zohir A‘lam) 2. – E, ozginani nima qilasan? – dedi O‘rmon aka. (Sh.Xolmirzayev) 3. Hay, usta – dedi Ma’suma beka, - shu payt bu chiziqlaringiz kimning qulog‘iga kiradi! (Mirmuhsin) 4. E, balli, gap bunday bo‘pti-da! (Abay) 5. Esli molim, oqil molim, churiya-churey. Yelkamdagi kokilim churiya-churey. (Qo‘shiqdan) 6. – Tsss!.... – dedim uning og‘zini yopib, - sekin. Oting nima? (Shuhrat)

Φ **390-mashq.** Buyruq-xitob undovlari qatnashgan 6 ta gap yozing. Undovlarning qanday ma’no anglatayotganini ayting.

391-mashq. Hey, tss, oh, uh, e, chu, chip-chip, o‘h-ho‘, voy, iya, xo‘sh, labbay, kisht, hoy, voh, pish-pish, hormang undovlarini ma’no guruhlariga ajratib jadvalga joylashtiring.

His-hayajon undovlari	Buyruq-xitob undovlari	Nutqiy odat undovlari

392-mashq. Matnni o‘qing. Buyruq-hitob undovlarini ajrating va ma’nosini tushuntiring.

Cholning pinakka ketganini sezib o‘tirgan Ma’suma beka to‘satdan unga murojaat etdi:

- Hoy otasi, anavi qumlarning oqishini qarang! Suvga o‘xshab oqyapti.
- Ha, ko‘ryapman.
- Anavi yumronga qarang! – dedi Badia jimlikni buzib.
- Ko‘ryapman.
- Nima uchundir ilonlar ko‘rinmayapti? – dedi Badia atrofga alanglab, - yoki Xalach shahri tomonda ilonlar kammikan? Echkiemar ham ko‘rinmaydi?
- Huv ana qum tepasiga qarang, - dedi otida o‘tirgan Xorunbek. - Qumning oqishi, yumronlarning bezovta bo‘lishi – bir nimaning belgisi. (Mirmuhsin)

?

Savol va topshiriqlar

1. Buyruq-xitob undovlari qatnashgan gaplar tuzib, ularning qanday ma’no anglatayotganini tushuntiring.
2. Qanday undovlar buyruq-xitob undovlari de-yiladi? Misollar keltiring.

393-mashq. Uyga vazifa. E.Vohidovning «Oltin devor» komediyasidan undovlar qatnashgan gaplar yozing. Undovlarning ma’no turlarini ajrating.

83-mavzu. NUTQIY ODAT UNDOVLARI

1-topshiriq. Jadvaldagi undovlarning, ma’noviy guruhlariga diqqat qiling.

2-topshiriq. Ochiq qatorni misollar bilan to‘ldiring.

	Nutqiy odat undovlarining ma’noviy guruhlari	Undovlar	Misollar
	Salom va alikni bildiruvchi undovlar	Assalomu alaykum, va alaykum assalom	
	Xayrlashuvni bildiruvchi undovlar	Hayr, alvido	
	Jismoniy mehnat qilayotgan kishilar bilan salom-alikni bildiruvchi undovlar	Hormang, bor bo‘ling	
	Kishilarni chaqirganda javobni bildiruvchi undovlar	Ho, labbay	

	Minnatdorchilik bildiruvchi undovlar	Rahmat, ofarin, balli, barakalla	
--	--------------------------------------	-------------------------------------	--



Bilib oling. *Ha, labbay, xayr, alvido, hormang, bor bo'ling, assalomu alaykum, va alaykum assalom* singari so'zlar undovlar ichida alohida xususiyatga ega bo'lib, ular nutqiy odat undovlari sanaladi.

Bu so'zlar gap tarkibida qo'llanib, uning bir qismi sifatida yoki alohida qo'llanib, so'z-gap tarzida ishlatilishi mumkin.

Gap tarkibida qo'llanilganda, gapning boshqa bo'laklaridan vergul bilan ajratib yoziladi.

394-mashq. Matnni yozing. Undovlarning tagiga chizing va ularning qanday undov ekanligini ayting.

- Hormang, Do'simboy ota! – dedi Abduqodir o'sha tomonga yurib. – Salomat yuribsizmi?

- Iye, iye, keling Abduqodir o'g'lim, - mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi. Bu nima degan gap o'zi? Juda jim bo'lib ketdingiz? Qani, marhamat.

Mehmonlar shiyponga ko'tarilishdi.

- Obbo, o'g'lim-ey, juda sog'intirib qo'ydingiz-ku, a?

- Xizmatchilik, qo'l tegmaydi, - dedi Abduqodir kulib. -Mana, otpuskaga chiqib, boboyni bir ziyorat qilib kelaylik degan edik.

- Ha, barakalla, kam bo'lmang, o'g'lim.

- Hatamjon qanilar?

- Klubda.... (O'.Umarbekov)

395-mashq. Gaplardagi undovlarni toping. Ularni ma'no guruhlariga ajrating, jadval tuzing va gaplarni jadvalga joylashtiring.

1. – Ha, barakalla, ish bundoq bo'libdi. (N.Fozilov)

2. Tongda kirarkan Luqmon,

Ko'rib, qolgan hayratda.

- «Ofarin, - debdi katta, -

Noming nima, ey dehqon?» (Mirmuhsin)

3. E voh, qadring bilmadi dunyo,

Loyda yotgan dur edi bu zot. (E.Vohidov)

4. Mening ko'zim derdi:

«Ey aziz,

Qayda eding o'ttiz -yil avval?» (E.Vohidov)

5. – Eh, nimasini aytasan, ona bug'u». (Ch.Aytmatov)

6. «Birdan o'zi Tal'atni chaqirib qoldi. Tal'at o'rnidan turib, oldiga bordi.

- Labbay, usta. (N.Fozilov)



396-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tushuntiring.

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshonasiga tushirdi.

- *Salom alaykum, hormang, opa?* – dedim.
 - Keling, uka, - dedi u. *Xush kepsizlar* Yaxshi joylashib oldinglarmi?
 - Ha, *rahmat*. Juda-a yaxshi joylashdik. – Shu uyda yashaysizlarmi?
 - Ha, - dedi u. – Ho‘jayin molga ketgan.
 - «Molga ketgan?».
 - Mol ham boqasizlarmi? – dedim.
 - Ha, kolxoz bir otar berib qo‘ygan.
- «Bir otar!». O, Toshkentda bu so‘zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim.
(Sh.Xolmirzayev)

Φ 397-mashq. Adabiyot kitobingizda berilgan asarlardan nutqiy odat undovlari qatnashgan gaplardan topib, daftaringizga yozing. Ularning tagiga chizing.

398-mashq. Qavs ichida berilgan undovlardan nutqiy odat undovlarini tanlab gaplarni ko‘chiring.

1. (Kisht, beh-beh, assalomu alayku-um) – dedi amakim cho‘zib.
 - (Qurey, bay-bay, vaalaykum) – dedi Isoy bobo qisqa qilib, - Yaxshi kelding, uka, qani yur. (N.Fozilov)
2. (Yasha, voy, uf) Qo‘chqor! (O, yasha, o‘h-ho‘) azamat! – deb yubordi. (O.Yoqubov)
3. – (E, ofarin, uhG‘avvos! – dedi Zavran yana sakrab aravaga chiqib. (Mirmuhsin)
4. (Rahmat, chu, hoy) sizga, tergovchi janoblari. (X.To‘xtaboyev)
5. Ha (voy, pisht, barakalla), ish bundoq bo‘libdi. (N.Fozilov)
6. – (Oh, balli, hoy) ! O‘g‘il bola gap bo‘ldi bu! (O.Yoqubov)

?

Savol va topshiriqlar

1. Nutqiy odat undovlarini sanab o‘ting.
2. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ularning boshqa undovlardan farqini ayting.
4. Nutqiy odat undovlari qanday ma‘noviy guruhlarga ajratiladi?

399-mashq. Uyga vazifa. Matnni yozing. Nutqiy odat undovlarini toping va ma‘noviy turini ayting.

- Qalaysiz, opa? Hormang?
 - Bor bo‘ling, uka – Kelib zap ish qildilaringda.
 - Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo‘ladimi? Ko‘k choy bormi? Qurug‘idan.
 - Bor, bor. – Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab kulbaga kirib ketdi.
- Oyog‘ida eski kirza etik, uzun sochlari uchida sochbog‘. Rangi o‘ngib ketgan ko‘ylagi g‘ijim. Sal o‘tmay bir banka bilan bir parcha qog‘oz ko‘tarib chiqdi. Gazetani O‘rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to‘kildi,
- O‘rmon:
- Bo‘lar, rahmat, - dedi.
 - Kerak bo‘lsa....
 - Kerak bo‘lsa yana so‘raymiz....

- Bemalol, og‘ajon. He, paxta, paxta.... Mana sizlar ham o‘qishlarni qoldirib, otalaringni tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat. . .
(Sh.Xolmirzayev)

84-mavzu. TAQLID SO‘ZLAR

1-topshiriq. Berilgan gaplardan taqlid so‘zni ajrating. 1) *Dupur-dupur ot keldi, Ko‘chani qarang, kim keldi. (Qo‘shiq)* 2) *G‘uv-g‘uv etadi. (Topishmoq)* 3) *Chiroq lip-lip etdi.*

2-topshiriq. Ajratilgan so‘zlarning nimaga taqlid ifodalanishini ayting.



Bilib oling. Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar taqlid so‘zlar hisoblanadi.



Esda saqlang. Taqlid so‘zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) tovushga taqlid so‘zlar; 2) holatga taqlid so‘zlar.



Bilib oling. Narsalarning ovoziga taqlidni bildiruvchi so‘zlar tovushga taqlid so‘zlar sanaladi. Masalan, g‘a-g‘a (o‘rdak ovoziga taqlid), di-dit (mashina ovoziga taqlid)

Narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar holatga taqlid so‘zlar hisoblanadi. Masalan, lip-lip (chiroq holati), jimir-jimir (suv holati).

400-mashq. Taqlid so‘zlarning tagiga chizing va ularning ma‘no turini aniqlang.

1. Namoz g‘azabi oshib, dag‘-dag‘ qaltiray boshladi. (X.To‘xtaboyev)
2. Musicha ku-kulab, bulbul sayraydi,
Oynadan nur tushdi ona yuziga (S.Zunnunova)
3. Namiqqan shuvoqlar oldin to‘xtab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqur sochdi-da, axiyri gurillab ketdi. (O.Yoqubov) 4. Endi ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk ko‘tarishga yaramas edi, yaxshiyam Qo‘chqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi. (O.Yoqubov) 5. Boshidagi toj yal-yal yonarmish. (N.Aminov) 6. U chap qo‘li yonidagi qilichini ushlab, Umidjon tomonga «tars-turs» bostirib kelaveribdi. (N.Aminov)

401-mashq. Avval holatga taqlid so‘zlar, so‘ng tovushga taqlid so‘zlar qatnashgan gaplarni ko‘chiring.

1. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. (O‘.Xoshimov) 2. Birovning oldiga borib «vov-vov» qilib hursa, podshoh gunohkorni yetmish ikki darra urdirar ekan. (N.Aminov) 3. U avval rahmini keltirar darajada «uv» tortibdi, so‘ng tabiatning qudrati bilan tilga kirib debdi.... (N.Aminov) 4. – Shukur, - Umri xola qult etib yutindi. (O‘.Hoshimov)

5. Gursillab yig‘ildi kekxa qayrag‘och

Cho‘chib milt-milt etdi tunda yulduzlar. (Mirtemir)

6. Albatta, yo‘l yaxshi bo‘lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, quloq-burunlarni «jaz-jaz» chaqmas edi, lekin iz tushmagan yo‘ldan yurish mushkul. (O.Yoqubov)



402-mashq. Matnni o‘qing. Taqlid so‘zlarni toping va turini ayting.

Bir kuni podshoh o‘ng qo‘l vaziriga jinday olayib qaragan ekan, it to‘satdan vazirga tashlanibdi, lekin dono vazir ham avvaldan tayyorgarligini ko‘rib, to‘ni, ko‘ylak – cholvori

ostidan po‘lat sovut kiyib olgan ekan, itning tishi qars etib sinibdi. It: «Ang, ang» - qilib, dumini qisib, bir chekkaga o‘tiribdi. Podshoh vazirni qattiq jazolabdi. Shundan keyin it o‘zi qopmasdan «gunohkorlarning oldiga borib, «av-av» - deya qancha darra urishni, «uv» - deya dorga osishni, dumalab yotib, yerga tiriklayin ko‘mishni podshoga maslahat beradigan bo‘libdi. (N.Aminov).

403-mashq. Gaplarni yozing. Taqlid so‘zlarning tagiga chizing va turini ayting.

1. Yo‘lda sen hech bir yirtqich hayvonlardan qo‘rqma, men «chir» desam, hammasi bizga salom berishib, darvozalarni ochib qo‘yishadi. («Ertaklar olamiga sayohat» kitobidan)
2. Deraza oynasiga tosh tekkanday bo‘ldi. Chars-chars ovoz eshitila boshladi. (A.Azizxo‘jayev)
3. Bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da «g‘ulu-g‘ulu-g‘u-g‘u» qilaveribdi. («Asotirlar va rivoyatlar»dan)
4. To‘rtta savog‘ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi. (Oydin)
5. U darrov sergaklanib, «yalt» etib atrofga ko‘z tikdi. (A.Bekimbekov)
6. Piyolalar o‘n ikki shamlik kumush qandil yorug‘ida yalt-yalt qilar edi. (Mirkarim Osim)

Φ **404-mashq.** Qars-qurs, lip-lip, tars, -yilt--yilt, ship, yarq, g‘a-g‘a, g‘iyq so‘zlarining ma‘no guruhlariga ajrating va ular ishtirokida gaplar tuzing.

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday so‘zlar taqlid so‘zlar de-yiladi?
2. Tovushga taqlid so‘zlarni ayting va gaplar tuzing. Ular nima uchun shunday nomlanadi?
3. Qanday so‘zlar holatga taqlid so‘zlar de-yiladi? Misollar keltiring.

405-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida «Bolalar bog‘ida» sarlavhali hikoya tuzing. Hikoyangizda taqlid so‘zlardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, ma‘no guruhini ayting.

85-mavzu. TAQLID SO‘ZLARNING TUZILISHI VA IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan taqlid so‘zlarni ikki guruhga – birinchi guruhini sodda, ikkinchi guruhini takror so‘zlar sarlavhasi bilan bo‘lib yozing. *Gumbur-gumbur, chars-churs, shitir-shitir, taq-tuq, gumbur, ship, tars, qirs, yarq-yurq, -yilt--yilt, qiy-chuv, duk-duk.*

2-topshiriq. Takror taqlid so‘zlarning qanday yozilishini tushuntiring.



Bilib oling. Asos qismning aynan takrorlanishidan yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar takror taqlid so‘zlar sanaladi. Masalan, *gumbur-gumbur, gurs-gurs, chars-churs, taq-tuq, yarq-yurq.*

Takror taqlid so‘zlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.



406- mashq. Berilgan sodda taqlid so‘zlar bilan takror taqlid so‘zlar o‘rtasidagi ma‘no farqlanishini izohlang.

Sodda taqlid so‘zlar

Takror taqlid so‘zlar

Ship
Yarq
-yilt
Tars

ship-ship
yarq-yurq
-yilt--yilt
tars-tars



Bilib oling. Sodda taqlid soʻz taqlidning bir martaligini ifodalaydi. Takror taqlid soʻz taqlidning davomiyligi yoki holatning kuchliligini bildiradi.

407- mashq. Berilgan takror taqlid soʻzlardagi maʼno oʻzgarishini ayting. Bu soʻzlarning maʼnodoshlarini aniqlang: shov-shuv (ovoza), qiy-chuv (toʻpolon), shaldir-shuldir (xushchaqchaq).

! Esda saqlang. Ayrim takror taqlid soʻzlar oʻz maʼnosini oʻzgartirib yangi soʻz yasashi mumkin. Masalan, shaldir-shuldir (xushchaqchaq) odam.

408-mashq. Avval sodda taqlid soʻzli gaplarni, soʻng takror taqlid soʻzli garlari yozing. Taqlid soʻzlarning maʼno turini ayting.

1. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi. (A. Qodiriy) 2. – Xotirjam! – dedi va uloqni shalq etib tashladi, soʻngra xalqqa yaqinroq kelib: Ogʻaynilar! Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar.... – deb aytdi. (A. Qodiriy) 3. Bu oqshom uch xoʻroz oʻtgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozdan uygʻonib ketdim. (Gʻafur Gʻulom) 4. Hammalari gurr etib oyoqqa turdi. (X.Toʻxtaboyev) 5. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shunda ehtimol. (S.Zunnunova) 6. Qoʻy koʻzlari hayrat va taajjub bilan por-por yonadi.

409-mashq. Taqlid soʻzlar ishtirok etgan gaplarni yozing. Taqlid soʻzlarning tuzilishiga koʻra turini ayting va yozilishini tushuntiring.

1. Shunday boʻlsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi. (O.Yoqubov) 2. Etigining qoʻnjidan kelgan suv oyoqlarini hanjarday kesib,koʻzidan yosh chiqarib yubordi. (O.Yoqubov) 3. «Boshqalar qochdi» degan fikr lip etib xayolidan oʻtdi. (Oʻ.Hoshimov) 4. Bir kuni podsho nima ham boʻlib, «vafodor» itga boshqacharoq qaragan ekan, ogʻzidan koʻkish soʻlagi oqib turgan it, «av» - deya uning qoʻliga ogʻiz solibdi. (N.Aminov) 5. «Toʻgʻri, toʻgʻri» - deya itning gapini boshqalar ham maʼqullashibdi. (N.Aminov) 6. Shamol borgan sari avjiga chiqar, hovlidagi yongʻoq barglari shovillab, shoxlari shubhali gʻichirlar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday boʻlardi. (Oʻ.Hoshimov)

410-mashq. *Gʻiyq, shildir-shildir, miyov, qah-qah, moʻ, piq-piq, lip* soʻzlarini maʼno va tuzilish jihatdan turlarga ajrating. Ularning yozilishiga eʼtibor bering. Shu soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

411-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos taqlid so‘zlarni qo‘yib gaplarni yozing. Taqlid so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turini ayting.

1. Abduqodir katta ko‘k darvoza oldida to‘xtaganda, bir to‘p yosh-yalang urib o‘tib ketdi. (O‘.Hoshimov) 2. Biz sovuqda yorilgan ko‘saklarning paxtasini suvga ivitib olgandek sug‘urib olardik. (Sh.Xolmirzayev)

3. O‘g‘lim, desang osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug‘bekni quchgayman,
.... tishimdagi
So‘lig‘imsan, Vatanim ! (Muhammad Yusuf)

4. Daladan qovun-tarvuz ortib kelayotgan arava, mashinalar o‘tib turibdi. (O‘.Hoshimov) 5. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to‘rt qop bodringni bir-birisiga tirab qo‘yib: «Mirza qiron bodring! bodring!» deb maqtashadilar. (Abdulla Qodiriy) 6. Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan guppon tuproq.... (Abdulla Qodiriy)

So‘zlar: bilq-bilq, g‘iz-g‘iz, qah-qah, g‘ichir-g‘ichir, tars-tars, kars-kurs.

Φ 412-mashq. Gaplarni o‘qing. Aytingchi, taqlid so‘zlar hamma o‘rinlarda to‘g‘ri qo‘llanilganmi?

1. Otimning umuldirig‘iga ularning havaslari kelib, bahosini so‘rashadilar, men: «O‘n besh tanga», - deb kumush qamchini ham ko‘rsinlar uchun o‘ynagansimon egarning qoshiga «taq-taq» urib qo‘yaman. (A. Qodiriy) 2. Ikkalasi suzisha boshlashibdi. Uzoqdan chopib kelishib, bir-biriga shildir-shildir shox tashlayverishibdi. («Ikki bug‘u» ertagidan) 3. Meni «chet-chet» degan ovozimdan tanib olishingiz mumkin. Toshkent viloyatidagi Xumson, Oqtosh, Burchmulla atroflarida yashayman. («Gulxan»dan) 4. «Bulbuligo‘yo» tez-tez choy ho‘plar, g‘atir-g‘utur yutar va har «qilt» etgan tovush Saidiyning yuragiga erigan cho‘yan bo‘lib tomar edi. (Abdulla Qahhor) 5. So‘nggi vaqtda har qancha horisa, har qancha kech yotsa ham uyqusi kelmaydigan bo‘ldi: qulog‘i g‘uv-g‘uv etib, nazarida, miyasi chirsillayotganday bo‘lar edi. (A. Qodiriy) 6. Shunda xo‘roz o‘ylab qolibdi. Kutilmaganda u qanotlarini qoqib, qichqira boshlabdi: - vov-vov! («Ho‘roz va tulki» ertagidan)

?

Savol va topshiriqlar

1. Takror taqlid so‘zlar qanday hosil qilinadi?
2. Takror taqlid so‘zlarning yozilishini tushuntirng.
3. Takror taqlid so‘zlar qanday ma‘nolarni anglatadi? Misollar bilan tushuntiring.

413-mashq. Uyga vazifa. Matnni ko‘chiring. Taqlid so‘zlarni aniqlang. Ularning ma‘no va tuzilishiga ko‘ra turini ayting.

Kecha yaqin o‘rmon orqali qishloq uylari ko‘rindi. Eng chekkadagi uyga orqa tomondan kirdi. Bektemir orqadan nimanidir «hummm....» deganini eshitdi. Yerto‘lada katta ola sigir bor

ekan, yelini tirsillaydi. «Qizchaga bu - ona sutidan halol....» deb quvondi-da, sog'ishga cho'qqaydi. Kotelyokni unutib qoldiribdi. Suvdonga sog'di. To'ldirib bolaning og'ziga tutdi. «Ich! bu sut – dori bo'ladi». Bola huzur bilan qult-qult yutdi. Keyin qayta-qayta sog'ib o'zi ham ichdi. Pichanxonaga kirib ular tunashdi. (Oybek).

86-mavzu. MODAL SO'ZLAR

1-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning gapdan ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining qanday munosabatini ifodalayotganini aniqlang. 1. *Darhaqiqat*, siz to'g'ri ish qildingiz. (O.Muxtor). 2. *Afsuski*, rejadagi ishlar ko'ngildagidek bajarilmadi. 3. Kanizak, *aftidan*, shuni aytmog'chi emas edi, shekilli, noiloj «ha» dedi. (A.Qahhor).

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning gapdagi joylashgan o'rni va qanday tinish belgilari bilan yozilganini izohlang.



Bilib oling. Ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so'zlarga modal so'zlar de-yiladi.

Modal so'zlar gap tarkibida boshqa so'zlardan vergul bilan ajratiladi.

414-mashq. Matnni o'qing. Modal so'zlarning tagiga chizing.

- Yo'q, axir bu kimniki? Balki, jamoanikidir, balki.... E? Botir akaning yo'qolgan qo'zisi emasmi?

- Obbo, senga nima deyapman? – dedi O'rmonjon aka, yelkamdan ushlab orqaga burdi. – Bor-da endi? Kolxozning yonini oladiganni ko'rdik? Kolxoz.... Padariga la'nat! Bizni ochdan o'ldiradi! Botir ham bir qo'zidan ayrilsa, ochdan o'ladigan kimsa emas!

- Axir, insoflari....

Shu ishing bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolarmidi? Yo'q! Men o'shanda faqat nafratlanar, nogironlikdan fig'on chekar edim.

To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitishdan ham qo'rqdim, shekilli. (Sh.Xolmirzayev)

415-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansubligini ayting.

1. *Balki* bo'ri oralagandir? (Sh.Xolmirzayev) 2. *Aftidan*, u yig'lay olmas, yig'lashga madori yetmasdi. (O'.Hoshimov) 3. *Ehtimol*, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. (O'.Hoshimov) 4. *Attang, balki* gospitalda kesib tashlashmoqchi bo'lishganda, bekor ko'nmagan ekanman. (O.Yoqubov) 5. *Demak*, qaroqchi men emas, uning o'zi. (X.To'xtaboyev) 6 *Afsuski*, ular yo'q.... (Mirmuhsin)



416-mashq. Gaplarni yozing. Modal so'zlarning tagiga chizing. Ma'nosini tushuntiring.

1. Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat qoyatoshlar chekinib, yaylov ko'rindi. (O.Yoqubov) 2. Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak o'ylab topib, buvisiga so'zlab beradigan bo'libdi. (N.Aminov) 3. Xullasi kalom, podshoh «aqlli» va «sadoqatli» itning maslahati bilan yarim arkoni davlatini jazolab o'ldiribdi. (N.Aminov) 4. Kattasi ham uyg'onib ketdi, shekilli,

qo'shilishib yig'lashga tushdi. (O'.Hoshimov) 5. Albatta, bitta-ikkita burishgan, tirishgan tuynak bo'lardi. (Sh.Xolmirzayev)

Φ 417-mashq. Berilgan so'zlar ichidan modal so'zlarni ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Attang, faqat, birdan, aftidan, qo'qqisdan, haqiqatan, essiz, nahotki, nihoyat, xayriyat, xullas, hatto, masalan, biroq, ehtimol, umuman.

418-mashq. Matnni o'qing. Undagi modal so'zlar qatnashgan gaplarni daftaringizga yozing.

Xullas, Abduqodir bilan jo'ra bo'lib qoldik. Tutzor ortidagi barakda qizlarimiz ham turardi. Ulardan ham ikkitasi kasal bo'lgan ekan, doktor keldi. Meniyam ko'rib, analgin-panalgin deganlaridan berib ketdi.

Uch kun qattiq yotdim.

To'rtinchi kun edi, shekilli, ayvonga chiqayotsam, Botir cho'pon bitta tarvuzni qo'ltiqlab pastga tushib ketdi. Shu kuni tushdan keyin, havo ochilib, kun ancha qizidi. (Sh.Xolmirzayev).

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday so'zlar modal so'zlar de-yiladi?
2. Modal so'zlar yozuvda qanday ifodalanadi?

419-mashq. Uyga vazifa. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asaridan modal so'zlar qatnashgan o'nta gap yozing.

87-mavzu. MODAL SO'ZLARNING MA'NOVIY GURUHLARI

1-topshiriq. Albatta, afsuski, darhaqiqat, ehtimol, shekilli so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Bu so'zlar bayon qilingan fikrga so'zlovchining qanday munosabatini ifodalashini ayting.



Bilib oling. Modal so'zlar bayon qilinayotgan fikrga so'zlovchining ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish munosabatlarini yoki fikrning tartibi, xulosasini bildiradi.

420-mashq. Jadvaldagi misollar bo'limini tegishli ma'no guruhiga mos modal so'zlar ishtirok etgan gaplar bilan to'ldiring.

	Modal so'zlarning ma'noviy guruhlar	Modal so'zlar	Misollar
	Ishonch munosabati	Albatta, shaksiz, shubhasiz	
	Gumon munosabati	Ehtimol, balki, chamasi, shekilli, aftidan	

	Tasdiq munosabati	Darhaqiqat, haqiqatan	
	Fikrni xulosalash munosabati	Xullas, demak, xullasi kalam, umuman	
	Fikrning tartibi	Avvalo, avvalambor	
	Fikrning dalillanishi	Masalan, jumladan	

 **421-mashq.** Gaplarni yozing. Modal soʻzlarni topib, ularning qanday maʼno anglatayotganini tushuntiring.

1. Xullas, ana shu ajriqzordan sal oʻtgandan keyin qishloqcha boshlanadi. (Sh.Xolmirzayev) 2. Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. (Sh.Xolmirzayev) 3. Abduqodirning ham tomogʻiga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi. (Oʻ.Umarbekov) 4. – Ishqilib, kayfiyati tuzukmi? – soʻradi Abduqodir. – Shukur. Ilgarigi xafagarchiligi yoʻq desa boʻladi. (Oʻ.Umarbekov) 5. Necha haftalardan buyon oʻrnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib, emaklab chiqqan.... (Oʻ.Hoshimov) 6. - Opangiz «ukam qaynanasini boqib yotipti» deb oʻylaydi shekilli-da! (Abdulla Qahhor)

422-mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichida berilgan maʼno guruhlariga mos modal soʻzlarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1., (fikrning xulosasini bildiruvchi modal soʻz) jazoni it belgilar ekan. (N.Aminov) 2. (fikrning dalillanishi), uning bir juft toʻlisi boʻlib, bittasi «Sizga sharaf» - desa, ikkinchisi: «Sizga shon» - derkan. (N.Aminov) 3. Mavlonqulova bu taklifni (ishonch munosabati), xursandlik bilan qabul qildi, sevindi, ammo gazetaga bergan maqolasi va uning natijasidan xotirjam emas edi. (Abdulla Qahhor) 4. (tasdiq munosabati), yoʻrgak atrofida bir gardish bolani omon saqlab turar edi. («Sirli olam» jurnalidan) 5. – Esizgina mehnatim, hay (pushaymon, achinish munosabati), - debdi. («Luqmoni hakim» kitobidan) 6. – Yashang, domla! (tasdiq munosabati) ham mening oʻgʻlimning zehni eshakkidan ham past ekan, - debdi.... («Luqmoni hakim»)

423-mashq. Quyidagi modal soʻzlar maʼno guruhlariga toʻgʻri ajratilganmi? Ular qaysi guruhga mansubligini ayting.

	Quvonch munosabati	attang, hayriyat, shukur, avvalo
	achinish, munosabati	afsus, masalan, chamasi, shubhasiz
	gumon munosabati	aftidan, demak, jumladan, chamasi
	tasdiq munosabati	shubhasiz, ehtimol, haqiqatan
	ishonch munosabati	darhaqiqat, shekilli, albatta, balki
	fikrni dalillash munosabati	xususan, soʻzsiz, umuman, avvalambor

424-mashq. Modal soʻzlar qatnashgan gaplarni koʻchiring. Modal soʻzlar mazmuniy guruhini ayting.

1. Lekin Meʼmorning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora koʻrishga yoʻl qoʻymas edi. (Mirmuhsin) 2. Hayriyat, yaxshilikka xizmat qilsin! (Oʻ.Hoshimov) 3. Demak, vos-vosda qolgansiz? Shundaymi? (Oʻ.Hoshimov) 4. Allazamonlar uyimizda odamlar koʻp, katta qozonda osh ichardik. (Gʻafur Gʻulom) 5. Yomgʻir yogʻyapti shekilli, deb oʻylab, boshini

ichiga tiqib, yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildogʻidan tutib xaltaga solaman. (Gʻafur Gʻulom)
6. Afsuski, ular yoʻq.... (Mirmuhsin)

?

Savol va topshiriqlar

1. Modal soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
2. Modal soʻzlarning maʼno turini ayting va misollar keltiring.

425-mashq. Uyga vazifa. Modal soʻzlarning har bir maʼno turiga 2 tadan misol topib yozing. Modal soʻzlarning tagiga chizing.

88-mavzu. SOF VA VAZIFADOSH MODAL SOʻZLAR

1-topshiriq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning qanday maʼno ifodalayotganini aniqlang.
1. *Shubhasiz*, biz gʻolib chiqamiz – Bizning gʻolib chiqishimiz *shubhasiz*. 2. *Aftidan*, u yolgʻon gapiryapti – Uning yolgʻon gapirayotganligi *aftidan* bilinib turibdi. 3. *Balki*, siz haqdirsiz – Siz emas, balki u haqdir.



Bilib oling. Modal soʻzlarning bir guruhi tarixan mustaqil soʻzlardan hosil boʻlgan. Shuning uchun ular hozirgi kunda mustaqil soʻz vazifasida ham, modal soʻz vazifasida ham qoʻllanilishi mumkin. Balki soʻzi esa ham modal soʻz, ham bogʻlovchi vazifasida qoʻllaniladi.

Shunga koʻra modal soʻzlar ham sof modal soʻzlar va vazifadosh modal soʻzlarga boʻlinadi.

Faqat modal maʼno uchun xoslangan soʻzlar sof modal soʻzlar sanaladi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, masalan, umuman, taxminan.*

Modal maʼnodan boshqa maʼnolarda ham qoʻllanish xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar vazifadosh modal soʻzlar hisoblanadi. *Aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* singari soʻzlar vazifadosh modal soʻzlardir. Bunday soʻzlar oʻzaro shakldosh soʻzlar hisoblanadi.

426-mashq. Juftliklarni oʻqing. Tagiga chizilgan soʻzlar qanday maʼnolarda qoʻllanganini tushuntiring.

1. – Boʻron boʻlishi *ehtimol*, qizim. (Mirmuhsin). *Ehtimol*, bu onasidan yagona esdalik.
2. *Chamasi*, hammasining ogʻzi tekkan ekan oʻsha goʻshtga. Gulchehraning *chamasi* toʻgʻri chiqdi.
3. Onajonim, *balki* bir kun
Men ham shoir boʻlarman.... (A.Oripov).
U nafaqat kattalarga, *balki* kichiklarga ham shunday muomalada boʻlar edi.
4. *Aftidan*, Gʻulomjon bu gʻalvalarni ataylab boshlagan.
5. Uning «koʻcha bolasi» ekanligini *aftidan* bilib olish qiyin emas edi.

427-mashq. Avval sof, keyin vazifadosh modal soʻzlar qatnashgan gaplarni koʻchiring.

1. Haqiqatan ham, ko'rshapalaklar qushlar bilan hayvonlar orasidagi jonivorlardir. («Gulxan»dan)
2. Xullas, shunday edi olam va ishlar
Seni tanimagan paytlar (Asqad Muxtor)
- 3 Balki, «uddalik» bobida ham ancha jo'n edik. (Sh.Xolmirzayev)
4. Darhaqiqat, chang-to'zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi. (Mirmuhsin)
5. Me'morning hayol surib giyohvandlardek qotib qolganini ko'rgan Xorunbek, bosh chayqab, ustod ba'zan shunday holga tushib qolarmikan, bu, ehtimol, achchiq alamning oqibatidir deb o'ylardi. (Mirmuhsin)
6. Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi. (Sh.Xolmirzayev)

428-mashq. Gaplarni o'qing. Modal so'zlarni toping. Ular sof yoki vazifadoshligini ayting.

1. Demak, bosqinchilik qilganingizni qisman bo'lsa ham tan olyapsiz, shundaymi? (X.To'xtaboyev)
2. – Afsuski, aytolmayman. (X.To'xtaboyev)
3. O'g'lim-chi? qadringga yetadimi u? Albatta. Bo'y-basti quyganday o'zing. (S.Zunnunova)
4. Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo'p» dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. (O'.Hoshimov)
5. – Ukam, o'ldi. Doya kampir chala tug'ilgan, dedi. O'ldi. Ko'mib keldik. Kichkina edi. – Attang, - dedim. (Sh.Xolmirzayev)
6. Mo'ljalimda Xalachga kechga yaqin kirib borsak, ehtimol. (Mirmuhsin)

Φ 429-mashq. So'zlar ichidan modal so'zlarni ajrating. Ularni sof yoki vazifadoshligini tushuntirib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ammo, hamisha, avvalo, so'ng, afsus, hormang, shubhasiz, noiloj, albatta, taxminan, balki, ehtimol, biroq, birdan, aftidan, masalan, darhaqiqat

 **430-mashq.** Gaplarni o'qing. Vazifadosh modal so'zlar qatnashgan gaplarni toping. Ularni modal ma'nodan boshqa ma'noda qo'llab gaplarni o'zgartiring.

1. Ko'rib qo'ying, ehtimol, kor kelib qolar. (Asqad Muxtor)
2. Afsuski, hech kimga deymayman dod, Chunki, men o'zimman o'sha muharrir (E.Vohidov)
3. Kalavaning uchini topdim, chamasi. (F.Qilichev)
4. Mana, masalan, bizda oddiy dor. (Asqad Muxtor)
5. U paytda odamlar bir-birlarini o'ldirmas, umuman, urush degan narsani bilmas ekanlar. («Ertaklar guldastasi»)
6. Shubhasiz, bu yerlar ochilmagan qo'riq. (Asqad Muxtor)

?

Savol va topshiriqlar

1. Qanday modal so'zlar sof modal so'z hisoblanadi?
2. Vazifadosh modal so'zlarni ayting.
3. Vazifadosh modal so'zlarning ikkala jihatini aks ettiruvchi misollar keltiring.

431-mashq. Uyga vazifa. Aftidan, chamasi, ehtimol, shubhasiz, balki so'zlarini avval modal ma'noda qo'llab, so'ng o'z ma'nosida qo'llab gaplar tuzing. Ularning farqini tushuntiring.

89-mavzu. TASDIQ VA INKOR SO'ZLAR

1-topshiriq. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi va vazifasi haqida fikr yuritib.

- Siz shu maktabda o'qiysizmi?
- *Ha.*
- Sakkizinchi sinfdami?
- *Yo'q*, yettinchi sinfdami.
- Men ham yettinchi sinfdaman. 50-maktabda o'qiyman.
- Muzqaymoq yemaymizmi?
- *Mayli.*
- Yuring, salqinga o'tamiz.
- *Xo'p.*



Bilib oling. *Ha, xo'p, mayli* singari so'zlar tasdiq so'zlar; *yo'q, mutlaqo, aslo* singari so'zlar inkor so'zlar sanaladi. Bunday so'zlar dialogik nutqda *–mi* so'roq yuklamasi orqali ifodalangan so'roq gaplarning javobi bo'lib keladi.

432-mashq. Dialogni o'qing. Tasdiq va inkor so'zlarning tagiga chizing.

- Namoz Pirimqul o'g'li, ozgina suv ichib olasizmi?
- Agar mumkin bo'lsa.
- Uylanganmisiz.
- *Ha.*
- Bolalaringiz bormi?
- *Yo'q.*
- Ota-onangiz qayerda turadi?
- Chaqaloqligimda o'lib ketishgan. (X.To'xtaboyev)

433-mashq. Matnni yozing. Nuqtalar o'rniga qanday tasdiq so'z ishlatish mumkin.

- Hoshim, - deb chaqiradi oyim ba'zan.
 - Labbay, oyijon!
 - Tomdan o'tin tashlab bergin.
 - (ha, mayli, ho'p bo'ladi) oyijon, - deyman-u, sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-
- da:
- Oysha! – deb chaqiraman.
 - Labbay, akajon!
 - Tomdan o'tin tashlab bergin.
 - (mayli, ha, ho'p bo'ladi), akajon, - deydi Oysha. (X.To'xtaboyev)

Φ 434-mashq. Nuqtalar o'rniga pastda berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring. Bu so'zlar qanday ma'noni anglatyapti?

1. – Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi? - ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olamiz? (H. Qodiriy)
2. Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam. -,-e, buvi yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. (G'afur G'ulom)
3. – Hayr, o'g'rigina bolam, kelib tur. -, ona,
4. – Suv beraymi, ota?

Chol o'ziga keldi.

-, suv ichmayman! – dedi Me'mor, - buni qara qizim, meni hayol olibdi, mana shu tomonda bir katta qasr solingan emish. (Mirmuhsin).

5. Yo olam boshqacha bo'lib qoldimi?

....., sen odamzodni shunday ulg'aytirding,

Kuchga to'ldirding sen uning qalbin. (Asqad Muxtor)

6. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim.

Sen yurgan yo'llardan yurmasman (A.Oripov)

So'zlar: Yo'q, aslo, yo'q-yo'q, xo'p-xo'p, yo'q, mayli.

 **435-mashq.** Gaplarni yozing. Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring va turini ayting.

1. – Yo'q, janob! U qumda ham botir bo'ldi, - dedi kulib Badia, - siz hamma vaqt gapda botirsiz! Bir safar yengilganingizni tan oling, janob!

Zafrak bir lahza indamay qoldi-da:

- Ho'p, tan oldik, bekam! – dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib. (Mirmuhsin)

2. – Men haq gapni aytyapman. - Ha, mayli, buni hozircha ochiq qoldiramiz....
(X.To'xtaboyev)

3. –Ayting-chi, siz bu gaplarga ishonasizmi? - Mutlaqo.

4. Uning xandasaviy hisob-u o'lchovlari aslo miyasiga kirmadi. (Mirmuhsin).

?

Savol va topshiriqlar

1. Tasdiq so'zlarni ayting.
2. Inkor so'zlarni ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.
3. Bunday so'zlar qanday gaplarning javobi bo'ladi?

436-mashq. Uyga vazifa. «Otam bilan suhbat» mavzusida dialog tuzing. Unda tasdiq va inkor so'zlardan foydalaning, ularning tagiga chizing va ma'nosini tushuntiring.

90-mavzu. TAKLIF SO'ZLAR

1-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi va vazifasini aniqlang.

Yigit qiyg'os pishib turgan shaftoli shoxidan besh-oltita shaftolini uzib oldi-da, qizga tutdi.

-Mang.



Bilib oling. *Ma, mang, marhamat* singari so'zlar so'zlovchining, tinglovchiga, ma'lum harakat-holatni bajarishga yoki ma'lum narsani olishga taklifini ifodalaydi.

Ma, «senlash», *mang* esa «siz»lash shaklidir. Masalan, *Ma, ol – Mang, oling.*

Bunday so'zlar dialogik nutqda alohida gap bo'lib kelishi mumkin.

Taklif so'zlar gap tarkibida kelganda gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun vergul bilan ajratib yoziladi.

437-mashq. Matnni o'qing. Taklif so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Taklif so'zning tagiga chizing.

1. Keyin bizga ko'zi tushib qolib: -Qani, bu yoqqa kel!-dedi. (G'afur G'ulom) 2. – Ma, jonivor, ma! Kiyik undan qochmaydi. U tutgan o'tga bo'ynini cho'zib kelaveradi. (Said Ahmad). 3. Qani bo'lmasa, tingla, o'g'ilcha, -deydi chol va yo'talib o'z tarixigi boshlaydi.

4. –Ma, Ra'no...

-Men yemayman.

-Men ham senga yegin demayman. Ra'no o'z yonidagi g'ujumlarni yig'ib Anvarga berdi:

-Mana, uzum yesangiz... (Abdulla Qodiriy)



438-mashq. Taklif so'zlar ishtirok etgan gaplarni toping va daftaringizga yozing.

1. – Marhamat, marhamat, mehmon! Maktubingizni olib, yo'lingizga intizor edik!.... (Asqad Muxtor)

2. Mana, sehrli yonar tosh, qora angisht chiqibdi, balki xazinalar bordir, ohular bordir. (Asqad Muxtor)

3. Tun uzoq, uxlay qol,

Ko'zlaringni yum,

Orom ol, men senga

Allalar aytay,

Tongda peshonangda

O'pib uyg'otay. (E.Vohidov)

4. – Mang, Abdusalom aka, ikki ming. (E.Vohidov)

5. Vali, ma non! (O'.Hoshimov)

6. Mana, hozir tilimning uchida turibdi. (X.To'xtaboyev)

439-mashq. Berilgan so'zlarni turkumlarga ajrating va jadval tuzib, joylashtiring.

Attang, faqat, shuning uchun, barakalla, marhabo, hormang, shaksiz, xullas, mang, chunki, assalomu alaykum, nahotki, ma, marhamat, ammo, balki, demak, chamasi.

Φ **440-mashq.** Ma, ol, mang, oling, marhabo, marhamat so'zlarini qatnashtrib 6 ta gap yozing. Ular qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

441-mashq. Nuqtalar o'niga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib gaplarni yozing. Bular qanday so'zlar ekanini tushuntiring.

1. Zebi xola derazadan boshini suqdi. – (marhamat, eh, ma), bolam, yeb ol, uyalma. (O'.Hoshimov) 2. (Ma, afsus, mang), qizim, yaxshi kunlaringizga buyursin, taqib oling. 3. – (ma, marhabo, mang) oling, tog'da sovuq bo'ladi! – deb xuddi o'zinikidek paxtalikni tashladi. (Asqad Muxtor) 4. - (mang, ma, marhamat)...., shahzoda, bugun sizni mutlaqo qarovsiz qoldirdik. (Asqad Muxtor) 5. (ma, marhamat, o'h-ho') ol, bu mendan ko'ra senga ko'proq asqotadi. 6. – Keling, keling, shahzoda, - (shubhasiz, xullas, marhamat)! Tashvish bilan bo'lib sizga qarolmay ham qoldim.... (Asqad Muxtor)

?

Savol va topshiriqlar

1. Taklif soʻzlar haqida gapiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Nima uchun ular taklif soʻzlar de-yiladi.

442-mashq. Uyga vazifa. «Mehmonda» mavzusida dialog tuzing. Unda taklif soʻzlardan foydalaning. Ularning mazmunini tushuntiring.

91-mavzu. MUSTAHKAMLASH DARSI

?

Takrorlash uchun savollar

1. Yuklama deb nimaga aytiladi?
2. Yuklamalarning turlari haqida aytib bering.
3. Undov soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.
4. Taqlid soʻzlarning tuzilishi va imlosi toʻgʻrisida gapirib bering.
5. Modal soʻzlarga misollar keltiring.
6. Tasdiq va inkor soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.
7. Taklif soʻzlar deb nimaga aytiladi?

1-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan yuklamalardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchiring.

Mendan keyin dunyoni suv bossa ham ishim yoʻq deyidiganlar-....? Ulardan hech narsa qolmaydi-....

-Qoladi! Ular xudbinlik, rohatparastlik mikroblarini meros qilib qoldiradi. Odam istasa...., istamasa.... oʻzidan keyin nimanidir qoldiradi. har bir kishi ota-onasidan, xalqdan, vatanidan juda koʻp narsani meros qilib oladi-....! Nuqul isteʼmolni oʻylagan odam shu merosni kemirib yotib, barakasini oʻchiradi, lekin yaratuvchi ketadi. (P.Qodirov).

Yuklamalar:-ku,-chi-ham,-ku, axir.

2-topshiriq. Gaplarni imlo qoidalariga rioya qilgan holda koʻchiring. Yuklamalarning yozilishiga diqqat qiling.

1. Kimsan akam birpas qarab turdi (-da), indamay chiqib ketdi. (Oʻ.Hoshimov). 2. Tolibjon kula-kula, xoʻp dedim (-ku),-dedi. 3. -Slovar senga yoqdi (-mi), axir?-Yoqdi. (Abdulla Qahhor) 4. Biz uni changalzor botqoqlikdan chiqolmaydi, deb oʻylagan edik. Chiqibdi (-mi,-a)? 5. Muzaffar eshikni sharaqlatib ochib, pastga tushdi.

-Toshkentdagi Rasul degan ogʻaynimning uyini bilasan (-a)?

-Qaysi Rasuv? Anovi kamgap professor (-mi)?

-Oʻsha! Mana bu xatni ertalab oʻshanga yetkazasan.

-Siz (-chi)?

-Men bilan ishing boʻlmasin! Bu yogʻi yaqin, oʻzim piyoda ketaman. (O.Yoqubov)

3-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida ogʻzaki gaplar tuzing.

Oh, xayr, nahotki ey, kisht, ofarin barakalla, obbo, iye, ehhe, hatto, milt-milt, sharaq-shuruq, voy, qo-yil, tiq, dagʻ-dagʻ, ham, hattoki, beh-beh

undov soʻzlar	taqlid soʻzlar	modal soʻzlar

4-topshiriq. Tagiga chizilgan soʻzlarga izoh bering, ularning nutqdagi ahamiyati haqida soʻzlang.

1. Qur-ey! Qur-ey! Jimgina quloq soldi. «Ba-a» degan javob yoʻq. (S.Anorboyev) 2. Rustamga dadasi oʻyinchoq samolyot olib berdi. U samolyotni koʻtarib «gʻuv-v-v-v» deb hovlining u boshidan bu boshiga yugura berdi. (H.Ahrorova) 3. Hassa doʻq-doʻq qilyapti, Buvijonim kelyapti. (T.Ilhomov) 4. Tulki lip etib iniga kirib ketibdi. (Ertakdan)

5. -Gʻozlar bir soʻz deysizmi? -Nega patni silaysiz?

-Gʻa-gʻa-gʻa! -Gʻoq -gʻoq-gʻoq.

-Totli sulii yeysizmi? -Mendan nima tilaysiz?

-Ha-ha-ha! -Boq, boq,boq.
(Anvar Obidjon)

5-topshiriq. Oʻqing. Taqlidiy soʻzlarni topib, ularga izoh bering.

1. Ataylab Yangibozordan bir xoʻroz olib kelaman. U juda rangdor, patlari yalt-yult qiladi., qip-qizil, tojlari kelishgan, sersavlat. (Oybek) 2. Shu payt yertoʻlaga ship etib mushuk kirganini koʻrib qoldi. (D.Mahmudova) 3. Kuchuk qushni «xap» etib ilib oldi. (O.Olimov) 4. Daryodan esayotgan nasim jimir-jimir etayotgan harorat bilan ayqashib, dabdurustdan garmselga aydlanadi. (A.Qosimov)

5. - Hoy, chopagʻon bulutlar,
Yogʻsangiz-chi duv-duv.
Gul bogʻimga, dalamga
Juda kerak suv-suv. (B.Yusupov)

6-topshiriq. Oʻyga vazifa. Lapang-lapang, hoy, aftidan, xullas, qiy-chuv soʻzlari ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

92-93 darslarda diktant va uning tahlili oʻtkaziladi.

94-darsda testlar ustida ishlanadi.

95-mavzu. OLMOSH YUZASIDAN OʻTILGANLARNI TAKRORLASH

?

Takrorlash uchun savollar

1. Olmosh qaysi soʻz turkumlari oʻrnida almashib kelishi mumkin?
2. Kishilik olmoshlari qaysilar?
3. Oʻzlik olmoshining grammatik xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. Soʻroq olmoshlariga misollar ayting
5. Belgilash olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.
6. Gumon olmoshlari deb nimaga aytiladi?
7. Boʻlishsizlik olmoshlari qaysilar?


443-mashq. Matnni o'qing, undagi g'oya to'g'risida bahslashing. Olmoshlarni topib, izohlang.

Sizga ta'zim, onajon! Ona-Yer, ona-Quyosh, Sizlarga ta'zim! Menga to'yib-to'yib kuladigan, yig'laganda esa to'yib-to'yib yig'laydigan qalb ato etdingiz.

Hech qachon kulgiM ham, yig'im ham soxta bo'lmaydi, hech qachon kemptik baxtni baxt demadim, birovlardan qolgan-qutgan baxt bilan kifoyalana beradiganlar qatorida hech qachon turmadim. Kulganda dunyoni kulgiga, yig'laganda dunyoni yig'iga to'ldirdim.

Sizga ta'zim, onajon! Sizlarga ta'zim ona-Yer, ona-Quyosh! (Yo'ldosh Sulaymon)

 **444-mashq.** Kishilik olmoshlari vositasida zinama-zina ko'tarilib "Ofarin" maqtoviga sazovor bo'ling. Olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing.



445-mashq. Gaplarni o'qing. Olmoshlarni toping, ularga egalik va kelishik qo'shimchalarining qo'shilishiga diqqat qiling.

1. Ularning ba'zilari akamning o'rtoqlari edilar, men bilan so'rashdilar. (A. Qodiriy) 2. Biz-yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketamiz. (G'afur G'ulom) 3. Hotamjon jilmaydi:-Biz tomonlarda deyarli dim. (O'.Umarbekov) 4. Yuringlar-dedi kampir o'rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi:-Sen ham yur, shirin bola. (O'.Umarbekov) 5. Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. (X.To'xtaboyev)

446-mashq. Olmoshlarni aniqlang. Ularning gapdagi vazifalarini belgilang.

1. Belingni bog'la, g'ayrat birla mehnatga muhabbat qil, O'zingni, mehnatingni o'zga yalqovlarga ibrat qil (Habibiy) 2. O'zgalar g'amini chekmasa odam, unga noloyiqdir inson degan nom. (Sa'diy) 3. Xudbinlik o'z-o'zini qatl qilishdir. U yakka, mevasiz daraxtga o'xshab qurib ketadi. (I.Turgenev) 4. Agar sen havoni to'yib-to'yib shimiray desang, tongda derazangni kengroq och! (Otalar o'gitidan) 5. Har kim o'z qilmishiga yarasha jazosini oladi. (Maqol)

447-mashq. She'rni o'qing, undagi g'oya haqida suhbatlashing, olmoshlarni topib, izohlang.

Sizga buyuk hurmat-farzimizdir bu,
Otalar, nomingiz azizdir bizga.

Biz uchun sharaflı vazifadir shu:
Dildan xizmat etmoq bir umr sizga.

(H.Husaynzoda)

448-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi bayt asosida matn tuzing. Unda ishlatgan olmoshlaringizga izoh bering.

Soʻzchi holin boqma, boq soʻz holini,
Koʻrma, kim der oni, koʻrgin kim ne der.

(Alisher Navoiy)

96-mavzu. EGALIK SHAKLLARI VA KELISHIKLAR YUZASIDAN OʻTILGANLARNI TAKRORLASH

?

Takrorlash uchun savollar

1. Egalik shakllari va ularning imlosi haqida soʻzlab bering.
2. Sifatdosh va harakat nomlariga egalik qoʻshimchalarini qoʻshing
3. Kelishik deb nimaga aytiladi?
4. Qaratqich kelishigi haqida soʻzlab bering.
5. Tushum kelishigining belgisi va belgisiz ishlatilishiga misollar keltiring.
6. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasining imlosi toʻgʻrisida soʻzlab bering.
7. Oʻrin-payt kelishigi qaysi oʻrinlarda ishlatiladi?
8. Chiqish kelishigidagi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

 **449-mashq.** Matnni oʻqing. Egalik va kelishik qoʻshimchalari va ularning imlosini tushuntiring.

Ona tiliga doir hamma yozuvlarni chiroyli yozadigan, bu darsdan hamisha aʼlo baho oladigan boʻldim. Keyinchalik shuni payqadimki, qaysi darsni chiroyli yozmasam, oʻsha darsdan pastroq baho olar ekanman. Men avvallari "Bu darsni xushlamaganim uchun chiroyli yozishga hafsala qilmasam kerak", deb oʻylagan edim, yoʻq, chiroyli yozishga urinib qayta-qayta koʻchirish darsni yaxshiroq oʻzlashtirishga yordam berar ekan.

Shundan keyin boshqa darslarni ham chiroyli yozishga, darsda shoshib yozgan yozuvlarimni chiroyli qilib koʻchirishga harakat qiladigan boʻldim. Bora-bora shunga odatlanib qoldim: hamma darsdan aʼlochi boʻldim.

(Abdulla Qahhor)

450-mashq. *Beshik, bogʻ, men, sen, u, bu, oʻsha, pishloq, eshik, bugʻ, tigʻ, pichoq, oshqovoq, timsoh, choh, oʻrik, bayroq* kabi soʻzlarga *-ni,-ning,-ga,-ka,-qa,-da,-dan* qoʻshimchalarini qoʻshib koʻring. Ulardan qaysilarida tovush oʻzgarishlari boʻlayotganiga eʼtibor bering.

451-mashq. Matnni koʻchiring. Kelishik va egalik qoʻshimchalarining tagiga chizing, ularni izohlang.

Tabiatning donoligiga tan bermay ilojing yoʻq. Hamma narsaning oʻlchovi bor. Daqiqa-daqiqasi-yu, soniya-soniyasi oʻlchab qoʻyilgan. Yozda kun uzun, tun qisqa. Qishda kun qisqa, tun uzun. Nega? Doʻppingni tizzangga qoʻyib, chakkangni qashlab, bir oʻylab

qarasang-bir buyuk hikmatga duch kelasan. Ya'ni, hamma narsa inson uchun, hamma narsa yer yuzida qimirlagan jon uchun ekaniga iqrar bo'lasan. Alloh bog'bonning mevasi pishsin, dehqonning ekini ko'proq oftobdan bahramand bo'lsin deb yorug' kunni uzaytirib qo'ygan. qish tunlari juda uzun.... Ona zamin toliqib uyquga bosh qo'ygan. Tabiat uning ustiga oppoq ko'rpsini yopib: "Miriqib uxlab, orom ol!"-deyapti.

(Said Ahmad)

Φ 452-mashq. Quyida berilgan so'zlar ichidan egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakda tovush o'zgarishi ro'y beradiganlarini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yurak, uy, qishloq, nok; bog', singil, shahar, yurt, o'g'il, qiz, bilak.

453-mashq. Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring, ularga izoh bering.

Bobur sandiqdan oq ipak matoga o'ralgan qilichni oldi.

-Humoyun, o'g'il, mening qancha umr... qolgani xudoning o'ziga ayondir. Sohibqiron bobokalon... ning mana shu qilich...ni endi sen taqmog'ing kerak. Bu qilichga "Kuchadolatdadir" degan so'zlar bitilgan. Doim odil bo'lgin-u mag'lub bo'lmagin!

Bobur qilichni o'g'il...ga ikki qo'llab uzatdi. Humoyun tabarruk qilichni tiz cho'kib oldida, uning muqaddas yozuv bitilgan joyini ko'zlar... ga surtib o'pdi.

(P.Qodirov)

454-mashq. Uyga vazifa. "Ajdodlarimiz ruhi hamisha bizga yod" mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan egalik qo'shimchalarini izohlang.

97-mavzu. YORDAMCHI SO'ZLAR YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Takrorlash uchun savollar


1. Ko'makchi deb nimaga aytiladi?
2. Sof va vazifadosh ko'makchilarga misollar ayting.
3. Ko'makchilarning qo'shimchalar bilan ma'nodoshligi deganda nimani tushunasiz?
4. Qaysi ko'makchilar bosh va qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan kela oladi?
5. *Tomon, qarab, binoan, ko'ra, qaraganda* ko'makchilari ishtirokida gaplar tuzing.
6. *Keyin, so'ng, ilgari, tashqari* ko'makchilari ishtirokida so'zlarni bir-biriga bog'lang va ularni izohlang.
7. Bog'lovchi deb nimaga aytiladi?
8. Teng bog'lovchilar qaysilar?
9. Yakka va takror bog'lovchilarga misollar ketiring.
10. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ishtirokida gaplar tuzing.
11. Yuklama deb nimaga aytiladi?
12. Yuklamalarning turlari haqida so'zlab bering.

455-mashq. Qavs ichida berilgan yordamchi so'zlardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Yordamchi so'zlarga izoh bering.

Millatning kelajagi bugundan boshlanadi. O'zligini anglamagan, manqurtlik (beri, tomon, ko'ra) ketayotgan odamlar bilan yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi. Ma'naviyati yuksak insonlar (nahotki, nafaqat, agar) o'z davri rivojiga (-ki,-balki, shuning uchun), millat kelajagi (hamda, yoki, yoxud) ravnaqiga ham munosib hissa qo'shadi.

Ma'nan boy, ruhan komil insonlargina ozod (bilan, ham va) obod Vatanni qurishga qodirdirlar. (Y. Do'stmatova)

Φ 456-mashq. O'yinimiz «Bir bosh uzum» deb nomlanadi. Doiralarda ichida berilgan harflar bilan boshlanuvchi bog'lovchilarni toping, ular yordamida "bir bosh uzum" yasab sinfdoshlaringizga sovg'a qiling.



Axir, buyon, vaholanki, demak,-dir, ko'ra, dam-dam, biroq, va,-ki, kabi, yohud, faqat, hamda, chunki, na-na, ammo, tomon, toki, lekin, hatto,-chi, yorab, nihoyat, hattoki.


457-mashq. Matnni o'qing, yordamchi so'zlarni topib, ularni izohlang.

Shirinchoy oqshomlari! Naqadar jozibador, naqadar orombaxsh!... Quyosh qizil baxmal kabi tovlanib, o'zini azim chinorlar panasiga olganda, bu yerdagi oqshomlar ko'hna tabiat ko'rki-tongdan ham musaffo bo'lib ketadi. Go'yo butun qishloqqa atlas poyondoz solinganday. Keng ko'chalar ham, qator oq uylar ham, oldi gulzor klub ham goh sariq, goh qizg'ish tusga kirib qishloq husniga husn qo'shadi. Bu yerning odamlari-chi? Ular orombaxsh oqshomlardan ham go'zal. Bu odamlar bilan suhbatlashib to'yaysan. Ular uddasidan chiqmagan ish yo'q, shuning uchun ham lablarida doim tabassum, ko'zlarida sevinch, ular tongni ham, tunni ham qo'shiq bilan qarshi olishadi.

(O'.Umarbekov)

458-mashq. "Manzilga kim birinchi bo'lib yetadi?" o'yinini uyushtiring. Yuklamalar vositasida to'siqlar osha manzilga yo'l oling.

1. chunki x faqat x ammo x boshqa x hatto x hamda
2. -mi x toki x xuddi x -chi x oldin x axir
3. deb x biroq x ilgari x so'ng x va x uchun



459-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ular tarkibida kelayotgan yordamchi so'zlarni topib, ma'nolarini tushuntiring.

1. Tabiatga qo'pol ravishda aralashish natijasida paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. (Tohir Malik) 2. Maktabga borayotib papkamni ochdim-da, konvertni qo'limga oldim. Xuddi xat tashiydigan samolyotga o'xshab, qo'llarimni yoyib, maktabga qarab chopdim. (P.Qodirov) 3. Komil bosh irg'adi:-Havo ochilyapti-ku!-Ochilishga ochilgan-u, ammo lekin ayoq... (O.Yoqubov) 4. Ba'zi kunlar bo'ladi, qovog'idan qor yog'ib turadi, buning ustiga yana o'n besh-yigirma daraja sovuq ham bo'ladi-yu, biroq odamga xush yoqadi. (N.Fozilov) 5. Aql-idrok, ilm-hunar-bular mehnat bilan topiladigan va kamol topadigan narsalardir. (Otalar o'giti)

460-mashq. Uyga vazifa. Jadvalni to'ldiring. Yordamchi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ko'makchilar	Bog'lovchilar	Yuklamalar

Qarab, avval, garchi, shuning uchun, ko'ra, muvofiq, oldida, ba'zan... ba'zan,-gina, hattoki, yoki, -chi,-a,-ya, binoan, shu sababli, -ki, garchand.

98-mavzu. UNDOV, TAQLID VA MODAL SO'ZLAR YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

?

Takrorlash uchun savollar

1. Undov so'zlar deb nimaga aytiladi?
2. His-hayajon va buyruq-xitob undovlariga misollar keltiring.
3. Nutqiy odat undovlari qaysilar?
4. Modal so'zlar deb nimaga aytiladi?
5. Tasdiq va inkor so'zlarga misollar ayting.
6. Taklif so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
7. Sof va vazifadosh modal so'zlar deganda nimani tushunasiz?

461-mashq. G'.G'ulomning "Shum bola" qissasidan olingan gaplarni o'qing. Tagiga chizilgan so'zlarga izoh bering.

1. "Chir-chur" hushtakbozlik 2. -Balli, yigitlik shunday bo'пти-da, aka,-dedim. 3. Hamma gurs etib o'rnidan turib, bizga qo'l qovushtirib salom berdi. 4. Omon menga javob bermasdan "qurey"i ... bilan ovora edi. 5. Rahmat, aka, bu yaxshiligingizni o'lgunimcha unutmaman. 6. To'g'ri,-dedi qo'shko'zoynakli usta Mirsalim, ba'zan anglashilmovchiliklar ham bo'lib turadi. 7. Chunonchi, o'tgan -yili Zangi ota sa-yilida ham shunday voqea bo'пти.

 **462-mashq.** Gaplarni ko'chiring, undov so'zlarni topib, ularni izohlang.

1. Obbo! Kech tushib qolibdi-ku! Axir, uydan chiqqanimizda peshindan o'tgan edi. (Sh.Xolmirzayev) 2. Oh, qadrdon qalpoqcham, jonimning huzuri, maslahatgo'yim! Sen borsan, g'am-tashvishim yo'q, qornim to'q, ustim but. (X.To'xtaboyev) 3. Voy-bo'y!-deydi bir nechalari bir og'izdan. Tosh akani, Toji akani bilamiz... (Oybek) 4. -gi, nima gap?-dedi u ajablanib. (Yo'ldosh Sulaymon) 5. Chol ko'zlari yumuq, boshini quyi solib o'tiradi. -Bay-bay! Fuzuliy ajoyib shoir-da!-deydi. (G'.G'ulom)

463-mashq. Modal soʻzlarni aniqlang. Ularning qanday maʼno anglatayotganiga eʼtibor bering.

1. Alqissa, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar toʻda boʻlishib maslahat qildilar. (Dostondan) 2. Afsuski, endi men ketishim kerak. (Asqad Muhtor) 3. Uy egasi Otabekdan soʻradi:-Hikoyam uzayib ketdi, shekilli, zerikmadingizmi? (Abdulla Qodiriy) 4. Xullas, kayfim chogʻ edi. Xursand holda ashulani vang qoʻyib uyga qaytardim. (X.Toʻxtaboyev) 5. Bitta inson qorasini koʻrsam, der edim... Nihoyat, unday inson ham koʻrindi. (Sh.Xolmirzayev)

Φ 464-mashq. Soʻzlarni bir-biriga bogʻlang. Holatga taqlid soʻzlar vositasida manzilga birinchi boʻlib yeting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

evoh	gumbur	taraq-turuq	jimir-jimir
lip-lip	eh	yalt-yult	dagʻ-dagʻ
jarang	milt-milt	dod-voy	balli

465-mashq. Gaplarni oʻqing. Taqlid soʻzlarni topib, ularning maʼnolarni izohlang.

1. Akram qafasni sekin ochdi. Kaklik oʻzicha "qiyq" deb qoʻydi. (P.Qodiriy) 2. Yoʻgʻon kishi xuddi gʻozga oʻxshab "gʻat-gʻat-gʻat" qilib kuldi. (Abdulla Qahhor) 3. Bir vaqt yangi tutib kelgan bedanam! Vo-vah! Vo-vah!-Nuriddin tevaragiga hayajon bilan boqdi. -Xuddi deng tovushi toshni yoradi. (S.Anorboyev) 4. Qoʻchqor chinakam choʻponlarday hushtak chalib:-Qurr, hayt!-deya hayqirdi... (S.Anorboyev) 5. Lampochkalar "milt-milt" yonib-oʻchar edi. (A.Muqimov) 6. Hammamiz qah-qah urib kulishdik. (Gʻafur Gʻulom)

466-mashq. Uyga vazifa. Sheʼrni yodlang. Tagiga chizilgan soʻzlarga izoh bering.

Duv-duv uchib keldi qushchalar,
Darak berib goʻzal bahordan.
Uya qurdik, qoʻnib, yayrashib,
"Chogʻ-chogʻ"lashar, sayrar nahordan.
Balki bizga salomidir bu,
Rahmat degan kalomidir bu.

(N.Toshpoʻlatov)

99-darsda testlar ustida ishlanadi.

100-mavzu. ASOSIY ATAMALAR USTIDA ISHLASH

izoh: 146-147 betlardagi atamalar ustida ishlanadi.

101-mavzu. ISH QOGʻOZLARI USTIDA ISHLASH

Fargʻona viloyati Yozyovon
tumanidagi 32-oʻrta maktab direktori
X.Raxmonovaga 9-sinf oʻquvchisi
Odiljon Karimovdan

ARIZA

Ota-onam bilan birga YOzyovon tumani Yangiobod qishlog'iga doimiy yashash uchun ko'chib kelganimiz sababli, meni maktabning 9-sinfiga qabul qilishingizni so'rayman.

2005 yil 10.01.

(imzo) O. Abdullayev

FarDU filologiya fakultetining 3-kurs talabasi
1985 yilda tug'ilgan, o'zbek Xolidaxon
Xolboevaga

TAVSIFNOMA

Xolidaxon Xolboeva o'rta maktabni tugatgach, 2002 yilda filologiya fakultetining 1-kursiga o'qishga kirdi.

Universitetda o'qish davomida u intizomli, ziyrak, zukko va tirishqoq talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qildi. Tilshunoslik fanlariga alohida qiziqdi. U 2003 yilning arel oyida talabalarning Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasida ma'ruza bilan qatnashdi. Ma'ruzasi konferentsiyaning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

X.Xolboeva fakultetning jamoat ishlarida faol qatnashadi, fakultetning «YOsh tilshunos» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarin va to'g'riso'zligi, do'stlariga mehribonligi sababli hamkurslari hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma O'zбекиstan shahar hokimiyatiga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan:

(imzo)

M.Hakimov

Kasaba uyushmasi
raisi:

(imzo)

I.Yuldashev

(muhr)

(sana)

ISHONCHNOMA

Men Farg'ona shahar, Sohibqiron Temur ko'chasi, 37«a» uy, 8-xonada yashovchi Sayyora Xolboeva singlim Xolida Xolboevaga shaharinng 7-aloqa bo'limida mening nomimga kelgan ochta jo'natmasini olish uchun ishnoh bildiraman.

2005 yil 1 fevral

(imzo)

S.Xolboeva

S.Xolboeva imzosini tasdiqlayman.

Xodimlar bo'limi boshlig'i

(imzo)

X.Jo'raev

(muhr)

2005 yil 1 fevral

MA'LUMOTNOMA

Sohiba Oriova Farg'ona shahar Istiqlol 13-uy
37-xonadonda yashaydi.

Ma'lumotnoma Farg'ona Davlat universitetiga taqdim etish uchun berildi.

«Istiqlol» mahalla fuqarolar
yig'ini raisi:

(imzo)

Yu.Shokirov

Kotibi:

(imzo)

A.Xolmatov

O'quvchilarga berilgan namunalar asosida sinfdoshlariga ariza, tavsifnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma yozish topshiriladi.

Uyga vazifa. Oila-a'zolaridan biriga tavsifnoma yozib kelish.


102-mavzu. YAKUNIY DARS

Oxirgi dars "Til bog'iga sayohat" deb nomlanadi. O'qituvchi sinfni besh guruhga bo'ladi. Har bir guruhdan bittadan bola ajratib, ularni "Kirish", "Ot o'yin", "Charxpalak", "Sirpanish" va "Halunchalak" maydonlari uchun mas'ul etib tayinlaydi. Har bir mas'ul qo'lida beshtadan savollar to'plami bo'lib, guruhlar navbatma-navbat ularga javob topadi. Savolga to'g'ri javob topgan guruh maydonchaga kirish huquqiga ega bo'ladi.

I. "Kirish" uchun savollar. Quyidagi gaplar ichida olmoshlarni toping va ularga izoh bering.

1. Shu aziz Vatan barchamizniki. 2. O'z uyingni o'zing asra. 3. Sen ham Siz ham bir og'izdan chiqadi. 4. Do'stlikni hech qanday g'anim buza olmaydi. 5. Biz qanday go'zal yurtda yashaypmiz, qarang.

II. "Ot o'yin" maydonchasiga o'tish uchun savollar. Tohir Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" asaridan olingan gaplar tarkibida kelayotgan ko'makchilarni toping va ularga izoh bering.



1. Xuddi shu onda Yer kurrasi atrofida yo'ldosh kabi aylanayotgan yassi kema sayyoradan uzoqlashib, Somon yo'li tomon uchdi. 2. Bizga faqat bir narsa-yuksalish uchun ishlash, ishlash uchun yuksalish kerak. 3. Donishmand ikir-chikirlar bilan emas, ilm bilan mashg'ul bo'lishi kerak. 4. Yerdagi buloqlarni esladi. Quloqlari ostida suvning shildirishi eshitilib, entikdi. 5. O'zbekning donishmand allomalari bu qadar ko'p deb sira o'ylamagandim.

III. "Charxpalak" maydonchasiga kirish uchun savollar. Quyida berilgan so'zlar ichidan 1-guruh bog'lovchi, 2-guruh yuklama, 3-guruh ko'chmakchi, 4-guruh undov so'z, 5-guruh taqlid so'zlarni charxpalakka tartib bilan joylashtirsin.

So'zlar: keyin, biroq, toki, oh, taq-tuq, hamda, qoshida, iye, shivir-shivir, hatto, uchun, qaraganda,-kim, eh, singari, obbo, shu sababli, voy, milt-milt,-mi, qars, faqat,-qina, g'iyq, nahotki.

IV. "Sirpanish" maydonchasiga o'tish uchun savollar. X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridan olingan gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga yuklamalardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Iye, bu doktor-...! Maktabga kelib hammamizni emlab ketadigan doktor-...! 2. Yig'lama, qani yoshingni art-..., artting...? 3. Qarang-..., dadasi dedi To'xta xola. 4. Afanding ham o'zingga o'xshagan soddagina ekan-..., a? 5. E, qo'qonlik, qo'qonliklar... qani o'tiringlar-...

V. "Halunchalak" maydoniga o'tish uchun topshiriq. Tagiga chizilgan so'zlarning nimaga nisbatan taqlid qilinayotganligini toping va o'sha narsaning nomini nuqtalar o'rniga qo'ying.

1. Yaqinda shahardan Sobirning tog'alari keldi. Oq "...." da. Sobir rulga o'tirib olib, "bib-bib"latdi. (S.Mardiyev) 2. Ko'kka chiqdi..., Tun yuzini yoritib. Misoli tosh chiroqdek, Yonardi ular lip-lip. (S.Ochilov) 3. yeldek uchib borar, har zamonda: "Pu-pu-puuu",-deb qichqirib ham qo'yyapti. (X.To'xtaboyev) 4. dumini likillatdi-da, hurdi: "Vovo-vov! Vovvov! (I.Xolliyeva) 5. "duv" etib qochadi-yu, ko'p o'tmay yana uchib kelishadi. (P.Qodirov)

O'qituvchi darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi. 7-sinfda o'tilganlarni umumlashtirib, darsga yakun yasaydi.

ASOSIY ATAMALAR LUG'ATI

olmosh - o'zi atash ma'nosiga ega bo'lmagan, boshqa atash ma'nosini bildiruvchi so'zlar o'rnida, shuningdek so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar

sodda olmoshlar - faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar

qo'shma olmoshlar - ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar

juft olmoshlar - bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlar

takroriy olmoshlar - bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarish bilan (masalan, uncha-muncha) takrorlanishidan tashkil topgan olmoshlar

ismlar - egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar

lug'aviy shakl - ismlarning so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarsiz qismi

munosabat shakli - ismlarning egalik, kelishik, *-man,-san,-dir* qo'shimchalariga ega bo'lgan shakli

egalik qo'shimchalari - Ismlarga qo'shib, asos qismdan ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-ho'latlarning uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan qo'shimchalar

kelishik shakllari - ismlarni boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi shakllar

turlanish - ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi

qaratqich - qaratqich kelishigi shaklidagi so'z

qaralmish - qaratqich bog'lanib kelgan so'z

bog'lamalar - ot-kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi vositalar

mustaqil so'zlar - atash ma'nosiga ega bo'lgan (yoki atash ma'noli so'zlar o'rnida qo'llanuvchi) ma'lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar

yordamchi so'zlar - atash ma'nosiga ega bo'lmagan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zlar

ko'makchi - ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi *bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin* kabi so'zlar

sof ko'makchilar - atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa bir so'zga tobelashtirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar

vazifadosh ko‘makchilar - ayrim mustaqil so‘zlarning ko‘makchi vazifasida qo‘llanilishi

bog‘lovchi - gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar

teng bog‘lovchilar - uyushiq bo‘laklar va uyushiq gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar

vazifadosh bog‘lovchilar - bir o‘rinda bog‘lovchi, boshqa o‘rinda ko‘makchi, yuklama yoki modal so‘z vazifasida keluvchi yordamchilar vazifadosh bog‘lovchilar

biriktiruv bog‘lovchilari - uyushiq bo‘laklarni va uyushiq gaplarni o‘zaro biriktirib bog‘lovchi yordamchilar biriktiruv bog‘lovchilar

ayiruv bog‘lovchilari - o‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi hamda bu bo‘lak va gaplardan anglashilgan ma‘noning navbatma-navbat yuzaga chiqish- chiqmasligini bildiruvchi teng bog‘lovchilar

zidlov bog‘lovchilari - o‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab **keluvchi bog‘lovchilar**

ergashtiruvchi bog‘lovchi - o‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘lagi va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilar

yuklamalar - so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, ayirish – chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘shimchalar

bog‘lovchi-yuklamalar - ham bog‘lovchi, ham yuklama vazifasida keluvchi *–u (-yu), -da, na-na* yordamchilari

so‘roq yuklamalari - gapning mazmuniga so‘roq-taajjub ma‘nosini yuklovchi yordamchi so‘zlart

ayiruv-chegaralov yuklamalari - turli so‘z turkumlari bilan birga kelib, ularning ma‘nosini ayirib-chegaralab keluvchi yuklamalar

kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari - gapning ma’lum bir bo‘lagi yoki butun gap ma‘nosini kuchaytirib, ta’kidlab keluvchi yuklamalar

o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari -o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga o‘xshatish-qiyoslash ma‘nosini yuklovchi yordamchi so‘zlar

undov so‘zlar - kishilarning his-hayajoni, qo‘rquv-rohatlanish kabi buyruq-xitobini ifodalovchi so‘zlar

taqlid so‘zlar - narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar

taklif so‘zlar - so‘zlovchining, tinglovchiga, ma’lum harakat-holatni bajarishga yoki ma’lum narsani olishga taklifini ifodalovchi so‘zlar

modal so‘zlar - ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so‘zlar

TUSHUNILISHI QIYIN BO‘LGAN CO‘ZLAR LUG‘ATI

MUNDARIJA

Til va nutq.....	2
Fonetika bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	3
Imlo bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	4
Qo'shimchalar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	6
Leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	7
Fe'l so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	8
Ot so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	10
Sifat so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	11
Son so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	13
Ravish so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	14
Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi.	16
Ko'rsatish olmoshlari.....	18
Ko'rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi.....	19
Kishilik olmoshlari.....	21
O'zlik olmoshlari	23
So'roqolmoshlari.....	24
Belgilash olmoshlari.....	26
Gumon olmoshlari.....	27
Bo'lishsizlik olmoshlari.....	29
Olmoshlar o'rnida keladigan so'zlar.....	30
Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	32
Sodda va qo'shma olmoshlar hamda ularning imlosi	33
Juft va takroriy olmoshlar hamda ularning imlosi	34
Mustahkamlash darsi.....	36
Ismlarning munosabat shakllari	37
Ismlarining lug'aviy shakllari va munosabat shakllari	39
Egalik shakllari va ularning imlosi.....	41
Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo'shimchalarining vazifasi.....	43
Egalik qo'shimchali so'zlar imlosi.....	44

Mustahkamlash darsi.....	46
Kelishik shakllari.....	47
Bosh kelishik shakli.....	49
Qaratqich kelishigigi shakli	51
Tushum kelishigi shakli	53
Jo‘nalish kelishigi shakli	54
O‘rin payt keliigi shakli	56
Chiqish kelishigi shakli	57
Ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatin i bildiruvchi shakllar.....	59
Mustahkamlash darsi.....	61
Yordamchi so‘zlar.....	63
Ko‘makchilar.....	64
Sof ko‘makchilar	66
Sof ko‘makchilarning ma’no turlari.....	67
Vazifadosh ko‘makchilar.....	69
Ko‘makchilarining qo‘shimchalar bilana’nododoshligi.....	71
Vazifadosh ko‘makchilar bilan birga kelgan so‘zlarning imlosi.....	72
Mustahkamlash darsi.....	74
Bog‘lovchilar oaqida ma’lumot.....	75
Bog‘lovchilarning vazifasiga ko‘ra turlari.....	77
Teng bog‘lovchilar.....	79
Sof va vazifadosh bog‘lovchilar.....	81
Biriktiruv bog‘lovchilari.....	83
Ayiruv bog‘lovchisi.....	85
Zidlov bog‘lovchilari.....	87
Inkor bog‘lovchi-yuklamasi.....	89
Yakka va takror qo‘llanuvchi ayiruv bog‘lovchilar.....	91
Ergashtiruvchi bog‘lovchilar.....	93
Sabab bog‘lovchilari.....	95
Aniqlov bog‘lovchilari.....	97
Shart bog‘lovchilari.....	99
Mustahkamlash darsi	101
Yuklama haqida ma’lumot.....	102
Sof va vazifadosh yuklamalar.....	105
So‘roq va taajjub yuklamalari	106
Ayiruv-chegaralov yuklamalari.....	109
Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari.....	111
O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari.....	113
Gumon yuklamasi.....	114
Undov so‘zlar.....	117
His-hayajon undovlari.....	118
Buyruq-xitob undovlari.....	120
Nutqiy odat undovlari.....	122
Taqlid so‘zlar.....	124
Taqlid so‘zlarning tuzilishi va imlosi.....	126
Modal so‘zlar.....	128
Modal so‘zlarning ma’noviy guruhilari.....	130
Sof va vazifadosh modal so‘zlar.....	131
Tasdiq va inkor so‘zlar.....	133

Taklif soʻzlar.....	135
Mustahkamlash darsi.....	136
Olmosh yuzasidan oʻtilganlarni takrorlash.....	138
Egalik va kelishik shakllari yuzasidan oʻtilganlarni takrorlash.....	139
Yordamchi soʻzlar yuzasidan oʻtilganlarni takrorlash.....	141
Undov, taqlid va modal soʻzlar yuzasidan oʻtilganlarni takrorlash.....	143
Asosiy atamalar ustida ishlash.....	144
Ish qogʻozlari ustida ishlash.....	144
Yakuniy dars.....	146
Asosiy atamalar lugʻati.....	148
Tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar lugʻati.....	150